O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# MAKTABGACHA TA’LIM RIVOJLANISHINING YANGI IMPLUSLARI: ILMIY TADQIQOTLAR, TIJORATLASHTIRISH, RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2-kitob**





**Navoiy shahri,**
**28.09.2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# “MAKTABGACHA TA’LIM RIVOJLANISHINING YANGI IMPLUSLARI: ILMIY TADQIQOTLAR, TIJORATLASHTIRISH, RAQAMLASHTIRISH MASALALARI”

**mavzusidagi**
**xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2-kitob**

**Navoiy shahri,**
**28.09.2023**

“**Maktabgacha ta’lim rivojlanishining yangi impluslari: ilmiy tadqiqotlar, tijoratlashtirish, raqamlashtirish masalalari**” mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2023. – 192 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni hamda Oliy ta‘‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli buyrug‘iga asosida Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tomonidan 2023-yil 28-sentabr kuni o‘tkazilgan “**Maktabgacha ta’lim rivojlanishining yangi impluslari: ilmiy tadqiqotlar, tijoratlashtirish, raqamlashtirish masalalari**” mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrirlar:**

| | |
|---|---|
| B.Sobirov – | texnika fanlari doktori, professor. |
| R.Davlatova – | filologiya fanlari doktori, dotsent. |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| D.Lutfullayeva – | O‘zbekiston Fanlar akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori. |
| S.Sayitov – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi |

**Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

| | |
|---|---|
| Sh.O‘tamurodova – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| G.Ermatova – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| M.Azimova – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| D.Jabborova - | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| D.Ulug‘berdiyeva – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| N.Sharipova – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| N.Musayeva – | Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi |

**Texnik muharrir:**

| | |
|---|---|
| M.Norqobilov– | Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v/b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2023-yil 20-sentabrdagi 2-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

# MUSIQA TIL TANLAMAYDI

**Sh.M.O‘tamurodova ( O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
**M.M. Abduqayumova ( O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti, Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa tili dunyo musiqasida yagona til ekanligi to‘g‘risida misollar keltirilgan. Xalqlarning milliy cholg‘ulari va ularning vazifalari bir xilligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada internet-ijtimoiy tarmoqlarining rivoji, barcha millatlarning o‘zaro musiqiy madaniyatini o‘rganishiga qulaylik yaratgani aytilgan.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, dunyo, til, cholg‘u, universal, millat, kuy, internet tarmog‘i.

**Аннотация:** в данной статье представлены примеры того, что язык музыки является единственным языком в мировой музыке. Даны сведения о национальных инструментах народов и сходстве их функций. В статье отмечается, что развитие Интернета и социальных сетей облегчило всем народам знакомство с музыкальной культурой друг друга.

**Ключевые слова:** музыка, мир, язык, музыкальный инструмент, универсальность, нация, мелодия, Интернет.

**Abstract:** this article presents examples of the fact that the language of music is the only language in world music. Information is given about the national instruments of the peoples and the similarity of their functions. The article mentions that the development of Internet and social networks has made it easier for all nations to learn about each other's musical culture.

**Key words:** music, world, language, musical instrument, universal, nation, melody, Internet.

Dunyo yaralgan paytda, butun borliqqa hamohang tarzda musiqa ham yaralgan. Musiqa tabiat bilan ham uzviy bog‘liq hisoblanadi. Uni qushlarning sayrashida, suvlarning jildirab oqishida, chigirtkalarning chirillashida, shamol esishida eshitishimiz mumkin. Har bir jonzot ham o‘ziga xos ovozga ega. Shu bilan birga, insoniyat ham ibtidoiy davrlardan beri musiqadan o‘zaro xabar almashish, bir-birini xavfdan ogohlantirish, hayvonlarni haydash uchun va shu kabi vazifalarni bajarishda foydalanib keladi.

Diniy tarafdan qarasak, insonning ruhi ham musiqa bilan kiritilgan ekan. Musiqa insoniyatning ajralmas qismi ekanligiga yana bir rad etib bo‘lmas misol alladir. Odamzod dunyoga kelar ekan, alla bilan ulg‘ayadi, kamol topadi. Onajonlarimiz orzu-umidlarini, mehr-muhabbatlarini alla orqali bizga singdirishadi.

Bilamizki, yer yuzining har bir nuqtasida musiqa yangraydi. Har bir davlatning o‘ziga xos san‘ati, madaniyati, musiqasi, shuningdek, cholg‘u asboblari shakllangan. Ular bir-biridan ovoz imkoniyatlari, ko‘rinishi, nomlanishi jihatidan farq qiladi va shu bilan bir paytda bir-biriga juda o‘xshab ketadi. Masalan, o‘zbek xalq cholg‘ularidan sanalgan dutor, Rossiyaning milliy cholg‘u asbobi balalaykaga o‘xshab ketadi. Rossiyada keng tarqalgan qadimgi torli cholg‘u- gusli, arfani eslatadi va u hozirgi zamonaviy orkestrlarda keng qo‘llaniladi. Yana bir misol Moldaviya davlatining xalq cholg‘usi fluturadir. Bu asbob o‘zbek nayiga o‘xshaydi. Qadimda naydan ko‘pincha cho‘ponlar qo‘y-qo‘zilarni haydash, qaysidir ma‘noda hordiq chiqarish uchun foydalanganlar. Moldaviyada fluturadan ham chorva mollarini podaga haydash uchun foydalanishar ekan. Shunga o‘zshash misollarni juda ko‘p sanash mumkin.

Darhaqiqat, musiqa ham til, millat, davlat tanlamaydi. Buni ko‘p taniqli insonlar ta‘kidlab o‘tishgan. Ulardan biri, nemis yozuvchisi Bertold Averbax shunday deydi: “Musiqa yagona dunyo tili, uni tarjima qilish shart emas...”.

Dunyoga mashhur rus kompozitori Pyotr Ilich Chaykovskiy esa shunday talqin qiladi: “Qayerda so‘zlar kuchsiz bo‘lsa, yanada ravon til, musiqa to‘liq qurollangan bo‘ladi”. Mashhur musiqachi Genri Uodsvort Longfello ham musiqa haqida “Musiqa insoniyatning universal tilidir”- deydi.

Haqiqatdan ham, musiqa insoniyatning universal tili! Tasavvur qilaylik, agar o‘z sohasini yaxshi bilgan biror musiqachi boshqa davlatga borsa va o‘sha davlatning orkestrida yoki ansamblida ijro qilishiga to‘g‘ri kelib qolsa, bemalol notalarni o‘qib, chalib ketaverishi mumkin. U inson xoh o‘zbek millatiga mansub bo‘lsin, xoh ingliz bo‘lsin, u bundan tashqari o‘z kunini ko‘rib, non topib yeya oladi, xor bo‘lmasligi mumkin.

XXI asr-axborot asri ekan, yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir video juda mashhur boʻldi va koʻpchilikning eʻtiborini tortdi. Videoda italiyalik mashhur qoʻshiqchi Marcello Ma Oʻzbekiston xalq artisti Botir Zokirovning “Raʻno” asarini maromiga yetkazib kuylabdi. Oʻzimizning oʻzbek qoʻshiqchilarimiz ham, boshqa davlatlarning qoʻshiqlarini sevib, maromiga yetkazib ijro etishmoqda. Bu kabi misollar talaygina. Musiqa insonlar orasida aniq bir til tanlamaslini, uni chegaralab boʻlmasligini xulosa qilish toʻgʻri boʻladi.

Bugungi kunda inson istagan musiqiy ohangni izlab topishi mumkin. Buning uchun barcha imkoniyatlarni internet-ijtimoiy tarmogʻi yaratib bergan. Shunday ekan, bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ularni oʻrganish va yosh avlodga oʻrgatish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Sami Aziz oʻgʻli, Nuriddin Azizov, Fayoz Azizov Musiqaning elementar nazariyasi “Nafas” nashriyoti, -Qarshi, 2005-y. 185 b.
2. Qahharov N.B. Vokal asoslari “Iqtisod-moliya” 2008-y. 314 b.
3. https://youtu.be/evzuG0vX9j4


## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHGʻULOTLARINI TASHKIL ETISH


**M.S. Muxitdinova (Chirchiq, Oʻzbekiston)**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta oʻqituvchisi
*m.muxitdinova@cspi.uz*
**D. I. Muminova (Chirchiq, Oʻzbekiston)**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2-kurs talabasi.



**Annotatsiya:** Maqolada turli yoshdagi bolalar bog'chasi guruhida musiqiy ta'lim jarayonini tashkil etish muammosi ko'rib chiqiladi, musiqa darslari va o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari ta'kidlanadi. Mualliflar maktabgacha ta`lim tashkilotlarida musiqa rahbariing oʻrni va musiqa mashgʻulotlarning samaradorligini ta`minlovchi omillar haqida soʻz yuritadilar.



**Tayanch soʻzlar:** maktabgacha ta’lim, musiqa ta’limi, musiqa rahbari, musiqa mashgʻulotlarini rejalashtirishning oʻziga xos xususiyatlari.



**Аннотация:** В статье рассматривается проблема организации процесса музыкального воспитания в группе детского сада разного возраста, выделяются особенности музыкальных занятий и игр. Авторы говорят о роли музыкального руководителя в дошкольных образовательных организациях и о факторах, обеспечивающих эффективность музыкального обучения..



**Ключевые слова:** дошкольное образование, музыкальное образование, музыкальный руководитель, особенности планирования музыкальных занятий.



**Abstract:** The article deals with the problem of organizing the process of musical education in a kindergarten group of different ages, highlights the features of musical classes and games. The authors talk about the role of the music director in preschool educational organizations and about the factors that ensure the effectiveness of music education.



**Keywords:** preschool education, music education, music director, features of planning music classes.


Musiqaga yoshlikdan uyg’ongan qiziqish kishining keying musiqiy rivojida kuchli ta’sir o’tkazadi, yaxshi musiqaviy didini shakllanishini ta’minlaydi, boshqa ko’nikmalarni, shuningdek tassavvurni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va ma’naviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqaning bola tasavvurlarini shakllanishida, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirni hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to’g’ri aks ettirgan musiqali asardan o’rinli foydalanish alohida o’rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishning asosiy manbayi kishi tabiati va nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go’zallikni idrok etishga bevosita bog’liqdir.[1]

Maktabgacha ta’lim muassasalari bola tarbiyasida muhim bosqich sanaladi. Musiqa tarbiyachisi bolalarni estetik va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o’rin tutadi. Muassasalardagi musiqiy tarbiya estetik tarbiyaning muhim sohasidir. Maktabgacha yoshidagi bolalarga yorqin va quvnoq rang-baranglikdagi kuy, qo’shiqlar xush keladi. Har bir musiqa rahbari musiqa mashg’ulotlarini qiziqarli va

bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun rang-barang ko'rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi kerak. Mshg'ulotlarni tashkil qilishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- bolalar mashg'ulot xonasiga shaxdam qadamlar va ritmik harakatlari bilan kirishlari uchun quvnoq va marsh kuylarini tanlay bilish;
- bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, mos kuy va qo'shiqlar tanlab, past ohangda, muloyimlik bilan mashg'ulotlar olib borish;
- mashg'ulotda yangi kuy, qo'shiq, raqs va ritmik harakatlari uchun foydalaniladigan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan ko'rgazmalar;
- mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- mavzu asosida, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalana olish;
- musiqiy ritmik ohanga ega harakatlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish;
- bolalarning kuy va qo'shiqlar borasidagi, fikr va tassavvurlar bilan o'rtoqlashish.[2]

Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa taffakkurini rivojlantiradi. Idrok va hissiyotini tarbiyalaydi. Musiqa mashg'ulotlarida bola hayotini, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bog'chada musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi. Turli metodlardan foydalangaan holda o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'uloti kichkintoylardan badiiy-estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini shakllantiradi, ijodiy fiklash qobilyati va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini shakllantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim kasb etadi. Bog'chalarda olib borilayotgan barcha musiqiy ta'limiy, tarbiyaviy ishlar yosh avlodda oliyjanob fazilatni bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat va estetik tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. [3]

Musiqa rahbarining bog'cha hayotidagi o'rni beqiyosdir. U o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Musiqiy mashg'ulotlarni olib borishda musiqa rahbari bolalarning yoshini e'tiborga olishi shart. Mashg'ulotlarning tuzilishi o'quv materiallarning mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamyatga ega ekanligi, baddiy saviyasi, bolalarga yoshiga mosligining hiosobga olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashg'ulotlarining tuzilishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat: musiqa tinglah, qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, musiqa savodi, bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.[4]

Bu mashg'ulotlar o'quv mazmunidan kelib chiqib, dastur asosida tuzilish lozim. Bunda musiqiy asarlarning badiiy mazmuni, bolalar yoshiga mosligi, ilg'or pedagogik texnalogiyalardan foydalanilganligi hisobga olinadi. Musiqa mashg'ulotlari: kichik guruhda -15-20 daqiqa, o'rta guruhda -20-25 daqiqa, katta guruhda 25-30 daqiqa, tayyorlov guruhida -30-35 daqiqa davomida olib boriladi.[3]

Musiqiy mashg'ulotlar davomida qo'shiq tinglash va o'rganish jarayoni xilma-xil rasmlar, bastakor portretlari, mavzuga mos turli xil shakllar yordamida qiziqarli darslarni tashkil qilib borish zarur, chunki bolalarning xotirasida tinglash va eshtishga qaraganda rang-barang ko'rgazmalar uzoq vaqtga xotirasida muxrlanadi. Bolalarga qo'shiq o'rgatishdan avval bolalar yoshiga mos qiziqarli ovoz sozlash mashg'ulotlarini olib borib, so'ngra qo'shiq tinglash va o'rgatish jarayonlari amalga oshiriladi. Qo'shiq aytish jarayonida rasmlarga qarab qo'shiq nomi va foylangan so'zlarini nomini aytib qiziqarli mashg'ulot jarayonlarini olib borish bolalarda musiqa darslariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Dars jarayonlarida musiqa xarakati va oborozli o'yinlar o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi. Musiqa har kungi rejimli daqiqalarga rioya etishni yoqimliroq qiladigan tarzda foydali omil bo'lishi mumkin. Buning uchun tegishli qo'shiqlarning, masalan, tabrik qo'shiqlarini to'qish yoki tanlab olish mumkin. Butun guruh yig'ilgan mahalda ashula aytish ajoyib mashg'ulot. Qo'shiqlar dam olish vaqtida bolalarni tinchantirishning ajoyib vositasi hisoblanadi. "Musiqaiy asarlarni bola yoshini e'tiborga olish kerak", degan jumlalarni ko'p kuzatishimiz mumkin. Buning sababi esa musiqa bolalarning diqqat markazida bo'lmog'i lozim, kattalarning mashhur musiqalalari, kattalarga yoqimlidir, lekin u bolalarni chalg'itishi mumkin. Shuning uchun bolalar o'z yoshida beg'ubor, sodda, samimiy kuy qo'shiqlarini eshtib va o'rganib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.[5] O'z milliy kuy qo'shiqlarimizni eshtib o'rganishi bu qadr-qimmat, milliy ananalarimizni yoshlikdan o'rgata borishimizdir. Bolalarga musiqa asarlar tanlanishida albatta pisoxologik xususiyitalarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Bolalik davri psixologiyada "ilk bolalik davri" deb ham yuritiladi va bolalikning

eng go'zal, esda qolar damlari bo'ladi. Bu davrda ham musiqaning o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilganimizda, musiqa o'z tabiatiga ko'ra inson hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalari xilma xil tovushlar, bo'yoqlar orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish bilan birga ularni nafosat olamiga olib kiradi. Buning uchun musiqa rahbari, avvalo, bolalarni, o'z kasbini sevishi, bolalar fiziologiyasi, adabiyoti, ona tili fanlari hamda o'z kasbiga oid musiqa o'qitish metodikasi, fotepiano, vokal darsligi, musiqa nazaryasi, solfedjo,ritmika, dirijyorlik kabi fanlarni puxta bilishi lozim.

**Adabiyot.**

1. B. Boltayev, J.A. Xodjayev. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi, Samarqand, darslik,2020y.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar. T., TDPU, 2006.
3. Халилова М. А., Мухитдинова М. Мактабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини мусика тарбияси воситаси сифатида куллашнинг хусусиятлари //Халц таълими. – 2020. – Т. 3. – №. 0056. – С. 4.4.
4. Muxitdinova M.S. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda klasterli yondashuv masalalari// Ta`lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali, 2021/9, 171-177 b
5. Namozova D.T, Nosirov D. T. Maktabgacha ta`lim muassalarida musiqiy ta`lim metodikasi//Qo'qon,2006 y.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTYAL TARAQQIYOTI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Ermatova Gulnoz Pirimovna( Navoiy, O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
**Islmoilova Dilbar Amrullo qizi ( Navoiy, O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilk bolalik davridan bolaning aqliy taraqqiyoti haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** aqliy taraqqiyot, iltellektual rivojlanish, ilk yoshda qaliy o'sish, intellektual qobiliyat, tafakkur, nutq, sezgi va idrok, diqqat, xotirava xayol taraqqiyoti.

**Аннотация:** В данной статье освещены психическое развитие детей дошкольного возраста, его особенности, сведения о психическом развитии ребенка с раннего детства.

**Ключевые слова:** интеллектуальное развитие, интеллектуальное развитие, интеллектуальный рост в раннем возрасте, интеллектуальные способности, мышление, речь, интуиция и восприятие, развитие внимания, памяти и воображения.

**Abstract:** This article covers the mental development of preschool children, its features, information about the mental development of a child from early childhood.

**Key words:** intellectual development, intellectual development, intellectual growth at an early age, intellectual abilities, thinking, speech, intuition and perception, development of attention, memory and imagination.

**Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni** intellektual jihatdan rivojlantirish dolzarb masalalardan sanaladi.Ularning har tomonlama taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual taraqqiyoti ularning aqliy, ma'naviy, ruhiy va estetik jihatdan kerakli ko'nikmalarni egallashi uchun muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'lumotlarning to'planishi tez sur'atlarda kechad va buning natijasida ularda bilim, tafakkur, tassavvur hamda nutq jarayonlari shakllanadi.

Bu aqliy taraqqiyot ilk yoshdan boshlab amalga oshadi. Ilk bolalik davridan boshlab bola uni o'rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog'liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etadi.

Bir yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini

bajarishdan ko‘z bilan chamalab, harakat qilishiga o‘tishda namoyon bo‘ladi, endi u predmetning bo‘laklarini ushlab ko‘rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi.

2,5-3 yoshli bola kattalarning ko‘rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko‘ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to‘g‘ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so‘ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar.

Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o‘z “Men”ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o‘zini, o‘z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lgan manba deb biladi va bu uning “Menga bering”, “Ko‘taring”, “Men ham boraman” kabi talablarida ko‘rinadi.

Uch yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo‘lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning “O‘zim qilaman” qabilidagi so‘zlarida namoyon bo‘ladi.

- Ilk bolalik davri: go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi bosqichi - ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Bu davrda bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to‘g‘ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi.
- Kichkintoy bolalar “yaqindagi” fazoni qo‘llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko‘z ham ishtirok eta boshlaydi. Ilk yoshdagi bola “uzoqdagi” fazoni orientirovka qila boshlaydi.
- Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigienik mashqlar, o‘yin va boshqalar.
- Hap xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o‘rni, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bolaning psixik rivojlanishi uning aqliy taraqqiyoti bilan bog‘liq rivojlanadi. Bolalarning aliy shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillar nimadan iborat degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda. Bolalar psixikasini taraqqiy etishini tushuntirib berishga uringan eng keksa nazariya “Bola katta yoshli kishining kichik nusxasi” degan so‘z bilan ta’riflanadi. Bu nazariya tarafdorlari bola sifat e’tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi. Bola bo‘yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo‘lgan katta yoshli kishilardir deb ko‘rsatishga urinadir. Lekin bola psixikasining sifat jihatidan o‘ziga xosligini tushuntirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini yoritib bera olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda alohida o‘ringa o‘qitish vositasi bo‘lgan bolalarning didaktik o‘yinlari kiradi va bolalarga bilim olish va ularni mustahkamlashda yordam beradi, shuningdek, bilim faoliyati metodlarini o‘rganish uchun yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim faoliyatiga qiziqishi ortib borayotgan didaktik o‘yin tufayli, tasniflashni, taqqoslashni va umumlashtirishni o‘rganadi. Kichik bolalarni aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni egallash va mustahkamlash, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham yordam berishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual rivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nutq va nutqni rivojlantirish;
- makon fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish (taqvim, vaqt);
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish (tasniflash, korrelyatsiya);
- sezgir muvofiqlashtirish va qo‘llarning avtoulov qobiliyatlarini shakllantirish (grafik belgilar, kashtanchilik);
- taxminlarni kuzatish, ta'riflash va yaratish qobiliyatini shakllantirish;
- tabiat dunyosi va inson tomonidan yaratilgan narsalar bilan bog‘liq xatti-qoidalar bilan tanishish;
- o‘z-o‘zini va boshqalarni hurmat qilishga va axloqiy jihatdan qimmatli muloqot yo‘llarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

**1. Rasmlar orqali hikoyani yoki hikoyani chizish.** Bolaga 4 ta surat ko‘rsatiladi, ularda ertak yoki unga ma’lum bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Bolaning vazifasi suratlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda tartibga solish va illyustratsiya yordamida kichik bir hikoya yaratishdir.

**2. Bir qator sabablar bo‘yicha ob’ektlarni tanib olish.** Bolaga qaysi mavzu haqida gaplashayotganingizni aniqlash kerak. Masalan, sariq, nordon, tasvirlar (limon).

Ikki yoki undan ko‘p narsalarni taqqoslash. Bolaning so‘zlari nimaga o‘xshashligini aytishga taklif qilinadi. Masalan, mushuk, kitob, tom. Siz bolaga mushuk va itni, stol va stulni qanday nomlashini aytib berishingiz mumkin. So‘ngra, ob’ektlardagi farqlarni topishingiz kerak: qalam va qalam, daraxt va buta.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshi da esa ba’zi tanish harakadardan konkret masalalarni hal qilishdi mustaqil foydalana boshlaydi. Bu yoshdagi bola idishdagi narsalarni qo‘li bilan solishtirib ololmasa, u idishni to‘ntarib olaveradi. Tafakkuming bu boshlang‘ich shaklini ba’zan “qo‘l tafakkuri” ham deyiladi. Tafakkuming bu shakli bola aqliy tarqqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Qodirov R.G'. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.:2005.
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova, Bolalar bog'chasida intellektual psixologik oyinlar T.:2005(4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi, T.: 2010.
4. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Талаба ёшларнинг интеллектуал ижодий салохиятини ривожлантириш. *“Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари” илмий мацолалар туплами, 1,* 203-205.


## TEATRLASHTIRILGAN O‘YINLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH


**Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna(O‘zbekiston)**
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti, (PhD).



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada teatrlashtirilgan o‘yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish haqida ma’lumotlar berilgan.



**Tayanch tushunchalar:** adabiy asar, ertak axloqiy, do‘stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat, ijtimoiy xatti-harakatlar, ko‘nikmalarini shakllantirish.



**Аннотация:** В данной статье представлена информация о формировании творческих способностей у детей дошкольного возраста посредством театральных игр.



**Ключевые слова:** литературное произведение, мораль сказки, дружба, доброта, честность, смелость, социальное поведение, формирование навыков.



**Abstract:** This article provides information on the formation of creative abilities in children of preschool age by means of theatrical games.



**Key words:** literary work, moral of a fairy tale, friendship, kindness, honesty, courage, social behavior, formation of skills.


Teatr faoliyati bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim axloqiy yo‘nalishga ega (do‘stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar), ular tufayli ijtimoiy xatti-harakatlar ko‘nikmalarini shakllantirish tajribasini shakllantiradi. Ertaklar tufayli bola dunyoni nafaqat aqli bilan, balki qalb bilan ham o‘rganadi. Va nafaqat biladi, balki yaxshilikka ham, yomonga ham o‘z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ideallariga aylanishadi. Aynan bolaning qahramonlarga taqlid qilish qobiliyati tarbiyachi-pedagoglarga teatr faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

Aynan teatr faoliyati bolaga muammolarni personaj orqali bilvosita hal qilishga imkon beradi. Bu uyatchanlikni yengishga, o‘ziga ishonchni ortishiga olib keladi. U o‘yin bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli bola shaxsiga yaqin va tushunarli, chunki u bola tabiatida o‘z-o‘zidan aks ettiriladi.

Teatr o‘yinlari qobiliyatlarni rivojlantiradi, umumiy rivojlanishga yordam beradi, qiziquvchanlikni namoyon qiladi, yangi narsalarni o‘rganishga intiladi, ma’lumot va yangi usullarni o‘zlashtirish, fikrlashni rivojlantiradi, qat’iyatlilikni shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu o‘yinlar ijodiy qobiliyatlarni va ma’naviy ehtiyojlarni rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

Teatr faoliyatining ta’lim imkoniyatlari keng. Unda ishtirok etgan bolalar rasmlar, ranglar, tovushlar, mohirlik bilan berilgan savollar orqali atrofdagi dunyo xilma-xilligi bilan tanishadilar, ularni o‘ylashga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga va umumlashtirishga majbur qiladilar. Aqliy rivojlanish nutq bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni yaxshilaydi. Mazkur mashg‘ulotlar bola nutqini personajlarga taqlid

etish harakati tufayli yaxshilanib boradi. Amalga oshirilgan rol, aytilgan gaplar bolani aniq, qisqa va lo‘nda o‘z fikrini ifoda etishga o‘rganadi. U o‘zining dialogik nutqini, uning grammatik tuzilishini yaxshilaydi

Pedagoglar o‘z ish faoliyatlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani tarbiyalash va ta’lim berishda teatrlashtirilgan o‘yinlarning ahamiyatini yaxshi tushunib, undan foydalanishlari lozim. Ijodiy faollik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, teatr madaniyati bilan tanishtirish, uni pedagogik jarayonda boshqa faoliyat bilan aloqasini ta’minlash xar bir pedagogning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri hisoblanadi. Xar bir yosh guruhda, avvalambor, bolalarning teatr qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muayyan sharoitlarni yaratish: teatr zonasi, reja, tegishli adabiyotlarni tanlash, turli xil qo‘g‘irchoqlar tayyorlash.

L.S.Vigotskiy ijodiy faoliyatning yetarlicha kuchli asoslarini yaratish uchun bolaning tajribasini kengaytirish kerak deb hisoblagan. Stol va barmoq teatrlari, flanelegraf va dramatizasiyalashgan o‘yinlar orqali bolalarda san’atkor bo‘lish istagi uyg‘otiladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda teatrning eng oddiy va qiziqarli turi bu - barmoq teatridir. Barmoqlar bilan o‘ynash – teatr faoliyati bilan tanishishning birinchi qadamidir. Bu atributlarsiz teatr hisoblanib, qahramon va uning hayoti bola uchun muhim bo‘ladi. Ajablanarlisi shundaki, ushbu qiyin vazifani bola osonlikcha tushunadi. Shu bilan bir qatorda, u yaxshi tanish she’rlar va qahramonlarni muvaffaqiyatli solishtiradi. Bolalar bilan mashg‘ulotlar jarayonida ulardagi yuz ifodasi, o‘yin improvizasiyalaridan foydalanib, o‘zlarining personajlari uchun ekspressiv xususiyatlarni topishga yordam berish lozim.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda teatr o‘yinlarini tashkil qilishda bolalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini, boshqa odamning hissiy holatini tushunishni o‘rgatish va his etishni rivojlantirish kerak. E’tiborni, qo‘rquvni, quvonchni, zavqlanishni va qayg‘uni ifoda etish uchun eskizlar bunga yordam beradi: «Men nima yeyayotganimni biling», «Qayerda ekanimni bilib oling», «Tulkioy eshitib turibdi» va boshqalar. Dramatizasiyalashgan o‘yinlar jarayonida bolalar rollarni ta’sirchan ifoda etishga, mustaqil ravishda tomoshalar ko‘rsatishga, rollarni taqsimlashga harakat qiladilar. «G‘oz-oqqushlar», «Uch kichkina to‘ng‘iz», «Qizil shapkacha» kabi ertaklarni kichik guruh tarbiyalanuvchilari va ota-onalarga katta istak bilan namoyish etadilar.

Ota-onalar teatr faoliyatiga katta qiziqish bildirishadi, teatr uchun kostyumlar, qo‘g‘irchoqlar tayyorlashda yordam berishadi, bolalar bilan hamkorlikda tomoshalarda rol ijro etishadi. Shuningdek, ota-onalar bilan: «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni teatr san’atiga qiziqishni qanday oshirish?» mavzusida suhbatlar; «Teatr o‘yinlari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish vositasi», “O‘yin va teatr”, “Teatr va ota-onalar” mavzusida maslahatlar; “Maktabgacha teatr dunyosi” mavzusida ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglar uchrashuvlari; «Teatr uchun eng yaxshi qo‘g‘irchoq», «Eng yaxshi teatr niqobi» mavzusida tanlovlar o‘tkazish bolalarda teatr faoliyatiga yanada kizikish uygotadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda teatr o‘yinlari o‘z samarasini bermoqda: bolalar faollashadilar va so‘z va nutq boyligi oshadi, o‘zlarini erkin tutish ko‘nikmalarini egallaydilar, muloqot qilish va va eng muhimi, ular emotsional rivojlanadilar. Bolalar «Teatr» so‘zini eshitganlarida ularning ko‘zlari quvonchdan chaqnaydi, sevinch uchqunlari porlaydilar, yuzlari tabassumdan yorishadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ye.A.Antipova. Maktabgacha ta’lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat. –M.: TS «Sfera», 2006.
2. M.D.Maxanyova. Maktabgacha ta’lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat darslari. –M.: TS «Sfera», 2007.

# STEAM YONDASHUVI ASOSIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Xasanova Sh.B. (O‘zbekiston)**
Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi dotsenti, p. f. f doktori (PhD)

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Davlatning qudrati va boyligi uning yer osti, yer usti boyliklari bilan baholanmasdan balki uning intelektual salohiyati bilan baholanadi. Ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilash, innovatsiyalarni joriy etish talablarini qo‘ymoqda. Ta‘lim tizimidagi innovatsiyalardan biri uzluksiz ta‘lim tizimiga STEAM ta‘limini joriy etishdir.

Ushbu texnologiyao‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika)bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan, bunda bolalar amaliy va ko‘ngil ochar loyihalar mashg‘ulotlari yordamida saboq oladilar. Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda, ya'ni bolani kelajakda jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o‘zgarayotgan, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg‘un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi yoshlarda shakllantirish lozim.

STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi bolalar rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag‘ulotlarimiz ozmi-ko‘pmi matematika fani bilan ham bog‘langandir. STEAM yondashuvi asosida kichik yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Kichik yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish mezonlari bilan tanishamiz. A.I. Savenkovning fikriga ko‘ra, tadqiqotni tashkil etishda uchta darajani ajratish mumkin: Birinchisi: tarbiyachining o‘zi muammoni qo‘yadi va uni hal qilish yo‘llarini belgilaydi, bolaning o‘zi yechim topishi kerak; Ikkinchidan: tarbiyachi muammo qo‘yadi, lekin uni yechish yo‘llari va usullarini, shuningdek, yechimning o‘zini bola o‘zi topishi kerak; Uchinchi (eng yuqori): bolalar muammoni o‘zlari qo‘yadilar, uni hal qilish yo‘llarini qidiradilar va yechimni o‘zlari topadilar. Tadqiqotlar turli yo‘llar bilan tasniflanishi mumkin: Ishtirokchilar soni bo‘yicha (jamoa, guruh, individual); O‘tkaziladigan,Vaqt bo‘yicha (qisqa muddatli va uzoq uddatli); Muammo bo‘yicha (dastur materialini o‘zlashtirish; darsda o‘rganilgan materialni chuqur-roq o‘zlashtirish; mavzuga kiritilmagan savollar. o‘quv dasturi). Tarbiyachi tadqiqotning darajasini, shaklini, vaqtini o‘quvchilarning yoshi va aniq pedagogik vazifalariga qarab belgilaydi. Tadqiqot faoliyatining shakllanishi, qoida tariqasida, bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Kichik yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlari bilan tanishamiz. Birinchi bosqich MTTning o‘rta guruhiga to‘g‘ri keladi. O‘rta guruh bolalarining tadqiqot tajribasini boyitish vazifalariga quyidagilar kiradi: mavjud g‘oyalar asosida bolalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'minlash; Savol berish, taxminlar qilish, kuzatish, mavzu modellarini yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish; Tadqiqotchi faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish. Muammolarni hal qilish uchun quyidagi faoliyat usullari va usullari qo‘llaniladi: mashg‘ulotlarda - jamoaviy o‘quv suhbati, ob'ektlarni tekshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, o‘qish-tekshirish, jamoaviy modellashtirish, o‘yinlar, mashg‘ulotlar, bola bilan o‘z manfaatlarini birgalikda aniqlash, sxemalarni individual ravishda tuzish, turli materiallardan modellarni amalga oshirish.

Ikkinchi bosqich – Katta guruh quyidagilarga qaratilgan: tadqiqotchi faoliyatining xususiyatlari haqida yangi g‘oyalarni egallash; Tadqiqot mavzusini aniqlash, tahlil qilish, taqqoslash, xulosalar tuzish, tadqiqot natijalarini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha; Bog‘cha bolalarining tashabbusi, faolligi va mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash. A.Bogoyavlenskaya ta'kidlaganidek, kichik yoshdagi bolalarni o‘quv va tadqiqot faoliyatiga jalb qilish o‘quv va tadqiqot vazifalari va vazifalari orqali tadqiqot

vaziyatini yaratish va qo‘shma tajribaning qiymatini e'tirof etish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichda quyidagi faoliyat usullari va usullari qo‘llaniladi: mashg‘ulotlarda - o‘quv muhokamasi, reja bo‘yicha kuzatishlar, bolalar va tarbiyachilarning hikoyalari, mini-tadqiqot.

Uchinchi bosqich MTTning tayyorlov guruhlariga to‘g‘ri keladi. Ta'limning ushbu bosqichida tarbiyalanuvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati, uning vositalari va usullari haqidagi g‘oyalarni yanada to‘plash, tadqiqot mantig‘ini tushunish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali tadqiqot tajribasini boyitishga e'tibor qaratish lozim. Ta'limning oldingi bosqichlari bilan taqqoslaganda, faoliyatning murakkabligi o‘quv va tadqiqot vazifalarining murakkabligini oshirish, fikrlash, umumlashtirishni rivojlantirish va anglashdan iborat va xulosalar chiqara olish. Butun bosqich davomida bolalarning tadqiqot tajribasini individual yutuqlar asosida boyitish ham ta'minlanadi.

Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish. STEM –dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng, kutilgan natijaga erishilmasa, uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balkim, g‘ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar. STEAM –ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo‘lishi yoki birgalikda ishlatilishi o‘z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o‘rganilishi ko‘pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi. Turli xil baholanishlarga ko‘ra hozirgi kunda eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxas-sisliknng 9 tasida STEAM bilimlari zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga muhandis- texnik, muxandis- energetik, kompyuter tizimlari analitiklari, robototexniklar kiradi. Bu jarayonga tayyorlashda uzluksiz ta‘lim tizimining datlabki davrlaridanoq STEAM yondashuvlaridan foydalanish muhimdir.

## MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNING O‘RNI

**Davlatova Zebo Haydarovna (O‘zbekiston)**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**

Konflikt jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan, har bir inson hayoti davomida ko'p marta turli nizolar, to'qnashuvlar va qarama-qarshiliklarning ishtirokchisi sifatida unga duch kelgan. Zamonaviy ilm-fanning ta'kidlashicha, konflikt qandaydir muvaffaqiyatsizlik, kurashish kerak bo'lgan xato emas, balki jamiyat uchun ham, uning alohida vakillari uchun ham zarur bo'lgan o'z tuzilishi va dinamikasiga ega bo'lgan tabiiy, ijtimoiy jarayondir.

Shuning uchun konfliktning buzg'unchi va ijobiy funktsiyalarini tushunish, ularni tartibga solish va hal qilish, konfliktda xatti-harakatlarning konstruktiv uslublarini tanlash ya’ni, nizolarni boshqarish madaniyatiga etarli darajada ega bo’lish maqsadga muvofiq. Konflikt turli: konfliktologiya, sotsiologiya, psixologiya kabi fnlar doirasida keng o’rganiladi. Uni madaniyat, madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o’rganish esa zamonaviy madaniy hayotning ajralmas uzvi sifatida pedagogika uchun zaruriy va dolzarbdir.

Chunki "konfliktologik madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati kamdan-kam o'rganilgan. Ma’lumki, konflikt (nizo) manfaatlarning farqlanishi yoki tomonlar o'rtasida ularning intilishlariga bir vaqtning o'zida erishib bo'lmasligiga ishonch natijasida paydo bo’ladi.

Ijtimoiy hodisa sifatida konfliktning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

a) tomonlarning manfaatlari, e'tiqodlari va qadriyatlarining tafovuti;

b) tomonlarning ushbu kelishmovchiliklardan xabardorligi;

v) tomonlarning bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlari almashishi (kurash, to'qnashuv va h.k.);

g) konfliktning “ijtimoiyligi” uning asosiy belgilaridan biri sifatida.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, konflikt - bu tomonlarning manfaati, e'tiqodi, qadriyatlari farqlanishi bilan tavsiflangan, shuningdek, tomonlarning o'zaro zarar etkazish uchun bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlari almashishi bilan kechadigan ijtimoiy o'zaro ta'sir turidir.

Shu o’rinda "konfliktologik madaniyat" tushunchasiga aniqlik kiritish va uning asosiy

xususiyatlarini ajratib ko'rsatish lozim. Ma’lumki, madaniyat (lot.cu1tura - yetishtirish, qayta ishlash, tarbiyalash, ta’lim, rivojlantirish, hurmat qilish) kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlari yig'indisi sanaladi.

Madaniyat - bu ekstrabiologik xususiyatga ega bo‘lgan murakkab tizim (“supertizim”) bo‘lib, u inson mavjudligi va rivojlanishining umumiy tajribasini o‘z ichiga oladi. Ushbu tajribani to'plash, ko'paytirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish, shu bilan birga insoniyatga xos xususiyatlarni ko'paytirishni ham maqsad qiladi.

“Madaniyat insonning ijtimoiy hayoti va ijtimoiy faoliyati mahsuli”, deya ta’kidlaydi L.S.Vigotskiy [1]. A.S.Karmin esa "Madaniyatshunoslik" kitobida "madaniyat" tushunchasini ikki xil talqin qilish mumkinligini yozadi: Birinchi yondashuv: aksiologik (qadriyat) − faqat insoniyatning eng yaxshi yaratig’larini madaniyat deb biladi, bu odamlarning ma'naviy yuksalish maydonidir. Ushbu yondashuv faqat ma'lum qadriyatlarga mos keladigan ijobiy narsalarni madaniyat deb tushunishga olib keladi. Bu qarash sub'ektiv bo’lib, aksiologik talqin ko’plab muhokamalarga uchradi.

Ikkinchi yondashuv antropologikdir. Madaniyatni antropologik manoda tushunish uning qamrovini kengaytiradi: madaniyat deganda insoniyatni tabiatdan ajratib turuvchi hamma narsa tushuniladi va u kishilar tomonidan yaratilgan hamma narsani o‘z ichiga oladi [2]. Madaniyatni antropologik nuqtayi nazardan tavsiflash bir qator ijtimoiy fanlar uchun ushbu mavzuni o'rganish, unga turli tomonlardan qarash imkonini beradi. Bunda asosiy vazifa madaniyatni bir butun sifatida emas, balki uning alohida tomonlari va tarkibiy qismlarini o'rganishni taqozo etadi. Psixologik an'analarda madaniyat insonning atrofdagi hayot sharoitlariga moslashishi va madaniy moslashuvi natijasida yuzaga keladigan orttirilgan xulq-atvor shakllari majmui sifatida torroq ma'noda ta'riflanadi.

Madaniyat - bu avloddan-avlodga o'tadigan va vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga chidamli bo'lgan xatti-harakatlar namunasi sifatida konfliktologiyaga ham aloqador. Manbalarda konfliktologik madaniyat turlicha ta'riflanadi. N.V.Samsonovaning fikricha: "Shaxsning konfliktologik madaniyati insonning ijtimoiy: shaxslararo, millatlararo va xalqaro nizolarni oldini olish va hal qilish istagi (ehtiyoj, xohish) va qobiliyatida" [4]. N.V.Kuklevaning ta'kidlashicha, o'qituvchining konfliktologik madaniyati - bu uning hamkorlik faoliyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishish uchun mojaroni tan olish, uni oldini olish yoki (agar oldini olishning iloji bo'lmasa) konstruktiv hal qilish qobiliyati va tayyorligi [3].

Konfliktologik madaniyatga ma'no va mazmun jihatdan yaqin yana bir "Tinchlik madaniyati" tushunchasi mavjud bo’lib, u 1989 yilda YuNESKO tashabbusi bilan Yamossukroda (Kot-D'Ivuar) bo'lib o'tgan "Odamlar ongida tinchlik" kongressida paydo bo'lgan. 1992 yilda Tinchlik madaniyati konsepsiyasi YUNESKOning asosiy harakat dasturiga aylandi, 1999 yilda esa Tinchlik madaniyati konsepsiyasi muhim xalqaro tashabbus deb nomlandi va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maqullandi [4].

Tinchlik madaniyatining asosiy g'oyasi jamiyatdagi zo'ravonlikni zararsizlantirish yoki yumshatishning mafkuraviy va madaniy vositalarini (birinchi navbatda qurolli to'qnashuvlarning oldini olish uchun) safarbar qilishdir. “Ularning asl tamoyili oddiy edi va u allaqachon YuNESKO Nizomi bilan mustahkamlangan edi.Odatda hamma urushlar odamlar ongida boshlanadi. Va u erda tinchlik uchun shubhasiz, asoslar ham topiladi. Shunday qilib, Tinchlik madaniyati ziddiyatli vaziyatlarni, nizodagi tomonlarni zo'ravonlik, kamsitish va tahqirlashsiz hal qilish uchun standartlar, me'yorlar va modellarga asoslangan yangi madaniyatni yaratish (universal miqyosda) zarurligi haqida gapiradi.

Gerxard Shvarts o'zining "Nizoli vaziyatlarni boshqarish: nizolarni tashxislash, tahlil qilish va hal qilish" kitobida asta-sekin rivojlanayotgan, mojaro bilan ishlashning oddiy shakllaridan (qochish, voz kechish) eng murakkab (murosa, konsensus)gacha rivojlanayotgan konfliktologik madaniyat haqida yozadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, konfliktologik madaniyat tushunchasi vaqt va zamonga qarab yangilanib boruvchi, umummadaniyatning invarianti sifatida namoyon bo’ladi. Shuningdek, u professional madaniyatning eng zaruriy va muhim uzvidir.

ADABIYOTLAR:

3. Выготский Л.С. Собрание сочинений. т. Т. 3. – М., 1983. – С. 145.
4. Кармин А.С. Культурология. 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: 2003. – С. 18-20.
5. Куклева Н.В. Формирование конфликтологической компетентности студентов университета, получающих дополнительную квалификацию «преподаватель». – Ставрополь, 2006. – С. 10.
6. Самсонова Н.В. Конфликтологическая культура специалиста и технология ее формирования в системе вузовского образования: Монография. – Калининград, 2002. – С. 12.

# EMOTSIONAL IRODAVIY SOHA VA UNI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANISHI

**Ermatova Gulnoz Pirimovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
**Ergasheva Mohiniso Dilshod qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada emotsiya, hissiyot, insondagi emotsionallik hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda his tuyg‘u, emotsiya, iroda kabi jarayonlarning rivojlanish haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** hissiyot, emotsiya, hissiy-irodaviy soha, o‘z o‘zini tanish va o‘z o‘ziga ishonch, empatiya, his-tuyg‘u, emotsional zo‘riqish.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об эмоциях, чувствах, эмоциональности человека и развитии таких процессов, как чувство, эмоция и воля у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** чувство, эмоция, эмоционально-волевая сфера, самосознание и уверенность в себе, сопереживание, чувство, эмоциональное напряжение.

**Abstract:** This article provides information about emotions, feelings, human emotionality and the development of processes such as feeling, emotion and will in preschool children.

**Key words:** feeling, emotion, emotional-volitional sphere, self-awareness and self-confidence, empathy, feeling, emotional stress.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi[1]

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol.

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim qism hamda bo‘lagi sifatida insondagi keng emotsional sohasining turli xilligi, ko‘p qirraligi bilan ajralib turadi.

Har bir inson uchun ijobiy emotsional ta’sirlanishlarni kuchaytirish va kengaytirish bilan bir vaqtda boshqa odamlar emotsional holatiga samarali ta’sir ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lish juda muhim. Zararli emotsional ta’sirlanishlar ko‘p hollarda yuqori emotsional zo‘riqish vaziyatlarida, o‘ta toliqqan holatlarda, frustratsiya vaqtida, odamlar ta’sirchanligida, ishlar ko‘ngilgidek yurishmaganida, hayotiy muhim rejalar barbod bo‘lganida yuzaga kelishini bilish va yodda tutish lozim[2].

Amaliy hayotda emotsiyalar sifatida, odatda, insonning turli-tuman javob reaksiyalari – ehtirosning to‘lqinli portlashlaridan tortib, to kayfiyatning nozik tuslarini tushunamiz. Psixologiyada emotsiyalar deb kechinmalar shaklidagi inson hayotiy faoliyati uchun tashqi va ichki vaziyatlarni baholash va shaxsiy ahamiyatni aks ettiradigan psixik jarayonlarga aytiladi.

Endi esa maqola mavzusining asosiy qismiga keladigan bo‘lsak, emotsional irodaviy soha, maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishi juda muhimdir. Bu, ularning o‘z-o‘zini tushunish va ifoda qilish qobiliyatlarini oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z hissiyotlarini to‘liq tushunmaydilar va ularga qanday hissiyotlarni tushunish va ifoda qilish kerakligini o‘rganishda yordam beradi.

Bu soha, bolalarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bolalar o‘z hissiyotlarini boshqalar bilan ulashish orqali ifodalay oladilar va ularning o‘z fikrlarini va talablarini ifoda qilishga imkon beradi. Bu, ularning o‘z o‘zini tanish va o‘z o‘ziga ishonishni o‘rganishga yordam beradi.

Emotsional irodaviy soha, bolalarga stress bilan boshqarishni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotlarida ko‘p stresli holatlar bilan uchrashadilar, masalan, sinfdagi imtihonlar yoki do‘stlar bilan muloqotda bo‘lgan muammo. Emotsional irodaviy soha, ularni stres bilan

---

[1] Дусмуҳамедова Ш.А., Алимбоева Ш.Т. Шахс ҳиссий емоционал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррексияси. “Маҳалла ва оила нашриёти”. Тошкент. 2022.

[2] http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/10220/14.mavzu.Hissiyot.htm

boshqarish va o‘zlarini qo‘rqmasdan, xavotirjamlik bilan tushunishga yordam beradi.

Emotsional irodaviy soha, bolalarni empatiya o‘rganishga ham imkon beradi. Empatiya, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga qarshi kelishni o‘rganishni anglatadi. Bu, bolalarning do‘stlariga, o‘qituvchilarga va oilalariga qarshi hissiyotlarni tushunish va ularga qo‘shulishga yordam beradi. Bu, ularning o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va o‘zlarini boshqalar bilan birgalikda his qilishga imkon beradi.

Jamiyatning mustaqil, samarali va muvaffaqiyatli a’zolari bo‘lish uchun emotsional irodaviy soha bolalarda rivojlanishi juda muhimdir. Bu, ularning o‘z-o‘zini tushunish, boshqalar bilan muloqot qilish va o‘zini ifoda qilish qobiliyatlarini oshiradi. Bu esa ularning hayotlarida o‘z-o‘zlarini yaxshi his qilish va muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun katta ahamiyatga ega.

**Hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishi**-bola tarbiyasining muhim jihatlaridan biri.

Kichkina bola hali ham o‘z his-tuyg‘ularini qanday boshqarishni bilmaydi va atrofdagilardan xijolat bo‘lmay, ularni ochiqchasiga ifoda etadi. Ammo ko‘pincha ota -onalar hech birimiz jamiyatda shakllangan xulq-atvor ko‘nikmalariga ega emasligimizni unutishadi va bolaga bunday yo‘l tutish mumkin emasligini xotirjam tushuntirish o‘rniga, unga tanbeh berishadi, baqirishadi, jazolashadi. Ammo bundan hech qanday ta’sir yo‘q: bola nima uchun baqirishga ruxsat berilmasligini tushunmaydi, lekin ota-onalar tushunishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasi balog‘atga etmaganlik bilan tavsiflanadi, shuning uchun har xil vaziyatlarda ular o‘z-o‘zini hurmat qilish, norozilik, xavotirlik darajasining pasayishi natijasida yuzaga keladigan etarlicha emotsional reaktsiyalarni, xulq-atvor buzilishlarini boshdan kechirishlari mumkin. Garchi g‘azab va g‘azablanish hissiyotlari odamning oddiy reaktsiyasi bo‘lsa-da, bolalar uchun salbiy his-tuyg‘ularni to‘g‘ri ifoda etishni o‘rganish qiyin[3].

Emotsional irodaviy sohaning maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishi. Bu davrda bolalar o‘zlarining hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirar ekan, ular hissiy salomatligini ijobiy tarzda boshqarishni ham o‘rganishlari kerak.

Birinchidan, bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini tan olishlari va ifoda etishlari uchun yordam berishlari kerak. Ularni his-tuyg‘ularini ifodalash vositalari bilan ta’minlash ularga o‘z his-tuyg‘ularini nomlash va baham ko‘rishga yordam beradi. Shuningdek, bolalarning hissiy ifodalarini qabul qilish va tushunish muhimdir. Shunday qilib, bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda qulayroq bo‘ladilar.

Ikkinchidan, bolalarga empatiya qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish ham muhimdir. Empatiya - bu boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati. Empatiya qila oladigan bolalar boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunadilar va yaxshi munosabatlar o‘rnatadilar. Empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bolalarga boshqalarning nuqtai nazarini tushunish imkoniyatini berish kerak.

Uchinchidan, bolalar uchun hissiyotlarni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rganish muhimdir. Hissiy boshqaruv - bu his-tuyg‘ularni tan olish, nazorat qilish va ularga to‘g‘ri javob berish qobiliyati. Bolalarga stressni boshqarish, g‘azabni boshqarish va muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatish kerak. Ushbu ko‘nikmalar bolalarning hissiy salomatligini saqlashga va ijobiy rivojlanishiga yordam beradi.

Nihoyat, bolalarning hissiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash uchun ijobiy muhit yaratilishi kerak. Mehribon oila muhiti, xavfsiz maktab muhiti va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit bolalarning ruhiy farovonligini qo‘llab-quvvatlaydi. Bolalarning hissiy ehtiyojlarini qondirish uchun vaqt ajratish ham muhimdir. Ular bilan sifatli vaqt o‘tkazish, ularni tinglash va qo‘llab-quvvatlash ularning hissiy farovonligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional irodaviy sohaning maktabgacha bo‘lgan bolalarda rivojlanishi juda muhim. Bolalarning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning hissiy salomatligini boshqarishni o‘rganish va sog‘lom hissiy rivojlanish uchun ijobiy muhitda qo‘llab-quvvatlash kerak.

**Adabiyotlar**

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Изард К.Э. Психология эмоций. СПб.: Питер, 2007.
3. Дусмуҳамедова Ш.А., Алимбоева Ш.Т. Шахс ҳиссий емотсионал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррексияси. “Маҳалла ва оила нашриёти”. Тошкент. 2022
4. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

[3] https://gigafox.ru/uz/rody/osobennosti-razvitiya-emocionalno---volevoi-sfery-v/

5. Хомская Е.Д., Батова Н.Я. Мозг и эмоции (нейропсихологическое исследование). – Москва. Российское педагогическая агенство, 1998.
6. Акрамов М. Р. Конфликт и его социально-психологические свойства //Молодой ученый. – 2021.
7. Туйчиева, И. И., & Ганиева, Г. В. (2016). Характеристика принципов планирования работы по развитию речи. Учёный XXI века.
8. http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/10220/14.mavzu.Hissiyot.htm
9. https://gigafox.ru/uz/rody/osobennosti-razvitiya-emocionalno-volevoi-sfery-v/

## PRESCHOOL EDUCATION IS THE FOUNDATION UPON WHICH ALL FUTURE LEARNING IS BUILT

**Garrido Gaspar Belben (Filippin)**
Cambridge Assessment International Education

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'limda an'anaviy yondoshuvlarning eskirgani o'rniga yangi usul, dasturlarni kiritish kerakligi haqida fikr yuritilgan va maqola muallifi samarasiz usullar o'rniga yangi usul Montessori usuli, Reggio Emilia yondashuvi, HighScope o'quv dasturi kabi turli dasturlar tanlovini tashkil etish orqali tanlab olishni tavsiya etadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, usul, yondoshuv, dastur, Filippin, Xitoy, o'yin.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается необходимость внедрения нового метода, программы вместо устаревших традиционных подходов в дошкольном образовании, а автор статьи предлагает новый метод вместо неэффективных методов, различные программы, такие как метод Монтессори, подход Реджио-Эмилия учебную программу HighScope рекомендуется выбирать путем организации конкурса.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, метод, подход, программа, Филиппины, Китай, игра.

Esteemed colleagues, distinguished guests, ladies, and gentlemen!

I am honored to be addressing you today at this international conference on new approaches to preschool education development. The theme of this conference, "New Impulses to Preschool Education Development: Issues of Scientific Research, Commercialization, and Digitization," is of vital importance to the future of our children and the societies in which they live.

Preschool education is the foundation upon which all future learning is built. It is during these early years that children develop the cognitive, social, and emotional skills that will enable them to succeed in school and in life.

Unfortunately, traditional approaches to preschool education are often outdated and ineffective. They fail to take into account the latest research on child development and learning. They are also often too rigid and inflexible, failing to meet the individual needs of each child.

As a result, many children are not getting the start in life that they deserve. They are falling behind in school and struggling to keep up with their peers. This is a problem that we cannot afford to ignore.

The good news is that there are new approaches to preschool education that are showing great promise. These approaches are based on the latest research on child development and learning. They are also more flexible and individualized, allowing each child to learn at their own pace and in their own way.

One such approach is **the Montessori method.** This method emphasizes hands-on learning and self-directed exploration. It has been shown to be effective in improving children's cognitive, social, and emotional development.

The Montessori method is based on the idea that children are naturally curious and eager to learn. They learn best when they are allowed to explore their environment and interact with materials that are designed to stimulate their senses and promote their development.

Montessori classrooms are typically divided into different areas, each of which is designed to support a different type of learning. There is a math area, a science area, a language area, a social studies area, and an art area. Each area is equipped with materials that are specifically designed to help children learn about that subject.

Children are free to move around the classroom and choose the activities that they are interested in.

They are encouraged to explore the materials and learn at their own pace. The teacher’s role is to observe the children and provide guidance and support when needed.

Another promising approach is **the Reggio Emilia approach** which is used in Italy. This approach is based on the idea that children are capable and competent learners. It emphasizes the importance of creativity, collaboration, and exploration. The Reggio Emilia approach has been shown to be effective in improving children’s critical thinking skills, problem-solving skills, and social skills.

The Reggio Emilia approach is based on the idea that children are capable and competent learners. They are full of potential and have a natural curiosity about the world around them. The role of the teacher is to support and nurture children’s learning by providing them with opportunities to explore and interact with their environment.

Reggio Emilia classrooms are typically designed to be open and inviting, with a variety of materials and resources available for children to use. The environment is seen as a third teacher, and it is carefully designed to promote children’s learning and development.

Children are encouraged to explore their interests and to learn through play. They are given the opportunity to work together on projects, and they are encouraged to express their ideas and feelings through art, music, and movement.

In the United States**, the HighScope curriculum** is a popular choice for preschools. This curriculum emphasizes active learning and hands-on experiences. It has been shown to be effective in improving children’s language skills, math skills, and social skills.

In the Philippines and in China, preschool education emphasizes the importance of play-based learning and child-centered instruction. It has been shown to be effective in improving children’s cognitive, social, and emotional development.

There are many different ways to implement play-based learning in the classroom. Some common methods include:

* Free play: Children are given the freedom to choose their own activities and materials, and to play in their own way.

* Structured play: Children are given specific instructions about what to do and how to do it.

* Guided play: The teacher provides guidance and support as children play, helping them to learn new skills and concepts.

Play-based learning can be used to teach a variety of subjects, including math, science, language arts, and social studies. It can also be used to promote children’s social and emotional development, such as by teaching them how to cooperate with others, how to resolve conflicts, and how to express their emotions.

In addition to technology and all these approaches, there are a number of other ways that can be used to improve preschool education. These include:

* Increasing the number of qualified preschool teachers.

* Reducing the cost of preschool.

* Expanding access to preschool programs.

* Improving the quality of preschool programs.

By working together, we can ensure that all children have access to high-quality preschool education. And we can help them to reach their full potential.

Thank you.

## BOLALAR KVAZIDIALOGIDA NUTQIY AKT IFODASI

**N.Q. Musayeva (O‘zbekiston)**
NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kvazidialogik nutq jarayoni bolalar tomonidan sahnalashtirib ijro etilishi va bunday o‘yin vaziyatida vujudga kelgan nutq aktlarning yuzaga kelishida o‘ziga xos bosqichlar amalga oshirilishi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, kvazidialog, lokutiv, illokutiv, perlokutiv, fonetik, morfologik, sintaktik, predmet, maqsad.

**Аннотация:** в данной статье высказывается мнение о том, что квазидиалогический речевой

процесс инсценируется и разыгрывается детьми и что в возникшей в такой игровой ситуации речевой ситуации реализуются специфические этапы возникновения актов.
**Ключевые слова:** речь, квазидиалог, локатив, иллокутив, перлокутив, фонетический, морфологический, синтаксический, предметный, целевой.
**Annotation:** this article comments on the fact that the quasidialogical speech process is staged and performed by children, and the speech that occurs in such a game situation is the implementation of specific stages in the occurrence of acts.
**Keywords:** speech, quasidialog, locutive, illocutive, perlocutive, phonetic, morphological, syntactic, subject, target.

Nutq akti faoliyat turi bo‘lganligi sababli, uni tahlil qilishda har qanday harakatni tavsiflash va baholash uchun zarur bo‘lgan mohiyatan bir xil kategoriyalardan foydalaniladi: predmet, maqsad, usul, vosita, natija, shart-sharoitlar, muvaffaqiyat va hokazo. Gap nutqiy faoliyatning mahsuli sifatida ham, aniq maqsadga erishish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Nutqiy faoliyat mavjud sharoit yoki shartlarga qarab o‘z maqsadiga erishishi, muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki erisha olmasligi ham mumkin. Muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun nutq akti maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Aks holda, ma’ruzachi kommunikativ qobiliyatsiz sifatida muvaffaqiyatsizlikka duch keladi.

M.Qurbonova ham nutqiy aktning pragmalingvistikada tutgan o‘rni, uning tadqiqi, asosiy masalalari, tasnifi to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirish bilan birga bolalar nutqiy faoliyatida nutqiy akt turlaridan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Olimaning fikricha, muloqot jarayonida nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarning muloqot jarayonida qanday nutqiy akt turini tanlashi ularning psixologik holati, ayniqsa, yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshadi.[ 5.]

Shuningdek, N.Ahmedova ham bolalar nutqida so‘roq akti orqali yuzaga keladigan matnlarga xos jihatlarni o‘rganib, uning yuzaga kelish omillarini tasniflab o‘rganadi.[ 2]

O‘rganilgan tadqiqotlar asosida shuni aytish mumkinki, nutqiy aktda muloqot ishtirokchilarining xarakter-xususiyatlari, nutqiy vaziyat, shuningdek, muloqot maqsadi faqat adresatning adresantni tushunishida emas, eshitgan narsasiga muayyan munosabat bildirishi, ta’sirlanishi ham inobatga olinadi. Pragmatik nuqtai nazardan, muloqot samaradorligi uchun adresant niyati va maqsadiga erishishi uchun qabul qiluvchining to‘g‘ri talqini muhimlik kasb etadi.

Yuqorida o‘rganilgan ilmiy manbalarlarda asosan nutqiy aktning uch bosqichli faoliyat: lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlari bajarilishi ta’kidlanadi.

Shunga ko‘ra biz ham quyida bolalar kvazidialogik nutqida shu uch nutqiy harakatning namoyon bo‘lishini tahlilga tortamiz.

Ma’lumki, kvazidialogik nutqdagi har bir replika shakl va mazmunga ega. Shakliy tomoni uning fonetik, morfologik va sintaktik tuzilishidir. Mazmuniy tomoni ikki: propozitsional va illokutiv jihatni o‘z ichiga oladi. Nutqning illokutiv vazifasi ma’lum bir nutq aktiga (tasdiq, so‘roq, rag‘bat, iltimos va bosh.) muvofiq keladi.

Kvazidialogik nutq jarayoni bolalar tomonidan sahnalashtirib ijro etilishi va bunday o‘yin vaziyatida vujudga kelgan nutq aktlarning yuzaga kelishida o‘ziga xos bosqichlar amalga oshiriladi.

Jumladan, kvazidialogik nutqdagi har bir gap, boshqa gaplar kabi lokutiv akt harakatiga ega. Chunki lokutiv akt bu gapning talaffuzi, aytilishi, ya’ni so‘zlash aktidir. Bolalar kvazidialogik nutqida ham lokutiv akt va uning ichki belgilari (fonetik, fatik, retik) ifodasini kuzatish mumkin. Masalan: Dilshod, 9 yosh. O‘yinchoqlarni yig‘ib ixtiro qilmoqchi bo‘ladi:

- *Mashinani olamiz va yangi moslama o‘rnatib, yorug‘lik tezligiga chiqaramiz. Bu mashina ilg‘or mashina bo‘lishi kerak, to‘g‘rimi?*
- *To‘g‘ri.*
- *Qani, buuufff.*
- *Eh, o‘xshamadiku, boshqatdan qilamiz. // Qani? Kim yangi moslama o‘rnatib, yorug‘lik tezligiga chiqaradi?*

Ushbu kvazidialogik nutqda bola gaplarni til meyorlariga rioya qilgan holda talaffuz etib lokutiv aktni yuzaga chiqaradi. E’tiborli jihati shundaki, bolalar nutqida fonetik aktning to‘liq amal qilishi uning yoshiga ham bog‘liq. Ba’zan kichik yoshdagi bolalarda talaffuz meyorlarining buzilganligini ham

kuzatish mumkin. Bizningcha, agar bolalarda talaffuz meyorlari buzilishi kuzatilsa-da, uning fikrlari atrofdagilar uchun tushunarli bo‘lsa, ya’ni adresant sifatida bola o‘z fikrini yetkaza olsa, lokutiv akt amal qiladi. Chunki kichik yoshdagi bolalarda ayrim sabablarga ko‘ra talaffuz meyorlarining buzilishi tabiiy holat. Masalan: Habiba, 4 yosh. Qo‘g‘irchog‘ini allalab uxlatadi. – Allloo-la, uxab tosin, shiyinim. Tatta tizim allaayoyoyo. Uxa, dedim, ana bappa telyapti. Tet bapa, tet.

Ushbu kvazidialogik nutqdan ma’lumki, qizaloqda tovush tushirilishi, tovush almashishi *ux**l**ab//uxab, **q**olsin//**t**osin, shi**r**inim//shi**y**inim, **k**atta//**t**atta, **q**izim//**t**izim, **k**et//**t**et* kabi talaffuz meyorlari buzilishi kuzatiladi. Bolaning yoshini inobatga oladigan bo‘lsak, buni o‘tkinchi holat sifatida qabul qilish mumkin.

M.Qurbonova ham “Bolalar nutqida lokutiv akt ba’zan nutqiy meyorlar talabi ostida, ba’zan unga amal qilinmagan holda shakllanishi mumkin”ligini ta’kidlaydi. [5]

So‘zlovchining muloqot maqsadi suhbatdoshining munosabatiga qarab o‘zgaradi yoki davom etadi, shuning uchun dialogik nutqning uyg‘unligi maqsadli faoliyatga bo‘ysunadi. Intensional tahlilda nutqiy faoliyatning so‘zlovchi maqsadi, istagi bilan bog‘liq tomonlari o‘rganilar ekan, mazkur tahlil nuqiy akt tadqiqida muhimdir.

Maqsad va unga erishish turli nutqiy harakatlarga mos keladigan replikalarda ifodalanganligi sababli kvazidialogik nutqda ham illokutiv akt replikalar orqali ifodalanadi. Masalan: Bunyod, 9 yosh. “Mol doktori” sahnalashtirilgan kvazidialogini ijro etadi. Kvazisherik — o‘yinchoqlar:

- *Kettim, xamsiyani qo‘zichog‘i kasal ekan shuni davolashga. Bular ham moliga hech yaxshi qaramas ekan-da. Men kelguncha tinchgina o‘tiringlar, beboshlik qilmay. Shunday deb qatorlashtirib terilgan o‘yinchoqlarini bir-bir yana to‘g‘rilab qo‘yadi.*

O‘rgimchak-odamni yuqorilab uchirib: Siz keginizcha orilarni qo‘rib turay, iltimos, zerikdim,- deydi.

- *Yaxshi, ehtiyot bo‘l, faqat. Chaqib olmasin. Men darrov qaytaman. Hamsiya! Hamsiya-yuyuyu! Hormang! Mana men keldim. Qo‘zichani ayag‘iga nima bo‘ldi? // taxtakach bilan bog‘laymiz, kel o‘zimga qoravoyim. Onangni aytganini qimay, ko‘p dirkillagansan-da.*

*Kechiring, boshqa sakramayman.*

- *Bo‘ldi, ayag‘ing yaxshi bo‘sa boqamiz, yangi yil bayramiga.... Yo‘g‘yeye xafa bo‘lma, hazillashdim. Seni hech kimga xafa qildirib qo‘ymayman.*

Mazkur o‘yin jarayonida bolaning istak va maqsadlari turli xil illokutiv aktlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan: “Kettim, xamsiyani qo‘zichog‘i kasal ekan”, “Mana men keldim”, “Zerikdim” kabi gaplarda tasdiq-xabar akti, “Men kelguncha tinchgina o‘tiringlar, beboshlik qilmay”,“Ehtiyot bo‘l, faqat”, Chaqib olmasin”, “Men darrov qaytaman”, “Onangni aytganini qimay, ko‘p dirkillagansan-da” kabi gaplarda ogohlantirish, “Siz keginizcha orilarni qo‘rib turay, iltimos” gapida iltimos, “Qo‘zichani ayag‘iga nima bo‘ldi?” gapida so‘roq, “Kechiring, boshqa sakramayman” gapida kechirim, “Bo‘ldi, ayag‘ing yaxshi bo‘sa boqamiz, yangi yil bayramiga” gapida istak, “Seni hech kimga xafa qildirib qo‘ymayman” gapida va’da nutqiy akti ifodalangan.

Mazkur kvazidialogik nutqda bola mol doktori rolini ijro etayotgan bo‘lsa-da, dialog so‘ngida bola o‘z “Men”ini namoyon etadi. Ya’ni kattalardan eshitgan ma’lumotlar bo‘yicha “Yangi yil bayramiga boqib so‘yamiz” istak akti shu zahotiyoq “Seni hech kimga xafa qildirib qo‘ymayman” va’da, g‘amxo‘rlik nutqiy aktiga o‘zgaradi. Bu esa bolalar dunyosining beg‘uborligi, ularning hayvonlarga nisbatan mehri o‘zgachaligidan dalolat beradi va buni o‘zi bilmagan holda beixtiyor nutqida ham namoyon etadi.

O.Pochepsov va Sh.Safarovlar ham intensiyani ikki qismga ya’ni “boshlang‘ich intensiya” va “natijaviy intensiya”ga ajratishni taklif qiladilar. Mazkur kvazidialogik nutqda ham “boshlang‘ich intensiya” kattalar nutqiga taqlid etish orqali ularning istak-maqsadini ifodalash bilan boshlangan bo‘lsa-da, “natijaviy intensiya”da bolaning o‘z maqsadi: hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish ichki istagi namoyon bo‘ladi.

Bolalar kvazidialogik nutqining kattalar dialogik nutqidan farqli jihati shundaki, bunda bolalar kattalarga ochiq-oydin aytolmagan istak va xohishlari, maqsadlarini kvazidialogik nutq orqali aytishga harakat qiladi. Masalan: Habiba, 7 yosh. Kvazisherik-qo‘g‘irchoq. “Ona va qizaloq suhbati” sahnalashtirilgan kvazidialogi.

*- Endi sen uxla, ustingni yopamiz, - deydi onalarcha mehribonlik qilib, qo‘g‘irchog‘ining ustini mato bilan yopadi.*

*- Uxlamay, ayajon. Hali vaqtli-ku!*

*- Ertaga barvaqt turishing kerak. Maktabga kech qolasan bo'lmasa.*
*-Ayajon, bir kungina darsdan qolay, iltimos.*
*- Iye, ikkichi bo'lib qolasan-da qizim.*
*-Mayli. Fotimayam 2 kun kelmadi-ku. Ustoz, baribir besh qo'ydi. Menam bir kun qolay.*
*-Xo'p. Bir kungina qola qol. Ustozingga qizim kasal bo'lib qoldi deb aytib qo'yaman.*
*-Urrreyeye!!! Multik ko'raman, kompyuter o'ynayman!- qo'g'irchog'ini dikonglatib o'ynatadi.*

Mazkur kvazidialogik nutqda iltimos, tasdiq, istak kabi illokutiv aktlar mavjud bo'lsa-da, bolaning mazkur kvazidialogni sahnalashtirishdan yagona maqsadi maktabga bormaslik istagini ifodalash. Mazkur istak illokutiv aktini bola kichik sahnalashtirilgan o'yin orqali qo'g'irchoq tilidan onasiga yetkazishga harakat qiladi.

Ko'rinadiki, ko'p hollarda bolalar kvazidialogik nutqida umumiy illokutiv akt yashiringan bo'ladi. Bola kattalarga ochiq aytolmagan fikrini kvazidialogni sahnalashtirish orqali yuzaga chiqaradi. Bolalar kvazidialogik nutqi bolaning bor hissiyotlarini, istaklarini erkin ko'rsatib beruvchi jarayon bo'lib, kattalarning odatiy nutqiy faoliyatidan farqlanadi. Chunki, kvazidialogning yuzaga chiqishi ma'lum vaziyat va muhitga bog'liq bo'lib, bola bunday vaziyatlarda erkin, xayoliy suhbatdoshlar uchun ochiq bo'ladi, o'zining til imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanadi. Negaki uning nutqini to'g'rilovchi, munosabat bildiruvchi jonli muloqot hamkori bo'lmaydi. U o'zining sevimli o'yinchoqlari bilan kattalardan ko'ra yaqin va erkin munosabatda bo'ladi. Bolalar kvazidialogik nutqi bolaning beg'uborligini aks ettiruvchi jarayon bo'lganligi bois ham, bu nutqda maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, va'da aktlari kam uchraydi. Aytish mumkinki, bolalar kvazidialogik nutqi yagona subyekt tomonidan boshqarilgani uchun nutq replikasi orqali ifodalangan illokutiv aktning amalga oshishi yoki tasdiqlanishi javob replikasida oson kechadi. Ya'ni replikalararo mazmuniy muvofiqlik va uyg'unlik kattalar dialogik nutqidan ustunlik qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. // Семиотика и информация. 1986, вып. 28. – С. 5-33;
2. Аҳмедова Н. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореф. - Тошкент, 2021.
3. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистическая прагматика. —М., 1985. Вып. XVI. —С. 233–250.
4. Давлатова Р.Ҳ. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. док. (DSc) дисс. – Тошкент, 2020.
5. ҚурбоноваМ. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. —Тошкент: Адабиёт учқунлари нашриёти, 2018. —Б. 160 .
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. —Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. -Б.79.
7. Серль Дж. Классификация иллокутивныхактов // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. —М., 1986. Вып. XVII. —С. 170–194.
8. Серль, Дж. Р. Косвенные речевые акты// Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. —М.: Прогресс, 1986. —С. 195–222.
9. Почепцов Г.Г. Избранные труды по лингвистике. Монография. – Винница: Нова книга. 560-с.

**INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY - KREATIV KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Meyliyeva Nafosat Gulomovna (O’zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqaloda innovatsion ta′lim texnologiyalar muhitini samarali shakilllantirish omillari keltirib o‘tilgan. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy- kreativ kompetentlik sifatlarini rivojlantirish. Zamonaviy ta’limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o‘qitishning yangi shakl usullarini qo‘llash.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion ta’lim, interaktiv metodlar, AKT, intellektual rivojlanish, didaktik texnologiya.

**Аннотация:** В статье обозначены факторы эффективного формирования среды инновационных образовательных технологий. Развитие профессионально-компетентностных качеств будущих учителей на основе инновационных образовательных технологий. Раскрытие сущности современного образования, всестороннее освещение деятельности педагога. Профессиональные навыки и творческий подход к уроку у будущих учителей, использование новых форм методов обучения.

**Ключевые слова:** инновационное образование, интерактивные методы, ИКТ, интеллектуальное развитие, дидактическая технология.

**Abstract:** The factors of effective formation of the environment of innovative educational technologies are mentioned in the article. Development of professional competence qualities of future teachers based on innovative educational technologies. Revealing the essence of modern education, comprehensive coverage of the pedagogue's activities. Professional skills and creative approach to the lesson in future teachers, using new forms of teaching methods.

**Key words:** innovative education, interactive methods, ICT, intellectual development, didactic technology.

**KIRISH**: Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilmoqda. [1]

Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta’lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya’ni ta’lim maskanlarining maqsadini bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta’lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetenlik faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda.[ 3]

**Innovatsiya-** so‘zi yangilik lotin tilida XVII asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi va ma’lum bir sohaga yangi sohaning kirib borishi va unga ushbu sohada bir qator o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi demakdir. Shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, innovatsiyani

amalga oshirish jarayoni emas, balki innovatsiyani muayyan ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat o‘zining to‘liq rivojlanishida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ish turlarini o‘z ichiga oladi, ularning umumiyligi real innovatsiyalarning paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

**Muhokama va natijalar:** Hozirgi kunda ta’lim jarayonida intiraktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil

qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik funksiyasini bajaradi.[ 2]

Innovotsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Pedogogik texnologiya va pedogogik mahoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o ‘quvchi talabalarning

bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

**INNOVATSIYA –** (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san’at, mahorat va “logos” — fan so‘zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma’noni bildiradi. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. [Panfilova A.P:2009-5]

**Interaktiv metodlar**-bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lb, ularga quyidagilar kiradi:

- O‘quvchi-talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- O‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- O‘quvchi-talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;
- Pedogok va o‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkilllanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedogogik texnologiya bu faqat axborot -texnologiyasi bilan bog‘lq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan TSO, kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.[4]

Bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik tusiqlar mavjud. Bularning birinchisi pedagogning o‘zi ko‘nikma hosil qilgan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinlik bilan ya’ni pedagoglarda ijodkorlikning yetarli darajada emasligi bo‘lsa, yana bir sababi yangi va noma’lum narsalar har doim insonlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’lim bo‘yicha jahonning rivojlangan mamlakatlarida ilm –fan, texnika, texnologiyalar va iqtisodiyotini hisobga olgan holda raqobatga qodir mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi lozim. Buning uchun esa raqobatga qodir mutaxssislarni yangi avlodi o‘z oldiga istiqbolini ko‘zlagan yangi vazifalar qo‘yib, ularni yechimini topa olish qobiliyatiga, yuksak tafakkur madaniyatiga hamda ilmiy – texnik va ijtimoiy – siyosiy axborotlardan mustaqil ravishda foydalana olish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim.[6 ]

Bo‘lajak pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim:

* yangilikni idrok qilishga innovasion tayyorgarlikni shakllantirish;
* yangicha harakat qila olishga o‘rgatish.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va ularni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish – pedagogik faoliyatini yangi impuls bilan yo‘g‘rilishiga, jahon andozalariga mos bo‘lish imkonini beradi.

Pedagoglarda innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi.Pedagogning innovatsion faoliyatiga ijobiy tayyorgarligi quyidagichadir:

❖ Mo‘ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
❖ yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorligini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash;
❖ yangilikni tadbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
❖ yangilikni tadbiq etadigan tashkilotning innovasiya qobiliyatiga baho berish. [6]

**Xulosa:** Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning mavjud holatini tahlil etish asosida o‘quvchilar kasbiy qiziqish va kasb tanlashning psixologik-pedagogik

asoslari o‘rganildi va innovatsion faoliyatni tashkil etish, qobiliyat va ko‘nikmalarni qiziqishlar rezonansi asosida shakllanishning muhim ahamiyati integrativ tushunchalari pedagogikaning zamonaviy konseptual tendensiyalariga asoslanib, muallif tomonidan ta’riflangan.

**Adabiyotlar.**

1.Muslimov.N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb taʼ limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

2.Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y

3. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot.-T.: “Fan”. 2005.

4.Ibragimova G.N. Interfaol o’qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.

5.Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o’rganish: Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009

6.Axmetova D., Gurye L. Universitet o'qituvchisi va innovatsion texnologiyalar // Oliy. Rossiyada ta'lim. 2001. No 4. S. 138-145.

## TALABALARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Murodova Dilfuza Djurakulovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
**To‘qboyeva Dilshoda Zayniyevna(O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari haqida haqida fikr yuritilgan. Unga ko‘ra rahbarlarga qo‘yiluvchi talablar asosida yaratiluvchi professiogrammalar haqida fikrlar berib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** lider, intizomlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tolerantlik, kommunikativlik.
**Аннотация.** В данной статье рассматриваются дидактические возможности подготовки студентов к управленческой деятельности в высших учебных заведениях. В соответствии с ним даны представления о профессиограммах, которые создаются на основе требований, предъявляемых к руководителям.
**Ключевые слова:** лидер, дисциплинированность, самостоятельность, инициативность, толерантность, коммуникативность.
**Annotation.** This article discusses the didactic possibilities of preparing students for managerial activities in higher educational institutions. In accordance with it, ideas are given about the professionograms that are created based on the requirements imposed on managers.
**Keywords:** leader, discipline, Independence, Initiative, tolerance, communicativity.

Talabalarda o‘z sohasiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish, rivojlangan, o‘ziga ishonchi yuqori, malakali boshqaruvchi kadrlarni tayyorlashda umumiy texnologik jarayondan tashqari ular bilan o‘quv rejalarida belgilangan fanlar asosida ham nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlab borish mumkin. Bunday jarayonlarda darslardagi turli xildagi metodlar, shaxsning rivojlanish darajasini oshirib va rivjlantirib boruvchi psixologik testlar, so‘rovlar muntazam ravishda amalga oshirilib borilishi lozim. Bu jarayonlarda eng soda ko‘ringan metodlardan foydalanish natijasida, bosqichma - bosqich, ixtiyoriy anglanmagan holda talabalarda faoliyatga doir bilimlar bo‘laklarga bo‘lingan holda taqdim etilib boriladi va ularni kelgusi faoliyatda birlashtirishi, tizimlashtirilishi anchayin murakkab va yirik hajmdagi ma’lumotlar bazasi yig‘ilayotganligini sezilarli darajada ifodalay oladi. Masalan, maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalarining “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanida quyidagi mavzu orqali talabalarda o‘z sohasiga oid muhim masalalardan biri bilan tanishish imkoniyati mavjuddir. “Sohada davlat tilida ish yuritish masalalari. Tashkiliy hujjatlar. Rasmiy idoraviy hujjat turlari. Tashkiliy hujjatlar, ularning zaruriy qismlari” mavzusi keltirilgan bo‘lib, aynan maktabgacha ta’lim

tashkilotining har bir rahbar va xodimlari bilishi kerak bo‘lgan tizimlardan biridir. Ushbu mavzuni “Rotatsiya” metodi orqali o‘tish va talabalarga ish hujjatlarini o‘rgatishda yengillik yaratish mumkin. Bu metod mashg‘ulot mavzusini har bir kichik guruh alohida – alohida qilib muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun guruh jamoa bo‘lib tahlil qilib ko‘rishi uchun qo‘llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-dars mavzusi bo‘yicha nomerlangan topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzuchalar) plakatlarga yozib doskaga osib qo‘yiladi;

-topshirqlar soni nechta bo‘lsa o‘quvchilar ham shuncha guruhga ajratiladi va guruhlar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o‘zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma’lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o‘zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o‘rganib, topshiriqqa javoblarni yozishadi;

-topshiriqlar yozilgan javoblar varag‘i va ma’lumotlar paketi guruhlararo almashtiriladi, qo‘shimchalar qilinadi lekin javoblar takrorlanmaydi;

-javoblar qaysi gurhniki ekanligini farqlash uchun turli rangdagi flomasterlardan foydalanish yoki guruhlar o‘zlarining nomeri ostiga javoblarni yozishi mumkin;

-javoblar yozilgan varaqlar doskadagi osig‘liq plakatlarga yopishtiriladi, o‘qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va to‘g‘ri javoblar daftarga yozib olinadi;

-to‘g‘ri va mukammal javoblar soniga qarab talabalar baholanadi;

Bu metoddan mustahkamlash darslarida, shuningdek, matn bilan ishlashga ajratilgan mavzularda foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, ish hujjatlari mavzusiga doir mavzular yuzasidan mustahkamlash darsida quyidagicha qo‘llash mumkin: guruhga uchta topshiriq beriladi va uchta guruhga ajratiladi;

1-guruhga: ariza va tilxat na’munalari asosida yangi ariza va tilxat yozish vazifasi beriladi.

2-guruhga: tushuntirish xati va ma’lumotnoma na’munalari asosida yangi tushuntirish xati va ma’lumotnoma yozish vazifasi beriladi.

3-guruhga: tarjimayi hol na’munasi asosida yangi tarjimayi hol yozish vazifasi beriladi.

Talabalar topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishlari, ularni muhokama qila olishlari uchun bu mavzular o‘tilgan ma’ruza darslari davomida o‘qituvchi tomonidan yaxshi tushuntirilgan bo‘lishi kerak. Bu metodning afzalligi shundaki, talabalar o‘z fikrini ayta oladi, himoya qila oladi, darslar davomida bilimida yuzaga kelgan bo‘shliqlarni to‘ldiradi, bir- biri bilan ma’lumot almashib barcha tushunchalar bilan tanishishga erisha oladi.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash fanida keltirilgan, “Tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash” mavzusini olganimizda talabalarda yangicha fikrlash, muammoli vaziyatlarga odilona baho berish, to‘g‘ri yechim topa olish, o‘z fikri va nutqini ifodalay olish, boshqalarni ishontirish, jamoani o‘z ortidan ergashtira olish kabi yetakchilikka xos bo‘lgan sifatlarni yanda kengroq rivojlantirishda “G‘oyaviy charxpalak” metodidan foydalanishimiz mumkin. “G‘oyaviy charxpalak” metodining tashkil etilish bosqichlari:

Kichik guruhning (4-5 kishidan iborat) har bir ishtirokchisiga toza oq varoq beriladi va bir xil savol beriladi (zarur bo‘lganda o‘qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin). Barcha ishtirokchilar og‘zaki fikr almashmasdan, o‘zlarining varoqlaridagi savollarga bo‘lgan javoblarning o‘z-o‘zidan aqlga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar. Ifodalar yozilgan varaqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo‘yicha kichik guruhdagi qo‘shnilarga uzatiladi. Bunday varoqni olgandan so‘ng har bir ishtirokchi varoqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir ishtirokchining varog‘i yana o‘ziga qaytib kelgandan so‘ng ish yakunlanadi. Ushbu bosqichda yozuvlar tahlil qilinmaydi, baholanmaydi va tanlab olinmaydi (ushbu uslubiyatning «aqliy hujum» bilan ayrim o‘xshashligi ana shunda namoyon bo‘ladi).

Kichik guruhlarda ishtirokchilar tomonidan ifodalangan javoblar va takliflarning muhokamasi o‘tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro‘yxatga kiritiladi. Kichik guruhlar ishlanmalarining natijalari bilan almashish. Barcha kichik guruhlar navbatma-navbat yakuniy ro‘yxatdan o‘z ifodalarini taklif etadilar. Agar bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e’tiroz bildirmasalar u oxirgi ro‘yxatga kiritiladi. Ushbu metodning afzalliklari, taklif etilgan masalalarni izchil muhokama qilishni tashkil etish, so‘ng jamoa bo‘lib qarorni qabul qilish, jamoa fikrini tinglay olish, hurmat qilish, bilimlarni dolzarblashtirish va mavjud tajribani aniqlashda samarali natijalarga olib keladi.

Xuddi shuningdek maktabgach pedagogika, yoki pedagogika fanlar tizimida ham talabalarda ma’lum darajada liderlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi kichik metodlarni qo‘llash mumkin. Misol uchun umumiy pedagogika fanidan “Pedagogik nizolarni bartaraf etish texnologiyasi”, yoki “Pedagogik muloqot tizimi va uni tashkil etish texnologiyasi” mavzularida “Qarorlar shajarasi” metodidan keng foydalanishimiz mumkin. “Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. “Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a’zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda barcha o‘quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan xulosa borasida savollar paydo bo‘lganda, ularga javoblar qaytarib beriladi, noaniqliklar aniqlanadi. Agarda barcha guruhda muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo‘lsa, muammo yechimini topadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, bugun rivojlangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turining xilma-xilligi pedagogik boshqaruvning moslashuvchan tizimini yaratishni talab qilmoqda. Ko‘p yillar davomida maktabgacha ta'limni boshqarish faoliyati amalda faqat rasmiy ko‘rsatmalarni bajarishga qaratilgan edi. Zamonaviy sharoitda pedagogik jarayonning dasturlari, usullari, vositalari va shakllarini tanlash imkoniyati paydo bo‘lib, u bir tomondan, maktabgacha ta'lim mutaxassisining ijodiy o‘zini - o‘zi anglashi uchun yo‘l ochsa, ikkinchi tomondan maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonini boshqarishda uning kasbiy mahorati darajasini ham belgilay boshladi. Binobarin, an’analar va innovatsiyalarni o‘zida mujassam etgan innovatsion jarayonlar maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishga tayyorgarlikning yangi maqsadlari, mazmuni, shakllari va usullarini ishlab chiqish mexanizmi bo‘lmoqda. Shu bois, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida zaxira kadr imijini shakllantirishda kelajakdagi o‘zgarishlarga ehtiyoj sezilib, jamiyatda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bosqichi boshlanmoqda. Yangi zamonaviy rahbarning imiji – bu san’atni qadrlovchi, “sog‘lom yashash tarzi”ni targ‘ib qiluvchi, oilaparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ulariga ega hamda “ommaviy” ma’lumot sohibi demakdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 – yil 23 – sentabrdagi 637 – sonli “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 – yil 16 – dekabrdagi 595 – sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi PF-60. 2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022-yil 28-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli Qarori.
5. Alikariyeva A.N. Oliy o‘quv yurtlarida sotsial boshqaruv mexanizimlarini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish. Toshkent. 2017.
6. Ansoff I. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989. – 221 с.
7. Ahlidinov R.Sh. Ta’limni boshqarish. - Toshkent: Sharq. 2003.
8. Бернард.В М - Лидерство и производительность выше ожиданий (1985);

# “EVRIKA” TAJRIBA LABORATORIYASIDA 6-7 YOSH BOLALARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna (O‘zbekiston)**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti , 13.00.08 -Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtissosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotasiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mini laboratoriyalar tashkil etish orqali tajriba-tadqiqot faoliyatini sifatli, kreativ olib borish, hamda, bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish, kichik sohalarning shakillanishi, takomillanishi ochib berilgan. Shuningdek, tajriba-tadqiqot faoliyati davomida sohalar integratsiyasi orqali rivojlanish markazlarininig maqsad va vazifalari, nazariyasi, bolalarning erkin va mantiqiy fikrlash qobilyatlari, kognitiv qobilyat rivojlanishi, tajriba faoliyati orqali bolalarning maktabga sifatli tayyorlash metodikasi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat dasturi, makatabgacha ta’lim tashkiloti, erkin va mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, laboratoriya hududi, xavfsiz tajribalar, aniq va tabiiy fan, sifatli ta’lim, jarayon, ishlab chiqarish jarayoni, o ‘quv dasturi, ko‘nikmalar, iqtidor, tadqiqotchi, ijobiy natija, maktabga tayyorlov guruh, integratsiya.

**Аннотация:** В статье раскрывается качественное и творческое проведение экспериментально-исследовательской деятельности, а также развитие познавательных процессов детей, формирование и совершенствование малых сфер познания путем организации мини-лабораторий в дошкольных образовательных организациях. Также в ходе экспериментально-исследовательской деятельности были выделены цели, задачи и теории центров развития, способности свободного и логического мышления детей, развитие познавательных способностей, метод качественной подготовки детей к школе через экспериментальную деятельность.

**Ключевые слова:** Государственная программа, дошкольная организация, свободное и логическое мышление, развитие, лабораторный зона, безопасные эксперименты, точные и естественные науки, качественное образование, процесс, производственный процесс, учебная программа, навыки, талант, исследователь, положительный результат, подготовительная группа к школе, интеграция.

**Annotation:** The article reveals the high-quality and creative conduct of experimental research activities, as well as the development of children’s cognitive processes, the formation and improvement of small spheres of cognition by organizing mini-laboratories in preschool educational organizations. Also, in the course of experimental research activities, the goals, objectives and theories of development centers, the ability of free and logical thinking of children, the development of cognitive abilities, and the method of qualitatively preparing children for school through experimental activities were highlighted.

**Keywords:** State program, preschool organization, free and logical thinking, development, laboratory area, safe experiments, exact and natural sciences, qualitative education, process, production process, curriculum, skills, talent, researcher, positive result, preparatory group for school, integration.

Maktabgacha ta’lim tizimi bu shaxsning hayotida muhim davr bosqichlaridan biri bo‘lib, mazkur vaqt oralig‘i bolaning ilm olishi va ta’lim- tarbiya jarayonining asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga berilayotgan ta’lim va tarbiyaing sifati davlat siyosati darajada ekanligi barchamizga ma’lum. Xususan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qaror, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi yangi tahriri, “Maktabgacha ta’lim tashklotlari pedagoglarining ish xujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-avgust, 99-sonli buyruq va boshqa me’yoriy xuquqiy xujjatlar shular jumlasidandir. Asosiy maqsad esa, kelajagimiz bo‘lmish bolajonlarning sifatli ta’lim va tarbiya olishlari uchn shart - sharoit yaratishdir.

Bolalar tadqiqotchiligi- maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonini rivojlantirish metodikalaridan biri. Tajriba-tadqiqotchilik faoliyati barcha faoliyat turlari va tarbiyaning barcha jihatlarini birlashtiradi, kuzatuv, aql-idrok,dunyoni bilishga intilish, bilish qobilyatlari, kashfiyot qilish, murakkab vaziyatlardan noan’anaviy yechimlar toppish malakalarini rivojlantiradi va ijodkor shaxsni tarbiyalaydi.

Tadqiqotchilik ta’limning asosiy xususiyati- bolalarning tadqiqiy va ijodiy xarakteriga ega bo‘lgan ta’limiy ishlarni faollashtirish va shu tariqa ularning ularning tadqiqiy-bilish faoliyatlarini tashkil etish orqali tashabbuslarini tarbiyalanuvchilarning o‘zlariga berishdan iorat.

Tadqiqot-tajriba mini laboratoriyasini tashkil qilishdan maqsad bolda qiziqarli va xafsiz tajribalarga, fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun sharoit yaratish; Pedagoglarning foydali ish koefitsentini o‘stirish.

Jonli, jonsiz va inson omili bilan yaratilgan narsalarga nisbatan mustaqil, erkin, mantiqiy va fikirlay oladigan, tahlilar natijasida to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan aqliy faolligi yuqori salohiyatli (kreativ) shaxsni tarbiyalash.

Rivojlanish sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda (integratsiya) takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo‘lgan keyingi bosqichiga muammosiz o‘tishi va unga tayyor bo‘lishi, boshlang‘ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

● jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
● ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
● nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
● bilish jarayonining rivojlanishi;
● ijodiy rivojlanish.

MTTlarda rivoklantiruvchi beshta markaz faoliyatlari mavjud:

- Qurish, konstruksiyalash va matematika;
- Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish;
- Til va nutq;
- Fan va tabiat;
- San’at.

“Fan va tabiat” rivojlanish markazida bolaning turli yosh guruhlariga mos ravishda tajriba-tadqiqot faoliyati olib boriladi. Tajriba-tadqiqot faoliyati orqali bolaning bilish jarayonining kichik sohalari yoritiladi va rivojlantiriladi.

“Fan va tabiat”markazida quyidagi jihozlar va materialllar tavsiya etilgan:

Jihozlar:

• stol (1), stullar (2-4); • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar.

Materiallar:

• tadqiqot uchun turli ob'ektlar to‘plami (toshlar, dengiz chig‘anog‘i, qarag‘ay g‘uddasi, minerallar, gazlamalar, urug‘lar, o‘simliklar (gerbariy va boshqalar) to‘plamlari); • kattalashtiradigan oynalar, lupalar; • mikroskop; • magnitlar to‘plami; • tajriba uchun to‘plamlar; • tarozilar; • bolalar uchun xavfsiz termometrlar; • qum soati, sekundomer; • o‘lchov stakanlari to‘plamlari; • ob-havo taqvimi; • globus, geografik xaritalar, bolalar atlasi; • tasvirli o‘quv kitoblari, plakatlar, rasmlarni o‘z ichiga oladi.

Mini laboratoriya jihoz va materiallari tajriba faoliyatidan kelib chiqib turlichadir. Ammo har qanday tajriba uchun zarur jihoz, xom ashyo va boshqa kerakli narsalar bolalar va pedagog hayot xavfsizligiga ziyon bermasligi zarur. Tajriba faoliyati qiziqarli, ta’limiy –tarbiyaviy bo‘libgina qolmay xavfsizlik jihatidan homoyalangan bolmog‘i kerak.

Mini laboratoriya tadqiqot-tajriba faoliyatini quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

-Maktabga tayyorlov guruh bolalarida qiziqarli va xavfsiz tajribalar orqali tadqiqiy-bilish va samaraliy refleksiv faoliyatni rivojlantirish;

-bolalarda sodda ilmiy tajriba faoliyatlarini birgalika bajrish orqali tabiatni yaqindan anglash malakalarini shakillantirish;

-tajribalar orqali bolalarda ekologik ma’daniyatni shakillantirish;

-tabiatga nisbatan g‘amxo‘rlik munosabatlarini tarbiyalash;

-tabiat boyliklari, ne’matlari va resurlaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakillantirish;

-bolalarni topqirligini ,ixtirochilik qobilyatlarini rivojlantirish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashi va dunyoni tunishining innovatsion usullari orqali tajriba faoliyatini bajarishi uchun shart sharoit yaratish;

-maktabga tayyorlov guruh bolalarining muammolarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadqiqiy laboratoriya yaratish orqali tayyorlov guruh bolalarining ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini rivojlantirish;

-6-7 yoshli bolalar uchun tadqiqot laboratoriyasini yaratish orqali "Fan va tabiat" rivojlanish markazi

faoliyatini takomillashtirish;
-bolalarda laboratoriya vositasi orqali olib boriladigan tajribalar jarayonida tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish;
-qiziqarli va xavsiz tajribalar orqali bolalarning intellektual-anglash, elementar matematik malakalari, samarali refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish;
-tajriba faoliyati orqali bolalarni hurfikrlilik, bilmga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ularini shakillantirish.

Mazkur tajriba faoliyati davomida o‘quv dasturiga asoslangan holda xaftalik, oylik mavzularga mos tajriba faoliyati qo‘llanilishi va bu jarayonda markazlar, sohalarning integratsiyasi bolalarning bilish jarayonllarini rivojlantirishida ijobiy samara berishiga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. “Fan va tabiat” rivojlantiruvchi markazida 6-7 yoshli bolalar bilan tadqiqiy-bilish va tajriba-tadqiqotchilik faoliyati. Metodik qo‘llanma. G.A. Omanova, G.G. Ismanova, M.P. Jumakova.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil, 8 -maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-son Qarori// Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10. 05. 2019 y., 07/19/4312/3106-son.


## MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARDA BOLALARDA IJODIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI


**Nurmatova Iroda Toxtasinovna (O‘zbekiston)**
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
**irodanur@inbox.ru**



**Annotatsiya:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarni tashkil etish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlar jarayonida bolaning ijodiy shaxsi va uning faolligi har tomonlama rivojlanadi. Ushbu maqolada musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarda bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish haqida fikr mulohaza yuritiladi.



**Kalit so‘zlar:** Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, usul, vosita, teatr, spektakl, integratsiya, improvizatsiya, dramatizatsiya.


Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Eski ijtimoiy munosabatlar shakllarining buzilishi va yangi demokratik hayot tarzining vujudga kelishi shaxsda ijodiy faollikni shakllantirishni talab qilmoqda. Rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatga ijodiy, eng avvalo, ijodiy faol, dadil, noan’anaviy va o‘ziga xos tarzda fikrlashga, muammolarni samarali hal qilishga qodir bo‘lgan o‘zini faoliyatning har xil turlarida namoyon etuvchi ijodiy faol shaxslar kerak. Ijodiy fikrlaydigan shaxs o‘ziga qo‘yilgan vazifalarni tezroq va tejamkorlik bilan hal qila oladi, qiyinchiliklarni samarali engib chiqadi, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘ya oladi, o‘zini tanlash va harakat qilish erkinligi bilan ta’minlaydi, ya’ni tashkilotchilikka ega bo‘ladi,shuningdek, jamiyat tomonidan o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni hal etishda eng samarali usullarni tanlay oladi. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir bolani ijodiy faollik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Bolalar ijodkorligi musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarda orqali amalga oshiriladi. Bolalar ijodiyotining eng ko‘p tarqalgan turi sifatida aynan musiqali-sahnalashtirilgan faoliyatlar badiiy ijodiyotni bolaning ichki kechinmalari bilan bog‘laydi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlar bolalarda empatiyani rivojlantirishning, ya’ni mimika, imo-ishoralar, intonatsiya orqali odamning hissiy holatini namoyish qilish qobiliyati sifatida, eng muhim vositadir. Musiqiy-sahnalashtirilgan faoliyatlarga: qo‘g‘irchoq teatrlarini tomosha qilish va ular haqida suhbatlashish; dramalashtirish o‘yinlari; transformatsiya o‘yinlari; bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun mashqlar; logarifmik mashqlar; barmoq o‘yinlari; nutq intonatsiyasining ifodaliligini rivojlantirish uchun o‘yinlar; egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar; teatr etyudlari; ertak, tomosha va boshqalarni sahnalashtirish kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin[60].

Sahnalashtirilgan o‘yinlarda bola dunyoni aqli va qalbi bilan o‘rganadi, yaxshilik va yomonlikka munosabatini bildiradi; muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq quvonchni o‘rganadi.

Sahnalashtirilgan faoliyatlar orqali yaxshilikka ham, yomonlikka ham o‘z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ideallariga aylanadi, ularga taqlid qiladi. Sahnalashtirish o‘yinlari ilk ijodiy qobiliyatni shakllantiradi, tortinchoqlikni engishga, o‘ziga ishonchni oshiradi. Bolalarni ijodkorlikka yo‘naltiradi, musiqiy-sahnalashtirilgan faoliyatlarda ishtirok etish ehtiyojini ortib boradi.

Musiqiy-sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarda bolalarning nutqi personajlarga taqlid qilish orqali takomillashadi. Qahramonlar replikalarining ifodaliligi, o‘z ustida ishlash jarayonida bolaning so‘z boyligi sezilarli tarzda faollashadi, nutqining tovush madaniyati va intonatsion tuzilishi yaxshilanadi. Ijro etilgan rol, talaffuz qilingan replikalar bolani aniq, ravshan, tushunarli tarzda gapirishga majbur qiladi.

Sahnalashtirilgan o‘yin bolalikdagi eng dolzarb va eng maqbul o‘yin turidir. Bu o‘yinlarda bolalar obrazlar, ranglar, tovushlar orqali qahramonlarning his-tuyg‘ulari, kayfiyatlari, atrofdagi dunyo bilan tanishadilar, hissiyotlarni ifodalash usullarini o‘zlashtiradilar. O‘yin davomida bola o‘zini bemalol, erkin his qiladi.

Sahnalashtirilgan o‘yinlarda bolalarda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Diksiya bo‘yicha mashqlar (artikulyar gimnastika);
- Nutq intonatsiyasining ekspressivligini rivojlantirish;
- O‘yin-o‘zgarishlar, obrazli mashqlar;
- Bolalarning plastika qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar;
- Ritmik daqiqalar;
- Barmoq gimnastikasi, o‘yin mashqlari;
- Ifodali mimika, pantomima elementlarini rivojlantirish mashqlari;
- Ritmik harakatlarni bog‘lab, diksiyani rivojlantirish uchun mashqlar.

Musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlar tuyg‘ular, tajribalar va hissiy kashfiyotlar rivojlanishining bitmas-tuganmas manbai, ma’naviy boylik bilan tanishish usulidir.Sahnalashtirilgan faoliyatlar bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. U bolaga yaqin va tushunarli, uning tabiatida chuqur yotadi va o‘z-o‘zidan aks etadi, chunki u o‘yin bilan bog‘liqdir. Bola o‘zining barcha ixtirolarini, atrof hayotidagi taassurotlarini jonli obrazlar va harakatlarga tatbiq etishni xohlaydi. Obrazga kirib, u har qanday rolni o‘ynaydi, ko‘rgan va uni qiziqtirgan narsaga taqlid qilishga harakat qiladi va katta hissiy zavq oladi.

Musiqali sahnalashtirish faoliyatida bolalar ijodining barcha turlari, shu jumladan musiqa uchun imkoniyat yaratiladi. Musiqali sahnalashtirish faoliyati bolalar quyidagilarni egallashadi:

- obraz yaratishda, o‘yinda rag‘batlantirish malakasini oshirish.
- teatr madaniyati haqida ma’lumot berish, bolaning umumiy madaniyati va axloqiy sifatlarini rivojlantirish;
- musiqa, bolalar adabiyoti bilan tanishtirish, odob-axloq qoidalari, tasviriy san’at, qiziqishni uyg‘ota olish;

Musiqali sahnalashtirish faoliyatlarini pedagogik imkoniyatlari katta, chunki mavzular bunda cheklanmagan hamda bolalarni qiziqishlari va xohishlariga mos keladi. Bunda bolaning ijodiy faolligi shakllanib, rivojlanadi, shu bilan birga badiiy, estetik va intellektual ta’lim bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning barqaror motivatsiyasini rivojlantirishda teatr faoliyatining mazmuni bo‘lgan san’at asarlarini diqqat bilan tanlash, ijodiy suhbatlarning mavjudligi va hissiy muhitni yaratish, guruhlarda teatr zonalari, bola rolni mashq qilishi yoki obraz yaratishdagi imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda teatr burchagini jihozlash; har xil turdagi qo‘g‘irchoq teatri va rolga kirish uchun libos tayyorlash; ijodiy muhit yaratish kerak. Bu ishlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, musiqali sahnalashtirish faoliyatlariga motivatsiyani uyg‘otadi.[4]

Musiqiy sahnalashtirilgan faoliyatlarda ijodiy tasavvurning rivojlantirishda bolalarga turli ertak obrazlarini yaratishga; qiziqtirish, tasvirni ko‘rsatish, obraz xarakterining turli holatlarini ko‘rsatish; o‘yindagi xatti-harakatlarini namoyon qilish; rasmda ko‘rsatilgan voqealarni tahlil qilish, tushuntirish ertaklardagi eng yorqin, hissiy voqealarga rang berish kabi usullar qollaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy sezgirlikni rivojlanishida: “his-tuyg‘ularni ifoda eting”, “turli kayfiyat” kabi hissiy o‘yinlarni qo‘llash; bolalar tomonidan tuzilgan ijodiy hikoyalarga ovoz berish; hikoya va ertaklarni birgalikda o‘qish va tahlil qilish;o‘qilgan adabiy asarlar yuzasidan suhbatlar o‘tkazish; ushbu asarlar mavzusi bo‘yicha samarali faoliyat; turli spektakllarni sahnalashtirish;

Tarbiyachi bunda his-tuyg‘ularni bilishga qaratilgan suhbat o‘tkazishi, so‘ngra turli xarakterga ega bo‘lgan qahramonlar ajratib ko‘rsatishi, rollarga taqsimlashi kerak. Sahnalashtirish va dramatizatsiya

jarayonida turli hissiy holatlarni o‘ynash uchun bolalar teatr o‘yinlarining turli daqiqalarida o‘zlarini ko‘rishga imkon beradigan “maxsus” oynaga qarashlari mumkin. Musiqali sahnalashtirish faoliyatlari bolalarda yaxshilik va yomonlik, rostgo‘ylik va yolg‘on, mennatsevarlik va dangasalik kabi ikki tomonlama tushunchalarni vizual tarzda muhokama qilish imkonini beradi. Sahnalashtirilgan o‘yinlar — bu teatrdagi o‘yinlar bo‘lib, ularning syujeti taniqli ertaklar yoki tayyor ssenariylar bo‘yicha teatrlashtirilgan tomoshalardir. Bundan tashqari, o‘yin bolalarning o‘zini namoyon qilishning ustuvor turi bo‘lib, hayotdan olingan taassurotlarni ifodalash bolaning tabiatiga xos bo‘lgan zaruriy ehtiyojdir. Atrofdagi dunyoda ko‘rganlarini tushunish, tanlash va aniqlashtirishda bola o‘yin orqali hayotiy tajribasini to‘ldiradi.

Qo‘shiq aytishni, rasm chizishni, raqsga tushishni yoqtirmaydigan bolani tasavvur qilish qiyin. Har bir bolada yashirin qobiliyat bor. Tarbiyachilar ham, ota-onalar ham bu iste’dodni aniqlashlari va rivojlantirishlari zarur. Bolalarni ertaklarni o‘ylab topishga o‘rgatish, adabiy tanlov yoki spektakldа ishtirok etishga qiziqtirish, turli tanlovlarda ishtiroki, bolalarda o‘ziga ishonch, jur’atlilik, ijodiy salohiyatini ochib beradi. Turli musiqali sahnalashtirilgan faoliyatlarda ishtirok etish bolalarga o‘z mahorati, iste’dodi va yutuqlarini namoyish etish imkoniyatini beradi, turli ommaviy tadbirlar, ishtirok etish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlari va ijodiy faolligi rivojlanadi.

Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijodiy faollikni rivojlanishida musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarning ahamiyati kattadir. Bolalar ijodiy faollikni shakllantirish mazmunida tasavvur qilish, fantaziya, topqirlik, zukkolik va yangi harakat usullarini o‘ylab topish, savollarga tezkorlik bilan javob izlash kabilar o‘zlashtirishlarida musiqali sahnalashtirishning o‘rni beqiyosdir.

Shunday qilib, musiqali sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning topqirligi, ijodiy va badiiy ko‘nikmalarining shakllanganligi qo‘llab-quvvatlanadi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyat asosida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi bolaning umumiy psixologik rivojlanishiga, pedagog-tarbiyachi tomonidan bolaga axloqiy va estetik ta’sir etishga yordam beradi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyat – bu tizim bo‘lib, bolaning qobiliyatini analiz va sintez qilish, uning hissiy va ijodiy rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Musiqali sahnalashtirilgan faoliyat verbal va noverbal holatda bolaga kompleks ta’sir etish, emotsional holat, nutq faoliyatini faollashtirish, pisxologik holatdagi kamchiliklarni to‘g‘rilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**


1. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation., 15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
2. Nurmatova I.T.“Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqali teatrlashtirilgan o‘yinlar vositasida ijodiy faolligini rivojlantish”. // O‘zbekiston va xorijda maktabgachata’lim:kecha, bugun va ertaga. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax. 2022 yil. 14 oktyabr. – B. 310.
3. Артёмова Л.В Театрализованные игры дошкольников: -М.: Просвещение, 1991. – 124 с.
4. Чурилова Э.Г. Методика и организация театрализованной деятельности дошкольников и младших школьников. – М.: Владос. 2004. – 160 с.


## СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ГДОО НА ЗАНЯТИЯХ В ЦЕНТРАХ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА


**Масимова Кунел Илясовна (Узбекистон)**

воспитатель ГДОО №15 г. Зарафшан



**Аннотация.** В статье показана роль современных форм методической работы в воспитании и развитии современного дошкольника, определены особенности использования данных форм в работе воспитателя в центрах развития детей по государственной программе «Первый шаг».



**Ключевые слова:** Инновация, «Первый шаг», «Эбру», «Миллефиори», 3D конструкторы.


Результаты анализа современной научной литературы свидетельствуют, что условием развития творческого потенциала педагогов является инновационная деятельность. Методическая работа в дошкольной образовательной организаии представляет собой целостную, основанную на

достижениях науки, передовом педагогическом опыте, систему взаимосвязанных мер, направленных на повышение профессионального мастерства каждого педагога, на развитие творческого потенциала педагогического коллектива, на повышение качества и эффективности образовательного процесса.

Инновационную методическую работу определили как часть профессионально-педагогической деятельности, ориентированной на овладении педагогами новыми, инновационными способами профессиональной деятельности. Цель методической работы состоит, прежде всего, в развитии творческих способностей педагогов.

На мой взгляд наиболее целесообразными формами методической работы могут выступить современные инновационные формы проведения занятий с детьми в 5 центрах развития, по государственной программе «Первый шаг».

Для начала распределяется материал для занятия детей в центрах. Дети самостоятельно выбирают центр, в котором они хотят заниматься. Воспитатель с помощью ИКТ (показом видеоролика по теме) мотивирует детей на работу в центрах. Перечислю центры и их материалы:

1. В центре языка и речи я использую различные дидактические игры, картинки, использую мнемотехнику.
2. В центре строительства, конструирования и математики использую магнитное лего, конструкторы, 3D конструкторы из ватных палочек , пластилина и схемы сборки.
3. В центре науки и природы организую с детьми различные опыты и эксперименты: «Извержение вулкана», «Полимерные червяки», «Магические кристаллы», «Химический светофор», «Кислотные узоры».
4. В центре искусства: рисование на молоке гуашью в стиле «Эбру» (используется молоко и клей ПВА, различные гребни и кисточки), рисование с помощью проектора (срисовывание силуэта тени предмета от проектора), лепка в стиле «Миллефиори» (итал. Millefiori –«тысяча цветов», техника смешивания нескольких цветов пластилина), «Пластилинография», аппликация с использованием нетрадиционного материала (природный материал, бросовый материал, блёстки, пуговицы). Аппликация в стиле «Квилинг».
5. В центре сюжетно-ролевых игр и драматизации показ драматизаций сказок и сюжетно-ролевые игры.

Вышеназванные формы методической работы направлены на повышение квалификации и мастерства воспитателя, его самоутверждение. Постоянная связь содержания методической работы с результатами педагогической деятельности педагога обеспечивает непрерывный процесс совершенствования профессионального мастерства каждого воспитателя. Главным является оказание реальной действительной и своевременной помощи педагогам с использованием дифференцированного подхода.

Значительное место в ГДОО принадлежит работе детей в центрах развития. Центры направлены на передачу педагогом ребёнку знаний, умений, навыков. Они способствуют обогащению физической и духовной культуры, формированию самостоятельности и любознательности.

«От правильного воспитания детей зависит благосостояние всего народа» Джон Локк.

**Список литературы:**

1. Государственная программа «Первый шаг»
2. Катихина Е.О. «Инновационные формы методической работы в ГДОО»
3. Виноградова Н.А «Интерактивное обучение педагогов в системе методической работы в ГДОО».

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH USULLARI VA METODLARI

**O‘tamurodova Shohida Muhammudqulovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchi
**Ikromova Durdona Muxiddin qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instiuti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakillantirish usullari va metodlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh davri, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, mutolaa, kitob, axbarot, kitobxonlik madaniyati.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются пути и методы формирования культуры чтения дошкольников.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, дошкольный возраст, интерактивные методы, чтение, книга, информация, культура чтения дидактические игры**.**

**Annotation:** This article discusses the ways and methods of forming the reading culture of preschool children.

**Key words:** Preschool education, preschool age, interactive methods, eading, book, information, reading culture, didactic games.

Ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni ta’lim-tarbiyali qilish, bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidentining kitob va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklari barchamizga ma’lum. Buning qarida bir olam ma’no mujassam. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek, kitob odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviy saviyasini yuksaltirishning eng ta’sirchan vositasidir. Kitob mutolaasiga havas avval oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob o‘qishga mehr uyg‘otishi uchun o‘zlari kitobxon bo‘lishlari lozim. Darhaqiqat, kitob insonni rivojlantiruvchi ulkan vosita, uning ma`naviy qarashlarini shakillantiruvchi buyuk kuch bo‘lish bilan birga kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy salohiyatimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir bo‘lgan vositadir Yurtimizda ilm olish bo‘yicha va buyuk ajdodlarining ilmu-donishi bo‘yicha yuksak chuqqilarda turadfi. Kitob -inson umr yo‘lini yorituvchi mash’ala, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai. Bolalarga mana shunday fikrlarni singdirish lozim. Bolalarni kitob sevar bo‘lishlari uchun avvalo ularni yoshiga mos kitoblar tanlanadi. Asosan maktabgacha yoshdagi bolalarga rasmlari ko‘proq kitoblar tanlanadi, sababbiki, bola hali uqishni bilmaydi u rasmlarga qarab gaplar tuzib nutqini boyitib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakillantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkun.

Mutolaa burchagi qilish: Bolalarni chalg‘itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo‘lgan mo‘jazgina “uycha” yoki burchak qilib berish ularning kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin. Ana shunday mo‘jazgina chodirchalar ham bolalar uchun “uycha” sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bolalarni tez-tez kitobxonaga olib borish: Ota-onalar bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakillantirishni va ularni kitob sevar bo‘lim ulg‘ayishlarini istashsalar, ularni haftasiga hech bo‘lmaganda uch-to‘rt marotaba kitobxonalarga ekskursiya qilishni odat qilishlari zarur. Bolalar u yerda turli kitoblarni ko‘rib kitobga bo‘lgan mehri oshadi.

Kitoblarni tez-tez suhbat mavzusiga aylantirish: Ota-onalar bolalarini kitob mutolaasini yaxshi ko‘radigan bo‘lishini istashsa, tez-tez ertaklar, hikoyalar o‘qib berishsin, umuman kitoblar va ularning mazmun – mohiyati haqida suhbatlashib turishi kerak. Hayotda sodir bo‘lgan haqiqiy voqealarni bolalar o‘qigan ertak va hikoyalar bilan bog‘lashga harakat qilish lozim. Bu esa bolalarni nafaqat o‘qishga chorlaydi, balki, Bolani tafakkurini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Bolalarga namuna bo‘lish: Qush uyasida ko‘rganini qiladi deganlaridek bolalar ham ota-onasida o‘rnak oladilar. Agar ota-onalar muntazam kitob mutolaa qilsa, boshqa oila a’zolari bilan turli kitoblar to‘g‘risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavq olganini ko‘rsatsa, bu o‘z navbatida bolalar ongiga, psixologiyasiga ta’sir qiladi. Va natijada kitob o‘qish asta-sekin bolalarning ham sevimli mashg‘ulotiga aylanib boradi.

Har kuni kitob o‘qib berish: Ota-onalar farzandlari uchun oltinga teng vaqtlarini ayamasdan, bolalarga har kuni kitob o‘qib bersa, u bola ham asta-sekin kitoblarni o‘qiy olishmasadarasmlariga qarab gap tuza boshlashadi, kitobni ehtiyot qiladigan bo‘ladi. Uning hayotida kitoblar muhim ahamyatga ega bo‘ladi. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakillantirish manashunday usullarda foydalanish mumkun.

Shu bilan birga bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakillantirsh uchun bir necha metodlaridan foydalaniladi: Kuzatish va suhbat. Suhbat metodi kitoblarni chuqurroq o‘rganish usuli bo‘lib, tarbiyachi o‘zining kundalik ishida kitobxonlar bilan yakkama- yakka ish olib borganda doimo shu usuldan foydalanadi. Kuzatish metodi yordamida esa kutubxonachi yoki tarbiyachi kitobxonni kitob tanlayotganida, ommaviy ishlarda qatnashashyotganida, kitob o‘qiyotganida (o‘quv xonasida) bevosita ishlanadi. Suhbat metodi orqali u kitobxon fikrini, bilishini, qobiliyatini, qiziqishini, so‘zlab berish mahoratini bilib oladi. Bu usulning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Birgalikda ko‘ndalang qilish usuli orqali biror bir dolzarb muhokama kuzatiladi. Bu ayniqsa kitob haqida munozara bo‘lgani bois o‘tkazilganda yorqin namoyon bo‘ladi. Tarbiyachilar o‘zlarining kundalik faoliyatlarida shunday usullardan foydalanadilarki, u bir vaqtda ham kitobxonni o‘rganadi, ham uning o‘qishga rahbarlik qiladi.

Bolada maktabgacha ta’lim tashkilotida kitobxonlik madaniyati shakillantirish zarur. Chumki, yoshlikda olingan bilim toshga uyilgan naqshdir. Bolalarni maktabgacha yosh davrida kitobsevar qilsak, uning kelgusida barkamol va komil shaxs bo‘lib yetishishida mustahkam asos yaratgan bo‘lamiz. Yurtimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni tarbiyalashda munosib hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.F.Q.Qodirova, Sh.Q.Toshpòlatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova Maktabgacha pedagogika "Tafakkur"-T.:2019;

2. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bòlgan bolalar diagnostikasi".Toshkent.:2016;

3. N.N.Azizxo‘jayeva pedagogik tehnalogiyalar va pedagogik mahorat -T O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti 2006 y 200 b

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА РЕФЛЕКСИВ ФАОЛИЯТ

**Каршиева Шахноза Туракуловна (Ўзбекистон)**
Навоий давлат педагогика институти ўқитувчиси

**Аннотация:** Таълим жараёнида қўлланиладиган рефлексив таълим технологияси моҳияти, рефлексив таълим-тарбиянинг асосий тамойиллари, мулоқот шакллари, рефлексив қобилият, рефлексив компетенцияларига доир илмий-назарий маълумотлар қамраб олинган.

**Калит сўзлар:** Рефлексив тафаккур, мотивация, рефлексив таълим, мақсад,тамойил, восита, илмийлик, креативлик, рефлексив қобилият, танқидий, ёрдам фаолият, баҳс-мунозара, интерфаол метод, инновацион технологиялар.

**Аннотация:** Освещены научно-теоретические сведения о сущности технологии рефлексивного обучения, используемой в образовательном процессе, основных принципах рефлексивного обучения, формах общения, рефлексивных способностях, рефлексивных компетенциях.

**Ключевые слова:** рефлексивное мышление, мотивация, рефлексивное образование, цель, принцип, инструмент, научность, творчество, рефлексивная способность, критическая, опорная деятельность, дискуссия, интерактивный метод, инновационные технологии.

**Abstract:** Scientific-theoretical information on the essence of reflexive education technology used in the educational process, basic principles of reflexive education, forms of communication, reflexive ability, reflexive competences is covered.

**Keywords:** reflexive thinking, motivation, reflexive education, goal, principle, tool, scientific, creativity, reflexive ability, critical, support activity, discussion, interactive method, innovative

technologies.

Рефлексив тушунчаси лотин тилидаги "reflexio" сўзидан кириб келган бўлиб, сўзма-сўз таржима қилинганда "ортга назар" деган маънони англатади. Кишининг ўз ҳатти-ҳаракатлари ва уларнинг асосларини тушуниб етиш, фаҳмлашига қаратилган назарий фаолияти билишнинг алоҳида бир шакли. Фикрлаш, ўзини-ўзи назорат қилиш. Ўзининг шахсий ҳаракатлари ва уларнинг қонун-қоидаларини фикрлашга йўналтирилган инсон фаолиятининг назарий шакли. Ўз руҳий ҳолати ҳақида ўйлаш, хаёл суриш, фикр юргизиш, уни таҳлил қилишга мойилликни англатади.

**Рефлексив фаолият** – болада ўз тушунчалари ва ҳатти-ҳаракатларини англаш ва мустақил таҳлил қилиш асосида хулосалар шаклланиш жараёни.

**Рефлексив қобилиятлар** фаолият жараёнида юзага чиқади ва ривожланади. Шунинг учун ҳам рефлексияга ҳаракатсиз ўргатиб бўлмайди.

Тарбияланувчи ўзи учун муҳим бўлган билимларни ўзи мустақил қидириб ўзлаштирса таълимда муваффақиятга эришади. Билимларни излаб ўзлаштириш жараёни чегараланмаган узлуксиз жараёндир.

Рефлексив таълим ва тарбия технологияси мулоқот асосида ташкил этилади ва диологик муносабатнинг турли шаклларини таклиф этади.

Рефлексив таълим технологияларида таълим олувчининг ўз шахсий ва касбий ривожланишини бошқара олиши биринчи ўринга чиқади. Умуман олганда ҳар бир табиатан рефлексиялаш қобилиятига эгадир. Лекин бу унда рефлексив қобилиятлар мавжуд деган хулосани тасдиқламайди (яъни бу унда рефлексив қобилиятлар мавжуд дегани ҳам эмас).

Рефлексив қобилият фаолият жараёнида юзага чиқади ва ривожланади. Шунинг учун ҳам рефлексияга ҳаракатсиз ўргатиб бўлмайди.

Рефлексив таълим ва тарбия технологияси мулоқот асосида ташкил этилади ва диологик муносабатнинг турли шаклларини таклиф этади.

Педагогнинг ўз ички "Мен"и билан диологи. Бунда педагог ўз ички дунёсига қўйидаги саволлар билан назар солади. Бу машғулотда мен нималарни ҳис қилдим? Нима қилдим? Нимага эришдим? Нимани қила олмадим? Мақсадга етиш учун нима қилиш зарур? Рефлексив таълим амалга оширишда машғулот сифатида мониторинги муҳим аҳамият касб этади.Бунда педагог ва усуллар орқали ўз фаолияти натижасини баҳолайди.

Мактаб ва мактабгача таълим ташкилотларида ташкил этиладиган рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнлари объекти ва субъекти ҳисобланадиган шахс бугун ўқувчи, тарбияланувчи эканлигини инобатга олиб, бажарилиши зарур булган вазифаларнинг йуналишларини белгилашда юкорида келтирилган корпоратив асослар билан бир қаторда, тадқиқотлар жараёнида ишлаб чикилган тарбияланувчиларни шакллантирилиши зарур булган рефлексив кўникма, рефлексив қобилият ва шахсий сифатлар кўрсаткичлари инобатга олинган.

Тарбиячиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этишни режалаштиришда ва лойихалаштиришда, энг аввало, мазкур жараёнларнинг максади, белгиланган вазифаларнинг мазмун-моҳияти ва мавжуд имкониятлар инобатга олиниши зарур. Умумий максадларга эришишда белгиланган вазифаларнинг бажарилиш кетма-кетлиги белгиланади ҳамда мазкур вазифаларни бажаришда, яъни ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этишда қўлланиладиган ўқитиш методлари ва асосий ёндашувлар танлаб олиниб, ўрганиладиган мавзунинг мазмун-моҳиятига кўра ҳамда вазиятларга кўра мувофиқлаштирилади.

Тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштиришда мактаб ва мактабгача таълим жараёнларининг натижавийлиги аникланиб, илғор педагогик тажрибалар ва замонавий ўқитиш воситалари, энг қулай ва самарали ҳисобланган методлар ва ёндашувларни амалиётга татбиқ этиш ҳамда тарбиячиларнинг таълим олиш ва касб-ҳунар ўрганишга мойиллиги, қизиқишлари, эҳтиёжлари ва имкониятларини инобатга олган ҳолда белгиланган вазифаларни таҳлил қилиш ва такомиллаштириш жараёнида қайта алоқа таъминланиши зарур.

Ўқувчиларда ва тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштиришда олдиндан белгиланган вазифаларни янгилаш

ва такомиллаштириш буйича қайта алоқа нафақат мактаб ва мактабгача таълим жараёнларининг ўзаро боғликлиги ва алоқадорлигини таъминлаш самарадорлиги бўйича, балки ҳар бир таълим муассасасида ташкил этиладиган ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларининг самарадорлигига кўра мунтазам амалга ошириб борилиши мумкин. Ўкувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларида қайта алоқа таъминланиши мазкур жараёнларни такомиллаштириш воситаси сифатида вужудга келади ва у вазиятларга кўра ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларининг самарадорлигини таъминлаш учун зарур ҳисобланади.

Тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштиришда таълим-тарбия жараёнида тарбиячилар нафақат зарурий ахборотлар, маълумотлар ва маҳсулотлар билан таъминланиши, балки уларга ўзлаштириши зарур бўлган тушунчалардан келгуси фаолиятларида фойдаланишлари зарурияти бўйича ҳам маълумотлар берилиши муҳим аҳамиятга эга.

Тарбияланувчиларнинг юкори даражадаги самарали фаолиятини таъминлаш учун белгиланган вазифаларни амалга оширишда тарбияланувчиларнинг мустақил фаолияти, қизиқишлари даражаси, қобилиятлари, шахсий ҳислатлари, шунингдек, таълим жараёнини илмий асосда ташкил этишнинг мураккаб томонларини фаол ўрганиш ва шулар асосида таълим жараёнини такомиллаштириш, самарадорлигини оширишга ёрдам берадиган кўшимча вазифаларни белгилаш ҳамда уларни амалга ошириш учун турли тадбирларни ташкил этиш зарур.

Тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларининг асосий хусусиятларидан бири мазкур жараён ўқувчиларда ўзини-ўзи бошқариш ва ривожлантириш асосида муҳим ахамиятга эга бўлган шахсий сифатларни шакллантириш учун зарурий шарт-шароитларни яратиб беришга йўналтирилган бўлиши зарур.

Тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларида рефлексив таълимий муҳитни шакллантиришда шундай шарт-шароитларни яратиш зарурки, бунда тарбияланувчиларнинг ҳар бири уз фаолияти, хатти-ҳаракатлари натижаларини мустақил ўрганиши ва таҳлил қилиши, ўрганиш аҳамияти ва зарuриятини тушуниб етиши ҳамда бугунги яратилаётган шарт-шароитларни объектив баҳолаш имкониятига эга бўлсин.

Мазкур моделда тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштиришда алоҳида эътибор қаратилиши зарур бўлган омилларнинг ҳам ўзаро таъсири назарда тутилган бўлиб, булар қўйидагилардан иборат:

Тарбияланувчилар фаоллигини таъминлаш йуналишида бажариладиган вазифалар билан фойдаланиладиган методлар ва турли ёндашувнинг мувоқлаштириши.

Тарбияланувчилар ўзини ўзи таҳлил қилиш ва объектив баҳолаш кўникмаларини, танқидий фикрлаш ва рефлексив тафаккурни шакллантирувчи ижобий мотивларни аниқлаш ва мотивлаштириш.

Тарбияланувчилар узлуксиз таълим олишга ижобий муносабатларни шакллантиришга хизмат қилувчи педагогик жараёнлар мазмунини такомиллаштириш.

Тарбияланувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш ва унинг мазмунини ўқувчиларнинг мойиллиги ва қизиқишлари даражаси, шахсий имкониятлари ва эхтиёжларининг ўзгаришига мос равишда янгилаш ва такомиллаштириш зарурияти ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш моделида алоҳида инобатга олинган.

**Адабиётлар рўйхати**


1. Эркин ва фаровон, деморатик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутки. «Тошкент оқшоми» шаҳар ижтимой-сиёсий кундалик газетаси, 2016 йил 15 декабрь.
2. Анисимов О.С Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. -М: Угрешская типография, 2012-С382
3. Ахметова Д.З. Рефлексия по поводу того, «чему и как учить педагогов». // Журнал «Педагогическое образование и наука». 2017, № 2. -С. 28-29.
4. Турғунов С.Т., Максудова Л.А., Умаралиева М.А., Тожибоева Х.М. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошкариш технологиялари. - Т.: «Сано-стандарт», 2012. -21-б.

5. Хакимова Д.М. Ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнлари моделини лойиҳалаш. «Педагогика» илмий-назарий ва методик журнали, 2011, 3-сон. -51-6.
6. Ахметова Д.З. Рефлексия по поводу того, «чему и как учить педагогов». Журнал «Педагогическое образование и наука». 2011. № 2 - С.28-29.

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**N.D.Nabiyeva (O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada STEAM ta'lim texnologiyasining maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim olishidagi o'rni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi to'g'risida so'z boradi.
**Kalit so'zlar:** STEAM, rivojlantiruvchi muhit, rivojlantiruvchi muhitning tamoyillari, atrof-muhitning ta'siri.
**Аннотатция.** В данной статье говорится о роли образовательной технологии STEAM в обучении детей дошкольного возраста, способе использования образовательной технологии STEAM в создании активно развивающей среды в дошкольных образовательных организациях.
**Ключевые слова:** STEAM, среда разработки, принципы среды разработки, влияние среды.
**Annotation.** This article talks about the role of STEAM educational technology in the education of preschool children, the method of using STEAM educational technology in organizing an active developing environment in preschool educational organizations.
**Keywords:** STEAM, developmental environment, principles of developmental environment, influence of environment.

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini kovrishimiz mumkin, ya'ni:

S – science,
T – technology,
E – engineering,
A – art,
M–mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika.

Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu texnologiya, bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazlar faoliyati kabi bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

STEAM ta'limni o'zida aks etgan "Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish" ta'lim moduli-bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga asoslangan, yosh xususiyatlari inobatga olinib tuzilgan, maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan dastur. "Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish" nomli modul maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoni o'rganish, tabiatni haqqoniy bilish, barcha predmetlarning, tabiiy buyumlarning xususiyatlarini o'rganish, tabiat hodisalari va predmetlarning o'zaro ta'sirga kirishishini o'rgatib, bolani intellektual jihatdan rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar "Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish" modulida qumning xususiyatlarini, havoning xususiyatlarini, tabiat hodisalarini, bizni o'rab turgan atrof – olam haqidagi real bilimlani tajriba sifatida qo'llab, amalda bajarib, sinab ko'rishadi. Tajriba qila olishga qiziqish uyg'otish maqsadida biror amaliy ishni bajarib ko'ramiz.



Qumning xususiyatlarini aniqlash uchun maktabgacha ta'limda quyidagicha tajriba qilish mumkin. Buning uchun stol ustiga 2 ta idishga qum to'ldiramiz, biriga ozroq suv solamiz va tajribada kuzatamiz. Tajriba so'ngida qumning loyqa ko'rinishga kelganligini ko'rishimiz mumkin.



Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan talablar:

1. Eng avvalo markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat va yorug' xonalarda tashkil etilishi lozim.
2. Har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlash.
3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag'batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan jihozlarning yetarli bo'lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham
4.Markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi g'amda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi kerak.

Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (rivojlanish) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

**Adabiyotlar ro'yxati**


1. Z.Qodirova "MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM O'QITISH ASOSLARI" Namangan-2022. https://e-library.namdu.uz/2022
2. Maxmutazimova Y.R. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyalari. O'quv qo'llanma. ISBN 978-9943-8422-0-5
3. Mahmudovna N. M. Systemic Approach to Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 184-191
4. Z.M. Ashurova G.N. Davranova "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi" o'quv-uslubiy majmua MTSTE 2204


## MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHLARIDA KONSTRUKSIYAGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI


**Jumaeva Mohigul Mamanazarovna (O'zbekiston)**
Termiz DPI o'qituvchisi*.mamanazaruz@bk.ru*



**Annotatsiya.** Maqolada tadqiqotimiz maqsadlariga yana bir bor qaytsak, yangi texnik yechimlar biz kelajakdagi muhandisni yoki pedagog - tarbiyachini tayyorlashda ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun (hech bo'lmaganda qisman) samarali izlash usullaridan biri bilan bolaga konstryuktiv bilim berishga imkon beradigan darajada tanishtiramiz.



**Kalit so'zlar:** aql, fikrlash, tarkibiy qism, shakllanish, tushuncha, fikrlash, aql, mehnat, o'rganish.



**Аннотация.** Возвращаясь к целям нашего исследования в статье, новые технические

решения, которые мы представляем будущему инженеру или педагогу-педагогу таким образом, который позволяет (хотя бы частично) одним из наиболее эффективных методов поиска восполнить этот пробел в обучении детское конструктивное знание.

**Ключевые слова**: интеллект, мышление, компонент, формирования, понятии, мышления, интеллект, труд, обучения.

**Annotation.** Returning to the goals of our research in the article, new technical solutions that we present to a future engineer or teacher-teacher in a way that allows (at least partially) one of the most effective search methods to fill this gap in teaching children's constructive knowledge.

**Key words**: intellect, thinking, component, formation, concept, thinking, intellect, labor, learning.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida muammolarni ixtiro qilish(triz) dasturi natijasi maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarida muammolarni ixtiro qilish(triz) faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarlikni shakllantirishdir. Tayyorgarlikning ushbu turlari boʻlajak tarbiyachilarning umumiy pedagogik tayyorgarligi jarayonida shakllangan pedagogik bilimlarga asoslanadi.

Ammo bu bilimlar boʻlajak tarbiyachining kasbiy faoliyatining asosi boʻlishi mumkin, agar:

- TRIZ pedagogik tizimida va fanlararo aloqalar tizimida mavjud boʻlishi va rivojlanishi;
- TRIZ pedagogik fikrlashning asosi boʻlib, analitik, proeksion, prognostik va refleksiv koʻnikmalarga aylanadi (V.A. Slastenin);
- TRIZ pedagogik mahorat va qobiliyatlarni (tashkiliy, kommunikativ, pedagogik mahorat) shakllantirish va rivojlantirish uchun mazmunli asos boʻlib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta’limiy pedagogik bilimlar ilmiy pedagogik faoliyat uchun zaruriy shartdir. Shunday qilib, pedagogikada (V.I. Ginetsinskiy, B.P. Bitinas, V.V. Kraevskiy, S.A. Shaporinskiy) oʻquv va ilmiy bilish jarayonlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganib chiqdi, oʻquv va ilmiy bilimlarni taqqosladi, pedagogik bilimlar va pedagogik bilimlarning turlarini koʻrib chiqdi.

Talabalar va oʻqituvchilar oʻrtasida pedagogik fikrlashning shakllanishi va rivojlanishi ularning pedagogik faktlar va hodisalarni nazariy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bogʻliq. Ushbu qobiliyatning dinamik rivojlanishi pedagogik vazifalar tizimini: kasbiy, ijodiy, izlanish tizimini hal qilish natijasidir. Pedagogik muammoni hal qilish tizimli "oʻylash - harakat qilish - oʻylash" uchligiga asoslangan. Ushbu tizimlilikni amalga oshirishning asosiy shaxsiy natijasi - bu pedagogikada umumlashtirilgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish va bu natijaning zaruriy sharti boʻlgan - bu shaxsning analitik, prognostik, proeksion, refleksiv koʻnikmalarini rivojlantirishdir.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida muammolarni ixtiro qilish(triz) boʻlajak tarbiyachilardan pedagogik fikrlash shaxsning aqliy mehnat madaniyatini shakllantirishni va uning kasbiy kuzatuvchanligini, diqqatini, tasavvurini, xotirasini rivojlantirishni taklif etadi. Shu bilan birga, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish konsepsiyamizning quyidagi vazifalariga javob beradi:

• aqliy mehnatni kuchaytirishga va uni maqbul tashkil etishga qaratilgan shaxsning bilish faoliyati uslubini doimiy ravishda takomillashtirish;

• shaxsning aqliy mustaqilligini shakllantirish va uning boshqa yondashuvlar, pozitsiyalar va baholarga ochiqligi;

• kasbiy va pedagogik faoliyat va ilmiy ish bilan shugʻullanish uchun shaxsning ichki motivatsiyasini rivojlantirish va oʻz-oʻzini rivojlantirish, tanlangan faoliyat sohasida oʻzini oʻzi toʻliq anglashga tayyorlik;

• shaxsning innovatsion yoʻnalishini, uning innovatsion madaniyatini shakllantirish, bu uning pedagogik fikrlash va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi.

Konsepsiyaning yuqoridagi muhim xususiyatlarini kasbiy-pedagogik va ilmiy faoliyat subyektlarini oʻzlashtirishi dolzarb ilmiy muammolar va yuzaga keladigan amaliy muammolarni nazariy tahlil qilish jarayonlarining samaradorligiga yordam beradi. Bunday holda, nazariy tahlil jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini amalga oshirish kerak:

- asl ziddiyatni (muammoni) aniqlash;
- Maqsadga erishda muammolarga ajratish va ularni yechish ketma-ketligini oʻrnatish;
- Maqsadga erishishda oʻrganilayotgan va oʻzgartirilgan pedagogik hodisani uning tarkibiy qismlariga ajratish va har bir qismni yaxlitlik bilan tushunish;
- nazariyada oʻrganilayotgan mavzuning nazariy modelini yaratish uchun zarur asoslarni topish;

- erishilgan kasbiy-pedagogik va ilmiy faoliyat natijalarini belgilangan maqsadlar bilan o‘zaro bog‘lash.

TRIZ pedagogikasining g‘oyasi insondir boy moslashuvchan tizimga ega bo‘lgan ijodiy va ijodiy ixtirochilik muammolarini hal qilishning kuchli qurol-yarog‘iga ega bo‘lgan va munosib hayotiy maqsadga ega bo‘lgan tasavvur.

So‘nggi paytlarda ko‘plab o‘qituvchilar TRIZ pedagogikasi g‘oyalariga qiziqish bildirmoqdalar, chunki zamonaviy ta’limda bu juda muhimdir vazifa - har xil nostandart vazifalarni barqaror hal etishga tayyorlanadigan ijodkor shaxsni tarbiyalash faoliyat yo‘nalishlari tasvirlanadi.

Maktabga tayyorlov guruhibolalari butun keyingi hayot uchun o‘z ahamiyati bilan noyobdir, shuning uchun u ayniqsa bolaga konstryuktiv bidim berish, kasb-hunarga qiziqishini shakllantirilishi muhimdir,

Maktabgacha yoshga moslashtirilgan TRIZ metodikasidan foydalanish kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va tarbiyalashga imkon beradi shiori "Hamma narsada ijodkorlik!" faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Biroq, bugungi kunda TRIZ pedagogikasini maktabgacha ta’lim muassasalari ishi tizimiga keng joriy etish yo‘q. Bu, birinchi navbatda, o‘qitish shakllari va usullari TRIZ dasturining mos keladigan tarkibining yetarli darajada rivojlanmaganligidan kelib chiqadi. Bolalar bog‘chasida olib boriladigan mashg‘ulotlarda fikrlashning moslashuvchanligi, o‘zgaruvchanligi, izchilligi, dialektikasi kabi fazilatlarini rivojlantirish; qidiruv faoliyati, nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirish jaryoni bolada ixtorchiliq qobiliyatini vjudga keltiradi.

Birinchi yarim yilda quyidagi mavzularni o‘rganish rejalashtirilgan:

6-7 yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhdarda mashg‘ulotlar o‘tkaziladi

Mashg‘ulotlar erkin muloqot shaklida, dialoglar shaklida, bu erda o‘qituvchi rahbarlik va tashkilotchi rolini o‘ynaydi. O‘qishning ikkinchi yili dasturida darslardan tashqari bolalar bilan kundalik muloqotda foydalanish tavsiya etiladigan bir qator axitektura va muxandislik ilmiga oid bilim mashqlari taklif etiladi (matnda) asosiy dars algoritm xarkat yo‘nalishi ostida, chizmani hosil qilish, tasavvur va tafakkurni rivojlantiradigan yasashga, qurishga doir mashqlar foydalaniladi).

Bundan tashqari, dars mavzusi har bir asosiy darsda bolaga konstryuktiv bilim berish bo‘yicha amaliy faoliyatni (rasm chizish, modellashtirish, qo‘llash) o‘z ichiga oladi.

Mashg‘ulotni ikkinchi yarim yilida taqdim etiladigan asosiy mavzular:

"Xayol qilish texnikasi", "yangisini ixtiro qilish texnikasi obyekt "," rasm orqali hikoya qilish usuli "(G.E.Djanpeisova. usuli bo‘yicha), tasniflash mahoratini o‘rgatish (M.Jumayev usuli bilan).

O‘rganish natijasida bolalar ijobiy holatni rivojlantiradi sinflarga hissiy munosabat, kognitiv faollik va qiziqish ortadi; bolalarning javoblari nostandart bo‘lib qoladi, erkinlashadi; bolalar o‘z ufqlarini kengaytiradilar, yangilikka, xayolga intilish bor; nutq ko‘proq tasavvurga ega va mantiqiy, olingan bilimlarga aylanadi boshqa faoliyatlarda va kundalik hayotda qo‘llanila boshlanadi.

Bulajak tarbiyachilarga darslarni o‘tkazish bo‘yicha batafsil tavsiyalar berilganiga qaramay - "nima deyish va nima qilish kerak", o‘qituvchilarga TRIZ pedagogikasi bo‘yicha "nima uchun aynan shu narsani qilish" kerakligini aytish va TRIZ metodologiyasidan foydalanishning asosiy vazifasini aytish maktabgacha yoshda, bu bolada ijodiy kashfiyotlar quvonchini uyg‘otishdir va bu vazifani faqat o‘qituvchi- tarbiyachi hal qilishi mumkin.

Bu quyidagilarni talab qiladi:

• mashg‘ulotlarni shunday tashkil eting ular organik ravishda bolalarning tabiiy hayotiga mos keladi va "akademik" xarakterga ega bo‘lmagan;

• dars oxirida "Xulosa qilish" bosqichini ajratib ko‘rsatish bolalarni reflektiv tahlil qilish mahoratiga o‘rgatish (Tahlil qildingizmi? Siz yangi nimani o‘rgandingiz? Eng qiziqarli narsa nima edi? Nima tushunarsiz qoldi? va boshq.). Natijalar turli xil shakllarda to‘planadi: "Intervyu" "Yangiliklar uycha qurish", "Menga taklifni ayting" o‘yinlari shaklida

va boshqalar, kelajak rejalarini muhokama qilishda ("Bugun biz ... haqida bilib oldik, va keyingi safar biz ham ... haqida bilib olamiz"),samarali faoliyat va olinganlarni muhokama qilish Shu bilan birga, bolalarning boshqa faoliyat turlariga tabiiy ravishda o‘tishini ta’minlash, bog‘lash maqsadga muvofiqdir keyingi rejim momentlari bilan darsning mazmuni.

• maxsus chizma modellar, rabotatexnika ishlari - faoliyat diqqat tasavvurida bo‘lishi kerak

Ushbu talqinda muhandislik ijodiy faoliyati ixtirochilik faoliyati hisoblanadi. Va buni tushunish juda muhimdir, chunki insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi, uning sur'ati va darajasi odamlarning ixtirochilik faoliyati, ularning ijodkorligi bilan aniqlanadi. Ajoyib ixtirolarga, shubhasiz, olovni, shudgorni va yerni ishlov berish uchun boshqa asboblarni, g'ildirak va aravani, qog'oz va bosmaxona, to'qish dastgohi, zamonaviy transport vositalari, elektron texnologiyalarni qo'llash usuli kiradi.

Inson ixtiro qilish orqali ikkinchi dunyoni, sun'iy tabiatni, narsalar dunyosini yaratdi. Buning uchun u tabiiy materiallardan foydalanish va ularni qayta ishlashning ko'plab usullari, suv, shamol, quyosh, qazib olinadigan yoqilg'i energiyasini har xil elektr stansiyalarining energiyasiga aylantirish yo'llarini o'ylab topdi. Bu, o'z navbatida, insonga nafaqat Yerning barcha burchaklarini egallashga, balki atmosferadan tashqarida ham kosmosga chiqib ketishga imkon berdi.

Eski va yangi texnologiyalarni yaratish jarayonida ixtirochilik ijodiyoti muhandis faoliyatida qanday o'rin tutadi? Buni quyidagi kattalashtirilgan bosqichlar shaklida namoyish etilishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalarni loyihalash jarayonini ko'rib chiqish orqali eng aniq tushunish mumkin:

• yangi ehtiyoj, g'oya, uni qondirish kontsepsiyasini shakllantirish;

• dizayn va texnologik o'rganish (chizmalar yaratish, alohida birliklar va elementlarni hisoblash, tushuntirish hujjatlarini yozish);

• prototipni yaratish, uni sinovdan o'tkazish va aniq sozlash;

• texnik hujjatlarni yakuniy tuzatish va uni ishlab chiqarishga o'tkazish.

Bizni, dastlabki ikki bosqich ko'proq qiziqtiradi.

Ikkinchi bosqichda yangi texnologiyalarni yaratish bilan shug'ullangan holda, muhandis - dizayner matematika, informatika, talabalik davrida yaxshi o'qitilgan maxsus fanlar sohasidagi barcha tajribalarini ishga solishi kerak. Shu bilan birga, aniq bir, rivojlanish asosida yotgan g'oya, dizaynerning ishi samarali bo'lib chiqishi mumkin: yaratilgan texnologiya namunasi, ehtimol, allaqachon mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar bilan raqobatga bardoshdosh beraoladigan misollarni juda yaxshi biladi.

Loyihani yaratishning ushbu muhim bosqichida jiddiy xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun yangi texnik g'oyalarni izlash (yaratish) ning murakkabligi va samaradorligi bo'yicha bir qator farqlar mavjud. Ammo, aksariyat oliy o'quv yurtlarida ushbu metodlarni o'qitishga kam e'tibor beriladi. Shuning uchun ham, aksariyat hollarda, hatto yaxshi fundamental bilimga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar ham, xuddi dunyo singari eskirgan, ammo samarasiz "sinov va xatolar usuli" dan foydalangan holda, oddiy variantlarni sanab o'tishga asoslangan yangi g'oyalarni ilgari surishdi.

**Adabiyotlar**

1.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

2.O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3.Altshuller G. S. Nayti ideY. AkademiY. 2016 yil. 239st

4.Vigotskiy L.S. Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste. SPb.: Soyuz, 1997.-96 s.15.

5.Davidov V.V. Psixologicheskaya teoriya uchebnoy deyatelnosti i metodov nachalnogo obucheniya, osnovannix na soderjatelnom obobshenii. – Tomsk, 1992. – 112 s.

6.Krayg Greys. Psixologiya razvitiy. Seriya "Mastera psixologii" .SPb.: Piter, 2000.-992 s.

7.Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti.Toshkent, O'zbekiston- "Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti" Hukumat qarori bilan tasdiqlangan [802-son, 22.12.2020 y.]

8.Matematika soxasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

**Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi (O‘zbekiston)**
NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining mohiyati va maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanishning pedagogik zaruriyati haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, kompetentli bola, bilish kompetensiyasi, integratsiyalashgan yondashuv, STEAM texnologiyasi...

**Аннотация:** В данной статье высказаны мнения о сущности технологии STEAM и педагогической необходимости использования технологии STEAM в развитии познавательной компетентности детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** компетентность, компетентный ребенок, когнитивная компетентность, комплексный подход, технология STEAM...

**Abstract:** In this article, opinions are expressed about the essence of STEAM technology and the pedagogical necessity of using STEAM technology in the development of cognitive competence of preschool children.

**Key words:** competence, competent child, cognitive competence, integrated approach, STEAM technology...

Maktabgacha ta’lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi)ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi obyektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar.

Bolalarning bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

STEAM ta’limi bolaning ijodkorligi va o‘zini namoyon etishini rag‘batlantirish, shuningdek, ularning statistik va raqamli qobiliyatlarini, shuningdek, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM texnologiyasi – “Matematik elementlarga asoslangan muhandislik va san‘at orqali talqin qilingan fan va texnologiya” degan ma’noni anglatadi va har bir mavzu shu beshta fan bilan integratsiyalashuviga asoslanib, nazariy va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unligiga mo‘ljallangan. Bola bir vaqtning o‘zida bir nechta bilim sohalarini qamrab oladi, berilgan ma’lumotlardan foydalanish, o‘z tajribasida faktlarni tekshirish imkoniyatini oladi.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar sodir bo‘layotgan hodisalar mantig‘ini o‘rganishlari, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari, dunyoni tizimli o‘rganishlari va qiziqishni, fikrlashning muhandislik uslubini, og‘ir vaziyatlardan chiqish qobiiyatini rivojlantirishlari va jamoaviy ish mahoratini rivojlantirishlari bilan an’anaviy ta’limdan farq qiladi va ko‘plab afzalliklarga ega.

STEAM kompetensiyalari bolalarda erta yoshdan boshlab, ota-onalar uyda osongina tashkil

etadigan o‘yinlar yordamida shakllantirilishi mumkin. Tuzli xamirdan hunarmandchilik qilib turli shkllar yasab, o‘yinchoq yaratib, bola birinchi marta uch o‘lchamga duch keladi: balandlik, kenglik va uzunlik. Shu oddiygina modellashtirish jarayoni san‘atning modellashtirish bilan qanday uyg‘unligini ko‘rsatadi. Karton konstruktor bolaga turli xil sensorli standartlarni tan olishni, shuningdek dizaynni o‘rganishga yordam beradi.

STEAM ta’limi bolalarni tanqidiy fikrlashga va mustaqil ravishda yechim topishga undaydi. STEAM o‘quv dasturlarida tarbiyachi asosiy tushunchani tushuntirgandan so‘ng, bolalar ma’lumotlarni turli loyihalarda qo‘llash ustida ishlashga taklif qilinadi. Misol uchun, turli qog‘ozlardan kabutarlar yasang, keyin esa kabutarlarni balandlikka uchiring. Ushbu oddiy STEAM chaqiruvi sizni kabutarlarning havoda eng uzoq turishiga nima sabab bo‘lishi haqida o‘ylashga undaydi – qanotlarining kattaligi, kabutarning yengilligi yoki boshqa narsa? STEAM ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolangizni yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishga va o‘z ijodidan foydalanishga undaydi.

- STEAM ta’lim texnologiyalari bolalarni turli mavzularda tadqiqot, kashfiyot va izlanishga undaydi.
- ochiq savollar orqali tadqiqotlarga rahbarlik qilinadi, muammoga yechim topish yo‘llari quvnoq bo‘ladi.
- STEAM fanlariga (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika) integratsiyalashgan faoliyat tadbirlari amalga oshiriladi.
- Bolalar va kattalar o‘rtasidagi hamkorlik, faol muloqot muhiti vujudga keladi.
- Har bir bolaning fikr almashishini tushunish va qadrlash, mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratiladi.
- innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, qiziqishni rivojlantiradi.
- Muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Jamoada ishlash uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni egallash imkonini beradi.
- Amalga oshirilgan faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- turli yoshdagi bolalarning eng yaxshi kognitiv faoliyatiga hissa qo‘shiladi.
- Ta’limga kompleks yondashuv fikrlash qobiliyatlarini eng yaxshi darajada rivojlantirishga yordam beradi va istiqbolli kasbni tanlash uchun katta eshik ochadi.
- bolalarni ilmiy va ijodiy faoliyatga tabiiy va oson jalb qiladi.

Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM ta’limi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu bolalarga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalar bilish kompetensiyasini rivojlantirishda steam texnologiyasidan foydalanishning pedagogik zaruriyati hozirgi davrda ham har tomonlama yetuk insonni kamolga yetkazishda muhim dastur bo‘lib xizmat qila oladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-may, PQ-4312-son Qarori. ttps://lex.uz/docs/

2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son qarori.

3.Abdusamatova N.J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fan.b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – 12 b.

4.N.Ismailova. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari (o‘quv qo‘llanma). - N.: 2023, - 200 b.

# ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАРДА АЛТРУИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

**Эгамбердиева Азиза Мустафаевна (Ўзбекистон)**
“Тарих” кафедраси катта ўқитувчиси ф.ф.фд.(PhD)

**Аннотация:** Ушбу мақолада ҳозирги кунда глобаллашув жараёнларида ёшларнинг маънавий қиёфаси таҳлил қилинган. Бугун биз ёшларимизга чинаккам инсонга хос булган барча ижобий курсатгичларни ўқтиришимиз, унинг учун хар кандай моддий бойликлардан устун туришини англатишимиз даркор.

**Калит сўзлар:** Глобаллашув жараёнлари, жамиятнинг маънавий қиёфаси, ёшлар дунёқараши, оила, замонавий дунё

**Аннотация:** В данной статье анализируется духовный образ молодежи в условиях современной глобализации. Сегодня нам необходимо научить нашу молодежь всем положительным признакам, присущим реальному человеку, и дать ей понять, что она превосходит любые материальные блага.

**Ключевые слова:** Процессы глобализации, духовный образ общества, мировоззрение молодежи, семья, современный мир.

**Annotation:** This article analyzes the spiritual image of young people in the process of globalization today. Today, we need to teach our young people all the positive pointers that are characteristic of a real person, and let them know that they are superior to any material wealth.

**Key words:** Globalization processes, spiritual image of society, youth outlook, family, modern world.

Замонавий дунё ривожида глобаллашув терминини урни юкори даражада, сабаби терминнинг мазмун мохияти хакида куп олимлар томонидан етарлича фикрлар берилганига карамасдан биз узимизнинг дунёкарашдан келиб чиккан холда куйидагича таьриф беришга харакат килдик. Глобаллашув -бир бутунлик яьни ярим шар атрофида дунёнинг бирлашуви эканлигини англадик. Ҳозирги даврда бу жараённи ижобий ва салбий жихатларини куришимиз мумкин. Шу нуктаи назардан Президентимиз Ш.М.Мирзиёвнинг “Глобаллашув жараёнлари инсоният учун бекиёс янги имкониятлар билан бирга кутилмаган муаммоларни х,ам келтириб чикармокда. Миллий узлик ва маънавий кадриятларга карши тахдид ва хатарлар тобора ортмокда. Факат узини уйлаш, меднатга, оилага енгил караш, истеъмолчилик кайфияти турли йуллар билан одамлар, айникса, ёшлар онгига устамонлик билан сингдириляпти”[1] деган фикрларини айтиб утиш лозим.

Ёшлар барча даврларда жамиятнинг интилувчан, харакатчан фаол катлами сифатида эътироф этиб келинган. Давлат томонидан ёшларнинг мамлакат манфаатлари йулида эркин ижтимоийлашуви ва узини самарали намоён этиши учун макбул шароит ва имконият яратиш борасида амалга оширилаётган чора- тадбирлар тизими ёшларга оид давлат сиёсатини англатади. Узбекистонда ёшлар тарбияси, уларнинг маънавиятини, хукукий онги ва маданиятини, билим, дунёкарашини юксалтириш ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш асосида олиб борилмокда. Ёшларимизнинг мустакил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салохиятга эга булиб, дунё микёсида уз тенгдошларига хеч кайси сохада буш келмайдиган инсонлар булиб камол топиши, бахтли булиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз, [2] - дейди Президент Шавкат Мирзиёев.

Ҳозирги даврда Ўзбекистонда олиб борилаётган демократик ислохотлардан кўзланган асосий максад хам ёшларнинг юксак маънавий маданиятга эришувини таъминлаш, соғлом авлодни тарбиялаб вояга етказиш, хар томонлама янгича фикрлайдиган маънавий баркамол инсонни тарбиялаш, ахлокий ва рухий жихатдан пок хамда етук авлодни камол топтиришдан иборатдир. Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш масаласининг давр рухи билан уйғунлашиб боришини Т.Махмудов куйидагича эътироф килади: “ Ёшлар хаёт майдонига кадам куяётган эканлар, кайси томонга карайдилар (оркагами, олдингами), кимга эргашмокдалар, нимани орзу килмокдалар, уз ёшлик кучи, истеъдоди ва имкониятларини нимага сарф килмокдалар - булар бевосита миллат ва мамлакат истикболини белгиловчи масаладир. Ана шу

маънода ёшларга бефарклик истикбол мевасининг илдизига болта уриш билан баробар бўларди. [3]

Бугун биз ёшларимизга чинаккам инсонга хос булган барча ижобий курсатгичларни ўқтиришимиз, унинг учун хар кандай моддий бойликлардан устун туришини англатишимиз даркор. Жумладан, ор-номус, хаё, мехр-мухаббат, Ғурур, ифтихор, яратувчилик, ватанпарварлик, дустлик, маъсуллик, урф-одат, анъана, кадрият ёки бу ижобий курсатгичларга ва буларнинг зиди булган салбий курсатгичлар хам бугун ёшларимиз билан ёнма-ён юрибди.

Ёшларни миллий ва умуминсоний кадриятларига содиклик рухида тарбиялаш, уларнинг рухий-эстетик дунёкарашини кенгайтириш, тафаккурини юксалтириш, ёшлар дунёкарашига салбий таъсир курсатадиган хар хил “оммавий маданият” хуружларидан авайлаб-асраш, уларни бу йуллардан кайтариш Янги Узбекистон олдида турган энг мухим устувор вазифалардан биридир. Ёшларнинг Янгиланаётган Узбекистоннинг хакикий фидойиси булиб камол топишида ота-оналар, махалла, укитувчилар ва тарбиячиларнинг асосий вазифаси улар билан тинимсиз иш олиб боришни таказо этади.

Ёшларнинг билим даражаси, касбий малакаси, маънавий ва рухий баркамоллик каби фазилатлари ва ижтимоий сифатлари бутун жамиятнинг ривожланиш даражасига салмокли таъсир курсатади. Маънавий фазилатли ёшлар деганда, инсоннинг аклий, маънавий, ахлокий жихатдан етуклиги, узи танлаган касб-хунарнинг устаси булиши, шахс сифатида шаклланиб, Ватан тараккиёти, эл-юрт фаровонлги учун жон куйдириши, эзгу FОя ва ниятлар билан бунёдкорлик ва яратувчанлик кобилиятига эга булишни англатади. Маънавий фазилатли инсон бошкаларга урнак булади, уларни уз ортидан эргаштиради. Бундай инсонлар канча куп булса, жамият шунча баркамол булади, илм-фан, маданият ривож топади. Буюк келажак ёш авлодга таянгандагина яратилади, кад кутаради. мамлакатимизда руй бераётган узгаришларга дахлдорликни хис килса ва уларни амалга оширишда фаол катнашса, ислохотлар кутилган муваффакиятларни беради. Маънавиятли, юксак фазилатли фарзанд тарбияси хакида буюк мутафаккир Абу Наср Форобийнинг куйидаги фикрлари хам диккатга сазовордир: “Фарзандингизни имкон кадар яхши хулк-одобли ва окил булишга ургатинг. Агар ким ёшликда яхши хулк одобга эга булмаса, улғайганда ундан билим талаб этманг. Ғумай экиб, буғдой уриб бўлмайди-ку, ахир. Шундай экан ота- она уз фарзандига дунёдаги жамики эзгуликлар билан йуҒрилган ижобий хислатларни сингдириб бормоклик минг карра шартдир. Шул боис, болага нисбатан уз зиммангизга юкланган маъсулиятни хис этган холда яхши таълим- тарбия беришга интилинг. У узида ижобий хислатларни узлаштирсин ва ярамас хатти-харакатлардан узини мухофаза этсин”. [3]

Хулоса қилиб айтганда ѐшлар тарбиясига оила, таълим муассасалари ва жамоатчилик ўртасидаги ҳамкорлик асосида ѐндашиш уларда ғоявий иммунитетни шакллантиришда муайян ютуқларни қўлга киритишга имкон беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М: “Жамият хаётининг танаси иктисодиёт булса, унинг жони ва рухи маънавиятдир” номли маьрузаси.Т.19.01.2021 йил

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва обод, демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз // Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. 1-жилд, Тошкент, Узбекистон, 2017 йил.

3. Махмудов Т. Мустакиллик ва маънавият. Тошкент, Шарк, 2001 йил.

4.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.-Тошкент, 1998, 130-134-б

# ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИДА ТОПИШМОҚЛАР ОРҚАЛИ БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ АНЪАНАЛАРИ

**Ибрагимова Лизахан Авезовна (Ўзбекистон)**
Нукус давлат педагогика институти педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
**Елиубаева Хурлиман (Ўзбекистон)**
1-курс магистрант

**Аннотация:** Ушбу мақолада қорақалпоқ халқ педагогикасида топишмоқлар орқали бошланғич синф ўқувчиларини мантиқий фикрлашга ўргатиш анъаналари ҳақида маьлумотлар ёритилган.

**Таянч тушунчалар:** Кичик мактаб ёшидаги болалар, болалар психологияси, психологизм, мантиқий ўргатиш, бадиий психологизм, нафосат таъсири, болалар фольклори, нафосат тарбияси психологик ривожланиш воситаси, болалар фольклори ва тарбия.

**Аннотация:** В данной статье описаны традиции обучения учащихся младших классов логическому мышлению с помощью загадок в каракалпакской народной педагогике.

**Ключевые слова:** Дети школьного возраста, детская психология, психологизм, логическое учение, художественный психологизм, эстетическое влияние, детский фольклор, эстетическое воспитание, средства психологического развития, детский фольклор и воспитание.

**Annotation:** V dannoy state opisany traditsii obucheniya uchashchikhsya young klassov logicheskomu mishleniyu s pomoshchyu zagadok v Karakalpakskoy narodnoy pedagogy.

**Key words:** Young school children, children’s psychology, psychology area, teaching logically, area of fine psychologism,aethetik influence, children’s folklore, aesthetic education, the means of psychological devclopment, childre’s folklore and education.

Халк педагогикасида топишмоқ ва унинг тарбиявий хусусиятлари халқ оғзаки ижодининг ноёб дурдонаси ҳисобланган топишмоқларнинг пайдо бўлиши,тарихий даврлардаги тараққиёти, унинг халқ оғзаки ижодининг бошқа турларидан фарқли жиҳатлари, қўлланилиш доиралари, мустақиллик йилларида ушбу ижод маҳсулининг таркиби, трасфорацияси, топишмоқлар орқали кичик ёшдаги болаларни мантиқий фикрлашга ўргатиш усуллари, улар воситасида болаларнинг оламни, объектив борлиқни тасаввур қилиш, англаш имкониятлари бола онгининг топишмоқлар воситасида юксалиш афзалликлари таҳлил этилади.

Дарҳақиқат, топишмоқлар ўлмас халқ ижодиётининг ноёб маънавий мулки сифатида авлод-аждодлардан ўтиб келаётган, халқ донолигини, топқирлигини ўзига мужассам қилиб келаётган халқ оғзаки ижодининг бир туридир.У ҳар бир халқ ижодида ўзига хос тарзда намоён бўлади ва унинг дунёни таниши, оламни ўзига идроқ этиши, шу орқали ёш авлод ўз аксини топади.Топишмоқлар халқ педагогикасида оғиздан-оғизга ўтиб,ҳар хил тарихий даврларда асрлар оша уни яратган халқ билан бирга яшаб, ҳаёт билан ҳамнафас қадам ташлаб, ҳар бир даврга хос иқтисодий, маданий, маънавий муносабатлар, ҳар хил урф-одат, анъаналар билан боғлик ҳолда ҳаётда ўзига хос из қолдириб яшаб келмоқда.

Топишмоқлар ўз тузилиши, моҳияти жиҳатидан халқ педагогикасининг бошқа воситалари билан боғлиқ ҳолда ривожланиш қобилиятига эга. Улар асрлар давомида халқ маънавий мулкига айланган нақл, мақол,матал, қўшиқ, достон, эртак, савол-жавоб, чечанлик сўзлари, айтишувлар билан уйғун ҳолда ривожланиб келмоқда. Айниқса, қорақалпоқ педагогикасида у бошка жанрларга нисбатан савол-жавоб айтишувига анча яқиндир. Савол-жавоб айтишуви туркий халқларнинг барчасига хос хусусият бўлиб, у топувчидан буюк истеъдодни, кузатувчанликни ва топқирликни талаб қилади. Топишмоқлар ушбу айтишувлар ичига яширинган бўлиб, мантиқий фикрлашни, табиат ва жамиятдаги нарса ва ходисаларнинг белгиларини илғаб олишни кўзда тутади. Айтишувнинг баъзи шакллари ёзма адабиётга ҳам ўтган. Савол-жавоб айтишувлари топишмоқларга нисбатан кейинги даврларда, яъни инсонлар орасидаги алоқа-муносабатларнинг ривожланган даврларида пайдо бўлган. Буни уларнинг қўлланилиш ўринларида ҳам кўриш мумкин. Топишмоқлар макон ва ёш танламай, исталган ўринларда ишлатилавериши мумкин бўлса, айтишувлар махсус ўринларда тўйларда, гап ва суҳбатларда, қиз ва йигитлар ўртасида ижро этилган. Уларда шъер ва қўшиқларга қос қофия, оҳанг, ўлчовлар иштирок қилиб, айтувчидан ҳам,

жавоб берувчидан ҳам шоирлик салоҳияти талаб этилган.

Масалан, (Аспанда бир дарақ, шақасы он еки жапырақ, жанып турған шам-шырақ, Ағып турған бир булақ, ол булаққа миясар, Еки қызыл анар бар, Бул жуўаптың мәниси не болар? Аспанда бир дарақ, ол өзиңиз болады, Шақасы он еки жапырақ, он еки мүшеңиз болады, Жанып турған шам-шырақ, Еки көзиңиз болады, ағып турған бир булақ, ол ақылың болады, отыз еки гәўҳарын, отыз еки тисиң болады, Еки қызыл әнарың, еки бетиң болады) кўринадики, айтишувда образлилик, тафаккур мушоқадаси, шеърий шаклга хос унсурлар иштирок қилиб, фикр кенг тарзда берилган. Улар ёшларда одоб-икромлилик, омма орасида эркин сўзлаш, самимий мулоқат, маданий муносабатларни шакллантиришга ёрдам беради.

Топишмоклар эса ихчам, фақат нарса-ҳодисаларнинг характерли белгиларини ифодаловчи, мантиқий фикрлашга ундовчи лирик шакллардир. Улар неча банддан, қатордан ташкил топмасин яхлит бир нарсани билдиради: (Оң қолында он жүзик, оң шығармай, Буны тапқан киси алады, Пул шығармай (тырноқ)). Ушбу топишмоқда ҳам шеърий шаклларнинг унсурлари иштирок этган оҳанг, қофия, образлилик сақланган. Бу эса кичик ёшдаги болаларда кузатувчанлик,мантиқий фикрлаш, топқирлик фазилатларини рифожлантиришга имконият яратади.

Шеърий шаклар ҳар ҳил бўлгани сиңгари топишмоқлар тузилиши ҳам ранг-барангдир. Улар бир, икки, уч, тўрт ва ўндан кўпроқ қаторли топишмоқлар сифатида намаён бўлиши мумкин, аммо улар мазмун яхлитлигини сақлайди ва предметнинг табиий, образли, мушоҳадага хос, сирли, рамзий белгиларини гавдалантириш мумкин. Топишмоқлар сюжетли характерга эга бўлмаганлиги сабабли уларда драматизм, конфликт кабилар бўлмайди.

Халқ ўз тарбиа анъанасида мақол, матал, ҳикматли сўзларни топишмоқлар билан ёнма-ён ишланган. Айрим топишмоқларнинг мақол ёки топишмоқ эканлигини англаш ҳам анча қийин бўлиб қолади. Мақолларда айтилаётган фикр очиқ бўлса, топишмоқда у яширин бўлади. Ушбу яширин берилган белгининг жавоби топишмоққа жалб қилинса, мақол мазмуни юзага келиши мумкин. Бу ҳолат топишмоқлар халқ оғзаки ижодининг дастлабки намунаси, мақол ва маталлар эса кейинчалик пайдо бўлган, деган фикрни хотирга келтиради. Чунки кўзатиш, топқирлик белгиларни аниқ фарқлаш топишмоққа хос хусусият бўлиб, унинг жавоби, яъни умумий якун мақолларга хос мазмуний белгидир.

Ёшлар тарбиасида эртакларнинг роли бениҳоятдир. У болаларнинг мантиқий фикрлашини ўстиради, воқеалар ривожланишининг табиий жараёнларини тўғри англашга ёрдам беради. Ҳар бир эртак сир тутилган воқеа-ҳодиса билан бошданади ва сирли воқеа-ҳодиса эртак сюжетининг ривожланишига, кучайишига имконият яратади. Бундан ташкари эртаклар сюжетига топишмоқлар жалб этилади ва бўлажак воқеалар ушбу топишмоқлар воситасида давом этади. Бундай эртаклар жумласига «Ақлли қиз», «бир танга», «Бағлан-тош», «Камбағалнинг қизи», «Мардикор» эртакларини кўрсатиш мумкин.

Масалан, «Камбағалнинг қизи» эртагида бир подшоҳ қизга совчи юбориб, унга уйланишини учун қалин молини аниқлатади. Қиз унга: «Ўн беш ўроқ, йигирма беш кетмон, элликта қарға, олтмишта чумчуқ берсин, уйидаги ёлғиз қўзисини берсин, бермаса ўзи билсин, хонингга шуни айтиб бор», дейди. Хон бу жумбоқни таъбирчига ечтиради. Оқил таъбирчи: «ўн беш ўроқ дегани-йигит ўн беш ёшида ўроқдек ўткир, йигирма беш кетмон дегани, йигирма бешда йигит кетмон каби кескир бўлади, элликта қарға дегани-эллик ёшда кишининг қарғадек ҳоли бўлади, олтмишта чумчуқдек ҳоли дегани-сиздек ақлсиз подшоҳнинг чумчуқдек ҳоли бор дегани, уйида ёлғиз қўзисини берса берсин, бермаса ўзи билсин-дегани-уйидаги йлғиз ўғлини олса олсин, олмаса гапини қўйсин дегани»дебди. Шундай қилиб, подшоҳ қизни уғлига олиб берибди. Ушбу топишмоқ эртакнинг бутун ғоясини, воқеа сабабли айтилажак фикрни, ижтимоий тенгсизлик замонида аёллар ҳуқуқининг топталганлигини, зукко ақл золимларни ҳам инсофга келтиришини ёркин ифода этган.Бундай топишмоқлар эртак сюжети асосини ташкил этади, агар уни эртакдан чиқариб ташланса, эртак ўз қимматини йўқотади. Эртакларда ифодаланган шартларда,чечанлик сўзларининг таркибида, айтишувларда топишмоқларнинг қўлланилиши, уларнинг тарбиявий аҳамияти, болаларни мантиқий фикрлашга ўргатадиган жиҳатлари ҳақида батафсил маълумотлар берилади.

Демак, инсон бутун умри давомида тарбиага муҳтож. Шу сабабли ҳам уни жамият учун фойдали, онгли, баркамол, маънавий-маданий етук этиб тарбиалаш тарбиа масканларининг, қолаверса, бутун жамоатчиликнинг вазифаси. Айниқса, оила бу ўринда муҳим вазифа бажаради.

Кичик ёшдаги болага ота-онага, ака-ука, опа-сингил ва бошқа қариндошларга ҳурмат ҳиссини сингдириш боланинг яхши хулқли бўлиб камол топишига ёрдам беради.

Топишмоқлар бу жараёнда тарбиянинг муҳим воситасига ва тарбиачиларнинг энг яқин ёрдамчисига айланади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1.Қурбанбаев И. Қарақалпақ балалар әдебияты.-Нөкис: «Билим», 1992.
2.Сапарбаев Т. Нравственное воспитание младших школьников средствами устного народного творчество.-АД на соиск. уч.ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.
3.Тлегенов А. Воспитание у подростков духовно-нравственных ценностей средствами народных дастанов.-АД на соиск.уч. ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

## ВЫРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА РУССКОЙ АВТОРСКОЙ СКАЗКИ

**Чулиева Фотима (Узбекистон)**
НавГПИ магистрантка направления «Русский язык и литература»
**Науч. рук: доц. Мардонова Ф.Б. (Узбекистон)**

**Аннотация:** В статье рассмотрены средства лексической репрезентации времени и пространства в русской авторской сказке

**Ключевые слова:** время, пространство, авторская сказка, выражение, репрезентация.

**Annotatsiya:** Maqolada rus ertaklarida vaqt va makonni leksik ifodalash vositalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar**: vaqt, makon, muallif ertagi, ifoda, tasvir.

**Abstract:** The article examines the means of lexical representation of time and space in the Russian fairy tale.

**Key words**: time, space, author's tale, expression, representation.

Категории времени и пространства являются важнейшими составляющими сказочной картины мира. Под сказкой мы понимаем повествовательное народнопоэтическое произведение о вымышленных событиях с участием волшебных сил.

Главная особенность авторской сказки в отличие от фольклорной состоит в том, что она рассказана конкретным автором и, следовательно, отражает его видение мира. Для описания и классификации лексических единиц, реализующих категорию времени нами будут использоваться следующие тематические группы: временные отрезки определенной длительности (месяц, год), временные отрезки неопределенной длительности (мгновение, вечность), циклические события человеческой жизни (завтрак, пост), циклические события природных явлений (зима, весна), линейное время (тогда, затем) и антропоцентрическое время (детство, юность) [2, С. 77-78].

Для анализа плана выражения пространства воспользуемся классификацией Н.А. Николиной. Она выделяет следующие виды пространства: открытое - замкнутое; расширяющееся – сужающееся; конкретное – абстрактное; реальное видимое - воображаемое [3, С. 148-149].

Итак, категории времени и пространства являются основой художественного мира любого литературного произведения, в том числе и сказки. Под пространственно-временной организацией нами понимается совокупность лексических средств, номинирующих пространство и время художественного произведения. Для изучения особенностей плана выражения времени и пространства были взяты три авторских сказки А. С. Пушкина, отличные по сюжету: «Сказка о мертвой царевне и о семи богатырях», «Сказка о рыбаке и рыбке» и «Сказка о золотом петушке». Пушкинские сказки отражают знакомство автора с различными текстами: от народных сказок из собрания братьев Гримм до высокой литературы. Например, в сказке «О золотом петушке» прослеживаются сюжетные линии новеллы американского автора Вашингтона Ирвинга. Определенное влияние на сказки А.С. Пушкина оказал русский фольклор, так, сюжет «Сказки о мертвой царевне и о семи богатырях» был весьма популярен среди крестьян. Основным методом сбора фактического материала стал метод сплошной выборки. Из текстов сказок были отобраны существительные, прилагательные и наречия, содержащие сему времени и пространства. Затем данные лексические единицы были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам: временные отрезки определенной и неопределенной длительности, циклические события человеческой жизни, циклические природные явления, линейное и антропоцентрическое время;

пространство открытое и пространство замкнутое. Для исследования лексических средств выражения времени и пространства из сказки А.С. Пушкина «Сказка о мертвой царевне и о семи богатырях» методом сплошной выборки были отобраны временные и пространственные маркеры, выраженные существительными (137), наречиями (24), прилагательными (16). Слова, содержащие сему времени, были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам. Временные отрезки определенной длительности (6) обозначаются существительными (5): месяц (2), год (2), час, а также наречием «тотчас». Для временных отрезков неопределенной длительности (15) характерно использование наречий: наконец (3), вдруг (3), долго (2), навечно (2) и др. В исследуемом тексте, временные отрезки циклических природных явлений выражены существительными и прилагательными (18): ночь (5), день (4), заря (3), утро (2), зима, весна, утренний, полуночная. В данной сказке, темпоральные номинаторы, выражающие циклические события человеческой жизни, встречаются реже. Они передаются только существительными (5): обедня (4), сочельник. Темпоральные номинаторы линейности времени нехарактерны для исследуемого текста и представлены только наречием «теперь». Антропоцентрическая маркированность времени (14) характеризуется употреблением существительных (5): старушка (4), молодица, а также прилагательных (9): молодая (8), старый. Сравнение темпоральных маркеров тематических групп показало, что для «Сказки о мертвой царевне и о семи богатырях» в большей степени представлены циклические природные явления (18). Чуть менее частотным является неопределенное время (15) и антропоцентрическое (14). Затем идут временные отрезки определенной длительности (6) и циклических событий человеческой жизни (5). [1, С. 60-98].

Линейность времени передана одной единицей.

На следующем этапе анализа все слова, содержащие сему пространства были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам: замкнутое и открытое пространство. Пространственные маркеры, выражающие замкнутое пространство (61), обозначаются всеми рассматриваемыми частями речи: существительными (57), прилагательными (2) и наречиями (3). Как видим, наиболее частотны существительные: гроб (11), окно (4), терем (4), лавка (3), крыльцо (3), дом (3), двор (3), цепи (3) и др. Среди номинаторов пространства, маркирующих признак открытости (49), наиболее частотными являются существительные (42): свет (5), лес (5), ветер (5), месяц (небесное тело) (5), гора (4), поле (4), солнце (3), путь, море и др. Сравнение пространственных маркеров тематических групп показало, что для исследуемого текстового материала характерно замкнутое пространство (61). [4, С. 137-281].

На втором месте находятся маркеры, выражающие открытое пространство (49). Полученные количественные данные показывают, что число пространственных номинаторов преобладает над временными почти в два раза. Итак, для данной сказки в несколько большей степени характерны лексические единицы, выражающие цикличность природных явлений, антропоцентричность и неопределенность времени в замкнутом пространстве.

Исследование лексических средств реализации времени и пространства в «Сказке о рыбаке и рыбке» методом сплошной выборки дало следующие результаты. Были отобраны временные и пространственные маркеры, выраженные существительными (115), наречиями (6), прилагательными (4). Слова, содержащие сему времени, были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам. Временные отрезки определенной длительности (8) обозначаются существительными (6): (тридцать) лет (2), (три) года (2), неделя (2); наречиями: сегодня, ровно.

Темпоральные номинаторы, выражающие линейность времени (2), нехарактерны для исследуемого текста и представлены только наречием «теперь» (2). Признак неопределенности времени также нетипичен и реализован наречием «впредь». Что касается темпоральных маркеров циклических событий человеческой жизни и циклических природных явлений, то в данной сказке они отсутствуют. Антропоцентрические маркеры времени (59) характеризуются частотным употреблением существительных (57): старуха (25), старик (24), старче (6), старичок (2) и др., и только двух прилагательных: ветхая, старый. Как видим, антропоцентрическое время ярко представлено в «Сказке о рыбаке и рыбке». Сравнение темпоральных маркеров тематических групп показало, что для данной сказки в большей степени характерны лексические единицы, маркирующие антропоцентричность времени (59). Гораздо менее частотным является определенное время (8). Линейное время (2) и временные отрезки неопределенной длительности (1) нерепрезентативны. Темпоральные маркеры признака цикличности отсутствуют.

На следующем этапе анализа слова, содержащие сему пространства, были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам: замкнутое и открытое пространство. Пространственные маркеры, выражающие замкнутое пространство (29), обознаются существительными (28) и наречием «вкруг». Наиболее частотными являются существительные: корыто (7), изба (5), землянка (4), палаты (2) и др. Среди номинаторов пространства, маркирующих его открытый характер (26) частотными являются существительные (24): море (19), окиян-море (2) и др., а также прилагательное - морская (2).

Итак, для данной сказки в большей степени характерна антропоцентрическая маркированность времени в замкнутом пространстве. Анализ плана выражения времени и пространства «Сказки о золотом петушке» на основе метода сплошной выборки позволил отобрать временные и пространственные маркеры, репрезентируемые существительными (67), наречиями (20), прилагательными (10). Слова, содержащие сему времени, были расклассифицированы по частям речи и тематическим группам.

Практическое применение полученных данных и сделанных выводов видится в возможности их использования на занятиях по когнитивной лингвистике, лингвистическому анализу художественного текста, теории языка.

**Список литературы**

1. Воркачев, С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. Филологические науки / С.Г. Воркачев. – 2001. – №1.

2. Маслова, В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учебник / В.А. Маслова.– М.: Флинта: Наука, 2007. – 296 с. – ISBN 978-5-89349-748-9.

3. Николина, И.А. Филологический анализ текста. / И.А. Николина. – М.: Академия, 2003. – 256 с. – ISBN 5-7695-0954-6.

4. Пушкин, А.С. Сочинения в 10 т. Поэмы. Сказки / А.С. Пушкин. – М. :Изд.- во художественной литературы. – 1989. – 3 т.. – 735с.

## ILMIY TADQIQOT VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI

**Usmonov Abdulla Abdumannopovich (O‘zbekiston)**
**Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ilmiy tadqiqot nima ekanligi, dissertatsiya va uning tarixiy shakllanishi, dissertatsiyani yozish tartibi, shuningdek, respublikamizda ilmiy faoliyat va uni olib borishning mazmun-mohiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** olim, ilmiy tadqiqot, dissertatsiya, tizes, maqola, avtoreferat.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о том, что такое научное исследование, о диссертации и ее историческом формировании, о порядке написания диссертации, а также о содержании научной деятельности и ее проведении в нашей республике.

**Ключевые слова:** scientist, scientific research, dissertation, tizes, article, abstract.

**Annotation.** This article describes what scientific research is, the dissertation and its historical formation, the procedure for writing a dissertation, as well as the content and essence of scientific activity and its conduct in our republic.

**Keywords:** ученый, научное исследование, диссертация, тезисы, статья, автореферат.

***Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay.***
***Imom Buxoriy***

Ma’lumki, ilmni o‘rganish, tahlil qilish, uning turli yo‘llarini tadbiq etish hamda egallash va yangilik kashf etishning tizimli olib borilishi ilmiy tadqiqot sanaladi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish – mashaqqatli va ayni vaqtda sharafli ish sanaladi. Bugungi kunda olim bo‘lishni havas qiluvchi kishilar ko‘plab uchramoqda. Olimlarga jamiyatimizda e’tibor va e’tiroflar kundan kunga oshib bormoqda. Olim bo‘lishni orzu qilgan kishida ma’lum imkoniyatlar va bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun ma’lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birlamchi shart – chuqur bilim sohibi bo‘lishdir. Bilim odatda o‘qish-o‘rganish orqali egallanadi. Talaba o‘rta maktabda olgan bilimini oliy maktabda o‘zi tanlagan

fanlar bo‘yicha chuqurlashtiradi. Yosh tadqiqotchining bilim poydevorini oliy ta’lim muassasasida umumta’lim fanlari bo‘yicha, maxsus kurslarda o‘zlashtirgan bilimlari tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi ana shu bilim poydevorini o‘z mustaqil mehnati, o‘qib-o‘rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni chuhur o‘rganishi zarur.

**Ilmiy tadqiqot** – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri sanaladi. Ilmiy tadqiqotda obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik bo‘lishi kerak. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim.

Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki qism – tajriba va nazariyadan iboratdir. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlariga: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish kabilar kiradi.

Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo‘llaniladi.[2]

Ma’lumki, ilmiy tadqiqot dissertatsiya shaklida bayon etiladi. Dissertatsiya so‘zi lotincha “dissertation” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, fikrlash, tadqiqot degan ma’nolarni anglatadi.

**Dissertatsiya** – muallif tomonidan shaxsan amalga oshirilgan, tadqiqotning mohiyati tegishli talablarga javob beradigan, tugallangan va mazmunan yaxlit ilmiy ish sifatida qo‘lyozma bo‘lish huquqiga ega bo‘lgan va qo‘lyozma huquqiga ega bo‘lgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar tizimli asoslab berilgan ilmiy ish [1]sanaladi.

Qadimda dissertatsiyalar qo‘lda yozilgan asar shaklida tayyorlangan maxsus ilmiy ishlar sifatida paydo bo‘lgan va uning qoidasi shundan iborat bo‘lganki, ilmiy darajaga da’vogar odatda universitetda bo‘lib o‘tgan ommaviy og‘zaki munozaralarda himoya qilishi lozim sanalgan.

Tarixchilarning ta’kidlashicha, dissertatsiyani ommaviy himoya qilish tartibidagi birinchi doktorlik dissertatsiyasi 1130-yilda Boloniya universitetida bo‘lib o‘tgan.

XVI asrga kelib dissertatsiyalarni tayyorlash va ommaviy himoya qilish jarayoni yanada soddalashtirilgan. Bu vaqtda ular nafaqat qo‘lyozmalar, balki bosma asarlar shaklida ham rasmiylashtirilganligi tarixda keltiriladi. Asta-sekin ilmiy daraja va unvon olish uchun ilmiy va adabiy mavzularda majburiy yozma insholarni ommaviy himoya qilish tizimi shakllanib borgan. Dastlab, bunday tizim nemis tilida so‘zlashadigan mamlakatlarning universitetlarida keng tarqalgan, keyinchalik esa, ya’ni XVII asrda boshqa mamlakatlarda ham yozma ishlarni himoya qilish amalga oshirilgan. Dissertatsiyalarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar universitet nizomlarida qayd etila boshlangan. O‘sha davrda dissertatsiya g‘oyasi mustaqil yozma ish sifatida shakllangan va uni ilmiy darajaga da’vogar shaxs o‘z hisobidan nashr etishi va ushbu sohadagi vakolatli olimlarga tarqatishi lozim sanalgan. Shundagina ular dissertatsiyani himoya qilishda jamoatchilik muhokamasidan o‘tishi va ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan.

Rossiyada dissertatsiyalarni bosma shaklda himoya qilish 1755 yilda Moskva imperatorlik universiteti tashkil etilgandan so‘ng joriy etilgan. 1791 yilda tibbiyot doktori ilmiy darajasini berish huquqi berilgan. 1803 yilda imperator farmoniga binoan fan nomzodi, magistr va doktorlik ilmiy darajalari joriy etilgan. Ilmiy darajani olish uchun og‘zaki va yozma imtihonlarni topshirish, so‘ngra universitet fakultetlaridan birining yig‘ilishida dissertatsiyani ommaviy ravishda himoya qilish lozim bo‘lgan. Dastlab himoya qilish jarayonida bir nafar opponent chiqish qilgan bo‘lsa, keyinchalik ularning soni uch nafarga yetgan.

1819 yilda Rossiyada “Ilmiy darajalar ishlab chiqarish to‘g‘risida”gi Nizom birinchi rasmiy hujjat sifatida qabul qilinib, unga ko‘ra magistr va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun imtihonlarni og‘zaki va yozma sinovlar shaklida topshirish va dissertatsiyani ommaviy ravishda himoya qilish mazmuni ifodalangan. Magistrlik dissertatsiyasi rus, lotin yoki boshqa tillarda, doktorlik dissertatsiyasi esa faqat lotin tilida taqdim etilishi belgilangan. Dissertatsiyadan tashqari, bo‘lg‘usi avtoreferatlarning asosini aks ettiruvchi “tezilar” (tezislar) ham tayyorlanishi kerak edi.

**Tezis** (qad. yunon. θέσις “joy; sharoit; tezis”[5]) – bitta jumlada qisqacha bayon qilingan asosiy fikrlar ma’nosi sanaladi.

Tezislar (fan va falsafada) – odatda annotatsiyada qisqacha bayon qilingan asosiy qoidalar, ilmiy ishning asosiy fikrlari, maqolalar, ma’ruzalar, kurs ishlari yoki tezislar va boshqalardir.[4]

Rossiyada 1819 yildagi qabul qilingan Nizomning takomillashuvi asosida 1837 yilda “Ilmiy

daraja tadqiqotlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. U bo‘lg‘usi fan doktorlari uchun tadqiqotlar (imtihonlar) tartibini soddalashtirgan va ularga dissertatsiyalarni nafaqat lotin tilida, balki rus tilida ham yozish imkoniyatini bergan. 1864 yilda esa talabalarga “Talaba unvoni va ilmiy darajalar uchun tadqiqotlar to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq dissertatsiyani himoya qilish natijasida fan nomzodi, magistr va doktorlik ilmiy darajalari berilishi mumkinligi belgilangan. O‘sha paytda fan nomzodi darajasi hozirgi universitet diplomiga teng bo‘lgan. 1884 yilda u bekor qilinib, shundan beri faqat magistr va doktorlik darajalari mavjuddir.

1917 yilgacha Rossiyada dissertatsiyalar faqat nashr etilib, bosma shaklda himoya qilish uchun taqdim etilgan. Dissertatsiyaga ilova ko‘rinishidagi tezislar bir necha sahifalarda bo‘lgan. Dissertatsiya himoyasi fakultet kengashi a’zolari va barcha xohlovchilar ishtirokida fakultet ochiq yig‘ilishida bo‘lib o‘tgan. Rasmiy opponentlar fakultetning professor-o‘qituvchilari orasidan tayinlangan, opponentlarning ilmiy darajaga ega bo‘lishi majburiy bo‘lmagan. Boshqa universitetlardan opponenetlari himoyaga taklif qilinmagan. Opponentlardan so‘ng talabgorlarga himoya qilish imkoniyati berilgan. Magistrlik dissertatsiyasi uchun bir ovozdan ovoz berilgan taqdirda fan doktori ilmiy darajasi berilishi mumkin bo‘lgan. Fakultet tomonidan qabul qilingan ilmiy daraja universitetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan va u butun jarayonni yakunlagan. Ko‘rinib turibdiki, dissertatsiyani himoya qilish va ilmiy daraja berishning bunday jarayoni hozirgi zamonga qaraganda demokratik, sodda va qulay bo‘lgan.

O‘zbekistonda 1934 yildan fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarni himoya qilish joriy etila boshlagan. Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya yangi ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni o‘z ichiga olishi, uning muallifi (dissertant) tanlangan mutaxassislik bo‘yicha chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega ekanligini ko‘rsatib berishi lozim. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya fan va texnikaning muayyan sohasidagi katta ilmiy nazariy muammoni hal qilishi, fan va amaliyotning rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilishi lozim edi.

Bugungi kunda dissertatsiya va uni yozishga quyidagi talab qo‘yilgan:

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya tegishli bilim sohasidagi muhim muammoning yangi yechimidan yoki mavjud ilmiy muammoni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan ilmiy-texnikaviy yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalardan iborat tugallangan ilmiy ish bo‘lishi kerak.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya tugallangan ilmiy ish bo‘lishi va unda quyidagilar bo‘lishi kerak:

- muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar hal etiladi;
- yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo‘nalishini rivojlantirishning asosiy yutug‘i hisoblangan yangi nazariy qoidalar to‘plami ishlab chiqilgan;
- yoki fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy soha yoki iqtisodiy tarmoq rivojiga sezilarli hissa qo‘shadigan nazariy-uslubiy va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilishi (takomillashtirilishi) lozim.[1]

Fanda nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan dissertatsiyada olingan ilmiy xulosalar, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dissertatsiyada esa iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohaning murakkab muammolari yechimlari, shuningdek, ilmiy natijalardan amaliy foydalanish va ulardan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilishi zarur.

Dissertatsiya natijalarini fanga, amaliyotga tatbiq etish va tashkilotlar tomonidan amaliyotga qabul qilish bo‘yicha asosiy hujjatlar Ilmiy kengashda muhokama qilinadi va attestatsiya ishiga qo‘shiladi. Ushbu hujjatlar tashkilotlarning ilmiy-texnik kengashlari tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Shuningdek, respublikamizda ilmiy ma’ruza shaklida faqat fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyani himoya qilishga ruxsat berilgan bo‘lib, bunday ilmiy ma’ruza ko‘rinishidagi dissertatsiya fan va amaliyot uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu soha mutaxassislariga ma’lum bo‘lgan ilmiy ishlar va nomzod tomonidan nashr etilgan ishlarda e’lon qilingan natijalarning qisqacha mazmunidan iborat sanaladi va doktorlik dissertatsiyasining muallif avtoreferatining ikki jildida rasmiylashtiriladi.

Ma’lumki, ilmiy tadqiqot mavzusi tanlanganidan keyin ilmiy ishning xomaki rejasi tuziladi. Mavzuning ilmiy-metodik adabiyoti sinchiklab o‘rganilganidan keyin bu xomaki rejaga turli-tuman

o‘zgarishlar kiritiladi. Mavzu bo‘yicha to‘plangan faktik materialning dastlabgi tasnifi ham ish rejasiga o‘zgartirish kiritish lozimligini ko‘rsatishi mumkin. Ana shunday o‘zgarishlardan keyin bajariladigan ilmiy ishning mazmun-mundarijasi ancha oydinlashadi.

Ilmiy ish, jumladan dissertatsiya odatda kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, mundarija qismlaridan iborat bo‘ladi. Mavzuning xarakteridan kelib chiqib ilova qismi ham beriladi. Ilmiy ishni yozish odatda “Kirish” qismini yozish bilan boshlanadi.

Dissertatsiyaning “Kirish” qismi ikki bo‘limdan tarkib topadi:

1. Ishning umumiy tavsifi.
2. Mavzuning o‘rganilish darajasi (ilmiy-metodik adabiyotlarga tavsif).

Ishning umumiy tavsifi bo‘limida mavzuning dolzarbligi asoslanadi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari kabi bir qancha masalalar qisqa tarzda bayon qilinadi (ushbu bo‘lim barcha sohalar bo‘yicha yoziladigan dissertatsiyalar uchun Oliy Attestatsiya Komissiyasi belgilagan tartibda yoziladi). Bu bo‘limdagi bandlarning ko‘p qismiga asli dissertatsiya yozib bo‘linganidan keyingina aniq javob chiqadi. Masalan, tadqiqotdagi ilmiy yangiliklar, tadqiqotning ilmiy va amaliy qiymati haqida faqat ilmiy ish yakunlanganidan keyingina aniq ma’lumot berish mumkin. Shu sababli “Kirish” qismidagi bu bo‘limni yozishga odatda dissertatsiyaning asosiy qismi yozilganidan keyin qaytiladi.

“Kirish” qismining ikkinchi bo‘limida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha o‘rganib chiqilgan ilmiy-metodik adabiyotlarga tavsif beriladi, ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi. Adabiyotlarga munosabat xronologiyani saqlab bildiriladi, shunda mavzuning o‘rganilish darajasi bosqichma-bosqich ochiq ko‘rinadi. Adabiyotlarda aytilgan fikr-mulohazalarga xolisona yondashib baho berish shart. Dissertatsiyaning asosiy qismi mavzuning tabiatiga qarab turlicha bo‘ladi. Bu qismning boshlanishida ilmiy ish qanday boblarga bo‘lingani qisqa izoqlanadi, so‘ngra sarlavhalar ostida har bir bobning matni boshlanadi. Mavzuning xarakteridan kelib chiqib, dissertatsiya avval katta bo‘limlarga ajratilib, keyin bu bo‘limlar boblarga ajratiladi. Boblar o‘z navbatida turli sarlavhalar bilan qismlarga ajratiladi, bular o‘z navbatida yana kichik sarlavhalar bilan ajratilishi mumkin. Shundan keyingi bo‘linishlar raqamlash orqali amalga oshiriladi. Dissertatsiyaning asosiy qismi oldiga qo‘yiladigan talablardan biri – ajratiladigan bo‘limlar, boblar, sarlavhalar mazmunan asosli bo‘lishi, izchil joylanishi, hajman ham mumkin qadar mutanosib bo‘lishi kerak.

Xulosalar ikki turli bo‘ladi:

1) Dissertatsiyaning har bir bobi (agar mavjud bo‘lsa, har bir yirik bo‘limi) o‘z xulosalari bilan yakunlanadi;

2) Dissertatsiyaning oxiriga umumiy xulosalar chiqariladi.

Shuni hisobga olib, muhim xulosalarni boblar oxirida bermay, dissertatsiya oxiridagi xulosalarda berish lozim. Xulosalar lo‘nda, aniq va ishonarli bayon qilinishi zarur; bu yerda ortiqcha so‘zga o‘rin yo‘q. Xulosalarni sun’iy ravishda maydalab ko‘paytirish qoralanadi. Xulosalar odatda raqamlanadi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish alifbo tartibida amalga oshiriladi.[3]

Ilmiy tadqiqot ishni bajarish (nomzodlik va magistrlik dissertatsiyasi, bitiruv - malakaviy ishi, kurs ishi va boshqalar) tadqiqotchidan ham jismoniy, ham intellektual, ham psixologik jihatdan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab etadi. Izlanuvchidan diqqatning jamlanishini, o‘z intellektual salohiyatini boshqara olish, ilmiy tadqiqot olib borish metodologiyasi va texnologiyasini bilish, ilmiy bilimlardan nafaqat foydalana olish ko‘nikmalari, balki ma’lum darajada ularni tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq qilishni ham talab etadi.

Muxtasar aytganda, bashariyat uchun ham, taraqqiyot uchun ham, tamaddun uchun ham faqat bir narsa kerak: bu – ilm. Bejiz dunyo imomi – Imom Buxoriy hazratlari “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay!” demaganlar.

**Adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi hay’atining 2017-yil 31-maydagi 239/4- son qaroriga asosan qabul qilingan “Ilmiy darajalarni berish tartibi haqida”gi Nizom
2. Райзберг Б.А. Диссертация и ученая степень. Пособие для соискателей. 2003 г.
3. Shavkat Rahmatullayev. Ilmii tadqiqot asoslari (Magistrantlar uchun qo‘llanma). Toshkent 2002.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B5%D0%B7%D0%B8%D1%81
5. греко-русский словарь. Дата обращения: 6 июня 2020. Архивировано 6 сентября 2021 года.

# СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна (Узбекистан)**
Преподаватель кафедры ДО НГПИ
nilufarhamdullaevna@gmail.com

**Аннотация:** Проблема развития речи детей дошкольного возраста всегда являлась и по сей день является актуальной, так как речевое развитие в дошкольном возрасте влечёт за собой развитие всех психических функций ребёнка. В статье предлагаются современные подходы развития речи детей старшего дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** развитие словаря, воспитание звуковой культуры речи, формирование грамматического строя речи, развитие связной речи, мнемотехника, синквейн, сторителлинг.

**Annotasiya**: maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish muammosi har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan, chunki maktabgacha yoshdagi nutqni rivojlantirish bolaning barcha aqliy funktsiyalarini rivojlantirishga olib keladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar**: lug‘atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqni rivojlantirish, mnemonika, sinkveyn, storitelling.

**Abstract:** The problem of speech development of preschool children has always been and still is relevant, since speech development at preschool age entails the development of all mental functions of the child. The article offers modern approaches to speech development of older preschool children.

**Keywords:** vocabulary development, education of the sound culture of speech, formation of the grammatical structure of speech, development of coherent speech, mnemonics, synquain, storytelling.

Проблема развития речи детей дошкольного возраста всегда являлась и по сей день является актуальной, так как речевое развитие в дошкольном возрасте влечёт за собой развитие всех психических функций ребёнка. Именно поэтому многие исследователи посвящают свои труды изучению факторов, влияющих на речевое развитие и поиску эффективных средств по развитию детей дошкольного возраста в данной области.

А. Н. Леонтьев в своём исследовании установил четыре этапа в становлении речи детей, так вот старший дошкольный возраст относится к третьему этапу – дошкольный до 7 лет. На данном этапе речевое развитие старших дошкольников развивается по всем направлениям: увеличение словаря, совершенствование грамматического строя речи, развитие звуковой культуры речи и улучшение связной речи.

Основная цель работы по развитию речи и обучению родному языку детей – формирование устной речи и навыков речевого общения с окружающими на основе овладения литературным языком своего народа. На современном этапе выделяют шесть основных задач речевого развития дошкольников: развитие словаря, воспитание звуковой культуры речи, формирование грамматического строя речи, развитие связной речи, ознакомление с художественной литературой и формирование предпосылок к обучению грамоте.

Звуковая сторона речи дошкольников изучалась в разных аспектах — как развитие восприятия речи и как формирование речедвигательного аппарата. Многие исследователи подчеркивают роль развития осознания детьми фонетической стороны речи. Дети рано начинают замечать недостатки в своей и чужой речи (А. Н. Гвоздев, К. И. Чуковский, М. Е. Хватцев, Д. Б. Эльконин, М. М. Алексеева). От понимания, особенностей звуковой стороны речи можно протянуть нить к осознанию речи в широком смысле слова — как осознание явлений языка и речи детьми дошкольного возраста, как условие формирования произвольности речи. Основной задачей работы с детьми старшего дошкольного возраста по усвоению фонетической стороны речи и правильному произнесению всех звуков родного языка является дальнейшее совершенствование речевого слуха, закрепление навыков четкой, правильной, выразительной речи.

Многие исследователи подчёркивали важность формирования грамматического строя речи у детей. А. Н. Гвоздев постоянно фиксировал внимание на понимании ребенком слова, его грамматической формы, осознании неправильности в своей и чужой речи. Поэтому, при

формировании грамматического строя речи старших дошкольников необходимо обучать их тем грамматическим формам, усвоение которых вызывает у них трудности: согласование имен прилагательных и имен существительных, образование трудных форм глагола (в повелительном и сослагательном наклонении).

Роль словарной работы в обучении родному языку старших дошкольников была раскрыта М. М. Кониной и ее учениками (В. И. Яшина, Н. П. Иванова, А. П. Иваненко и др.). Вычленяя обогащение, закрепление и активизацию словаря как главные задачи словарной работы, Конина писала: «Руководство развитием детского словаря начинается не с обучения детей новым словам и оборотам речи, а с активизации имеющегося у них словарного запаса, с привлечением систематизации опыта детей». Картинку она рассматривала как средство, способное вызвать у ребенка интерес к слову, который является необходимым условием развития связной речи; затем можно подводить ребенка к активному использованию словарного запаса и без наглядных средств.

Связная речь старших дошкольников развивается в пересказе литературных произведений (сказки или рассказа, где дети учатся связно, последовательно и выразительно излагать готовый текст без помощи взрослого, интонационно передавая диалог действующих лиц и характеристику персонажей, а так же в рассказывании по картине, по серии сюжетных картин, и конечно же из личного опыта.

На основе ДО речевое развитие выделено в самостоятельную образовательную область. В программе речевое развитие детей старшего дошкольного возраста направлено на совершенствование всех сторон речи, развитие звуковой и интонационной культуры речи, фонематического слуха, формирование предпосылок обучения грамоте; овладение речью как средством общения, развитие речевого творчества; знакомство с книжной культурой, детской литературой.

Для решения всех задач речевого развития детей старшего дошкольного возраста были изучены новые средства, методы и приёмы, такие как: «Использование мнемотехники в развитии связной речи детей», «Пальчиковая и дыхательная гимнастика и Су-Джок терапия», «Нетрадиционные игры и игровые упражнения по речевому развитию детей дошкольного возраста», «Технология наглядного моделирования», «Технология синквейн», «Сторителлинг-инновационная технология». После изучения теоретического материала я внедрила данные методы в работу с детьми своей группы.

Мнемотехника - это система методов и приемов, обеспечивающих эффективное запоминание, сохранение и воспроизведение информации. Использование мнемотехники позволяет формировать связную речь детей. Наглядные схемы помогают детям связно выстраивать рассказ. В своей работе я использовала мнемотаблицы по составлению описательных рассказов о предметном и природном мире. Мнемотаблицы для составления рассказов о предметно мире составляются по схеме: название предмета, цвет, форма, материал, размер, детали, применение. Благодаря такой схеме, дети последовательно и максимально точно описывают предлагаемый предмет. Мнемотаблица по описанию предмета представлена в цепочке картинок, которые указывают на то или иное свойство предмета. На начальном этапе изучаются сами схематичные изображения. И только тогда, когда дети запомнили условные обозначения свойств предмета, мы приступаем к составлению описательных рассказов по ним. Аналогично выстраивалась работа и по составлению описательных рассказов о природном мире, только содержание мнемотаблиц немного другое: название объекта природы, например животные, к какому виду относится, размер, цвет, части тела, чем покрыто тело, чем питается, как передвигается, где живёт.

На основе мнемотехники я так же вела работу по обучению пересказыванию литературных текстов. Только мнемотаблица, вместо символов, содержит иллюстрации сказки, выстроенные в последовательности событий, излагаемых в данном литературном произведении. После одного прочтения сказки, мы с детьми беседовали по её содержанию. По методике обучения пересказыванию необходимо второй раз прочитать текст, но мы опускали этот пункт и благодаря мнемотехнике дети могли пересказать сказку, максимально соблюдая последовательность изложения и связность рассказа.

Хочется отметить, что использование мнемотехники позволило улучшить развитие связной речи детей. Так как у детей дошкольного возраста преобладает наглядно-образное

мышление, использование мнемотаблиц является очень эффективным средством речевого развития детей старшего дошкольного возраста.

Как известно, мелкая моторика оказывает влияние на речевое развитие детей. Поэтому в своей работе я использую пальчиковую гимнастику и Су-Джок терапию. Данные методы работы применяются мной в каждом занятии по речевому развитию, в совместной деятельности с детьми в режиме дня и особенно в индивидуальной работе с детьми. Упражнения с использованием Су-Джок обогащают знания ребенка о собственном теле, развивают тактильную чувствительность, мелкую моторику пальцев рук, опосредованно стимулируют речевые области в коре головного мозга, а так же способствуют общему укреплению организма и повышению потенциального энергетического уровня ребенка. Кроме того, они помогают организовать занятия интереснее и разнообразнее, создают благоприятный психофизиологический комфорт детям во время занятия.

Су-Джок терапия очень интересна детям и безопасна. Она представляет собой некий массаж кистей рук с помощью самого шарика и массаж каждого пальчика с помощью эластичных колец. Для начала я познакомила детей с этим интересным прибором, затем рассказала и показала, как им пользоваться. Мы стали применять его перед начало каждого занятия, дети быстро освоили технику и с удовольствием применяли её. После использования Су-Джок шариков в совместной деятельности, я поместила их в центр речевого развития, где дети самостоятельно, в любое время, могут взять эти шарики и сделать себе массаж кистей и пальчиков.

Дыхательная гимнастика является неотъемлемой частью речевого развития детей. Правильное речевое дыхание обеспечивает нормальное голосообразование, правильное усвоение звуков, способно изменять силу их звучания, помогает соблюдать паузы, сохранять плавность и музыкальность речи, менять громкость. Цель дыхательной гимнастики – увеличить объем дыхания, нормализовать его ритм, выработать плавный длительный выдох. Для достижения результатов большая часть занятий я провожу в игровой форме. Такие упражнения, как «Положи игрушку на животик и подними ее», «Мой животик – воздушный шарик», выполняемые в положении лежа, сидя и стоя способствуют формированию диафрагмального типа дыхания. При выполнении этих упражнений необходимо следить за тем, чтобы вдох ребенка не был форсированным, а плечи не поднимались. Дыхательная гимнастика незаменима при развитие у детей правильного звукопроизношения.

В качестве игрового приёма речевого развития детей старшего дошкольного возраста применя технологию Синквейн. Синквейн – это стихотворение из пяти строк, которое строится по следующим правилам: 1 строчка - одно существительное; 2 строчка - два прилагательных, которые характеризуют данное существительное; 3 строчка - три глагола, обозначающие действие существительного; 4 строчка - фраза из четырех слов, которая характеризует существительное; 5 строчка - одно существительное, повторение сути, резюме сказанному. Синквейн очень прост, его может освоить каждый. При составлении Синквейна каждый ребёнок реализовывает свои творческие, речевые и интеллектуальные возможности.

Метод Синквейна используется как заключительное задание по пройденному материалу, как рефлексию и анализ полученной информации. Благодаря ему дети учатся исключать лишнее и выделять главное, обобщать информацию и классифицировать её. Алгоритм Синквейна для детей, которые не умеют читать, похож на ёлочку, где части речи выделяются разными цветами. Темы Синквейнов могут быть самыми разнообразными, здесь нет ограничений, главное, чтобы тема была хорошо знакома детям. Данный приём очень нравится детям, потому что он преподносится детям в форме игры, в форме творческого задания, где каждый ребёнок имеет возможность проявить себя.

Метод Сторителлинг. Он является инновационной технологией в речевом развитии детей. Сторителлинг – это игра, которая интересна не только взрослым, но и детям. Состоит она из девяти кубиков, на которые наклеены 54 картинки, которые погружают в мир фантазий и приключений. Правила этой игры просты и легко запоминаются детьми, суть её – «бросай» и «рассказывай». В начале игры совместно с детьми выбирается тема истории, определяется главный герой этой истории и конечно же жанр истории ( что это будет: смешная история или грустная, сказочная или реалистичная). На стол бросаются девять кубиков и делятся на три части – начало истории, середина и развязка. Опираясь на кубики, ребёнок рассказывает историю - дети плавно переходят от одной картинки к другой и сочиняют необычные истории. Таким образом, у детей развивается

связная монологическая речь, грамматический строй речи, речевое творчество.

Эффективность применения описанных мною методов, приёмов и инновационных технологий подтверждается промежуточным мониторингом освоения детьми группы «Ласточка» 34 детского сада города Навои. По сравнение с мониторингом на начала года, уровень речевого развития детей после первого полугодия увеличился на 32%. Таким образом, практическая значимость обобщения моего педагогического опыта заключается в том, что его содержание может быть использовано педагогами в работе по развитию речи детей старшего дошкольного возраста в условиях дошкольной образовательной организации.

**Литература.**

1. Омельченко Л. В. использование приемов мнемотехники в развитии связной речи. Логопед № 4, 2008- С. 102-105

2. От рождения до школы. Инновационная программа дошкольного образования. [Текст] / Под ред. Н. Е. Вераксы, Т. С. Комаровой, Э. М. Дорофеевой. — Издание пятое (инновационное, испр. и доп. — М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2019. — с.336

3. Ушакова О. С, Струнина Е. М. Методика развития речи детей дошкольного возраста: Учеб. -метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004 — 288 с.

## SAHNALASHTIRISH FAOLIYATIDA PAPE-MASHE USULINING O‘RNI

**O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna (O‘zbekiston)**
NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi



Pape-mache (fransuzcha papier mâché-“chaynalgan qog‘oz”) degan ma’noni anglatadi. “G‘ijimlangan qog‘oz”, “namlangan, g‘ijim” qog‘oz” deyilgan manbalarni uchratish mumkin. Pape-mashe usuli yelimlar, kraxmal, gips va boshqalar bilan tolali materiallar (qog‘oz, karton) aralashmasidan olingan oson qoliplangan massa. Pape-mashe usulining bugungi kunda juda ko‘p texnologiyalari mavjud. Ba’zi pape-mashe usulida yasalgan buyum, o‘yinchoqlarni haqiqiy san’at asari deyish mumkin. Chunki, pape-mashe usulida yasalganligini haqiqiysidan ajratish qiyin bo‘ladi.

Pape-mashe usuli Fransuz nomidan kelib chiqqanligiga qaramasdan, pape-mashe tug‘ilgan joyi qog‘oz ixtiro qilingan Xitoy hisoblanadi. Pape-mashe yasalgan birinchi ob’ektlar Xitoyda qazishmalar paytida topilgan, ular qadimgi Xitoy zirh va qalqonlarda ishlatilgan ekan. Ularga qattiqlik berish uchun ko‘p qatlamli lak-bo‘yoq qoplamasi ishlatilgan. Bu buyumlar Xan sulolasiga davriga mansub (202-y. — 220-y.). U davrlarda pape-mashe zirh eng texnologik jihatdan rivojlangan himoya vositasi bo‘lib, u o‘qning urilishi va qilichning yaltirash zarbasini bartaraf etdi. Yaxshi kuch bilan birga, qog‘oz zirh jangchi jangda tez harakat qilish imkonini beruvchi, juda yengil ko‘tarish qulay, yaltiroq bo‘lgan.

Sahnalashtirish faoliyatida pare-mashe usuli juda asqotadi. Bu usul bilan tayyorlangan sahna dekaratsiyalari va o‘yinchoqlari aslidan farq qilmasligi hamda yengilligi bilan qulaylik tug‘diradi. Sahna uchun kerakli jihozlarni tayyorlashda, obrazlarni ifodalashda pape-mashe usulidan keng foydalaniladi.

Pape-mashe usulining bir necha usuli bilan tanishib, yasash ishlarini olib borish lozim. Bu usul juda qulay. Bu ish insondan sabr toqat talab qiladigan mashg‘ulot hisoblanadi.

Birinchi texnologiyaga ko‘ra, mahsulot oldindan tayyorlangan modelga kichik nam qog‘ozlarni qatlam-qatlam yopishtirish orqali amalga oshiriladi. Klassik texnikada 100 qatlamgacha qog‘oz qo‘llaniladi. Endi polivinilatsetat yelimi ko‘pincha shu maqsadda ishlatiladi va ilgari kraxmal pastasi ishlatilgan. Ba’zan mahsulotni sinishi uchun (ya’ni mustahkamlanishi uchun) qog‘oz qatlamlari orasiga mato gazlama qatlamlari qo‘shiladi.



Ikkinchi texnologiyaga ko‘ra, mahsulotlar qog‘ozdan suv bilan suyuq massa hosil qilinadi. Kichik bo‘laklarga kesilgan qog‘oz issiq suv bilan to‘ldiriladi va bir kun issiq joyga joylashtiriladi. Keyin qaynatiladi, bosiladi, yumshatiladi va quritiladi. Olingan qog‘oz massasi bo‘r bilan yaxshilab aralashtiriladi. Qog‘oz-bo‘r aralashmasiga doimiy aralashtirilgan holda plastik smetana xamiri olinguncha yelim qo‘shiladi. yelim sifatida kraxmal pasta va duradgorning yelimi aralashmasi ishlatiladi. Xamir tayyorlangan shaklga quyiladi yoki uning yuzasiga qatlam qo‘yiladi va to‘liq quriguncha saqlanadi. Ikkinchi texnologiyaning o‘zgarishi maxsus 3D printer yordamida tez quriydigan suyuq qog‘oz massasidan mahsulot hosil qilishdir.

Kerakli mahsulotlar: PVA kley, qog‘oz, suv, albaster, idish, rangli bo‘yoqlar(rangli xamirlar tayyorlash uchun), qum qog‘oz(najdak), chutka, qaychi va b. Birinchi PVA kleyni idishga solamiz. Birinchi qirqilgan yoki yertilgan qogozlarni masalan: shar, olma shaklini olish uchun oddiy suvda namlab yopishtirib boshlaymiz. Qog‘oz bilan olma orasida havolarini qoldirmasdan 4-5 qavat qilib oldiniga nam qog‘oz bo‘laklarini yopishtiriladi. Keyingi qavatlar PVA kleyga botirib yopiladi. 15-20 qavat va undan ziyod qilib yopishtirish ham mumkin. Yopishtirish yakuniga yetgandan so‘ng quritishga qo‘yiladi. Yoz faslida tezroq quriydi, qish faslida ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi. Yana quritishda gaz plita duxovkasidayam past olovda, qarab-qarab turib, duxovka eshigini qiya ochiq holda past olovda quritish mumkin. Quritish jarayoni tezlashadi. Yasalayotgan shakl qurigandan so‘ng ajratib olinadi. Olma shakli birlashtirilib kley, kleyli qog‘oz yana yopishtiriladi. Dag‘al joylari qum qog‘oz bilan tekislanadi. Qurilish materiallaridan emulsiya surtilib oqartiriladi. Qurigandan keyin rang beriladi.





Pape-mashe usulida buyumlar yasash uchun xamirli massa tayyorlab olinadi. 200-250-gramm suzga qog‘ozni maydalab tashaymiz. Qog‘oz iviydi. PVA kley solib xamirli loyga o‘xshash massa tayyorlab olinadi. Qog‘oz qancha mayda bo‘lsa shuncha yaxshi. Tayyorlangan xamirga, loyga oxshash massa ko‘p g‘ijimlanadi, g‘ijimlaganda yorilmasligi kerak. Tayyor pape-mashe massasini masalan tarelka yasamoqchi bo‘linsa, tarelkaning orqa tomoniga rasmdagidek surtiladi, yopishtiriladi, quritiladi. Qurigandan keyin tarelkadan ajratib olinadi va silliqlanadi. Emulsiya surtiladi, ranglanadi. Oxiri likopchaga gul chiziladi. Shu usulda istagan narsa, o̧‘yinchoq yoki buyumlar yasab olinadi..





Pape-mashe o‘yinchoqlari va buyumlari qog‘ozni yertib kleyga bulab shakl olish uchun narsa sirtiga yopishtirilib boriladi. Bundan tashqari xamirga o‘xshagan massa tayyorlash texnologiyasidan foydalanib yasash mumkin. Pape-mashe usuli namunalari:









Ushbu qadimiy hunarmandchilik bir nechta buyumlarni yasashga yordam beradigan bir necha avlod va mamlakatlarni qamrab oladi. Garchi bu nom frantsuzcha bo‘lsa-da, bu usul XVII asrgacha Frantsiyada ko‘rinishga ega bo‘lmagan. Bungacha bu texnika Xitoyda va dunyoning boshqa joylarida miloddan avvalgi 200-yilda qo‘llanilgan.

- Qadimgi Xitoyda bu usulda qalqonlar va jangchi dubulg‘alarini yasashgan ekan.
- Qadimgi misrliklar zig‘ir va gips yordamida o‘lim maskalarini tayyorlash uchun qog‘oz machelardan foydalanganlar.
- 18-asrda Evropada ushbu texnika bezakli gips va mebelga o‘yilgan yog‘ochdan arzonroq variant sifatida ishlatilgan.

Pape-mashe usulida ishlaganda qog‘oz, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo‘yash uchun bo‘yoq, mo‘yqalamlar kerak bo‘ladi. Ish qog‘ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o‘rash qog‘ozlari zarur. Qog‘oz namlanadi, Pape-mashedan tayyorlangan o‘yinchoqlar, har xil mayda chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi.

*Tayyorlash usuli quyidagicha:*

1 qavat o‘rov qog‘oz yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamirni surib chiqamiz va xamir surilgan qog‘ozni qo‘limizda g‘ijimlab maydalab bir xil massa bo‘lguncha ezg‘ilaymiz. Tayyor bo‘lgan

massani bo‘laklarga bo‘lib xohlagan o‘yinchoqni yasashimiz mumkin. O‘yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. G‘ijimlash usuli orqali o‘yinchoq yasashdan ko‘pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o‘yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o‘yinchoq qurigandan so‘ng qum qogoz bilan ishqalanib, silliqlanadi. So‘ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo‘yab olinadi. Pape-mashe usulida kerakli oyinchoqlar, dekaratsiya buyumlari yasash uchun qog‘oz, suv, PVA kley, un, emulsiya, tish pastasi, qum qog‘oz, guash, lak kabi predmetlar kerak bo‘ladi. Pape-mashe usulida ishlash insonga sabr-qanoat, qunt, mustahkam iroda, ijodiy barkamollik bag‘ishlaydi. Dunyoni nafosati va go‘zalligini his etib tasvirlashga yordam beradi.

Pape-mashe usuli sahnalashtirish faoliyatini amalga oshirishning qulay bir vositasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqa” T.: 2010-y.
2. Xasanova Sh.T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish -T.: 2019-y. 204 b.
3. Abdullayeva S.B. O‘tamurodova Sh. M. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish “Bookmany”-T.: 2022-y. 236 b.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA TARBIYACHIARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Maxbuba Sulaymanova Alimjonovna (O‘zbekiston)**
NamDU tayanch doktoranti
mahbubasulaymonova@gmail.ru.

**Annotatsiya.** Maqolaning asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim sohasidagi ustuvor yo‘nalish hisoblangan “ta'lim sifati”, shu jumladan, maktabgacha ta'lim kontseptsiyasida belgilab berilgan vazifalar mazmunini ochib berishdir. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim omillar haqida ma’lumotlar berilgan

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, ta’lim sifati, konsepsiya, kompetensiya, intellectual, axborot, kommunikativ, refleksiv.

**Аннотация.** Основная цель статьи - раскрыть “качество образования” как приоритет в сфере дошкольного образования, в том числе содержание задач, определенных в концепции дошкольного образования. Также дана информация о важных факторах развития профессиональных компетенций воспитателей организаций дошкольного образования.

**Ключевые слова**: дошкольное образование, качество образования, понятие, компетентность, интеллектуальное, информационное, коммуникативное, рефлексивное.

**Abstract.** The main goal of the article is to reveal “quality of education” as a priority in the field of preschool education, including the content of the tasks defined in the concept of preschool education. Information about the important factors in the development of professional competences of educators of preschool education organizations is also provided.

**Key words:** preschool education, quality of education, concept, competence, intellectual, informational, communicative, reflexive.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir, degan edi mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Shuning uchun bu sohaning barcha bosqichlari tubdan isloh qilinib, kompleks rivojlantirilmoqda. Mamlakatimizning Taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish aynan ta’lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga mutanosib ravishda 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”, deb nom berildi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv- metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan

teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq 2019 yil 8-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 4312-son qarori qabul qilindi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Ushbu Konsepsiyada, Maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi vazifalarning belgilab berilganligi, tizimda faoliyat olib boruvchi barcha mutasaddi rahbarlar va pedagog kadrlar zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Ta'lim sifatini oshirish uchun eng muhim masala bu zamonaviy fikrlaydigan, o'z ustida doim ishlaydigan, fidoiy pedagoglarlarni tayyorlashdir.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning o'rni va ahamyati juda katta va ta'lim sifatini oshirish olimlarning doimiy e'tiborida bo'lgan.

G'arb olimlaridan A.S. Zapesotskiy, V.A. Kalney, E.M. Korotkov, A.M. Moiseev, V.P. Panasyuk, V.M. Polonskiy, S.Y. Tryapitsin, V.V. Timchenko, N.B. Fedorova, S.E. Shishova kabi olimlar ta'lim sifatini oshirish bo'yisha o'z qarashlari bilan ilm-fanga katta hissa qo'shgan. E.M.Korotkov "Maktabgacha ta'lim sifati" haqida quyidagicha yozadi: "Maktabgacha ta'lim sifati tushunchasi ko'p qirrali [8-10] va quyidagilarni o'z ichiga oladi [11]: ta'lim sifati va tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi; ta'lim jarayonining sifati (pedagogik mahorat, o'quv predmetini rivojlantirish muhiti); va tashkilotni boshqarish sifati. Maktabgacha ta'lim sifati boshqariladigan jarayon bo'lib, uni boshqarishning quyidagi yondashuvi mavjud: pedagogik tizimning protsessual tarkibiy qismlari orqali, ya'ni pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarini tashkil etish darajasi va boshqaruvdagi shaxsiy, subyektiv jihatlar orqali. Ta'lim sifatini rivojlanishida pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar, tashkilotdagi ijobiy psixologik muhitning roli juda katta. Ta'lim jarayonidagi asosiy shaxs bu tarbiyachi bo'lib, u ta'lim sub'ektidir"

K.Y. Belaya "maktabgacha ta'lim sifati"ni bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonni tashkil etish sifatida tavsiflaydi, bunda har bir bolaning tarbiyasi va rivojlanish darajasi ta'lim va tarbiya jarayonida uning shaxsiy yoshi va jismoniy xususiyatlariga muvofiq oshadi [7, p. . 4].

Ta'lim sifatini ta'minlash siyosati esa ta'lim muassasasida pedagog kadrlarni shakllantirish, ualrning kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy metodik yondashuvlar va pedagogik vositalardan foydalanishdan boshlanadi. So'nggi yillarda zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogning malakasi va kasbiy mahoratini, ya'ni kasbiy kompetentsiyasini oshirish zaruratini keltirib chiqardi [12-14].

Kasbiy kompetentsiya muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy

fazilatlarning kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish ijodiy shaxsni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarni qabul qilish va o‘zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir [12, p. 6]. Uning asosiy tarkibiy qismlariga [12, b. 7] quyidagilar kiradi:

a) intellektual va pedagogik kompetentsiya - bilimlarni, tajribani kasbiy faoliyatda samarali o‘qitish va tarbiyalash uchun qo‘llash qobiliyati, pedagogning innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati;

b) kommunikativ kompetentsiya - nutq qobiliyatlari, muloqot qobiliyatlari, ekstraversiya, empatiyani o‘z ichiga olgan muhim kasbiy sifat;

c) axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi – mediamanbalar (radio, televizor, internet tarmoqlari) dan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish ularnng xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalarini aniqlash.

d) refleksiv kompetentsiya - pedagogning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, his-tuyg‘ularini nazorat qilish, fikrlash qobiliyati va stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasini uning faoliyatining kompleks va integral xarakteristikasi sifatida amaliy o‘rganish metodikasini ishlab chiqish masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu ko‘pincha individual komponentlar, xususiyatlar yoki birikmalarni o‘rganish to‘plamini ifodalaydi.

A.M. Sanko va N.B. Strekalova [12] pedagogning kasbiy malakasini har tomonlama baholash uchun test topshiriqlari to‘plamidan foydalanishni taklif qiladi. Shuningdek mualliflar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentsiyasini aniqlash hamda pedagogik faoliyatini o‘zini-o‘zi baholash anketasidan foydalangan holda o‘rgandilar: Tadqiqotda 24 nafar pedagog ishtirok etdi (ulardan 10 nafari eng yuqori malaka darajasiga, 14 nafari esa birinchi malaka darajasiga ega)

O.B. Balberovaning fikricha [16], asosiy ta’lim dasturini amalga oshirishning muhim yo‘nalishi pedagogning kasbiy malakasini baholashdir. Agar pedagog faoliyat olib borayotgan guruhda bolaning integratsiyaviy fazilatlari rivojlangan bo‘lsa, yuqori darajadagi faollik kuzatilsa, uning maktabgacha ta’lim tashkilotiga munosabati ijobiy bo‘lsa, ota-onalar ta’lim muammolarini bartaraf etishda ishtirok etsa, demak ushbu tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi rivojlanganligini anglatadi[16, p. 27 – 30].

## TADQIQOT NATIJALARI

A.M. Sanko va N.B. Strekalova tavsiya etgan test topshiriqlari to‘plamidan foydalangan holda olib borilgan pedagogning pedagogik faoliyatini o‘z-o‘zini baholash tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: – Tadqiqot 24 nafar pedagog ishtirokida olib borildi: intellektual va pedagogik kompetentsiya bo‘yicha 12 nafar pedagog (50%) dunyoqarashning yetarli emasligi, turli mavzularda suhbatni osonlik bilan davom ettira olish malakasining pastligi aniqlandi.

- Kommunikativ kompetentsiya darajasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar quyidagilarni ko‘rsatdi: faoliyat dasturlarini ishlab chiqishda (tayyor shablonlardan foydalangan holda) va pedagogik qarorlar qabul qilishda pedagoglarning tezkor emasligi shunungdek, hamkasblarga yangi bilimlar to‘g‘risida nutq so‘zlashda tajribaning kamligi, dasturiy-uslubiy va didaktik materiallar yaratish hamda ishchi guruhlar ishida yetarlicha ishtirok etmaganligi aniqlandi.

– axborot kompetentsiyasi bo‘yicha, bir qator pedagoglar (12 kishi/50%) zamonaviy o‘qitish usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Pedagoglar har doim ham mediamanbalardan foydalangan hold a ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib bormaydilar;

- refleksiv kompetensiyalar bo‘yicha barcha pedagoglar (100%) pedagogik va tarbiyaviy faoliyatning maqsadlari, vazifalari va tashkil etilishini belgilash va bilishda yuqori natijalarga ega.

Xulosa qilib aytganda, metodikadan foydalanish natijalari ushbu metodologiyadan foydalanadigan pedagoglarga berilgan toifalarning muvofiqligini aniqladi. Natijalar bir qator pedagoglarning (14 tadan 6 nafari, 43%) malaka darajasini birinchidan yuqori darajaga ko‘tarish qobiliyatini ko‘rsatdi. Bu pedagogning malakasini oshirish, ularning malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar yaratadi.

Tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayotini tashkil etuvchi shaxs bo‘lib, o‘zining shaxsiy sifatlari, kasbiy mahorati bilan ularga bevosita juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyashining vazifasi ta’lim jarayonida bolani ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsini saqlab qolish va takomillashtirish, bolaning mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini ifoda etishi uchun sharoit yaratishdir. Demak, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsiy omillar juda katta ro‘l o‘ynaydi. Agar, tarbiyachi o‘z kasbini sevsa, sohadagi yangiliklar bilan qiziqsa va uni o‘z

faoliyatiga tadbiq eta olsa uning kasbiy kompetensiyasi doim rivojlanib boradi.

**Adabiyotlar.**


1. S.T.Turg‘unov, I.A.Rahimov, Q.O.Shodmanov, N.A.Usmanova. Pedagogika va psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Namangan. 2021.
2. Asqarova O‘.M. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "Talqin", 2018. - 288 b.
3. Abdullaeva SH.X. Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. - T.: O‘zMU, 2019. - 61 b.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T.: OPI, 2003. 89 b.
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 103 b.
6. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2009. 59
7. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. https://literature .academi cjournal.io/index.php/literature/article/view/256
7. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal, (2)


## BOLALAR O‘QISHGA VA YOZISHGA O‘RGATISH HAMDA NUTQINI O‘STIRISHDA GENDER XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH YO‘LLARI


**S.Mansurova (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,

**Sh.Ramazonova (O‘zbekiston)**

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Моб.тел: (+998) 93 3118127; e-mail:mansurovasurayo208@gmail.com



**Annotatsiya:** Inson nutqi tarkibining shakllanishida bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi ishtirok etishi tan olingan bo‘lib, nutqda ko‘proq so‘z boyligi, intonatsiya va ritmlarga e’tibor berilishi kerak.



**Kalit so‘zlar:** Yarimsharlar, O‘qish va yozishga fonem yondashuv, bilish faoliyati mexanizmlari, jarayonni differensillashtirish.



**Аннотация:** признано, что в формировании структуры человеческой речи участвуют оба полушария головного мозга, и в речи следует уделять больше внимания словарному запасу, интонации и ритмам.



**Ключевые слова:** полушария, Фонемный подход к чтению и письму, механизмы познавательной деятельности, дифференциация процесса.



**Annotation:** Both cranial hemispheres are recognized to be involved in the formation of human speech content, with a greater emphasis on vocabulary, intonation, and rhythms in speech.



**Keywords:** Hemispheres, phonemic approach to Reading and writing, mechanisms of cognitive activity, process differentiation.


Tilning tovush jihatini  har ikkala yarimshar o‘zlashtiradi. Biroq bu jarayon yarimsharlar tomonidan turlicha faollikda amalga oshiriladi. Chunki inson bosh miyasi olam to‘g‘risida yaxlit tasavvur shakllantirishga intiladi. Chap yarimshar – fonematik tushunishni, o‘ng yarimshar esa tovush va so‘zlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlaydi.

O‘qish va yozishga fonem yondashuv tamoyili zamonaviy metodikalar asosini tashkil qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni o‘qishga o‘rgatishda ashula va raqs mashqlarini birgalikda, o‘zaro bog‘lab amalga oshirilishi samarali natijalar beradi. Bu o‘g‘il bolalarning gender xususiyatlariga, ularning tafakkuri strategiyasiga ko‘proq mos keladi. Fonematik tahlilga asoslangan o‘qitish esa o‘g‘il bolalarga ham, qiz bolalarga ham yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

YArimsharlar orasidagi o‘zaro aloqa yaxshi shakllanmagan taqdirda bola harflar o‘rtasidagi bo‘shliqni ko‘rmaydi. Bunday hollarda matn o‘qishni o‘rgatishda qizil yoki yashil rangli qog‘ozdan foydalanish kerak. Bolaning matnni oxiridan (o‘ng tomondan) o‘qishi boshlashi unda fazoviy ma’lumotlar bilan ishlash, bu ma’lumotlarni yaxlit strategik tahlil qilishga qiynalishidan dalolat beradi. Bunday bolalar uchun katta matnlarni o‘qish, so‘zlarni yaxlit (bo‘g‘inlarga ajratmasdan) o‘qish qiyin

kechadi. Ular o'qish ko'nikmalariga tahliliy yo'l bilan, ma'lumotlarni qabul qilishning tahliliy strategiyasiga asoslanib erishishlari nisbatan oson kechadi.

Yozish o'quv faoliyatining eng murakkab turi hisoblanadi. A.R.Luriya yozuv ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun bola qo'llar va ko'zlarini yuqoriga-quyiga, chapga-o'ngga, soat strelkasiga qarama-qarshi harakatlantirishi lozim ekanligini ta'kidlagan. Yozish jarayonida yarimsharlarning har ikkalasi faol ishtirok etadi. Harflarni yozishni o'rganish jarayonida obrazli tafakkurni faollashtirish kerak bo'ladi. Shunda bolalar harflarning tovushini, so'zlarning artikulyatsion, kinestetik va vizual obrazlarni oson eslab qoladilar.

V.D.Eremeyeva musiqa ta'sirida ritmlashtirilgan yozishni tavsiya qilgan. Yozish, xuddi o'qish kabi, nafas olishga mutanosib ritmda bo'lishi kerak. Qo'lni uzmasdan yozish o'quvchi tomonidan qiyin o'zlashtiriladi. Bu, chap qo'li yetakchi bo'lgan o'quvchilarga ko'proq taalluqlidir[4].

Yozishga o'rgatishning birinchi bosqichida, - deb yozadi V.A.Ilyuxina, - harakatlar sekinlashtirilgan ritmda amalga oshiriladi. Bir operatsiyadan ikkinchisiga o'tishda bolalar navbatdagi bajariladigan harakatlarni anglab olishlari kerak bo'ladi[5].

Inson nutqi tarkibining shakllanishida bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi ishtirok etishi tan olingan bo'lib, nutqda ko'proq so'z boyligi, intonatsiya va ritmlarga e'tibor berilishi kerak. Bolaning nutq faolligi uning gender farqiga bog'liqdir. Qiz bolalar o'zlarining ratsional-mantiqiy tafakkurlari tufayli ko'p hollarda matn bilan qiyinchiliklarsiz ishlashlari mumkin. Ular ot va fe'l bilan erkin "ishlaydilar", matnni to'liq takrorlaydilar, biroq matnning qisqacha mazmunini bayon qilishda qiynaladilar. Chunki matndagi asosiy holatlarni og'zaki bayon qilishlariga matndagi mayda detallar "xalaqit" beradi. O'g'il bolalarning nutqida fe'l va olmoshlar kam bo'lib, kontekstdan tashqaridagi so'zlarni eslab qolishga qiynaladilar. O'zlarining intuitiv tafakkurlari tufayli o'g'il bolalar qo'rquv, qayg'u kabi abstrakt tushunchalarni anglashlari oson[6].

O'g'il bolalar uchun matnni aniq va to'liq takrorlash ko'pincha qiyin bo'lib, matn mazmunini uzuq-yuluq ifodalasalar-da, matn mazmuni va muhim vaziyatlarini ancha tez tushunadilar. Tarbiyachi ushbu toifadagi bolalar tafakkuri xususiyatlarini hisobga olib ular nutqini rivojlantirish uchun mashg'ulotlar sxemasini samarali rejalashtirishi mumkin. Buning uchun barcha bolalarga o'z kuchlari va qobiliyatlarini sinab ko'rishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida matnlarni og'zaki bayon qilishlariga tayyorlanish jarayonini differensillashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, bolalarning bosh miya yarimsharlari, gender farqlaridan kelib chiqib, ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda turli belgilar tizimi va turli anglash strategiyalaridan foydalanadi. Ularning xulq-atvori va bilish faoliyati mexanizmlari yarimsharlardan qaysi birining yetakchi bo'lishiga bog'liq. Tarbiyachi va bolalar psixologlari maktabgacha katta yoshdagi bolalardagi shu o'ziga xos betakrorlikni hisobga olib ta'lim jarayonini tashkil etishlari muhim sanaladi. Buning uchun bolalarning gender xususiyatlarining o'ziga xos kognitiv jihatlarini aniqlay olishlari hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishlari zarur.

Shunday qilib, bolalarning gender farqlari ularning xulq-atvori va tafakkur qilish jarayoni bilan bog'liq. Bolalarning xulq-atvori va tafakkur strategiyasi bosh miya yarimsharlarining qaysi biri yetakchi ekanligi bilan belgilanadi. Chunki har ikkala yarimshar murakkab kognitiv jarayonlarda turli belgilar tizimi va turli anglash strategiyalaridan foydalanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida ularning gender farqlarini hisobga olmaslik faqat bitta yarimshar funksiyasini faollashtirib, ikkinchi yarimshar funksiyalari bilan o'zaro ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Mashg'ulotlarni tashkil etishda bollarning geder farqlarini hisobga olgan o'qitish metodlari va texnologiyalardan foydalanish ushbu jarayonni bola individualligiga yo'naltirish hamda bosh miya yarimsharlari faoliyatining sinxronizatsiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Bosh miya yarimsharlarini bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda sinxron ishlashi bolalarning bilish faoliyatini tashkil etish maqsadida berilayotgan ma'lumotlarni intensiv

---

[4] Еремеева В.Д. Дидактические принципы системы Л.В.Занкова глазами нейропсихолога. URL: http://www.zankov.ru/about/theory/article=106

[5] Илюхина В.А. Письмо с секретом. Книга для учителя. М.: Просвещение, 2007. / http://standartarticle.weebly.com/blog/6291140

[6] Как писать буквы / М. М. Безруких, Т.Е. Хохлова. – М.: Новая школа, 1994. – 60 с.

o‘zlashtirishlariga, ulardagi “savodli” tafakkurning shakllanishiga va mavjud iste’dodning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, bolalarning bosh miya yarimsharlari, gender farqlaridan kelib chiqib, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda turli belgilar tizimi va turli anglash strategiyalaridan foydalanadi. Ularning xulq-atvori va bilish faoliyati mexanizmlari yarimsharlardan qaysi birining yetakchi bo‘lishiga bog‘liq. Tarbiyachi va bolalar psixologlari maktabgacha katta yoshdagi bolalardagi shu o‘ziga xos betakrorlikni hisobga olib ta’lim jarayonini tashkil etishlari muhim sanaladi. Buning uchun bolalarning gender xususiyatlarining o‘ziga xos kognitiv jihatlarini aniqlay olishlari hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishlari zarur.

**Adabiyotlar.**


1. Еремеева В.Д. Дидактические принципы системы Л.В.Занкова глазами нейропсихолога. URL: http://www.zankov.ru/about/theory/article=106
2. Илюхина В.А. Письмо с секретом. Книга для учителя. М.: Просвещение, 2007. / http://standartarticle.weebly.com/blog/6291140
3. Безруких М.М. Хохлова Т.Е. – М.: Новая школа, 1994. – 60 с.


## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTIDOR RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI


**Ermatova Gulnoz Pirimovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
**Sherbekova Nigina Sherzod qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi



**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidorni rivojlanishi va uni aniqlash, iqtidorlilik strukturasi va faktorlarini rivojlanishini uni diagnostika qilish haqida ma’lumotlar berilgan.



**Kalit so‘zlar:** iqtidorlilik strukturasi va faktorlari, diagnostika, aqliy aktivlik, aqliy o‘sish, maxsus qobiliyatlar, umumiy intellektual, akademik iqtidor.



**Аннотация:** в данной статье представлена информация о развитии таланта у детей дошкольного возраста и его выявлении, структуре и факторах развития таланта и его диагностике.



**Ключевые слова:** структура и факторы одаренности, диагностика, умственная деятельность, умственное развитие, специальные способности, общий интеллектуальный, академический талант.



**Abstract:** this article provides information about the development of talent in preschool children and its identification, the structure and factors of talent development and its diagnosis.



**Key words:** structure and factors of giftedness, diagnostics, mental activity, mental development, special abilities, general intellectual, academic talent.


Bugungi kunda barcha mamlakatlarda bolalar iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish muammosi dolzarb sanaladi.Sh jumladan Respublikamizda ham makrabgacha yosh davridan boshlab bolalar iqtidorini to‘g‘ri rivojlantirsh asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Iqtidor masalasi muatafakkirlarimiz asarlarida ham asosiy o‘rin olgan. Masalan, Y.B.Gippenreyter “Iqtidor tabiat inomi bo‘lmaydi. Iqtidor faqatgina ta’lim-tarbiya va bolaning doimo qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanishi natijasidir”, degan fikrlar bildirgan.

Bolalardagi iqtidor belgilarini aniqlab olishdagi qiyinchilik shundaki, ulardagi yoshga bog‘liq bo‘lmagan individual xususiyatlarni shunchaki ajratib olish qiyin. Masalan, boladagi yuqori aqliy aktivlik – bu aqliy o‘sishning ichki shartidir.bu keyingi yosh davrlarida ham barqaror saqlanib qolish yoki qolmasligi noma’lum. Boladagi ijodiy intilishlar, muammoga yangicha yondoshuv ham iqtidordan dalolat bergani bilan uning keyingi taraqqiyot noma’lum. Shuning uchun ham bolalar erta namoyon bo‘lgan iqtidor hali uning kelajakdagi imkoniyatlarini belgilab bera olmaydi.

Bola iqtidorini aniqlash – murakkab vazifa bo‘lib, bunda har tomonlama psixologik tekshiruvlarning natijalari va bolaning ota-onasi, o‘qituvchilari, tengdoshlaridan olingan so‘rovnoma orqali uni maktab va maktabdan tashqari yutuqlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Biroq,

iqtidorlilik strukturasi va faktorlarini rivojlanishini bunda kompleks diagnostika qilish koʻpgina nazariyalarda ochib berilsa ham muammoli boʻlib qolmqoda. Koʻpgina tadqiqotchilar dastlabki yuqori IQ muvaffaqiyatga erishishning yagona mezoni sifatidagi tasavvurlaridan voz kechib, iqtidorni rivojlanishidan ijodiy potensial va shaxsiy xususiyatlarni, qiziqish va maxsus qobiliyatlarini, qolaversa ijtimoiy sharoitlarning rolini namoyish etishdi. Koʻpgina iqtidorlilik konsepsiyalarida uni rivojlanishini kerativlik sifatida aniqlab ijodiy imkoniyatlar va qobiliyatlar bilan bogʻlaydilar. Iqtidorli, bolalar oʻzlarida qobiliyat boʻlgan faoliyat bilan band boʻlishga intiladi. Ular oʻzlari yoqtirgan ish bilan kunlab shugʻullansalar ham charchamaydilar. Bu ish ular uchun bir vaqtda oʻyin va mehnatdir. Ularning barcha kechinmlari, qiziqishlari, izlanishlari muammolari mana shu ish atrofidadir.

Bolalarda iqtidor koʻrinishlari turlicha boʻladi. Iqtidorli bolalar bir-birlaridan iqtidor koʻrinishlariga qarab tubdan farqlanadilar. Iqtidor turlari quyidagilar:

**Badiiy iqtidor.** Iqtidorning bu koʻrinishi maxsus maktablar, toʻgaraklarda qoʻllab quvatlanadi va rivojlanadi. Bunda badiiy ijod va musiqa ijrochiligi, tasviriy san’at, xaykaltaroshchilik, aktyorlik qobiliyatlari yuqori darajada boʻladi. Muhim muammolardan biri bunday bolalarni umumta’lim maktablarida tan oladilar va hurmat qiladilar. Bunday bolalar oʻz sohalarida yuksak choʻqqilarga erishishi uchun koʻp energiya sarflaydilar. Ularda fanlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishi uchun vaqt yetmaganligi bois oʻqituvchi va tengdoshlarini ularni tushunishlari va individual maktab dasturlari zarur boʻladi.

**Umumiy intellektual va akademik iqtidor.** Bu tipdagi iqtidorli bolalar asosiy tushunchalarni va ma’lumotlarni tez va oson eslab qoladilar. Informatsiyalarni qayta ishlash qobiliyatining yuqoriligi ularga koʻpgina bilimlarni egallash imkonini beradi. Akademik iqtidor uchun fanlardan muvaffaqiyatli ta’lim xosdir.Bunday bolalar oʻzlari muhim deb hisoblagan matematika, xorijiy til, fizika yoki biologiya fanlaridan oson oʻzlashtirib, muhim deb hisoblamagan fanlaridan qiyinlik bilan oʻzlashtiriladilar. Ularning bunday tanlovlari maktab, oilada muammolar tugʻdirish mumkin. Ota-onalar va oʻqituvchilar bola barcha fanlarni bir xil oʻzlashtirilmaganidan norozi boʻladilar.

**Ijodiy iqtidor.** Hozirgacha iqtidorlilikni ushbu tipini ajratish borasida baxslar ketmoqda. Bunga quyidagilar sabab boʻlmoqda. Ayrim mutaxassislar ijod kreativlik barcha turdagi iqtidorning ajralmas qismidir deb hisoblaydilar. Masalan, A.M.Matyugikin iqtidorlikning faqat bir koʻrinishi bor – ijodiy: agar ijodiylik boʻlmasa, iqtidor haqida gapirishdan ma’no yoʻq. Boshqalar esa ijodiylikni iqtidorning mustaqil koʻrinishi sifatida borligini tan oladilar.

Shu bilan bir qatorda ijodiy yoʻnalishga ega boʻlgan bolalar oʻqituvchilari va atrofdagilarda samimiy emotsiyalarni uygʻotuvchi quyidagi harakterga ega ekanliklarini ta’kidlashadi:

- ❖ sharoit va avtoriyetetga nisbatan befarqlik;
- ❖ muhokamalarda haddan ziyod mustaqillik;
- ❖ nozik xazil xissi;
- ❖ yaqqol temperament.

**Ijtimoiy iqtidor.** Ijtimoiy iqtidor boshqa insonlar bilan konstruktiv oʻzaro aloqalarni oʻrnata olish qobiliyatida koʻrinadi. Ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xulq, axloqiy muxokama, tashkilotchilik qobiliyati kabi tarkibiy elementlari bor. Ijtimoiy iqtidor bir necha sohalarda muvaffaqiyat qozonishni ta’minlaydi. U boshqalarni tushunish, sevish, hamdardlik qilish, umuman olaganda yaxshi psixologik, pedagogik, ijtimoiy xodim boʻlish uchun zarur boʻlgan sifatlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Demak, ijtimoiy iqtidor oʻzaro shaxslararo munosabatlarda namoyon boʻladi. Ijtimoiy iqtidorning bir koʻrinishi liderlik iqtidoridir.

**Liderlik iqtidor.** Liderlik iqtidorning koʻpgina xususiyatlari bor:

- ❖ oʻrtadan yuqori intellekt;
- ❖ qaror qabul qilish koʻnikmasi;
- ❖ mavhum tushunchalar bilan ishlash, kelajakni koʻra bilish, vaqtni taqsimlay olish malakasi;
- ❖ maqsadni aniqlash;
- ❖ egiluvchanlik, moslashuvchanlik;
- ❖ ma’suliyat xissi;
- ❖ oʻziga va bilimiga ishonch;
- ❖ qat’iyatlilik;
- ❖ tashkilotchilik;
- ❖ fikrni aniq bayon eta olish.

Ushbu iqtidor turli har kimning individual xususiyatlardan kelib chiqib turlicha namoyon boʻladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtidor yoshga bog‘liq holda turli sohalarda namoyon bo‘ladi. Eng avvalo musiqaga keyin rasm chizishga bo‘lgan iqtidor namoyon bo‘ladi: umuman olganda avval san’atga bo‘lgan keyin ilmga bo‘lgan iqtidor namoyon bo‘ladi. Umumiy intellektual iqtidor yuqori aqliy taraqqiyot va aqliy faoliyat sifatida namoyon bo‘lishi bolaning kelajakda iste’dodlini amoyon qilishi omilidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Локк Д. Мысли о воспитании. Т.3. – М.: Мысль, 1985.
2. Штерн В. Умственная одаренность. – СПб.: Союз, 1997.
3. Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Юркевич В.С. Проблемы современной психологии Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Публичные лекции // URL: http://childpsy.ru/media/129/
4. Малева Н.И. Английские песни в марийской столице // Марийская правда. 2012.
5. Малева Н.И. Школьники рассказывали сказки на английском // Марийская правда. 2012. – № 73. 6. Андреев В.И. Конкурентология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2004.


## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY TARBIYANING AHAMIYATI VA UNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI


**Yakubova Zilola Zikirovna(O‘zbekiston)**
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi



**Annotatsiya:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy tarbiyaning ahamiyati, tarbiyaviy ta’siri haqida so‘z yuritilgan.



**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, bolalar, milliy qadriyat, ma’naviy poklik, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikka erishish, etnomadaniy tarbiya, axloqiy tarbiya, shaxs.



**Аннотация:**говорилось о значении, воспитательном влиянии национального воспитания в дошкольных образовательных организациях.



**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, дети, национальная ценность, духовная чистота, методы воспитания, достижение творческого совершенства, этнокультурное воспитание, нравственное воспитание, личность.



**Annotation:** the importance, educational impact of National Education in preschool organizations is discussed.



**Keywords:** preschool education, educator, children, national value, spiritual purity, methods of upbringing, achievement of creative perfection, ethnomedical education, moral education, personality.


Shaxs tushunchasi insonga taaluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol

topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya - inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya - aniq maqsadlarni ko‘zlab sistemali ravishda,insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo‘lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixi tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro‘y beradi.

Natijada bola o‘zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi. Bolaning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo‘lgan insoniy tajribani o‘zlashtirishi kerak, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o‘zlashtirish usullarini hali egallamagan bo‘Iadi. Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo‘lgan mazmunni tanlaydi, uning o‘zlashtirishiga rahbarlik qiladi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi.

Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan o‘tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog‘liq bo‘Iadi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo‘shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko‘zi ojiz va kar bolalar uchun mo‘ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa, aniq namoyon bo‘ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi. Biroq, tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi, uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun Maktabgacha ta’lim va tarbiyasida bola shaxsini har tomonlama va uyg‘un rivojiantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o‘rtaga qo‘yiladi (A. V. Zaporojes).

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi:

“Tarbiyaviy ta'sirning g‘oyat qudratli ta'sir ko‘rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo‘lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo‘lsa, buning uchun u tarbiyadan, o‘z bolaligidan qarzdordir”.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Sodiqova.Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T:. “Tafakkur sarchashmalari”, 2013

3. Yakubova, Z. Z. (2022, October). Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning rivojlanishi va tarbiyasiga professional yordam ko ‘rsatishda oila, mahalla va maktab bilan hamkorlik ishlari. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).

4. Yakubova, Z. Z. (2023). Milliy tarbiya asosida bola shaxsini rivojlantirishda oila, maxalla va maktabgacha ta’lim tashkilotlar hamkorligi. *GOLDEN BRAIN, 1*(15), 141-147.

# MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

**N.Musayeva (O‘zbekiston)**
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,
**M. Xomidova (O‘zbekiston)**
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 – kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda matematik qobiliyatlarni shakllantirishda maxsus multimediali o‘yinlardan foydalanish, bir-biridan farq qiluvchi narsalarni taqqoslash asosida amalga oshirilishi haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar, matematika, multimedia, taqqoslash, matematik tasavvur, kompyuter o‘yinlari, boshlang‘ich savodxonligi.

**Аннотация:** В данной статье освещаются идеи о том, что использование специальных мультимедийных игр в формировании математических способностей у детей осуществляется на основе сравнения предметов, отличающихся друг от друга.

**Ключевые слова:** дети, математика, мультимедиа, сравнение, математическое воображение, компьютерные игры, элементарная грамотность.

**Annotation:** this article covers the ideas that the use of special multimedia games in the formation of mathematical abilities in children is made on the basis of comparing what is different from each other.

**Keywords:** children, mathematics, multimedia, comparison, mathematical imagination, computer games, elementary literacy.

Maktabgacha ta’lim muassasasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi turi, ya’ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda Davlatimiz uzluksiz ta’lim tizimi oldiga ma’naviy yetuk va intelluktual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ymoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir. Bugungi kun va ertamizning egalari bo‘lgan bolajonlarimizni bilimli va ilmga intiluvchan, fanga qiziqtirish eng muhim masalalardan biridir. Shu sababli, yoshlarimizga matematikani qiziqarli va oson o‘rgatishni o‘ziga xos ba’zi jihatlarini ushbu maqolada ko‘rib o‘tamiz.

Boshqa fanlarga nisbatan matematika, abstraktsiyaning eng yuqori o‘lchamdaligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Uning bu xususiyati «fanlar podshoxi» deyilishiga sababdir. Matematik bilimlarning nihoyatda mantiqiyligi, inson ongining boshlang‘ich aqli yetmasligini namoyish etadi. Zamonaviy bilimlarni egallash orqali bolalarda boshlang‘ich matematik bilimlarni shakllantirishning o‘ziga xos usullaridan biri sifatida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mumkin. «Multimedia - deganda turli shakldagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi»[ Adilova S. 20-21-b] «Multimedia - bir vaqtning o‘zida turli ko‘rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko‘zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi», «Multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an’anaviy va original turlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir». Multimedia bu maxsus texnologiya bo‘lib, dasturiy va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Bunday imkoniyatdan bolalarga bilim berishda ken ko‘lamda foydalanish mumkin. Bolalarda boshlang‘ich matematik bilimlarni shakllantirishda maxsus multimediali o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Matematik xossalarni aniqlash o‘zining o‘xshash yoki qarama-qarshi xossalari (uzun-qisqa, yumaloq-yumaloqmas va shu kabilar) bilan bir-biridan farq qiluvchi narsalarni taqqoslash asosida amalga oshiramiz. Zamonaviy matematikada “son”, “figura” va boshqa tushunchalarni asoslashda to‘plamlar nazariyasidan foydalanish mumkin.

Kichkintoylarga narsalar bilan turli xil ishlarni bajartirib, ularni sanoqni o‘zlashtirishga olib kelinadi, ularda natural son haqida tushuncha paydo qilish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Kichik guruhda narsalarni bo‘yiga, eniga, balandligiga, hajmga qarab taqqoslash mashqlariga katta e’tibor beriladi. Bolalarda katta (miqdor) va ularning xususiyatlari to‘g‘risida dastlabki tasavvurni hosil qilish, ular figuralar bilan tanishtiriladi, doira, kvadrat uchburchak shaklidagi narsalarning rangi katta-kichikligidan qat’iy nazar, bir-biridan farq qilishiga, ularning nomini aytish bu shakllarning modelini tanlay olishiga

o‘rgatiladi. Bolalar uchun yaratilan, matematikadan boshlang‘ich bilimlar berishga mo‘ljallangan elektron ta’limiy o‘yinlar, ularda texnika va matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib boradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Lekin shunga qaramay, kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishida kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish, matematik tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Bolalarning rivojlanishi uchun mo‘ljallangan kompyuterli o‘yin dasturlarining barchasi ham ta’lim jarayonida o‘z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e’tibor kerak bo‘ladi. Kompyuterli o‘yin dasturlari shunday yaratilgan bo‘lishi kerak- ki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O‘yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o‘ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, bolalarning axborot texnologiyalari bo‘yicha boshlang‘ich savodxonligini ham oshirish zarur, ya’ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu ishlar bolalarning kompyuter o‘yinlaridan foydalana olish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari shakllanishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi va ularni texnika, matematikaga oid boshlang‘ich bilimlarni qiziqish bilan o‘rganishida o‘ziga xos samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Adilova S. Multimedia va ularni ta'lim jarayonida qo‘llash // Pedagogik ta’lim-T.: TDPU, 2001. № 2. -B. 20-21
2. Beloshistaya A.V. DOW da matematikani o‘qitish: uslubiy qo‘llanma. - M .: Iris-press, 2005 .-- 320 b. (Maktabgacha ta'lim va rivojlanish).
3. Jumayev E.Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi // T., 2010
4. Miklyaeva N.V., Miklyaeva Yu.V. Bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi: talabalar uchun darslik. oliy o‘quv yurtlari ta'lim. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2015. - 352 b.
5. Shcherbakova E.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanish nazariyasi va metodologiyasi: qo‘llanma: - M .: MODP NPO, 2005. - 392 b.


## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLARNING ROLI


**Xaydarova Shaxlo Narzullayevna (O‘zbekiston)**
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti Dotsenti
**Xayrullayeva Marjona Sobirjon qizi (O‘zbekiston)**
NavDPI Maktabgacha Ta’lim yo‘nalishi talabasi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinlarning o‘rni, bolalarda ijodkorlik, yaratuvchanlik, bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llay olish haqida tushuncha berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Ijodiy qobiliyat, integral faoliyat, model, kontekst, individual xususiyatlar, diagnostika, optimallashtirish, potentsial qobiliyatlar, plastmassa.



**Аннотация:** В данной статье дается представление о роли игр в развитии творческих способностей дошкольников, умения применять творческие способности, творческие способности, знания и умения у детей.



**Ключевые слова:** Творчество, интегрированная деятельность, модель, контекст, индивидуальные особенности, диагностика, оптимизация, потенциальные способности, пластичность.



**Annotation:** This article gives an idea of the role of games in the development of creative abilities of preschool children, the ability to apply creativity, creativity, knowledge and skills in children.

**Keywords:** Creativity, integrated activity, model, context, individual characteristics, diagnostics, optimization, potential abilities, plasticity.

Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o‘ynaydi. Tasavvur va fantaziya har ikki munosabatlarda ham, ishda ham odamlarga yordam beradi, lekin eng muhimi, ijod insonlar hayotda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan, o‘zligini namoyon eta oladigan vosita sifatida qaraladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning aniq vaziyatlarida tarbiyachi bolalarni yosh xususiyatlarini va shaxsiyatini ijodiy rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik maktabgacha yoshdagi bolalar allaqachon ijodkorlikni integral faoliyat turi sifatida namoyon etishga qodir, shuning uchun pedagogik jarayonni loyihalashda va ijodiy rivojlanishga yordam beradigan aniq vazifalarni belgilashda 3-7 yoshdagi bolalarni aqliy jarayonlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish muayyan prinsiplarni amalga oshirishni talab qiladi:

- tanlov erkinligi: bolaga har qanday o‘quv yoki boshqaruv harakatlarida tanlash imkoniyatini berish (bolada o‘z tanlovini amalga oshirishga imkon beradigan turli didaktik materiallar, ko‘rgazmali vositalarni berishi kerak);
- ochiqlik: tarbiyachi nafaqat o‘qitish, balki bilimga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan chanqoqlikni uyg‘otishi; turli xil yechimlarga ega bo‘lgan ochiq muammolardan foydalanishi, variantlarga imkon beradigan shart, ehtimol javoblar to‘plamini ko‘rsatishi kerak;
- maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan faoliyat (faoliyatga yondashuv) ya’ni, tarbiyachi har bir bolaga tajriba, mavzuni o‘rganish va foydalanish uchun o‘z to‘plamini tayyorlashi lozim;
- bilimlarni turli sohalarda, modellarda va kontekstlarda mustaqil ravishda qo‘llash, bilimlarni to‘ldirish, yangi sodda aloqalarni topish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur;
- tarbiyachi bolaning kayfiyati va farovonligini tahlil qilish, ularning rivojlanish darajasini kuzatish, individual xususiyatlarni diagnostika qilishni taklif qiluvchi fikrlarni ilgari surishi kerak;
- rivojlanishning kuchayishi; bolalarni o‘qitish jarayonini optimallashtirish uchun bolalikning maktabgacha davri imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi kerak;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim, rivojlanish, o‘qitish masalalari - yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi asosida hal etiladi. Ulardan biri - o‘yin faoliyatini tashkil etish, uning psixologik va pedagogik imkoniyatlaridan keng foydalanish hisoblanadi. Erkin, ijodiy faoliyat sifatida o‘yinning jozibadorligi uning asosiy, yetakchi faoliyati sifatida potentsial qobiliyatlari, joyi va roli bilan bog‘liq. O‘yinning o‘ziga xosligi shundaki, u boshqa faoliyatlar kelib chiqadigan umumiy xatti-harakatlar majmuasi ekanligidadir. Shunday qilib, o‘yin maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jarayonini tashkil etishning ilg‘or shakllariga qo‘yiladigan quyidagi zamonaviy talablarga javob beradigan: tabiatan hissiy, maqsadlar bo‘yicha rivojlanish, shaxsga yo‘naltirilgan insonparvarlik hissi, bilim madaniyatini shakllantirish, san'atning ko‘plab turlarini sintez qilish uchun badiiy vosita hisoblanadi. Badiiy-estetik tarbiya va shaxsning ijodiy rivojlanishiga qaratilgan pedagogik jarayonda o‘yin yondashuvi nafaqat bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi, balki bolani badiiy madaniyatga jalb qilish va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish borasida ham juda qulay vosita sifatida qaraladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlarni tanlash va tizimlashtirish nafaqat bolalarning yosh xususiyatlarini, balki badiiy va estetik faoliyatning turlarida bolalarning qobiliyatlarini shakllantirishni ham hisobga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ajoyib daraxt**

*Maqsad:* tasviriy faoliyatda ijodkorlikni rag‘batlantirish.

Tarbiyachi bolalarga ajoyib daraxtni jalb qilishni taklif qiladi. Hayotda bo‘lgani kabi emas, balki ajoyib, sehrli, hayoliy bo‘ishi kerakligini ta’kidlaydi.

**Ajoyib mashina**

*Maqsad:* tasavvurni rivojlantirish.

Tarbiyachi dunyodagi hamma narsani qila oladigan tikish, pishirish, qo‘shiq aytish, har qanday

o‘yinchoqlar yarata oladigan ajoyib mo‘jiza mashinasini tasavvur qilishni taklif qiladi. Unga faqat “Men mashina …. ni qilishini xohlayman desangiz bas” deya ta’kidlab o‘tadi. Bolalar mashinaga buyruqlar berishni boshlashadi.

**Tugmachalar**

*Maqsad:* tugmachalardan ilovalarni amalga oshirishni o‘rgatish.

Tarbiyachi bolalarga turli xil vositalar bilan portret yaratish mumkinligini aytadi: bo‘yoq, somon, plastmassa, mato parchalari, tugmachalarni ko‘rsatadi va har bir bolaga tugmalar yordamida nusxa ko‘chirish uchun portret beradi.

**Teshikli rasm**

*Maqsad:* nostandart usullar bilan chizishda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi bolalarga, agar ko‘p marta igna bilan qog‘oz parchasini teshib qo‘ysangiz, juda ko‘p teshik paydo bo‘lishini ta’kilaydi. Agar siz qog‘ozni muayyan ketma-ketlikda teshsangiz, butun rasm olishingiz mumkin. Tarbiyacni qog‘ozga oddiy qog‘oz (mashina, quyosh va boshqalar) igna bilan "chizish"ni taklif qiladi.

Xulosa qilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini oshirish, yangi narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish uchun yangi samarali texnologiyalarni izlash, mashg‘ulotlar davomiyligi uzaytirish, olingan tushunchalar hajmini o‘shirish maqsadga muvofiq.

Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” -T., 2019

2. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.

## MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Ulug‘berdiyeva Dilbar Qarshibekovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta`lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Jabbarova Zarnigor Oybekovna (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta`lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirish uchun berilgan imkoniyatlar, oldiga qo‘yilgan talablar, maktabgacha yoshdagi aqliy kamolot, bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish kabi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘z:** maktabgacha yosh, aqliy kamolot, intellekt, axloqiy, estetik, axborot kommunikatsiya.

**Annotation:** the article describes such ideas as opportunities for the development of pre-school education system, requirements, mental perfection in preschool age, comprehensive development of children in terms of moral, aesthetic and physical aspects.

**Key word:** preschool age, mental ability, intelligence, moral, aesthetic, information communication.

**Аннотация:** В статье изложены такие моменты развития системы дошкольного образования, как предоставляемые возможности, предъявляемые к ней требования, умственное созревание в дошкольном возрасте, всестороннее интеллектуальное, нравственное, эстетическое и физическое развитие детей.

**Ключевое слово:** дошкольный возраст, умственные способности, интеллект, нравственность, эстетика, информационная коммуникация.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur’atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’limning hozirgi holati telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirishni, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlashni, ma’naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etish maqsadida quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

1) Vazirlik axborot xavfsizligining munosib darajasini ta’minlash, yagona axborot maydonini yaratish;

2) maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, umumlashtirish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o‘quv safarlarini tashkil qilish;

3) maktabgacha ta’lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma’lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida qo‘llash;

4) Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma’lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilovalarni yaratish;

5) o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta’lim resurslari, uydan turib masofali ta’lim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish;

6) maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish;

7) innovatsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliyaviy institutlar va boshqa manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;

8) maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovatsion ta’lim muhitini tashkil qilish;

9) birinchi bosqichda har bir tuman tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotini, keyinchalik esa respublikaning har bir maktabgacha ta’lim tashkilotini Internet tarmog‘iga chiqadigan personal kompyuterlar bilan ta’minlash.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta`kidlash lozimki, maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashda, maktabgacha ta’lim sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, maktabgacha ta’limni boshqarish va moliyalashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratilganligi bu sohani rivojlanishi uchun katta imkoniyatdir.

**Foydalangan adabiyotlar:**


1. Qodirova F.R , Toshpo‘latova Sh.Q Maktabgacha pedagogika. Tafakkur- 2019yil
2. 1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabr
3. Ayupov R.X., SHayaqubov SH.SH. Elektron pedagogika va multimedia vositalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent- 2017
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

# ART-TERAPIYA VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA QIZIQTIRISH

**Ziyotova Umida (Ozbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi oqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada art-terapiya vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga qiziqtirish, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Art-terapiya tevarak-atrof, muhit, jarayon, shakllanish, omil, tushuncha, odat, tasavvur, dunyoqarash, tafakkur, muloqot, sinxronlashtirish

**Аннотация:** С помощью данной арт-терапии обсуждалось, как заинтересовать дошкольников изобразительной деятельностью и развить их творческие способности.

**Ключевые слова:** арт-терапия окружающая среда, среда, процесс, формирование, фактор, концепция, привычка, воображение, мировоззрение, мышление, общение, синхронизация

**Annotation:** With the help of this art therapy, it was discussed how to interest pre-school children in visual activities and develop their creative abilities.

**Keywords:** Art therapy tevarak-environment, Environment, process, formation, factor, concept, habit, imagination, worldview, thinking, communication, synchronization

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni har tomonlama rivojlanishida predmetli muhit asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir yoshda o'zini o'rab turgan muhitdan aynan o'zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi. Muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa bolaning inson sifatida shakllanishida shunday toza va musaffo ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu jarayonning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni to'laqonli rivojlantirishda kattalarning ular bilan mazmunli suhbatlari va bolalikning predmetli muhiti bilan boyitish zarur. Bu bolalikning predmetli muhiti hisoblanadi. Shunday qilib, predmetli muhit, o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, jihozlar, ko'rgazmali qurollar yordamida bolani aqliy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga pedagogik ta'sir o'tkazishni anglatadi. Bolani rivojlantiruvchi tasviriy faoliyati muhit mazmun-mohiyatiga ko'ra bolani aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishini ta'minlashi, takomillashtirish, pirovard natijada bolalikni rivojlantirishning predmetli muhitiga qo'yilgan pedagogik talab va maqsadni ro'yobga chiqarishi kerak. Predmetli muhitni pedagogik jarayonda muvaffaqiyatli qo'llanma uchun uning variativligini ta'minlash kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning tasviriy faoliyatga qiziqtirish va ranglar olami orqali ijodiy qobiliyatini shakllantirish mas'uliyatli vazifa hisoblanadi, bu jarayonni tashkil qilish orqali bolani erkin hayot ko'nikmalariga ham o'rgatib boramiz. Tasviriy faoliyatga qiziqishini yanada rivojlantirish uchun art-terapiyada foydalanish juda samarali usul hisoblanadi.

Art-terapiya (inglizcha: *art* — "san'at" terapiya - davolash) - san'at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan psixoterapiya va psixologik korreksiyaning yo'nalishlaridan biri. So'zning tor ma'nosida art-terapiya odatda mijozning psixo-emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vizual art terapiyani anglatadi .

Art-terapiya - bu badiiy ijod yordamida davolash usuli. Bugungi kunda psixologlar va psixoterapevtlar ishida qo'llaniladigan eng nozik, ammo samarali usullardan biri hisoblanadi. Aytish mumkinki, art-terapiya mashg'ulotlarida bemorlar o'zlarining ong osti dunyolariga chuqur kirib boradilar. Ushbu uslub hissiy holatlarni tuzatishning eng qadimiy va tabiiy shakllariga tegishli. Har qanday shaxs, hatto mustaqil ravishda, mutaxassis yordamisiz, art-terapiya bilan shug'ullanishi mumkin. Turli mamlakatlarda art-terapiyaning turli modellari mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu texnikada kontrendikatsiyalar va cheklovlar yo'q.

Art-terapiya usullari chuqur psixologik muammolar uchun qo'llash mumkin. Kattalar bilan ishlashda ham, o'smirlar va bolalar bilan ishlashda ham art-terapiyaning yuqori samaradorligini ta'kidlash lozim. Ijodiy faoliyat, xuddi san'at kabi, kattalarga ham, bolaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlar bilan ishlash uchun psixologlar art-terapiya kabi ish usulidan foydalanadilar. Uning mashhurligi kundan-kunga oshib bormoqda va spektakl hech qachon ota-onalar va bolalarni hayratda qoldirishdan to'xtamaydi.

Bolalar uchun art terapiya. Bolalar va kattalar uchun art-terapiya ijodiy ish turlaridan foydalangan holda maxsus texnika va mashqlar majmuasidir. Ushbu usullar psixologik holatni yaxshilash va tuzatish uchun ishlatiladi. Birinchi marta bolalar bilan art-terapiya Ikkinchi jahon urushidan keyin Qo'shma

Shtatlarda qo‘llanilgan. Keyin bu usul kontsentratsion lagerlardan olib chiqilgan bolalardagi muammolarni aniqlash va aniqlash uchun ishlatilgan. Bugungi kunda art-terapiya nafaqat mashhurligini yo‘qotmadi, balki juda kengroq dasturni oldi. Psixologik amaliyotning rivojlanishi bilan psixologik holatini tuzatishga muhtoj bo‘lgan odamlar bilan ishlash usullari rivojlandi.

Bolalar badiiy terapiyasining vazifalari: Ma'lumki, chap yarim shar mantiqiy fikrlash uchun javobgardir. Huquq hissiyotlar va tajribalarni san'at va ijod orqali chinakam ifodalashga yordam beradigan jarayonlar uchun tetik bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar bilan art-terapiya mashg‘ulotlari ikkala yarim sharning ishini sinxronlashtirishga imkon beradi Va natijada miya yarim sharlarining birgalikdagi ishi ichki muammolarni, qo‘rquvni, komplekslarni va psixologik muvozanatdagi boshqa og‘ishlarni amalga oshirish va tuzatishga qaratilgan bo‘ladi. Bolalar art-terapiyasi quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:

Bolaning psixologik muammolarini aniqlang.
His-tuyg‘ularni va fikrlarni chiqarishning eng og‘riqsiz usuli.
Davom etayotgan psixoterapiya samaradorligini oshirish.
Farzandingizni hissiyotlar va his-tuyg‘ularga e'tibor berishga o‘rgating.
Tengdoshlar va boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatish jarayonini osonlashtirish.
Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.
O‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiring.
O‘z-o‘zini hurmat qilishni oshirish.

Art-terapiyasining maqsadi bolani chizishga o‘rgatish emas, balki ularni chizish orqali muammolarni bartaraf etishga yordam berish va ularga ijodiy energiya berishdir. Bolaning badiiy ijodi-dunyoni idrok etishning o‘ziga xosligi va yangiligi, uning soddadilligi va emotsionalligi, o‘z-o‘zini ifoda etishning samimiyligi va fantaziyaning erkin o‘yinidir. Har bir yosh atrofdagi dunyoning o‘z kashfiyotlariga mos keladi va bu chizmalarda ifodalanadi. Bola tasodifiy urinishlar asosida rasm chizishni boshlanib, o‘z izlarini qoldirish imkoniyatini kashf etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nurmatova M. Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi
2. M.U.Hamidova F.A.Karimova Tasviriy faoliyatga o‘rgatish maxsus metodikasi 3. Mindfulness-Based Art Therapy Activities: Creative Techniques to Stay Present, Manage Difficult Feelings, and Find Balance Paperback – February 14, 2023 by Jennie Powe Runde
https://minikar.ru/uz/
www.arxiv.uz
www.ziyonet.uz

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJALANTIRUVCHI MUHIT VA TA’LIM TARBIYANI STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH

**Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
**Sharipova Shaxina Avaz qizi (O‘zbekiston)**
**Amrilloyeva Mashhura Anvar qizi (O‘zbekiston)**
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya berishda zamonaviy yondashuvlar, STEAM ta’lim texnologiyalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali natijalarga erishish uchun STEAM ta’limining o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** STEM, STEAM, san’at, matematika, ta’lim, texnologiya, muhandislik, maktabgacha yosh, fan, qobiliyat, loyihalash.

**Аннотация:** В данной статье говорится о современных подходах к образованию и воспитанию, образовательных технологиях STEAM, роли STEAM-образования для достижения эффективных результатов в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** STEM, STEAM, искусство, математика, образование, технологии, инженерия, дошкольное образование, наука, способности, дизайн.

**Abstract:** This article talks about modern approaches to education and upbringing, STEAM

educational technologies, the role of STEAM education for achieving effective results in preschool educational organizations.

**Key words:** STEM, STEAM, art, math, education, technology, engineering, preschool, science, aptitude, design.

Bugungi kunda STEAM - ta’lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM (S–science(fan), T–technology(texnologiya), E-engineering (muhandislik), A – art(san’at) va M – mathematics(matematika). STEAM ta‘limi yo‘nalishi amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek yuqoridagi 5 ta sohani yagona ta‘lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan.[1] STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Amaliy faoliyatda tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi va fan, exnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEAM tizimi shu tarzda shakllandi. STEAM yondashuvi o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir qiladi? Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Faqat guruh devorlaridagi ko‘rgazmalar orqali o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondoshuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari uqib oladilar. STEAM ta’ limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. Shu bilan birgalikda STEAM ta`lim quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

1. Aniq soha va mavzular bo‘yicha integratsion jarayonni rivojlantirish.
2. Bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish.
3. Haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo‘llash.
4. Bolalarda o‘z kuch-qobiliyatlariga ishonchni shakllantirish.
5. Faol muloqot va jamoaviy ish olib borish.
6. Texnik fanlarga qiziqishni uyg‘otish.
7. Yangi loyihalarga ijodiy va innovatsion yondoshish.
8. Bolalarni hayotning zamonaviy texnologik bilimlarini boyitib, yangiliklar yaratishga tayyorlashdan iborat. J.Yakman fikricha, "Biz hozir ilm-fan va texnologiya takomillashgan davrda yashamoqdamiz, bu sizning muhandislik noyob tadqiqotlaringiz va rivojlanishingizning ko‘p qismini birlashtiradi, buni esa siz san'at va matematikani tushunmasdan yarata olmaysiz.” STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar.

Bolalar o‘zlari ko‘rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. STEAM mashg‘ulotlarida ular qiziqarli eksperimentlar o‘tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin. Ta’lim jarayonida  ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo‘ldi? Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEM (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik esa Art qo‘shildi va endi STEAM to‘liq shakllandi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim[2].

Bolalarimiz ta’lim-tarbiyasida san’atning o‘zi ham qimmatlidir. Bolani san’at olamiga olib kirishni bolaligidan boshlash zarur.  Milliy va dunyo miqyosida buyuk san’at arboblari asarlari, san’at namunalaridan tashkil topgan kitoblar, bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan illyustrasiyalar STEAM ta’limi tamoyiliga munosib bo‘ladi. Malevichning “Qora kvadrat” rasmi orqali shaklni ko‘rsatish, Monkning “Qo‘rquv” asari orqali hissiyotlarni namoyon qilish kabi faoliyatlar bolalarni qiziqtira oladi. San’at- bu inson faolyatining xilma- xil ko‘lami va natijasi bo‘lib , texnik mahorat, go‘zallik , hissiy  kuch yoki kontseptual g‘oyalarni ifodalovchi ijodiy yoki xayoliy iste’dodni o‘z ichiga oladi. STEAM ta’limidagi san’at shubhasiz, ramkaning eng muhim  xususyatidir. STEAM ta’limi kontseptsiya sifatida, mavjud STEM tashabbusidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab eng muhim hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatadigan akademik fanlarni ta’kidlash va shu bilan  birga ko‘proq integratsiyalashgan darslarni rag‘batlantirish uchun ishlab chiqilgan. San’at- bu umumiy atama bo‘lib u o‘z tabiatiga ko‘ra badiiy yoki boshqa ijodiy deb hisoblanadigan turli xil mavzu sohalarini tavsiflash uchun ishlatiladi. STEAM kontseptsiyasi dastalb

yaratilganda, san’at Jorjette Yakman tomonidan bir qancha kichik toifalarga boʻlingan.San’atning ahamyati bolalarga har tomonlama ta’lim berishda san’atning ahamyatini tushunish uchun vaqt ajratish arziydi. Ushbu sohadagi fanlar odamlarga ijodkorlik, innovatsiyalar, muloqot va taffakurning qadr-qimmatini oʻrgatishga qodir. Bundan tashqari, san’at odamlarga madanyatni koʻproq qadrlashiga yordam beradi. STEAM ta’limi san’atni 5 ta yoʻnalishdan biri sifatida ta’kidlaydi va uni kiritish juda muhimdir. STEM + Art = STEAM! Bolalar STEM va san'atni birlashtirganda, ular rasm chizishdan haykaltaroshlikgacha oʻzlarining ijodiy tomonlarini oʻrganishlari mumkin. Ushbu oson STEAM loyihalari chinakam qiziqarli oʻrganish tajribasi uchun san'at va fanni oʻz ichiga oladi. San'at va hunarmandchilikka qiziqmasligi mumkin boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda yaxshi.[4] Oxir oqibat, san’at bolalarga butun ta’lim davomida yordam beradigan ijodkorlik, zukkolik, muloqot va ijro mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar.**

1. STEAM loyihalar va ular bilan ishlash. Oʻquv- uslubiy qoʻllanma. Samarqand-2021.

2. З.М.Ашурова. Таълим олиш жараёнини самарали бошқаришда педагогик технологияларни қўллаш. Scientific Progress. 2:7 (2021), pp. 801-807.

3. https://littlebinsforlittlehands.com/steam-activities/

## ZAMONAVIY PEDAGOG QIYOFASINI YARATISHDA PEDAGOGIK KREATIVLIKNING OʻRNI

**Bozorova Oʻ.K. (Oʻzbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi oʻqituvchisi

**Annotasiya:** Maqolada pedagogik kreativlik, kreativlik sifatlari rivojlantirish va kreativlik qobiliyatiga ta’sir etuvchi toʻsiqlar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit soʻz va iboralar:** kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladigan omillar, pedagogik kreativlik.

**Аннотация:** В статье представлена информация о педагогическом креативносте, развитии креативность, качеств и барьерах.

**Ключевые слова:** креативность, развитии креативность, факторы, препятствующие развитию креативность, педагогическое креативность.

Hozirgi kundagi rivojlanish pedagogdan kreativlik sifatlariga ega boʻlishni taqozo etadi. Pedagogning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi. Kreativlik shaxsni muayyan xususiyatlarini tavsiflab, iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi quyidagicha yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va oʻzgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning oʻzaro qarama-qarshiligi.

Pedagogda quyidagi kreativ sifatlar shakllangan boʻlishi kerak: u mantiqiy fikrlay olishi, boy tasavvurga ega boʻlishi, ijodkorligini toʻla-toʻkis namoyish eta olishi, refleksiya qobiliyati va shuningdek mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi yaxshi shakllangan boʻlishi lozim.

Boshqa har qanday sifat kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Shunday omillar mavjudki, ular shaxsda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi. Masalan, oʻzini tavakkaldan olib qochish, har qanday holatda ham faqat yutuqni oʻylash, shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmaslik, fikrlash va xatti-harakatlarda qoʻpollikka yoʻl qoʻyish, boshqalarga tobe boʻlish kabi xatti-harakatlar shaxsda kreativlikni rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi.

Pedagogning ijodkorligi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondoshuvida aks etadi. Soʻnggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda

ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga qaratilgan harakat. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Hozirgi sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga intilishi, o'quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Global axbortlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, talabalar tomonidan ham istalgan ma'lumotni ixtiyoriy ravishda o'zi uchun qulay sharoit va joyda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o'zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo'lsada, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o'zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma'lumotlarning muayyan sohalar bo'yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimida tom ma'noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va talabalarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Баришева Т.А., Жигалов Й.А. Психолого-педагогические основи развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996.


## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI


**Suvanova Nodirabegim Sadir qizi (O'zbekiston)**
NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi



**Anotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, yangi metodlar samaradorligi bugungi kun axborot texnalogiyalarning ta'lim tarbiya jarayonida bolalar uchun ahamiyati, hamda bolalarda kompyuter texnologiyalardan foydalanishning pedagogik-psixologik tomonlari yoritilgan.



**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, metod, axborot, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, psixologiya, kompyuter, texnologiya, usul, uslub, metod, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, shaxs, individ, faoliyat.



**Аннотация:** В данной статье рассмотрены особенности использования компьютерных технологий в образовательном процессе в дошкольных образовательных организациях, эффективность новых методов, значение информационных технологий для детей в образовательном процессе, а также педагогические и психологические аспекты использования компьютерных технологий у детей. выделены.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, метод, информация, образовательный процесс, педагогика, психология, компьютер, технология, метод, стиль, метод, педагог, воспитанник, человек, личность, деятельность.

**Annotation:** In this article, the specific features of using computer technologies in the educational process in preschool educational organizations, the effectiveness of new methods, the importance of information technologies for children in the educational process, and the pedagogical and psychological aspects of using computer technologies in children are highlighted.

**Key words:** Pre-school education, method, information, educational process, pedagogy, psychology, computer, technology, method, style, method, educator, pupil, person, individual, activity.

Mustaqillik yillarida Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mamlakatimizda hozirgi kunda o'quv jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni, multimedia texnologiyalarini joriy etish ta'lim axborotlashtirishning muhim daqiqalaridan biridir. Hozirgi kunda multimedia texnologiyalari, axborot texnologiyalarining eng jadal rivojlanayotgan va istiqbol maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risiga"gi Qonunining 36-moddasida ham "Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish" mumkinligi to'g'risida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida esa: maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish qonun bilan belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foiziga yaqini kompyuter savodxonligining asosiy bo`g'ini axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan. Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnalogiyalari bilan ta'minlash kompyuter savodxonlikga insonlarning turli–tuman ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi. Inson kompyuter savodxonlikni o`rganar ekan, voqea hodisalar jarayonlarning bir – biriga aloqadorligini, o'zaro munosabatlari va mohiyatni tashkil etish, o'z hayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish maqsadida ko'pdan - ko'p dalil va raqamlarga murojat qiladi. Kompyuter tufayli nazariya amalyot bilan birikadi. Amaliyot nazariyasi nazariya esa amalyotsiz mavjud ham bo'lmaydi, rivojlanmaydi. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi texnika vositalarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritish emas, balki jamiyatning kompyuter savodxonlikka bo'lgan extiyojini qondirishdagi usul va vositalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishdir. Mazkur ehtiyoj doim mavjud bo'laveradi va biror - bir axborotli muhit doirasida qondiriladi. "Kompyuter savodxonlik" tushunchasiga hozirgi kunda ta'lim tarbiya masalalarini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Insoniyatni o'rab turgan muhit o'z xizmatlariga ko'ra turlichadir tabiiy siyosiy, ijtimoiy, milliy va oilaviy ruhiy bo'lishi mumkin. Aniqrog'i bular har birimiz yashayotgan olamning bir butun muhitining tekisliklaridir.

**Pedagogika nuqtai nazaridan**, kompyuter savodxonligini ta'lim tizmida, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'tishi, ularga kompyuter asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun, multemediali kompyuter texnologiyasining o'ziga xos belgilari, xususiyatlari va tamoyillari mavjud: asosiy belgilari - texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va undagi materiallardan foydalanib bilim olishdan iborat. Kompyuter savodxonligidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bilim oluvchilarning kompyuter savodxonligini shakllanishiga ham olib keladi. Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, bolalarning faoliyat bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda ta'lim tizmida kompyuterning o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan pedagog, ishchi qurol, ta'lim obyekti, o'zaro muloqot kabi funksiyalarni bajarishini bilishi kerak. Bunda tarbiyachining vazifasi tarbiyalanuvchilarning kompyuter texnologiyalardan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat. Tarbiyachilar mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, zamonaviy kompyuter savodxonlik imkoniyatlaridan tinglovchilarda foydalana olish bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. "Ta'limda

kompyuter savodxonligi” kursi U. Sh. Begimqulov tomonidan taklif etilgan hamda mazmun va me’yor jihatidan mukammal ishlab chiqilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari bayon etiladi. Ta’limda kompyuter savodxonlik o‘quvchi shaxsining:

• fikrlashini;
• estetik tarbiyasini;
• kommunikativ qobiliyatini;
• optimal qaror qabul qilish malakasini;
• kompyuter savodxonlik faoliyatini oshiradi, rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta’limda kompyuter savodxonlik, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda kompyuter savodxonlikdan foydalanish asosida, ta’lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin.

**Psixologik nuqtai-nazardan esa o**limlarning kompyuterning bolalar rivojlanishiga ta'siri haqidagi fikrlari juda ziddiyatli. Bu fikrlar tasodif emas, chunki kompyuter, bizning haqiqatimizning deyarli har qanday mavzusi singari, foydali va zararli bo‘lishi-kimning qo‘lida bo‘lishiga, inson hayotida qanday rol o‘ynashiga qarab, maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati kompyuterdan ko‘ngilochar maqsadlarda foydalanadilar, ya'ni kompyuter o‘yinlarini o‘ynaydilar, vaqti-vaqti bilan kattalar yordamiga murojat qiladilar. Ba’zi bolalar o‘quv va o‘quv o‘yinlariga, ishtiyoqlidir. Shunday qilib, kompyuter monitorinda zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalar kuniga yarim soatdan ikki soatgacha vaqt sarflashadi, ammo bu vaqt bolaning to‘laqonli ijodiy shaxsini o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish nuqtai nazaridan yetarlicha oqilona ishlatilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ”ijodiy faoliyat” mahsulotini yaratish uchun vaziyatni to‘g‘irlash uchun kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Grafik tasvirlarni yaratish uchun dasturlardan foydalanish, ota-onalarini kompyuter anamatsion maktabgacha yoshdagi bolalarni texnologiyalaridan foydalangan holda loyiha faoliyatiga jalb qilish, bolani kompyuterdan ijodkorlik vositasi sifatida foydalanishga undash, kompyuter o‘yinlariga haddan tashqari qiziqishdan chalg‘itish. Elementlarni o‘rgatish kompyuter grafikasi ijodkorlikni rivojlantiradi, bu maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuter savodxonligini oshirishga imkon beradi, aqlni rivojlantiradi va maktabda o‘qishga umumiy tayyorgarlikni rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonlikdan foydalangan bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda idrok qilinadi va o‘zlashtirishning yuqori darajada bo‘lishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, bolalarning xotirasi rivojlanadi, diqqati barqarorlashadi, ta’lim materialiga qiziqishlari ortadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari axborot kommunikatsiya vositalari bilan hozirda ta’minlanib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter bolalarning e’tiborini va tasavvurini rivojlantiradigan taqdimot materiallarini namoyish qilish vositasi bo‘lib, ta’limiy faoliyatlarda kompyuter birinchi navbatda bola tomonidan ixtiro qilingan tasvirni yaratish vositasi sifatida qaraladi. Kompyuter grafik dasturlari nafaqat yosh rassomni tasvirni rang bilan bo‘yashning turli xil usullarining ideal shaklidagi geometrik shakllar to‘plami bilan ta'minlabgina qolmay, balki natijada paydo bo‘lmagan harakatni bekor qilishga, rasmni tuzatishga imkon beradi. Bir marta, qat’iy talablarga javob beradigan natijaga erishish uchun kichik muallif va uning o‘zini o‘zi qadrlashini oshiradi. Hozirgi kunda Intemetdan foydalanishning ham keng imkoniyatlari mavjud. Internetning veb-sahifalaridagi ba’zi bir multimediali taqdimotlar va slaydlardan foydalanish mumkin. Masalan, geometrik shakllar bo‘yicha elementar matematik tasavvurini shakllantirishga oid multimediali taqdimot yaratilgan. Ushbu taqdimot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhiga tegishli elementar bilim va ko’nikmalar yo’nalishining “doira, kvadrat, uchburchak, shar, kublarni farqlaydi, nomlaydi va ularning xususiyatlarini biladi” mavzusiga tegishlidir. Internetdagi multimediali materiallardan foydalanish uchun oldin tarbiyachining o’zi tayyorgarlik ko’rishi kerak, jumladan, Internet saytlari bo‘yicha materialni qidirib topish va kompyuter xotirasiga joylashtirish, mazmuni va hajmini aniqlash kabi ishlarni bajarishi zarur. Pedagog-tarbiyachilari o‘z soxalari bo‘yicha teleanjumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotida qatnashishi mumkin. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotilarining ta’lim-tarbiya jarayoniga oid yangiliklar yoki ish tajribasi bo‘yicha multimediaga asoslangan maqola tayyorlab teleanjuman saytiga joylashtiradi. Maqola teleanjuman ishtirokchilari bilan birga muhokama etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida komyuter texnologiyalardan foydalanish ham salbiy ham ijobiy tomonlarni pedagogik va psixologik holatlarda oʻrganilib faoliyatlar davomida toʻgʻri metod usullardan qoʻllanilsa maktabgacha ta'lim sohasida albatta ulkan natijaga erisha olamiz.

**Adabiyotlar.**


1. Oʻzbekiston Respublikasi "Ta'lim toʻgʻrisidagi" Qonun. T.: 2020.1-3-betlar.
2. Oʻzbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya toʻgʻrisida"gi 595-sonli Qonuni, 2019-yil 16-dekabr.1-3betlar.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-2707-sonli qarori, 2016- yil 29- dekabr.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali oʻqitish nazariyasi va amaliyoti. T.Fan, 2009. -145 b.
5. Abduqodirov L.A., Begmatova N.X,- Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (oʻquv- uslubiy qoʻllanma). - Qarshi: Nasaf, 201 1. - 257 b.
6. Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimediali kompyuteretexnologiyasidan foydalanishning samarasi // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Respublika ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2011. 213-215-b.
7. Begmatova N.X. Multimediaviy kompyuterli ta'lim jarayonini tashkil etish algoritmi // Informatika va energetika muammolari. –Toshkent, 2011. №1. 85-89b.
8. https://uz.wikidea.ru


## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA SOGʻLOMLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI


**Hikmatova Jamila Fatoh qizi (Oʻzbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda sogʻlomlashtirish jarayonini tashkil etishda ekologik madaniyatning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.



**Kalit soʻzlar:** maktabgacha ta'lim, ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyat, landshaft, genetik fond, reklama roliklari, insoniy fazilatlar.



**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение экологической культуры в организации здравоохранения детей дошкольного возраста.



**Ключевые слова:** дошкольное образование, экология, охрана природы, экологическая культура, ландшафт, генетический фонд, рекламный ролик, человеческие качества.



**Annotation:** This article discusses the importance of environmental culture in the organization of health care in children of preschool age.



**Key words:** preschool education, ecology, nature protection, environmental culture, landscape, genetic fund, commercials, human qualities.


Bugungi kunda ekologiya fani tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormoqda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va oynai jahon koʻrsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumotlar beriladi. Ekologiya tushunchasi yunoncha soʻz boʻlib, "eko"- uy, makon va "logos" - fan degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimizni oʻrganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni oʻrganish, ya'ni ushbu uyni yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqlash kabi masalalar tushunilishi kerak. Zero, tabiatni muhofaza qilish, uning har bir predmetini asrab-avaylash, qadrlash, har birimizning burchimizdir.

***Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad:***

keng foydalanishni keng qoʻllash kerak. Ekologik reklamalarni quyidagi yoʻnalishlarda olib borish mumkin:

- ❖ Odamlar oʻzlarining tabiatga boʻlgan munosabatlari bilan kelgusi avlod hayotini xavf ostiga qoldirayaptilar, shunday roliklarda ekologik ofat hududlarini koʻrsatish;
- ❖ Chiqindilar chiqadigan sanoat korxonalari va ulardagi ish jarayonini koʻrsatish.

Ekologik muammolarni oʻziga aks ettirgan reklama roliklari ekologik muammolarni bartaraf

etish uchun kishilarda qiziqish uyg‘otadi va uni qayta-qayta ko‘rsatish insonga ruhiy ta’sir etib, uning dunyoqarashini o‘zgartiradi. Yosh avlodning fikri, ongi, tafakkurini shakllantirishda ota-ona, tarbiyachilar, atrofida doimo muloqotda bo‘ladigan odamlarning ta’siri katta bo‘ladi, shu sababli ulardan bolalar bilan bo‘lgan munosabatda mas’uliyat talab qilinadi.Bolalarning ekologik tarbiyasini o‘stirishda, ta’lim va tarbiyaning kuchi beqiyosdir.

Bobokalonlarimiz tabiatni, uning tarkibiy qismi bo‘lmish Yerni sevish, chiroyiga chiroy qo‘shish, ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘larga aylantirishni eng savob ish, ezgulik deb tushunganlar. Ona zaminni mo‘tabar bilib e’zozlagan, ariq qazib suv keltirgan kishilar Turonzaminda jannati hisoblangan. Ekologik bilimsiz, ya’ni ta’lim-tarbiyasiz hech qanday ekologik muammoni hal etib bo‘lmaydi.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimning ko‘pgina oyatlarida musulmonlarga Alloh taoloning hayvonot olamini nima uchun yaratganligi undan maqsadi ularga qanday munosabatda bo‘lish zarurligi mufassal tushuntirib berilgan. Hayvonot olamini avaylab-asrash, nobud qilmaslik hayvonlarni boqish, sug‘orish, parvarishlash har bir musulmonning vazifasi ekanligi kalimai sharifda tushuntirilgan. Bu ilohiy kitobda inson hayvonot dunyosidan qanday foyda olishi mumkinligi, hayvonlarni qanday qilib tarbiya qilish kerakligi ham tushuntirib berilgan. Islom ta’limotida hayvonot olamiga bo‘lgani kabi o‘simlik olamiga ham katta e’tibor berilgan. Qur’on oyatlaridan birida o‘simlik olami bandalar uchun rizqdir ulardan esa o‘z  rizqlarini asrab- avaylash talab etiladi, deb ko‘rsatilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to‘g‘risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob zonzotlar ro‘yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e’tibor beriladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasidan ko‘zlangan maqsadlardan biri: bir tomondan muqaddas Ona zaminimizni toza qilib saqlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan – musaffo osmonimiz aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorimizni obod etishga qo‘shiladigan kata hissa bo‘lib, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi

Ko‘rinib turibdiki, ekologik madaniyat shakllanishi natijasida har tomonlama yetuk, sog‘lom farzandlar tarbiyalanadi. Bu vazifani amalga oshirish jamiyat oldidagi ulkan vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2016
2. Ekologiya huquqi.T.:Adabiyot jamg‘armasi. 2001.
3. Sh.A.Sodiqova,M.A.Rasulxo‘jaeva bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.T.: Fan va texnologiya 2013.y.
4. Yusupova.P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.: O‘qituvchi, 1995.
5. www. edu. uz
6. www. pedagog. uz
7. www. tdpu. uz
8. www. ziyonet.uz

## КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ТАРАҚҚИЁТ КАФОЛАТИ

**А.Т.Очилов (Ўзбекистон)**
**Навоий вилояти ИИБ бошқармаси, подполковник**

**Аннотация:** Ушбу мақолада коррупцияга қарши курашиш муҳим устувор вазифалардан бири эканлиги,ҳозирги кундаги унга қарши олиб борилаётган ислоҳотлар,стратегиялар ҳақида фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** Коррупция, суд-ҳуқуқ ислоҳотлари, корупцион холатлар, қонун устуворлиги, қарши курашиш менежменти, манфаатлар тўқнашувини.

**Аннотация:** В данной статье излагается мнение о том,что борьба с коррупцией является одним из важнейших приоритетов,о проводимых реформах, стратегиях противодействия ей в настоящее время.

**Ключевые слова:** Коррупция, судебно-правовая реформа, коррупционные ситуации, верховенство закона, управление противодействием, конфликт интересов.
**Annotation:** this article highlights the fact that fighting corruption is one of the important priorities,the reforms,strategies that are being carried out against it in the present day.
**Key words:** corruption, judicial reform, corruption cases, rule of law, counter-management, conflict of interest.

Коррупция – ҳар қандай мамлакатнинг миллий давлатчилик асослари, сиёсий ва иқтисодий барқарорлигига жиддий хавф солади, фуқароларнинг ижтимоий адолат, қонун устуворлиги ва давлат органларига бўлган ишончини сусайтиради. Шу боис ҳам коррупцияга қарши курашиш ва мазкур фаолиятни доимий асосда давом эттириш мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг, хусусан, суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев «....жамият ривожига ғов бўлаётган яна бир иллат – бу коррупция балосидир. Бундай хатарга қарши курашиш мақсадида «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонунни тезроқ амалиётга жорий этиш чора-тадбирларини кўришимиз лозим»[7] деб таъкидлаб ўтган эдилар. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуни 2017 йилда қабул қилиниб, мазкур қонуннинг 3-моддасида коррупция тушунчасига қуйидагича: «коррупция — шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш»[8], деб таъриф берилган.

Коррупсияга қарши курашиш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгилаб қўйилганлиги ҳамда сўнгги олти йилда мамлакатимизда тубдан амалга оширилаётган ислоҳотлар ва тараққиётимизнинг кушандаси бўлган коррупцияга қарши изчил кураш бошланганлигидан далолатдир.

Янги Ўзбекистон стратегиясининг мақсади коррупциядан холи мамлакат барпо этиш бўлганлиги жамиятмизни жипслаштирувчи омилга айланмоқда. Бу соҳада ҳам жаҳоннинг илғор тажрибаси кенг қўлланилаётганлигининг шоҳиди бўлмоқдамиз. Масалан, рақамли технологиялардан давлат хизматларида, шунингдек, коррупциянинг олдини олишда ҳам муваффақиятли қўлланилаётганлиги, унинг профилактикасини кучайтиришга қаратилган меха¬низмлар тобора ривожланаётганлиги ва жорий этилаётганлиги фикримизнинг далилидир.

Айниқса, БМТнинг Тараққиёт дастури билан яқин ҳамкорликда коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш бўйича қатор тадбирлар амалга оширилмоқда. Масалан, жорий йилда Коррупцияга қарши курашиш агентлиги нуфузли халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда ўтказган тренинглар ва малака ошириш курсларида 220 дан ортиқ масъул давлат хизматчиларининг малакаси оширилди ва улар халқаро андазадаги стандарт сертификатларга эга бўлди, 400 дан ортиқ ички назорат тузилмалари ходимларининг ҳам малакаси оширилди, услубий қўлланмалар яратилди. Натижада 19 та давлат ташкилоти, 1та тижорат банки коррупцияга қарши курашиш менежменти тизими бўйича халқаро стандарт сертификатига эга бўлди.

Жумладан, мазкур сертификат мамлакатнинг халқаро рейтингларида устувор аҳамият касб этиб, унинг инвестицион жозибадорлигини ва инвесторлар кириб келишини таъминлайдиган муҳим омиллардан ҳисобланади.

Таъкидлаш лозимки, ҳар бир давлат тарихида янги ижтимоий сифат ҳолатига ўтиш, афсуски, коррупция ва жиноятчилик, хусусан, уюшган жиноий тузилмалар фаолияти каби жирканч ҳодиса билан бирга юз берган. Жиноятчиликнинг уюшган шакли ўсиши нафақат ислоҳотлар йўлга жиддий тўсиқ бўлади, балки ўтиш даврида белгиланган мақсадларга эришишга қарши бевосита таҳдид ҳам туғдиради. Шу боис, мазкур тадқиқот ишимизда ҳозирги кунда

---

[7] Ўзбекистон Республикасининг сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакат Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech/

[8] Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - http://lex.uz.

коррупция билан боғлиқ бўлган жиноятларнинг тезкор олдини олиш ва очишни ташкил этиш, яъни жамият ривожига катта хавф солаётган коррупциянинг пайдо бўлишига таъсир этувчи омиллар, унга қарши курашишнинг аҳамияти ва ҳуқуқий жиҳатларини назарий ва амалий тадқиқ этишни таъминлашдек долзарб вазифа қўйилган.

Шунингдек, Коррупцияга қарши курашиш агентлиги БМТнинг Ўзбекистондаги Тараққиёт дастурининг қўшма ташаббуси билан «Ўзбекистонда Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ролини ошириш учун фуқаролик маконини, аёллар ва ёшлар овозини мустаҳкамлаш» лойи-ҳаси муваффақиятли амалга оширилмоқда.

Ушбу лойиҳанинг асосий мақсадларидан бири фуқаролик институтлари, аёллар, нодавлат, нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий ҳамжамиятлардан иборат коррупцияга қарши фуқаролик маконини яратиш орқали жамиятда ҳалолликка бўлган та¬лабни шакллантиришдан иборат.

Маълумки, мамлакатимиз аҳолисининг ярмидан кўпини ёшлар ташкил этади. Айнан ёшларда коррупцияга қарши нафрат ва тоқатсизлик уйғотиш мақсадида ушбу халқаро лойиҳада ҳалолликни тарғиб этиш ва уларнинг онгига сингдириш мақсадида жорий йил 28-июнь куни «Ёшлар ҳалоллиги куни» тадбири ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 14-июндаги «Давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятининг очиқлик даражасини ошириш ва баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонига биноан, давлат органлари ва ташкилотларида очиқлик бўйича амалга оширилаётган ишларнинг самарадорлигини баҳолашга қаратилган Очиқлик индекси жорий этилди, давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятининг очиқлигини мониторинг қилиш ва баҳолаш бўйича методика тасдиқланди. Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш электрон платформаси ва баҳолаш тизими ишлаб чиқилди.

Давлатимиз раҳбарининг «Янги Ўзбекистон стратегияси» китобида коррупцияга қарши курашда сиёсий арбоблар ва давлат хизматчила¬рининг маблағлари ва мол-мулклари ҳақидаги маълумотларни очиқлаштириш ва декларатсия тизимини жорий этиш, ҳар йили бу борадаги маълумотларни эълон қилиш, давлат харидларини амалга оширишда манфаатлар тўқнашувини аниқлаш ҳамда уларнинг олдини олиш механизмларини кучайтириш мақсадида «Давлат харидлари тўғрисида»ги қонунни, электрон харидлар тизимини такомиллаштириш вазифаси қўйилган. «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуннинг «Манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва уни бартараф этишга доир чора-тадбирлар» деб номланган 21-моддасида давлат органлари ходимлари мансаб ёки хизмат мажбуриятларини бажариш чоғида манфаатлар тўқнашувига олиб келадиган ёки олиб келиши мумкин бўлган шахсий манфаатдорликка йўл қўйилмаслиги ва бундай ҳолларда ходимлар ўзининг бевосита раҳбарини хабардор қилиши лозимлиги, ўз навбатида, бевосита раҳбар бу тўқнашувнинг олдини олиш чораларини кўриши шартлиги қонунан белгиланган.

Шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, жумладан, ички ишлар органлари ходимлари жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизими-нинг самарадорлигини ошириш, уюшган жиноятчиликка қарши кураш бўйича ҳуқуқий ва ташкилий-амалий чораларни кучайтириш, қонунчиликдаги жазони оғирлаштириш ёки енгиллаш¬тиришга оид нормаларни қўллаш жараёнидаги инсон омилини бартараф этишга эришишлари зарур¬лиги белгиланган.

Аҳолининг барча қатламлари орасида коррупциянинг барча шакллари ва кўринишларига муросасиз муносабатни шакллантириш масаласи ҳам долзарб вазифа бўлиб, бу муҳим соҳага ходимларнинг янгича ёндашувлари талаб қилинади. Бунга эришиш учун эса изланиш ва доим ўз малакасини ошириб бориш, жамиятда кечаётган жараёнларни таҳлил қилиш, фикрлаш кўникмаларини шакллантириш ҳам зарурдир.

Бир сўз билан айтганда, коррупциянинг ҳар қандай кўриниши ва ҳолатларига барҳам бериш тараққиётимиз кафолатидир.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Ш.М. Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. – Б. 56.
2. Ш.М. Мирзиёев Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 48.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2012.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Маъмурий қамоқни ўташ тартиби тўғрисида»ги 2017 год 9 январь қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. ЎРҚ-420-сон.
5. М.Х. Рустамбаев. Жиноят кодексига шархлар. (Махсус қисм) Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири 1-даражали адлия маслаҳатчиси Б.Мустафоевнинг умумий таҳрири остида. Т.: "ИЛМ ЗИЁ"., 2006.
6. О.Т.Шорустамов, Б.М.Ибрагимов. О некоторых аспектах исследования проблем коррупции. Тошкент. 2002. «ВШ стратегического анализа и прогнозирования РУз».
7. Сьюзан Роуз-Аккерман. Коррупция и государство. Москва. 2003.
8. В.И.Попов. Противодействие организованной преступности, коррупции, терроризму в России и зарубежом. Москва. 2008. 2-е издание.
9. Ю.В.Голик, В.И. Карасев. Коррупция как механизм социальной деградации. Санкт-Петербург. 2005.
**Интернет сайтлари.**
www.lex.uz
www.kun.uz

## IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI VA ROLI

**Ochilova Gavhar Farxodovna (O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning oʻziga xos xususiyatlari,ijtimoiy ne'matlar,ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda ta'lim tizimining oʻrni va roli haqida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ijtimoiy ne'matlar, inson kapitali, ta'lim xarajatlari, xizmat, xizmat koʻrsatish va ijtimoiy xizmat hamda davlat sohasi va ijtimoiy soha.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности производства социальных услуг,социальных благ,место и роль системы образования в развитии сферы социальных услуг.

**Ключевые слова:** социальные услуги, социально-экономические условия, социальные блага, человеческий капитал, расходы на образование, услуги, Услуги и социальные услуги, а также государственная сфера и социальная сфера.

**Annotation:** this article discusses the peculiarities of the production of social services,social benefits,the role and role of the educational system in the development of the field of social services.

**Key words:** social services, socio-economic conditions, social benefits, human capital, educational costs, service, service and social services, and the public sphere and social sphere.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, nomoddiy asosda ishlab chiqariladi. Oʻzbekistonda 2017 yilda siyosiyhuquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada ham chuqur sifat oʻzgarishlar roʻy berdi. Jamiyat ijtimoiy sohasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'limtarbiya sohasi boʻlib, uning rivoji siyosiyhuquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarg bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalarning kelajak istiqbolini belgilab beradi. Har yili davlat byudjetining qariyib 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yoʻnaltirilib, uning 34-35 foizi ta'lim sohasini rivojlantirishga yoʻnaltirilayotgan xarajatlar mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi. Vaholanki bu koʻrsatkich jahon tajribasida 35 foizdan oshmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi taraqqiyotining 16 foizi moddiy-texnik bazaga, 20 foizi axborot resurslariga, 64 foiziinson omiliga bogʻlik boʻlayotgani kuzatiladi. Ta'lim muassasalarida bu uchta omildan oqilona foydalanish inson manfaatiga xizmat qiladi va uning ratsional rivojlanishini belgilab beradi. Demak ta'lim muassasalarida ijtimoiy xizmatlar salmogʻini va sifatini oshirishdagi «Bizning vazifamiz toʻplangan tajriba va ilgʻor xalqaro amaliyotga suyangan holda oʻzimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va oʻrta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur..." Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlar – insonlarning ta'lim sohasidagi ortib borayotgan

ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. O‘z navbatida, insonlarning turmush tarzini yaxshilanishi ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni yaxshilanishini talab qiladi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim muassalarida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini oshirish davlatning xarajatlarini doimiy ortishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish sohasining yuzaga kelishi va rivojlanishining ob’ektiv zamini ijtimoiy ehtiyojlarning darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish sohasining faoliyat yuritishi uchun moddiy ishlab chiqarish asos bo‘lib hisoblanadi. Unda har qanday ishlab chiqarish, shu jumladan ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning moddiy asosi yaratiladi. Ikkala soha o‘rtasida turli-tuman xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish zarurati tufayli yuzaga kelgan uzviy o‘zaro bog‘lanish mavjud.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishni alohida, nisbatan mustaqil, nobozor, ijtimoiy sohaga ajratib olish va uning bozor sohasi bilan integratsiyasining chuqurlashuvi ijtimoiy mehnat taqsimotining qonuniy natijasi bo‘lib, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish unumdorligining ob’ektiv o‘sishi omili hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar ijtimoiy qayta ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlab chiqarish siklida ishtirok etadi, shuningdek qayta ishlab chiqarish jarayonida mustaqil iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning tashabbuskori davlat bo‘ladi.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish uchun davlatga davlatning o‘zi egalik qilgan va tasarruf qilgan resurslarni ichiga oluvchi rivojlangan ijtimoiy soha zarur bo‘ladi. Iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga kiruvchi tarmoqlari, jumladan, ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, ijtimoiy muhofaza kabi tarmoqlari davlat aholisi uchun ijtimoiy xizmatlarni bevosita yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish jamiyat tomonidan ajratilgan resurslarni alohida turdagi, ma’lum hajmidagi, muayyan tarkibli va sifat standartlariga muvofiqlik darajasiga ega bo‘lgan mahsulotga aylanishidir. Ushbu mahsulot ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish, har qanday ishlab chiqarish kabi, bir marotabalik va joriy xarajatlar qilinishini talab qiladi. Ushbu ta’rifdan ijtimoiy va xususiy ne’matlarni aniq belgilash zarurligi kelib chiqadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy ne’matlarning xususiy ne’matlardan asosiy farqi 15 quyidagilardan iborat. Bozor, tovar iqtisodiyotida ishlab chiqarishni tiklash avval ishlab chiqarilgan tovarlarni bozorda sotishni ko‘zda tutadi. SHu bilan birga, mahsulotning bir qismi tovarlar sifatida ishlab chiqariladi va sotiladi, bir qismi esa tovar sifatida ishlab chiqarilib, ijtimoiy ne’matlar sifatida realizatsiya qilinadi. Xizmatlar shaklida ijtimoiy ne’matlarni ishlab chiqarish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, u xizmatlar nomoddiy asosda ishlab chiqarilishi bilan va ularning iste’molchisi ma’lum ob’ektiv qonuniyatlarga muvofiq, lekin, individual tarzda jismoniy va aqliy rivojlanayotgan inson ekanligi bilan bog‘liq bo‘ladi.Shunga yarasha, iste’mol qilinadigan ijtimoiy xizmatlarning miqdori va sifatiga bo‘lgan ehtiyojlar ham individual bo‘ladi.

Shunday qilib, ijtimoiy soha tashkilotlarining soni va kattaligi xizmatlarning ma’lum guruhlari miqdori iste’molchilarining miqdori bilan, iste’molchiga hududiy yaqinligi talablarini hisobga olib, belgilanadi. Xizmatlarga bo‘lgan talabning mahalliyligi muammosini mahalliy ijtimoiy ne’matlar (local public goods) nazariyasini yaratgan CH. Tibu tadqiq etgan edi. Tibu ularni har qanday alohida olingan geografik joylashuv uchun o‘ziga xos bo‘lgan ne’matlar kabi belgilagan, iste’molchilar esa o‘z yashash joyi yuzasidan qaror qabul qilganda taqdim etiladigan ijtimoiy ne’matlarning miqdori va turlari yuzasidan ham tanlab olishi mumkin. Ularning jami foydalari, yangi doimiy yashovchilar ulardan biror bir qo‘shimcha xarajatlarsiz foydalanishi mumkin bo‘lsada, shunga qaramay, bitta mahalliy jamoa bilan cheklanadi.

Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish jarayoni moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonidan shunisi bilan farq qiladiki, xizmatlarni saqlash, tashish, boshqa iste’molchiga foydalanishga berish mumkin bo‘lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning ushbu xususiyati iste’molchi tomonidan ularning xususiyatlarini baholash va tanlash imkoniyatini qiyinlashtiradi. Davlat institutsional majburlash mexanizmlarini nafaqat fuqarolardan davlatga, balki ayrim fuqarolardan boshqa fuqarolarga moliyaviy oqimlarning o‘tishi yo‘li bilan amalga oshiradi. Bunday vaziyat esa yuqoriroq daromad darajasi bo‘lgan fuqarolar davlatga ko‘proq hajmda soliq to‘laganda va bu soliqlar hisobiga davlat jamiyatning barcha tabaqalari foydalana oladigan ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqaradigan holda yuzaga keladi.

Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining bozor institutidan asosiy farqi quyidagilar hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutiga xususiy soha korxonalari kiradigan bo‘lsa ham, ularning ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishi davlat moliyalashtiruvi hisobiga amalga oshiriladi, shuning uchun aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida, iqtisodiy

ahamiyatsiz narxlar bo‘yicha iste’mol qiladi, ayni paytda bozorda aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni bozor narxlari bo‘yicha sotib oladi. Quyida bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari keltirilgan

Bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari Tizimning elementi Bozor instituti Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish instituti Maqsadi Foyda olish Aholiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish orqali “bozor cho‘kishlarini” kompensatsiyalash Sub’ekti Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va aholi Iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga kiruvchi institutsional birliklar Ob’ekti Aholi Mexanizmlari Bozor raqobati Pulkredit, moliyaviy, monopoliyaga qarshi, tabiatni muhofaza qilish siyosati Fikrimizcha, jamiyat uchun zarur bo‘lgan hajmida ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga resurslarni kiritmagan holda mumkin bo‘lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning bozor sohasiga investitsiya kiritishga nisbatan kamroq investitsiyaviy jozibador bo‘lishi iqtisodiyotning ijtimoiy sohasining o‘ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish investitsiyalarida investitsiyaviy jozibadorlikning deyarli barcha asosiy ko‘rsatkichlari pastroq bo‘ladi, jumladan – o‘zini oqlash muddatining uzoqligi.

Ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxona xususiy investitsiyalarni jalb qilishga erisha olmaydi va davlat ko‘magisiz faoliyat yurita olmaydi. Davlat mablag‘larini ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishga investitsiyalash zarurligi, fikrimizcha, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish zarurligi shaklidagi institutsional sabab tufayli yuzaga keladi va iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etib mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga hissa qo‘shadi. SHuning uchun ham ta’lim tizimi va ilmfan taraqqiyoti O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish sifatida isloh qilib boriladi. Ta’limning milliy iqtisodiyotga ta’sirini (Mt) ma’lum ko‘rsatkichlar asosida baholashning ilmiy uslubiy yondashuvida quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin bo‘ladi: Tx Mt ═ * 100% YAIM Bunda: Txbir yilda ta’limga sarflangan xarajatlar miqdori. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni, jumladan, ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta’siri uni YAIM ni yaratishdagi hissasi bilan ham ahamiyatlidir. 2019 yilda ham dav[9]lat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag‘ning 37 foizidan ortig‘ini ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilishi o‘z samarasini berdi.

Bu o‘z o‘rnida jamiyat tomonidan ta’lim tizimiga yo‘naltirilgan mablag‘larning samarasi sifatida iqtisodiyot rivojlanishiga natija berdi. Buning uzviyligi shundaki, insonning bilimi, malakaviy ko‘nikmalari qanchalik yuqori bo‘lsa, daromadi ham shunchalik ortadi va iste’molchi sifatida real sektorga ko‘proq hissa qo‘shadi, jumladan: Birinchidan, ta’lim tizimi resurslar bozoriga ta’sir ko‘rsatadi, chunki ishchi kuchi sifati, malakasi uning bilim darajasiga bog‘liq; ikkinchidan, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari yuqori texnologiyalar yordamida birlashadi, bu esa ishchining axborottexnologik madaniyatini 19 o‘zlashtirishi o‘quv jarayonida olgan bilim va ko‘nikmasiga bog‘liq; uchinchidan, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko‘rsatishi uni boshqarishga, ya’ni ilmiy asoslangan menejment sohasidagi bilim va malakasiga bog‘liq bo‘ladi.

Umuman olganda, ta’lim va ilm fan bog‘likligidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligining oshishi tufayli innovatsiyalar, sifatli kadrlar, samarali boshqaruv, ya’ni inson kapitali orqali YAIM hajmi ortib aholining turmush farovonligi yaxshilanadi. Insonni “..tabiat bergan qobiliyatlar hamda ta’limtarbiya tizimi singdirgan va o‘zo‘zini yaratish bo‘yicha o‘z faoliyati natijasida ega bo‘lgan qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalarining ma’lum miqdori birikmasi, tabiiy qobiliyatlari ro‘yobga chiqishi uchun ham individning o‘zi, ham, birinchi navbatda, umuman jamiyat tomonidan ma’lum sharoit yaratilishi lozim bo‘ladi (masalan, ta’lim rivojlanishi va olinishi mumkinligi, ta’lim samaradorligi va hokazo)”. Iqtisodiy nazariyada jamiyat tomonidan inson kapitalini shakllantirish sharoitlari deganda inson kapitaliga investitsiyalar tushuniladi. Inson kapitali investitsiyalar natijasi bo‘lib chiqadi.

Tadqiqotchilar investitsiyalarnig uchta asosiy turini ajratib ko‘rsatadi: ta’lim xarajatlari, sog‘liqni saqlash xarajatlari, mobillik xarajatlari. O‘z navbatida, inson kapitali jamlanib borgan sari uning daromadliligi ortib boradi. Kapitalning o‘zi inson kapitalini qayta ishlab chiqarishning asosi bo‘ladi.

Fikrimizcha, davlat aholisiga taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar inson kapitaliga investitsiyalar bo‘lib hisoblanadi. O‘z navbatida, jamlangan inson kapitali ijtimoiy xizmatlarni keyingi qayta ishlab

[9] Гринэуэй Д. Панорама экономической мысли конца XX столетия. В 2т. СПб.: Экономика, 2002.Т.1 С.416424 17

chiqarish uchun aqliy, ijodiy baza bo‘lib hisoblanadi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish muddatiga ko‘ra uzoq va xususiyatiga ko‘ra integral bo‘lgan ma’lum iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishi lozim, u keng ko‘lamli inson ehtiyojlarini qondirish, hayot sifatini oshirish, barqaror iqtisodiy [10]o‘sishni ta’minlash shaklida ifodalanadi. Inson kapitalidan foydalanish samarali bo‘lishi lozim. Mos holda, biz inson kapitaliga investitsiyalar deb ta’riflagan ijtimoiy xizmatlarni ham ularning sifat xususiyatlari – samaradorligi, yakuniy natijaga qaratilganligi nuqtai nazaridan qarash lozim.

Shunday qilib, fikrimizcha, ijtimoiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi roli o‘zgara boshlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan, innovatsion, sifat jihatlari birinchi o‘ringa chiqadi. Shu bois, biz magistrlik ishida “xizmat” “xizmat ko‘rsatish” va “ijtimoiy xizmat” hamda “davlat sohasi” va “ijtimoiy soha” tushunchalarining ilmiy nazariy asoslarini va amaldagi xususiyatini qiyosiy tahlil etish asosida “ijtimoiy xizmat”larga o‘z mualliflik talqinimiz berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda va aholi turmush darajasini oshirishdagi ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini baholashni, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning hozirgi holatini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tavsiya etish vazifasini belgilab olganmiz.

Fikrimizcha, “ijtimoiy ne’mat” tushunchasiga ilmiy yondashuvlarni umumlashtirib, “ijtimoiy ne’matlar iqtisodiy kategoriya sifatida –davlat tomonidan fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan nobozor tovarlar va xizmatlardir, bunda fuqarolardan hech biri ne’matlarning ushbu turlaridan foydalanishdan mahrum qilinmaydi”deya baholash ijtimoiy ne’matlarning mohiyatini yanada to‘liqroq ochib beradi. Bu ta’rifda, ijtimoiy ne’matlarni ishlab chiqarish bozor asosidagi xususiy ne’matlarni ishlab chiqarishga muqobil holat ekanligi hisobga olingan. Iqtisodiy ne’matlarning bir turi xizmatlardir. “Xizmat” kategoriyasining iqtisodiy mazmuni turli iqtisodiy ta’limotlarda iqtisodiy ishlab chiqarish konsepsiyasi rivojlangan sari turlicha talqin etilgan.

**Adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.

2. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoev. Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. 56 6. 3.Toshboyev A.“Aholi turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish yo‘llari”. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TerDU – 2014 y. 78 b. B.:18.

6.Ro‘ziyev.Z. Harakatlar strategiyasi: Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Manba: “postda.uz” rasmiy vebsayti.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RIVOJLANISHINING TARIXIY ASOSLARI

**D.Allayarova (O‘zbekiston)**

Navoiy viloyati Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda o‘qitishning muqobil shakllarini tashkil etish sho‘basi metodisti

**D.Abdiyeva (O‘zbekiston)**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha metodist

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rivojlanishining va tashkil etilishining asoslari xususidagi fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, ta’lim, tizimi, bolalar bog‘chasi, rivojlanish, xususiy bogchalar, kengash, ovqatlantirish, tibbiy yordam.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются основы развития и организации дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, образование, система, детский сад, развитие, частные детские сады, совет, питание, медицинское обслуживание.

[10] Цыренова Е.Д, Сактоев В.Е., Баженова В.С. Формирование и динамика человеческого капитала транзитивной экономики. – УланУдэ Издво ВСГТУ, 1999. С. 37. 20

**Abstract:** this article discusses the basics of the development and organization of preschool educational organizations.
**Key words:** preschool education, education, system, kindergarten, development, private kindergartens, council, feeding, medical care.

Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekistonda maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning 10-20 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkistonda bolalarni gimnaziyaga kirishga tayyorlovchi xususiy bolalar bog'chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lmagan. Biroq 1919-yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o'sib kelayotgan avlodning sog'ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi "Bog'chalarni himoyalash Kengashi" tuzildi. Bu davrda bollarni davlatning yanada sermahsul mintaqalariga ko'chirib keltirish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg'i, tibbiy yordam bilan ta'minlash masalalari yechilgan. Bu masalalarni yechishning asosiy vositasi ommaviy oshxonalar, yasli va bog'chalar, boshqa tomondan esa ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yordam bo'lgan. Maktabgacha tarbiya ishini aniq tashkil qilish uchun 1918-yilda respublikada Toshkentning eski shahri o'zbek bolalari uchun 4-bolalar bog'chasi tashkil qilindi. 1919-yilda esa Samarqandda 2-bolalar bog'chasi va 3-bolalar uyida maktabgacha guruhlar ochildi. 1926 yilga kelib maktabgacha ta'lim muassasalarida (jami 40 ta) 2000ga yaqin bolalar bo'lgan. Bu esa respublikadagi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning 36,4 %dir. Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining chiqarilishi muhim muvaffaqiyat bo'ldi. 1927-yilda boshlangan ayollarning hujum harakati munosabati bilan bolalarning bolalar bog'chasiga berish hollari yanada ko'paydi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlar yordamida ishlayotgan ayollarga yana bir yordamchi tashkilotyozgi sog'lomlashtirish maydonchalari ta'sis e'tildi.

XX asrning 30-yillarning maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan. Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya muassasalariga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan. 1930-yilda O'zbekistonda Respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi.[2] Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borishgan va bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartiboti hamda oilalarning tarbiya masalalari bo'yicha maslahat berish bilan birlashtirilgan. 1933-1934 yillarda sanab o'tilgan harakatlar natijasida O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933-yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili sifatida muhrlandi.[3] Rusiy zabonbolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.
Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi.[1] Kelajak avlod yurt tayanchi va iftixoridir. Ular ta'limiga poydevor esa albatta maktabgacha ta'lim dargohlaridan boshlanadi.

**Adabiyotlar.**

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpoʻlatova, N.M.Kayumova, N.M.A’zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent. 2017.
2. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/maktabgacha/3724.htm.
3. https://elib.buxdupi.uz/books/Maktabgacha%20ta'limda%20STEAM%20texnologoyasi.%20Ma'ruza.pdf.

## НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ. ФОРМЫ И СПОСОБЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ПРАКТИКЕ РАБОТЫ ДОО

**Гадаева Г.Я. (Узбекистан)**

Методист , Зарафшанский отдел дошкольного и школьного образования Навоийской области

**Аннотация:** в данной статье рассмотрены виды современных технологий, их описание, способы реализации в практике работы дошкольной образовательной организации, а также определен планируемый результат использования данных технологий.

**Ключевые слова:** технология, инновация, современность, приоритет, мотивация, преемственность. Познавательный интерес, взаимодействие, развитие, компонент, модернизация, прием, модель. Новые технологии используются в непрерывной образовательной деятельности, при проведении итоговых мероприятий, на которых дети демонстрируют свои достижения, находятся в постоянном сотрудничестве с родителями.

**Abstract:** this article discusses the types of modern technologies, their description, methods of implementation in the practice of a preschool educational organization, and also determines the planned result of using these technologies.

**Key words:** technology, innovation, modernity, priority, motivation, continuity. Cognitive interest, interaction, development, component, modernization, reception, model. New technologies are used in continuous educational activities, during final events where children demonstrate their achievements, and are in constant cooperation with parents.

Внедрение новых технологий в образовательный процесс дошкольных организаций, способствует более эффективному воспитанию ребенка, который стремится творчески подходить к решению различных жизненных ситуаций и хочет получать новые знания об окружающем мире. Использование новых технологий, влияет на формирование положительной мотивации к дальнейшему обучению.

Современный этап развития дошкольного образования характеризуется быстрым темпом внедрения различных технологий в практику работы детских садов. ДОО требует изменений во взаимодействии взрослых с детьми. В связи с этим перед педагогами - дошкольниками встала задача пересмотра приоритета профессиональной деятельности. Главное – не просто передать знания, а развить познавательный интерес у детей и осуществить преемственность дошкольного и начального школьного обучения через современные педагогические технологии.

Любое новшество представляет собой создание и последующее внедрение принципиально нового компонента, вследствие чего происходят качественные изменения среды. Технология же является совокупностью различных приемов, которые применяются в том или ином деле, ремесле или искусстве. Интересные модели по воспитанию и интеллектуальному развитию малышей. Основная цель, которой является модернизация образовательного процесса.

**Направление популяризация чтения «Буккроссинг».**
Что такое Буккроссинг? Суть этого понятия проста - это «книговорот» («движение книг» от человека к человеку).

Книжная библиотека организована в методическом кабинете, доступна для всех участников образовательного процесса.
Родитель, ребенок или педагог - любой желающий может взять понравившуюся книгу, а взамен

оставить какую-либо свою, главное, чтобы количество книг в библиотеке не уменьшалось.

Цель проведения «Буккроссинг» в ДОО - повышение интереса к чтению и литературе.

Реализация данной технологии началась с оформления «Книжного уголка», в котором систематически организуются различные выставки. Это портреты детских писателей и поэтов, выставки, какого - либо поэта, тематические иллюстрации, плакаты к знаменательным датам, книги - новинки.

В рамках осуществления данной технологии музыкальный руководитель в содружестве с воспитателями старших групп занимаются организацией литературно - музыкальных вечеров. Самым значимым мероприятием для детей и воспитателей будет организация встречи с героями сказок, произведений.

**«Досуговое чтение» или «Домашнее чтение».**



Когда наступают долгожданные выходные, возникает вопрос: чем заняться в свободное время детей, когда все члены семьи не заняты домашними делами? С целью решения данного вопроса, придумали для детей и родителей технологию домашнего чтения.
В каждой группе организован читательский уголок, где есть стенд, на котором представлены списки детей, а также названия книг, которые родители могут прочитать с детьми дома. Подборка тематической литературы осуществляется воспитателями в рамках образовательной программы с учетом возрастных особенностей детей данной группы.
Таким образом, родители вместе с детьми выбирали любую книгу из списка, чтобы прочитать её самостоятельно дома, а затем, возвращаясь в детский сад, ставят отметку о прочтении на данном стенде.

Цель данной технологии - это возрождение традиций семейного чтения. Чтобы воспитатели удостоверились, была ли прочитана выбранная книга, родителями, нужно предложить сделать фото отчеты на тему: «Читаем дома». Дети делают рисунки по сюжетам произведений и сказок. Воспитатели групп создают для детей мини - библиотеки в группах, организовывают театральные постановки по прочитанным книгам, проводят конкурс чтецов. Продолжая развивать данную технологию, педагоги намечают проведение ряда интересных мероприятий: КВН и досуг с родителями «Мои любимые сказки».

**«Буктрейлер».**

Все мы в любом возрасте очень любим кино и мультфильмы. И в ДОО мы тоже можем создать и показать детям короткий фильм. Буктрейлер - короткий видеофрагмент, рассказывающий в произвольной художественной форме о какой - либо книге. Увидев его, заинтересовавшись тем, какие персонажи появились на экране, что с ними будет происходить далее, ребенок обязательно захочет узнать их историю целиком.
Поэтому педагоги определяют главную цель создания таких короткометражек - это развитие мотивации к чтению с помощью визуальных средств.

Все педагоги должны быть обучены и уже используют данную технологию. Дети принимают участие в литературной викторине, для проведения которой стали «Буктрейлер», сделанные по сказкам. Кроме того, на детских праздниках родители смогут увидеть применение данной технологии, когда «Буктрейлер» становился частью праздничного сценария. Теперь главное - постараться научить родителей создавать для своих детей такие видеоролики дома. Поэтому педагоги планируют провести для них мастер - классы на тему: «Фильм, фильм, фильм» и выпустить совместно с ДОО «Мультфильмы моего детства».

Ключевое событие в развитии направления «Популяризация чтения» - это участие педагогов ДОО, детей и родителей. Воспитатели организуют творческие конкурсы.

Эта работа проводится для того, чтобы научить детей оценивать значение книг в жизни человека.

Проведенные воспитателями групповых заданий, направленные на развитие речи, читательской мотивации и формирование познавательных интересов детей, а также обучение дошкольников расширению литературного кругозора, совершенствованию читательской, коммуникативной и творческой деятельности. Дети учатся формулировать и высказывать свое мнение о прочитанной книге.

Педагоги проявляют особый интерес к этому направлению, поддержали качественную современную детскую литературу, а также идею свободы и самостоятельности ребенка в организации образовательного процесса.
Также одно из самых знаковых мероприятий в реализации направления «Популяризации чтения» - участие всего коллектива ДОО (воспитанников, родителей и педагогов) в экологическом мероприятии «Бережем планету вместе».

**«Мнемотехника»**

Жизнь в детском саду насыщена яркими событиями. Постоянно проходят праздники, конкурсы. Дети всегда ждут эти необыкновенные дни, ведь им так нравится выступать на сцене. Воспитатели и родители тоже в ожидании праздника, если бы не одно обстоятельство: нужно выучить много нового материала. Именно в этот момент может прийти на помощь особая технология заучивания текстов - мнемотехника, цель которой - помочь развить у детей основные психические процессы: память, внимание, речь, образное мышление. По правилам мнемотехники информация кодируется (зарисовывается схематично) с помощью изображений, которые помогают ребенку воспроизвести текст.

Изображения не просто рисуются на листе, а располагаются в мнемотаблицах, мнемоквадратах, на мнемодорожках и в ассоциативных цепочках, которые воспитатели или родители легко могут подготовить самостоятельно для более быстрого запоминания текстового фрагмента.

Педагоги должны «апробировать» эту технологию не только в группах при подготовке к праздничным мероприятиям и на занятиях. Дети смогут потренироваться в заучивании стихов, пословиц, отгадывании загадок по мнемотехническим таблицам. Родители в свою очередь тоже не остаются равнодушны к подобному «новшеству». Они с удовольствием учат стихи по мнемотехническим таблицам на мероприятии, посвященном женскому празднику «8 Марта», а также присутствуют на открытом просмотре по развитию речи с использованием элементов мнемотехники.

Для обучения педагогов правильному составлению мнемотехнических схем был проведен мастер - класс.

Стоит обратить внимание на то, что дети учат достаточно большое количество стихов, а подготовить мнемосхемы для каждого стихотворения довольно трудоемкое дело. Поэтому многие небольшие стихи (в основном программные) воспитатели стараются учить по мнемосхемам со всеми детьми, работая с «Говорящей стеной» (на ней зачастую размещаются материалы по мнемотехнике). Детей привлекают к самостоятельному изготовлению мнемосхем. Практика показывает, что «рисуя» стихотворения, они успешнее заучивают их наизусть. В перспективе намечается проведение досугов «Реши кроссворды», «Найди ошибки у художника», «Отгадай загадку и назови героя», «Может быть – не может быть» с использованием мнемотехнических схем.Воспитатели, начиная работу с мнемотаблицами в средней группе, могут проследить в последующем динамику в развитии памяти, внимания и речи детей.

Технологию мнемотехники нельзя полностью отнести к направлению «Популяризация чтения», она скорее способствует развитию связной речи, навыков выразительного чтения и пересказывания.
Использование мнемотехники помогает сделать процесс запоминания более простым, интересным, но не заменяет традиционного метода заучивания текстов.

Работая с дошкольниками, педагоги убеждаются, что все дети любят, когда им читают вслух, а совместное чтение с родителями очень благоприятно влияет на отношения в семье. У малышей постоянно работает фантазия, в процессе обсуждения какой - либо литературы они учатся слышать, слушать и беседовать.

Участие в мероприятии «Бережем планету вместе» способствует формированию экологической культуры у детей, бережного отношения к окружающей природе.

Педагоги определяют, что у детей значительно расширяется кругозор, увеличивается словарный запас, процесс запоминания становится устойчивым. Это ярко прослеживается, если взглянуть на их творческие работы. К тому же дети совместно с родителями проводят домашнее чтение.
Описанные выше технологии способствуют формированию бережного отношения к книгам, а любовь к литературе должна прививаться с раннего детства, ведь «дом, в котором нет книг, подобен телу, лишенному души», – говорил Цицерон.

**Направление социализация «Говорящие стены».**



Педагоги, вдохновленные опытом других детских садов, успешно внедряют новой технологии - «Говорящие стены».

Один из классиков педагогики утверждал, что «воспитывает все: и люди, и книги, и понятия». Оказывается, в ДОО могут воспитывать даже «стены».



Главная идея «говорящей стены» - преобразование обычной среды в группе. «Говорящая стена» - это своеобразный живой экран. На стенах в группе и помещениях ДОО крепятся магнитные полоски, ковровые полотна, кармашки, прищепки, ТСО, игры, игровые фишки и

различные тематические картинки. «Говорящие стены» активно используют в своей работе все педагоги. Музыкальный руководитель размещает на ней портреты композиторов, инструктор по физической культуре - картинки с изображением видов спорта. Также на «говорящих стенах» в помещениях ДОО материал размещается в соответствии с временами года, по тематическим неделям, которые проходят в детском саду, направлен он на художественно - эстетическое воспитание дошкольников. Поэтому целью организации «говорящих стен» в группах и помещениях ДОО – это усвоение, закрепление, расширение знаний, а также развитие коммуникативных навыков.
Основное предназначение «говорящей стены» в группе - проведение «Утра улыбок», которое устанавливает атмосферу доверия, задает тон для благоприятного общения в течение дня, развивает умение обмениваться знаниями и опытом, мотивирует на получение новых знаний, устанавливает эмоциональный контакт между участниками беседы.

«Утро улыбок» устраивается для того, чтобы дети почувствовали себя частью сплоченной команды, участие в мероприятии поможет осознать свою принадлежность к коллективу, учит уважительному отношению к сверстникам и старшим. Дети обсуждают, чему они научились за неделю, обговаривают план действий на текущий день, договариваются. Родители смогут познакомиться с этой технологией на специально организованной для них экскурсии по ДОО «Детское дошкольная организация - территория детства», в ходе которой увидели «говорящие стены» в развивающей предметно - пространственной среде.
Хочется сделать акцент на работу педагогов по формированию у детей толерантности, как одного из основных направлений нравственного воспитания.
Важно, что дети в ходе работы у «говорящей стены» и во время «Утра улыбок» учатся комментировать свои высказывания и действия, контролировать свое поведение, следовать установленным правилам, налаживать контакты со сверстниками.

**«Социальные акции».**

Главная цель этих мероприятий - формирование у детей отношения к общественной жизни, развитие их гражданской позиции.
Одна из задач образовательной области «Социально - коммуникативное развитие» - нравственное воспитание дошкольников. Участие в социальных акциях вместе с родителями способствует формированию у детей фундамента духовно - нравственного воспитания, у них складывается представление о следующих понятиях: любовь к Родине, доброта, сострадание, ценности семьи, уважение к старшим.

**«Волонтерство».**



Название «ДОО» ассоциируется с садом, который необходимо вырастить. А вырастить что - то сложно, если нет добрых рук, хороших помощников, доброго отношения. В ДОО есть «добрые руки» педагогов и хорошие помощники. А помощники эти - сами дети. Так и начинается волонтерское движение в ДОО.
Посвящение в волонтеры проходит на праздничном досуге, где ребята получают отличительные знаки волонтерского движения: эмблемы. Воспитатели младших групп создают «Почтовый

ящик» для писем малышей к волонтерам. Дети подготовительных групп, знакомясь с письмами, отправляются на помощь к малышам. Вместе с малышами они конструируют, занимаются продуктивной деятельностью, помогают маленьким детям одеваться и раздеваться, принимали участие в физкультурном занятии в младших группах, учат малышей самообслуживанию, вместе с ними играют в группе и на прогулке. Целый год волонтеры приходят в гости к малышам, а в конце учебного года подготовят вместе с воспитателями стенд «Панорама добрых дел».




Дети приобретают опыт развития коммуникативных взаимоотношений, коллективизма, сотрудничества, а также учатся вести диалог, развивают свои творческие способности.

**«Дошкольная образовательная организация без обид»**

Целый день ребята находятся в ДОО. Иногда бывает грустно, а иногда скучно.Почти все дети приносят и хранят любимую игрушку в группе в специально отведенном месте - «домике». Любимая игрушка играет ключевую роль в сложных ситуациях. Когда некоторым детям бывает сложно общаться и делиться своими чувствами с другими детьми и взрослыми, игрушка становится для малыша лучшим другом и советчиком.
Кроме того, игрушка призвана играть связующую роль между родителями и ребенком. Так, изначально, когда ребенок выбрал себе игрушку, которая будет сопровождать его в детском саду, на семейном совете принимается решение, какое имя дать игрушке, и какую сшить ли для неё одежду. А в дальнейшем необходимо создать фоторепортаж о жизни игрушки дома, попробовать написать ей письмо и отправить по «Почте доверия», написать для нее хорошие и добрые слова и положить эту записку в «Домик хороших слов и добрых пожеланий». В группе воспитатели разыгрывают проблемную педагогическую ситуацию, проводят рефлексивный круг, чтобы помочь ребенку преодолеть стеснение, проявить смелость и уверенность. Если возникала заминка, на помощь всегда могла прийти любимая игрушка.
Реализуя технологии по направлению «Социализация» педагоги и родители убеждаются в том, что дети становятся более открытыми, у них появляется уверенность в собственных силах, они учатся вести беседы друг с другом, становятся более самостоятельными. Ясно, что работа по социализации детей готовит их не только к адаптации в школе, но и к адаптации в жизни.

ДОО – первая ступенька в общем систематизированном образовании ребенка, его первый опыт участия в общественной жизни. Одной из главных задач согласно ДОО является раскрытие способностей каждого ребенка, воспитание личности, обладающей креативным мышлением, готовой к жизни в высокотехнологичном информационном обществе, обладающей умением обучаться в течение всей жизни. Работая над внедрением новых технологий, мы опираемся на комплексную совместную работу педагогов, детей и их родителей, в процессе которой дети смогли развить свои познавательные способности и творческое мышление, повышать свою самооценку, учимся самостоятельно искать информацию и использовать полученные знания на практике. В рамках реализации данных технологий в ДОО каждый ребенок стремился к активной деятельности.

С момента внедрения технологий, раскрытых в данной статье, педагоги ДОО, опираются на данные мониторинга образовательной деятельности, определяют повышение показателей по всем образовательным областям.

Таким образом, можно предположить, что данные технологии качественно влияют на результаты образовательной деятельности в целом.
Педагоги смогут реализовать главную задачу – активизировать и развивать творческую активность ребенка, самостоятельность в выборе способов действий в различных ситуациях.Ведь педагоги в содружестве с родителями стараются выпустить в жизнь ребенка любознательного и активного, разносторонне развитого и творчески свободного. Только такой ребенок может стать в жизни успешным. Подводя итог можно с уверенностью сказать, что современные образовательные технологии в ДОО применяются все чаще, а результат их внедрения будет проявляться еще не одно десятилетие.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Государственная программа "Первый шаг" (усовершенствованная),-Т.: 2022г
2. Ф.Р. Кодирова. Теория и методика развития речи детей. Т.: Истиклол,2006. Учебное пособие.
3. Д.Р.Бабаева «Методика развития речи " Т.: Наука и технологии 2009г. Учебное пособие.
4. N.Каюмова. Дошкольная педагогика Т.: TDPU 2017.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ONA VATAN HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI

**Qo‘chqorova Fazolat Baxtiyorovna (O‘zbekiston)**
Navoiy viloyati Nurota tumani 10-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti.

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarini o‘z xalqining madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati, bolalarni vatanparvarlik tarbiyasida olib boriladigan ishlar tizimi va ketma-ketligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kishilar ongi, dunyoqarash, tafakkur, mehnati, urf-odatlar, ijtimoiy tadbirlar.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается значение приобщения дошкольников к культуре своего народа, система и последовательность работы по патриотическому воспитанию детей.

**Ключевые слова:** сознание людей, мировоззрение, мышление, труд, традиции, общественная деятельность.

**Annotation:** this article discusses the importance of introducing preschool children to the culture of their people, the system and sequence of work carried out in the patriotic education of children.

**Keywords:** consciousness of people, worldview, thinking, work, traditions, social events.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so‘z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bu so‘zlar zamirida hali oldimizda bu sohada juda ko‘p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o‘zi isbotlamoqda. - Maqsadimizga erishish yangi demokratik jamiyatni qurish, islohatlarning taqdirini qanday kuchlarga ega ekanliklarimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday g‘oyalarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog‘liqdir»- deydi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida ko‘plab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi shunigdek, 2019 yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori ishlab chiqildi.Qarorga maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti ilova qilib berildi. Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari

hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdir. Standartning asosiy vazifalaridan biri qilib milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish kerakligi belgilab berildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarini o'z xalqining madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati haqida ko'p narsa yozilgan, chunki otalar merosiga murojaat qilish siz yashayotgan zaminda hurmat va faxrlanishni kuchaytiradi. Shuning uchun bolalar ota-bobolarining madaniyatini bilishlari va o'rganishlari kerak. Bu xalqlarning tarixini, ularning madaniyatini bilishga qaratilgan urg'u, kelajakda hurmat va qiziqish bilan boshqa xalqlarning madaniy an'analari bilan bog'liq bo'lishga yordam beradi. Shunday qilib, bolalarni vatanparvarlik, vatan haqidagi tushunchlarni singdirish bilan tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Bolalarda vatanga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish uchun bevosita atrof-muhit katta ahamiyatga ega. Asta-sekin, bola maktabgacha ta'lim tashkiloti, uning ko'chasi, shahri, keyin esa mamlakat, uning poytaxti va ramzlari bilan tanishadi.

Bolalarni vatanparvarlik tarbiyasida olib boriladigan ishlar tizimi va ketma-ketligi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Albatta, ushbu sxema ushbu masala bo'yicha ishlarning to'liq hajmini yetkaza olmaydi. Bu vazifalarning barchasi, vatanparvarlik tarbiyasida olib borilgan ishlarda mavjud.

Tarbiyachining vazifasi - bola tomonidan unga eng qulay bo'lgan taassurotlar to'plamidan tanlash:
-uydagi tabiat va hayvonlar dunyosi (MTT, ona yurt);
- odamlar mehnati, urf-odatlar, ijtimoiy tadbirlar va boshqalar. Bundan tashqari, bolalarning e'tiborini jalb qiladigan epizodlar yorqin, xayoliy, aniq va qiziqarli bo'lishi kerak. Shuning uchun tarbiyachi o'z ona yurtiga muhabbat hissini uyg'otish bo'yicha ishlarni boshlashda uni yaxshi bilishi kerak.

Vatanparvarlik tarbiyasida kattalar, ayniqsa yaqin odamlarning o'rnagi katta ahamiyatga ega. Katta oila a'zolarining hayotidan (bobolar va buvilar, ularning umri davomida erishgan jasorati, qilgan mehnati ) aniq dalillarga kelsak, bolalarda "Vatan oldidagi burch", "Vatanga muhabbat","dushmanga nafrat" kabi muhim tushunchalarni tarbiyalash kerak. "mehnat jasorati" va boshqalar. Bolani biz g'alaba qozonganimizni anglash juda muhimdir, chunki biz o'z Vatanimizni sevamiz, Vatan insonlarning baxti uchun jonini fido qilgan qahramonlarini ulug'laydi. Ularning nomlari shahar, ko'chalar, maydonlar nomlariga abadiylashtirilgan, ularning sharafiga yodgorliklar bunyod etilgan.Ushbu ishning davomi bolalarni O'zbekistonning boshqa shaharlari, mamlakatimiz poytaxti, davlat madhiyasi, bayrog'i va gerbi bilan tanishtirishdir. Biroq, ta'kidlash kerakki, taklif etilgan vatanparvarlik tizimi muayyan sharoitlarga qarab o'zgarishi mumkin. Har bir insonni o'z xalqiga, uning yeri tabiatiga, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analariga muhabbat va hurmatini tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon jamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi xaqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas.

O'sib kelayotgan yosh avlodni kichik yoshdan boshlab vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa his-tuyg'uga boy, o'ta ta'sirchan katta yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'quv mashg'ulotlarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish lozim va albatta maxsus tayyorgarlik talab etiladi.

**Adabiyotlar:**


1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2-jild. -T.: «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: «o'zbekiston», 1996.


## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLA TARBIYASIDA MILLIY O'YINCHOQ VA QO'G'IRCHOQLARNING ROLI


**O'tamurodova Shohida Muhammadqulovna (O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchi
**Ikromova Durdona Muxiddin qizi (O'zbekiston)**
Navoiy viloyati Karmana tumani 25-DMTT tarbiyachisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha talim tashkilotida o'yinchoqlarning turlari, milliy va zamonaviy qo'g'irchoqlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh davri, milliy o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoq.

**Аннотация**: В данной статье рассматриваются виды игрушек, народных и современных кукол в организации дошкольного образования.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, дошкольный возраст, национальные игрушки, кукла.

**Annotation:** his article discusses the types of toys, national and modern dolls in the preschool education organization.

**Key words:** Preschool education, pre-school age, national toys, doll.

O‘yinchoqlar – bu dunyoni o‘rganish uchun obyekt. O‘yinchoqlar bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his tuyg‘ularni shakllantirishda o‘yinchoq muhim ahamiyatga ega. Qo‘g‘irchoqlar qachondan boshlab yasalgani va qachondan boshlab tarbiya vositasiga aylangani aniq emas. Lekin olimlar eramizdan avvalgi 10 -11-asrlarda qo‘g‘irchoqlar mavjud bo‘lganini qayd etadilar.bizning fikrimizcha qo‘g‘irchoqlarning yasalishiga sabab aynan tarbiyavi zaruriyat bo‘lgan. O‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqiylikni o‘rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko‘lami ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita. O‘yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bular bolaning sensor qobilyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘yinchoq bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo‘ldosh quvonch banbayidir. O‘yinchoq bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi. Bugungi kunda hunarmandlarimiz tomonidan tayyorlanayotgan qo‘g‘irchoqlarga etibor qarataylik. Ushbu qo‘g‘irchoqlarning tashqi qiyofasida butun borliqni ko‘rish mumkun. Tayyorlangan kiyimlarida esa milliylikni aks ettirilishi bolada ota-onaga mehr uyg‘otishi tabiiydir.

Didaktik o‘yinchoqlar asosini – xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o‘ynasa bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma xil mozaykalar sensor qobilyatlarini rivojlantiradi.

Harakatli o‘yinlarga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar-suv, qum bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar, koptoklar, arg‘imchoqlar, chambaraklar va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolani jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

Musiqali va teatrlashtirilgan o‘yinchoqlar-bolalarning musiqaviy ohang va ritmi eshita olish qobilyatlarinini o‘stirishga yordam beradi.

Bundan 15 yil avval mamlakatimizga xorijdan “Barbi” atalmish qo‘g‘irchoq kirib keldi . Ko‘rinishidan ayol qiyofasini aks ettiruvchi o‘yinchoq bolaning sevimli ovunchog‘iga ham aylangan. Biroq go‘daklik davrida bola qanday o‘yinchoqqa oshno tutinsa, undan ruhiy ta’sir olar ekan. Shuning uchun bolalarga o‘zida go‘zallik, aqillilik kabi ezguliliklar ifodalagan o‘yinchoqlarni sovg‘a qilishga odatlanaylik.

O‘yinchoqlarda quyidagilar bo‘lmasligi kerak:

1. bolani tajovuzkor harakatlarga undash;
2. rollarini sheriklar (tengdoshlar va kattalar) o‘ynaydigan va syujet o‘yinchoqlari (qo‘g‘irchoqlar, hayvonlar) bo‘lgan o‘yin qahramonlariga (odamlar, hayvonlar) nisbatan shafqatsizlik namoyon bo‘lishiga olib keladi;
3. axloqsizlik va zo‘ravonlik bilan bog‘liq fitnalarni qo‘zg‘atish;
4. bolalik vakolatidan tashqari jinsiy masalalarga nosog‘lom qiziqish uyg‘otish.

Kichik yoshdagi bolaning eslab qolish qobilyati kuchli bo‘ladi. Bolalikda his-hayajon bilan idrok etilgan narsalar bir umr esda qoladi. Shuning uchun ham bolaga o‘yinchoq olib berishda e’tiborliroq bo‘lish lozim. Qiz bolalar uchun yumshoq o‘yinchoqlar, yoki bo‘lmasa o‘zbek milliyligi aks ettirilgan qo‘g‘irchoqalar sovg‘a qilish tavsiya etiladi. O‘yinchoqlar xilma-xilligi orasida rivojlanishga yordam berishning o‘rniga, psixikaning vayron bo‘lishiga va tarbiya buzilishiga olib keladigan o‘yinchoqlar ham mavjud. Masalan, qo‘rqinchli kiborglar, yuzlari bo‘yalgan, yarim-yalang‘och qo‘g‘irchoqlar, chandiqlari va so‘gallari bo‘lgan xunuk hayvonlar kabi o‘yinchoqlar shular jumlasidandir. Bu o‘yinchoqlarni olib berish umuman tavsiya etilmaydi. Og‘il bolalarga esa asosan o‘zbek xalq ertaklari qahramonlari va ularning tabiatiga mos bo‘lgan o‘yinchoqlarni sovg‘a qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o‘yinchoqning rangi, tuzilishiga ham e’tibor qaratish kerak. Och rangdagi o‘yinchoqlar bolaning kayfiyatini ko‘tarishga, uning yaxshi va xotirjam uxlashiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytganda. Bolajonlarga o‘yinchoq tanlayotganda juda ham e’tiborli bo‘lish zarur. Bolalarga o‘yinchoq tanlashda ularga qo‘yiladigan talablari tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratish zarur. Albatta, bolalarning qiziqishlarini chetda qoldirmasdan ularga maslahatlar berib o‘yinchoq tanlashda yordam berih kerak. O‘yinchoqlar bolalarning kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatishini unutmaylik. O‘yinchoqlarni yig‘ish emas, balki tanlash kerakligini unutmang. Esingizda bo‘lsin, har qanday, hatto eng yaxshi o‘yinchoq ham ota-onalar bilan jonli muloqotni almashtira olmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F. Qodirova “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2019-yil.
2. Muslimov N. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” Toshkent 2015
3. Musurmonova O. “Umumiy pedagogika” Toshkent 2020-yil.
4. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o‘ziga xosliklari. Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal).
5. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o‘ziga xos xususiyatlari. Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal).

## ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА БОЛАЛАРНИНГ ГЕНДЕР ФАРҚЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИНИ ИНОБАТГА ОЛИШ

**Мансурова Сурайё Равшановна (Ўзбекистон)**
Навоий давлат педагогика институти Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси,
**Ахматова Шахноза(Ўзбекистон)**
Навбаҳор туманидаги МТБга қарашли 4-сонли “Қалдирғоч” МТТ тарбиячиси
Моб.тел: (+998) 93 3118127; e-mail:mansurovasurayo208@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада мактабгача ёшдаги болалар билан ишлаш жараёнида яъни машғулотларда болаларнинг гендер фарқлари ва хусусиятларини инобатга олиб, педагоглар ўз фаолиятларини олиб бориш, болаларни бош мия яримшарлари гендер фарқларига боғлиқлигини англаган ҳолда эътибор қаратиш зарурлиги баён этилган. Шу билан бирга педагоглар таълим жараёнида болаларни гендер фарқларини ҳисобга олиб машғулотларни ташкил этишда педагогик ва нейропедагогик диагностика методларидан фойдаланиш бўйича ҳам таклифлар бериб ўтилган.

**Калит сўзлар:** гендер фарқлар, гендер хусусиятлар, педагогик ва нейропедагогик диагностик методлар, ўзига хосликлар, вербал хотира.

**Annotation:** The article describes the need for pedagogues to carry out their activities while working with children of preschool age, that is, in classes, taking into account the gender differences and characteristics of children, to pay attention to the fact that the cerebral hemispheres of the children depend on gender differences. At the same time, pedagogues were also given suggestions on the use of pedagogical and neuropedagogical diagnostic methods in the organization of activities taking into account the gender differences of children in the educational process.

**Keywords:** gender differences, gender characteristics, pedagogical and neuropedagogical diagnostic methods, peculiarities, verbal memory.

**Аннотация:** В статье излагается необходимость учета гендерных различий и особенностей детей в процессе работы с дошкольниками, т. е. на занятиях, на которых педагоги ведут свою деятельность, ориентируясь на детей с пониманием того, что полушария головного мозга зависят от гендерных различий. Вместе с тем, педагогами были высказаны предложения по использованию педагогических и нейропедагогических методов диагностики при организации обучения детей с учетом гендерных различий в процессе обучения.

**Ключевые слова:** гендерные различия, гендерные особенности, педагогические и нейропедагогические методы диагностики, идентичности, вербальная память.

**Кириш.** Мамлакатимизда келажагимиз пойдевори бўлган ёш авлод вакилларини ҳар томонлама соғлом ва етук қилиб вояга етказиш учун уларда илм-фанга қизиқишни уйғотиш, истеъдодни эрта аниқлаш ва ҳар томонлама – интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожланишлари учун шарт-шароитлар яратиш бўйича соҳа мутахассислари изланишлар олиб бормоқдалар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “...бутун таълим тизимининг ... энг муҳим вазифаси – ёш авлодга пухта таълим бериш, уларни жисмоний ва маънавий етук инсонлар этиб тарбиялашдан иборатдир”, - деб мазкур масалага алоҳида урғу берганлар [0,С-14]. Бу долзарб вазифаларни самарали амалга оширилиши педагог-олимлар зиммасига улкан масъулиятларни юклайди.

Хусусан, сўнгги йилларда таълим жараёнига инновацион усулларни қўллаш, ишлаб чиқилган ўқув дастурлари асосида болаларни тафаккури ва исътедодларини руёбга чиқариш жуда ҳам долзарб вазифалардан бўлиб келмоқда. Таълим-тарбия жараёнларида янгидан усул ва методлар қўллаш орқали болаларни комил инсон қилиб вояга етказиш муҳимдир, лекин шуни таъкидлаш жоизки, аввало болаларни гендер фарқлари ва хусусиятларини инобатга олиш зарур ҳисобланади. Чунки, болалар физиологик жиҳатдан бир-биридан фарқ қилади. Қиз болаларнинг эшитиш ва терида сезиш органлари ўғил болаларникидан кўра юзароқда жойлашган бўлиб, сензитивлиги билан фарқ қилади. Ўғил болаларга эътибор кўпроқ талаб этилади. Уларни психик ривожланиши учун эътиборли муҳит қўлланилади. Болаларнинг нейрологик хусусиятларини бош мия яримшарларга боғлиқлигини Дж.Гулямов ўз тадқиқотларида келтириб ўтган. Жумладан, қиз ва ўғил болаларда психик жараёнларнинг кечиши фарқи бош мия яримшарлари функцияларининг бир биридан фарқ қилишида эканилигини таъкидлаган [2, С-94].

**Асосий қисм.** Болаларга замонавий таълим бериш, уларни психик, ақлий ва ижтимоий фаол ривожлантириш учун, энг аввало, таълим олувчи шахсини ҳар томонлама ва чуқур билишга, унинг психофизиологик хусусиятлари билан бир қаторда нейрологик имкониятлари ҳамда ўзига ҳосликларини аниқлаб, таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда мана шу ўзига ҳосликларни ҳисобга олиниши муҳим аҳамиятга эга. Болаларнинг диққати ва хотирасининг хажми, уни кўчувчанлиги, маълумот ва ахборотларни қабул қилиш ва ўзлаштириш тезлиги, тасаввур қилиши ва англаши, “дунёни кўриши” билан бир-биридан фарқ қилади.

Тарбиячи-педагог ҳар куни болалар билан мулоқот қилади. Уларни кузатади, тинглайди, лекин билим ва малакалари яхшидек туюлсада, айрим болаларни билиш фаоллиги яхши эмаслиги ва муҳитга мослашувчанлиги жуда оғир бўладиган жараёнларни сезмаслиги ёки эътибордан четда қолиш, болаларни билимини ўсишида орқада қолиш кузатилади. Айниқса, ўқув дастурларини бошланғич, оралиқ ва якуний кузатиш орқали уларни ривожланган сифат кўрсатгичини аниқлаш мақсадида педагогик диагностига методлари орқали амалга ошириш жуда муҳим ҳисобланади. Чунки нотўғри қўйилган ташхис амалга оширилган ишларни бесамар кетишига олиб келиши, шу билан бирга оғирроқ муаммоларни юзага келтириши мумкин. Педагогик диагностика орқали болаларни билим ва кўникмаларини аниқлаб олиш энг аввало биринчи вазифаларимиздан бири ҳисобланади. Педагогик диагностика методларини қўллаш шахсни умумий ва индивидуал кўрсаткичларининг барча мураккаблигини умумий яхлитлигини ҳисобга олиниши, тарбияланувчиларни илгари ёки илк шаклланган фикрлари ва содир бўлган воқеаларга асосланиб баҳо бериш мумкин. Илмий тадқиқот ишларимизда олиб борилган катта гуруҳ тарбияланувчиларида элементар математик малакалари бўйича ўтказилган педагогик диагностика методларини келтириб ўтамиз.

**Методика. “Фигураларни ҳисобла!”** методикаси.




Ушбу методика 5-6 ёшли болаларга мўлжалланган бўлиб, болаларни математик тасаввурларини ривожланганлиги, ақлий тафаккури, хотирасини баҳолашни ўрганиш мумукин. Методикани ўтказиш. Болаларга алоҳида қилиб материаллар тақдим этилади ва тушунтирилади.Оғзаки жавоб олинади. Геометрик фигуралар рақамларга тенг эканлиги, шу рақамлар орқали номаълум геометрик фигураларни нечига тенг бўлишини топиш кераклиги айтилади.




**Натижани баҳолаш:**
80-100 балл- 1 дақиқада ва унгача етмай топса,
50-70 балл- бир ярим дақиқада топса,
20-40 балл- 2 дақиқада топса,
0-20 балл 2 дақиқадан ошиб кетса.
**Тараққиёт даражаси ҳақида хулоса:**

1. 80-100 балл – юқори,
2. 50-70 балл- ўртача,
3. 20-40 балл- паст даража.
4. 0-20 балл жуда паст даража.

Бундан кўринадики, болаларни билимларини ўзлаштирилганлик даражасини аниқ ва реал ташхис қилиш уларда бўладиган оғишларни кузатиш орқали бартараф этиш мумкин.

Шу билан бир қаторда болаларни гендер фарқлари ва хусусиятларини инобатга олган ҳолда таълим – тарбияни ташкил этилиши нейропедагогик жараён ҳисобланади. Юқорида таъкидлаганимиздек, қиз ва ўғил болаларнинг физиологик ривожланиши бир –биридан мутлақо фарқ қилади. Шу билан бирга маълумот ва ахборотларни қабул қилиш, узатиш ҳам кескин фарқ қилади. Ўқув маълумотларини болаларга “тушунарли бўлган тилда” берилиши учун уларнинг ҳар бирини бош мия яримшарларининг функционал ташкил этилишининг ўзига хосликларини билиш керак [3, С-66].

**Методика ва натижа**. Маълумки, ҳар бири кишининг жуфт органлари қўл, кўз, кулоқларининг иккинчисига қараганда яхшироқ ишлайди. Яъни бу яхши ва фаол ишлайдиган органи етакчи органи ҳисобланади. Етакчи органларининг қайси бири яхши ишласа, шу органнинг чап ёки ўнг ярим шарлари яхши ишлайди. Мана шу жуфт органларнинг етакчилиги ва уларнинг ўзаро комбинациясидан келиб чиқиб, инсон бош мия яримшарларининг ассиметриясининг бир қатор функционал типларини аниқлаш мумкин. Бу албатта нейропедагогиканинг вазифаларидан бири ҳисобланади. Машғулотлар жараёнларида болаларнинг қайси етакчи органлари фаол эканлигини аниқлаш мақсадида нейропедагогик диагностика методларидан фойдаланиб, болаларга тақдим этиладиган маълумот ва материалларни тайёрлаш жуда муҳим ҳисобланади. Етакчи органларни аниқлаш ав болаларни қандай хусусиятга эга эканлигини билиш мақсадида кўз, кул ва кулок аниқлаш методикасига тўхталиб ўтамиз. Етакчи қўлни аниқлаш: - болага ўйинчоқларни берсангиз қайси қўли билан биринчи олади, ёки бирон нарса ва предметларни қўл билан тахлашда қайси қўл кўпроқ ҳаракатни амалга оширса;

- Етакчи кўзини аниқлаш учун бирон тешик қоғозни орқасига расм қўйиб унга шу тешикдан қарашни айтасиз, қайси кўз етакчи бўлса биринчи шу кўз билан қарайди;

- Етакчи кулоқни аниқлаш учун дихотик тестдан фойдаланиш мумкин. Унда болага бир кулоғига сўзлар билан айтилган товуш, бир кулоғига қўшиқ, ёки ҳайвонлар овозини бирданига эшитириш орқали, сўнг нимани эшитганини сўралган нимани эшитгани сўралади. Мазкур етакчи органларни аниқлаштириш орқали болаларни қайси бош мия яримшарлари фаолроқ ишлашини аниқлаб олиш мумкин. Қиз болаларда кўп ҳолларда чап ярим шар яхши ривожланган бўлиб, ёзма ва оғзаки нутқни, хусни ҳатни, хисобни ва интуитив тафаккурини бошқариш учун маъсулдир.

Ўғил болалар бош мия яримшарлари бир-биридан кескин фарқ қиладиган аниқ вазифаларни бажарса, қизларнинг бош мия яримшарлари бажарадиган вазифалари қатъий чекланмаган бўлиб, нисбатан дифференциаллашган тарзда белгиланган, вербал хотира ва тафаккур ўғил болалардагига нисбатан ривожланганлиги сабабли вербал таълим нисбатан муваффақиятлидир, шу билан бирга қизларда, ўғил болалардагига нисбатан, синтез қилиш жараёни яхшироқ кечади.

**Хулоса**, ўрнида шуни айтиш керакки, таълим бериш жараёнида болаларни ҳар томонлама ва чуқур билиши, уларнинг психофизиологик хусусиятлари билан бир қаторда нейрологик имкониятлари ҳамда жиҳатларини ҳисобга олиш уларнинг интеллектуал ва ижтимоий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Чунки ҳар бир боланинг маълумот ва ахборотларни қабул қилиш ҳажми ва ишлаш тезлиги, хотира тизимининг устунлиги ва тафаккур қилиш жараёнлари билан бир-биридан фарқ қилгани сабабли, таълим олиш, атрофни тушуниши тафаккур қилиш жараёни бир-биридан фарқ қилади [4, С-3]. Шу сабабли таълим жараёнида бериладиган маълумот ва ахборотларни болалар тушунишлари ва англашлари учун нейропедагогика ҳолатларига таянган ҳолда ўқитиш технологияларни яратиш ва таълим жараёнига жорий этиш ҳар бир педагог-тарбиячидан маъсулиятни талаб этади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. – Б.14

2. Гулямов D.R,.Нурбоев Q.M ва бошқ. Нейропедагогика асослари. Ўқув қўлланма. Н,:-2020й. 66-бет

3. Гулямов Д.Р,Нурбоев Қ.М ва бошқ. Неропедагогика асослари. Ўқув қўлланма. Н,:-2020й. 94-бет.

4. Mansurova S.R Improving the educational process in preschool education as a pedagogical problem Asian Journal of Research in Social Scinces and Humanities. ISSN:2249-7315. Vol.12, 03.2022. SJIF 2022= 8.625/ DOI:10.59.58/2249-7315.2022.00120.4. www.aijsh.com.


## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT MAZMUNI


**Mamatova Charos Alisher Qizi (O'zbekiston)**

Navoiy, Karmana tuman maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi metodisti

**Alimova Mohira (O'zbekiston)**

Navoiy, Karmana tuman 7-son MTT tarbiyachisi



**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning o'ziga xos usullari xususidagi fikrlar keltirilgan.



**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, muhit, rivojlantiruvchi muhit, markazlar faoliyati, STEAM.



**Аннотация:** в данной статье представлены представления о конкретных методах организации развивающей среды в дошкольных образовательных организациях.



**Ключевые слова:** дошкольное образование, среда, развивающая среда, деятельность центров, STEAM.



**Abstract:** this article presents ideas about specific methods of organizing a developmental environment in preschool educational organizations.



**Key words:** preschool education, environment, developmental environment, activities of centers, STEAM.


Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunoyoda bolalarni erkin muhitda, mustaqil fikrli hamda ijodkor qilib tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatalarda, jumladan AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda bola shaxsiga qaratilgan ta'lim, ya'ni ta'lim markazida subyekt sifatida bolaning faoliyatini tashkil etish masalasi

bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta’lim shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta koʻrib chiqishni va bu jarayonda bola shaxsining rivojlanishi uchun qulay muhitni tashkil etishni taqozo etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli 2022-2026 – yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning berilgan 38-maqsadida Maktabgacha ta’limning qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022-2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024-2025-oʻquv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablagʻlarini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.[11]

Maktabgacha ta’lim tashkilotining koʻrgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga: milliy va mintaqaviy an’analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos boʻlishi lozim. Muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.Rivojlanish muhiti kattalar va bolalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda bogʻlovchi vositachi boʻlib xizmat qilishi kerak, bu yerda bola oʻz tajribasini boshqalar bilan baham koʻrishi, oʻz hayotini va oʻzini guruhda qurishi mumkin. Bu muhit ikkinchi uy boʻlishi kerak, u yerda bola quvonch bilan yurishni va iloji boricha uzoq vaqt qolishni xoxlashi lozim.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - can’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam oʻrganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, oʻz-oʻzini namoyon qilish asoslarini oʻrganishadi, oʻz navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi. Ushbu dasturni qoʻllash natijasida rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning oʻzlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda pedagog shunday faoliyat turlarini oʻylab topadiki, unda barchaga birdek koʻrsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda oʻzi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi.

Xulosa oʻrnida shuni ta’kidlash joizki, tadqiqotchilar ta'lim muhitini shaxsni shakllantiradigan shart-sharoitlar va shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlarning yigʻindisi ta'siri deb hisoblashadi va rivojlanayotgan ta'lim muhiti - bu shaxsning qobiliyatlarini ochish uchun imkoniyatlar yaratadigan psixologik-pedagogik sharoitlar tizimidir degan xulosaga kelishdi.[12] Demak, bola shaxsini rivojlantirishda uning ijtimoiy tajribasi va bilimlari manbai boʻlgan muhit asosiy vosita hisoblanadi.

**Adabiyotlar.**


1. Maxmutazimova.Y Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. “Tamaddun” 2022
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2022-2026 – yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022-yil 28-yanvar.PF-60.
3. КовалевюГ.А. Психологическое развитие ребенка и жизненная среда // Вопросы психологии. 1993. — № 1.
4. https://uz.scienceforming.com/10634211-what-is-a-domain-development-environment


[11] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2022-2026 – yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022-yil 28-yanvar.PF-60

[12] Ковалев Г. А. Психологическое развитие ребенка и жизненная среда // Вопросы психологии. 1993. — № 1.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРИЗ – ТЕХНОЛОГИЮ В СОВРЕМЕННОЙ ДОШКОЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

**З.Т. Жалолова (Узбекистон)** Зарафшанский ОДШО ГДОО №3 «Буратино» Поселок Даугызтау, Воспитатель

В настоящее время современному обществу нужны люди интеллектуально смелые, творческие, оригинально мыслящие, умеющие принимать нестандартные решения и не боящиеся этого.

Дошкольное детство - это тот особый возраст, когда ребенок открывает для себя мир, когда происходят значительные изменения во всех сферах его психики. Это возраст, когда появляется способность к творческому решению проблем, которые возникают в той или иной ситуации жизни ребенка. В то время, когда ребенок идет в первый класс, он должен уметь: видеть проблему и ставить вопросы, доказывать; делать выводы; высказывать предположения и строить планы по их проверке.

В дошкольном возрасте во время осуществления образовательной деятельности хотелось бы, чтобы дети получили только положительные эмоции. Поэтому нужен особый подход к обучению, который построен на основе естественного стремления ребенка к самостоятельному познанию окружающего.

В последнее десятилетие в Узбекистане в сфере дошкольного образования вышли в свет разные инновационные программы и технологии.

Современной и популярной педагогической технологий, является теория решения изобретательских задач «ТРИЗ», разработанная Генрихом С.А. Исходным положением концепции «ТРИЗ» по отношению к дошкольнику является принцип природной сообразности обучения. При обучении ребенка дошкольного возраста, педагогу необходимо идти от его природы.

В настоящее время приемы и методы «ТРИЗ» с успехом применяются в ДОО, для развития у детей творческого воображения и мышления, интеллектуальных способностей, изобретательской смекалки.

«ТРИЗ» – педагогика. Направление, раскрывающее сущность, цели, задачи процесса воспитания и обучения, основанных на общих законах теории решения изобретательских задач.

В основе ТРИЗ - педагогики стоят:

- методики и технологии, которые позволяют овладеть способами снятия психологической инерции;
- методология решения проблем, которая основана на законах развития систем, на общих принципах разрешения противоречий и механизмах приложения их к решению конкретных творческих задач;
- воспитательная система, которая построена на теории развития творческой личности (ТРТЛ).

Общими чертами этих технологий являются:

- направленность на формирование теоретических обобщений;
- идея развивающего воспитания и развивающего образования;
- использование в обучении проблемных задач;
- действенный подход в воспитании ребенка.

Целью использования «ТРИЗ» - технологии в дошкольной образовательной организации является развитие качеств мышления, как гибкость, подвижность, системность, диалектичность; с другой - поисковой активности, готовность к новизне; речи и творческого воображения.

В дошкольном возрасте очень важна мотивация детей. Применение методов и приемов «ТРИЗ» позволяет не только привлечь внимание детей, но и помогает дошкольникам прочно овладеть знаниями, а в дальнейшем грамотно их применять в жизни.

ТРИЗ - педагогика помогает воспитать у детей готовность самосовершенствованию. Для

детей старшего дошкольного возраста характерна эмоциональность, непосредственность, фантазия. Методы «ТРИЗ» и РТВ помогают научить детей проявлять свои знания.

«ТРИЗ» для дошкольников – это система коллективных игр, занятий,
не менять основную программу, а максимально повышать ее эффективность.

«ТРИЗ» - это управляемый процесс создания нового, соединяющий в себе точный расчет, логику, интуицию", так считали основатель теории Г.С. Альтшуллер и его последователи.

«ТРИЗ» учит детей творчески находить позитивные решения возникших проблем, что очень пригодится ребенку и в школе и во взрослой жизни.

Чтобы правильно организовать совместную деятельность с дошкольниками, педагог должен знать различные методы и приёмы, применяемые в «ТРИЗ».

Основные методы «ТРИЗ»:

1. Мозговой штурм - это постановка изобретательской задачи и нахождения способа ее решения. Этот метод позволяет развивать у дошкольников способность к анализу, стимулирует творческую активность, решения проблемы.

2. Синектика - это метод аналогий, который подразделяется на:

- личностную аналогию, которая предлагает ребенку представить самого себя в качестве какого-нибудь явления или предмета в трудной ситуации;

- прямую аналогию, которая основывается на поиске сходных процессов в других областях знаний;

- фантастическая аналогия, которая заключается в решении проблемы и осуществляется, как в волшебной сказке.

3. Морфологический анализ помогает обнаружить все возможные факты решения данной проблемы, которые при простом переборе могли быть упущены.

4. Метод фокальных объектов - к определённому объекту "примеряются" свойства и характеристики других, ничем с ним не связанных объектов.

5. Игры - «Хорошо или плохо», «Теремок» дают возможность научить детей находить существенные признаки в предметах, классифицировать предметы и явления по общим признакам, выделять противоречия в предметах, слушать и слышать ответы других, строить на их основе свои вопросы, точно формулировать свои мысли.

6. Метод «Системный анализ» помогает рассмотреть мир в системе, как совокупность связанных между собой определенным образом элементов, удобно функционирующих между собой.

7. Методика ММЧ (моделирование маленькими человечками) моделирование процессов, происходящих в природном и рукотворном мире.

8. Метод Робинзона (ресурсный подход) формирует умение находить применение, казалось бы, совсем ненужному предмету.

Технология «ТРИЗ» пользуется ещё многими методами и приёмами,
успешно, применяемыми способами в обучении дошкольников. Она позволяет развивать воображение, фантазию детей, позволяет преподносить знания в увлекательной и интересной для них форме.

Основным приемом работы с детьми является педагогический поиск.

Педагог не должен давать готовые знания, которые бы раскрывали перед ним истину, он должен учить ее находить. В том случае, если у ребенка возникает
вопрос, не стоит спешить помогать ему с ответом, а необходимо спросить его, что он сам об этом думает. Призвать его к рассуждению. И наводящими
вопросами подвести к тому, чтобы ребенок сам нашел ответ. Если же не задает вопроса, тогда педагог должен указать противоречие. Тем самым он ставит ребенка в ситуацию, когда необходимо найти ответ, то есть в какой - то мере повторить исторический путь познания и преобразования предмета или явления.

«ТРИЗ» работает на принципах педагогики сотрудничества, ставит

педагогов и детей в позицию партнёров, стимулирует создание ситуации успеха для детей, тем самым, поддерживая их веру в свои силы возможности,

интерес к познанию окружающего мира.

Таким образом, в данной статье можно отметить, что от того, как ребенок научиться ориентироваться в современном мире будет зависеть его

дальнейшая социализация, так как обществу нужны люди интеллектуально

смелые, самостоятельные, оригинально мыслящие, творческие, умеющие

принимать нестандартные решения и не боящиеся этого. Всему этому ребенок дошкольного возраста может научиться благодаря использованию педагогами «ТРИЗ» - технологии, которая обеспечивает создание эффективных условий для гармоничного развития личности. «ТРИЗ» способствует развитию наглядно - образного, причинного, эвристического мышления; памяти, воображения, воздействует на другие психические процессы.

## UCHINCHI RENESANS MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOSHLANADI

**Ibragimova Gulnora Musa qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy shahar 6 – DMTT

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sohasida yechimni kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berishi to‘g‘risidagi fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, ehtiyoj, tarbiyalanuvchi, intelektual, jismoniy, axloqiy, tarbiya.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы и неиспользованные возможности в сфере дошкольного образования, а также необходимость дошкольного образования для повышения общей грамотности дошкольников, привития детям чувства патриотизма, гордости, мировоззрения, выражено, что допускает расширение.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, потребность, воспитание, интеллектуальное, физическое, нравственное, воспитание.

**Annotation:** This article discusses the issues and untapped opportunities in the field of preschool education, as well as the need for preschool education to raise the general literacy of preschool children, to instill in children a sense of patriotism, pride, worldview. ideas have been expressed that allow for expansion.

**Keywords:** Preschool education, need, foster, intellectual, physical, moral, upbringing.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘grisida”gi qarori ushbu tizim faoliyatining yangi bosqichga ko‘tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz. Albatta, maskur masalaga e’tibor kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgani yo‘q ortga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘tgan 25 yillik mustaqillik davrida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta’limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo‘lmagan uzluksiz ta’lim tizimi shakllantirildi. Ya’ni yosh avlodning maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o‘rgatishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu borada, ayniqsa maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayorlash masalalari ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi.

Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intelektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatalar bilan tanishtirish bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to‘garaklar, ma’naviyat va ekalogiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an’analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan maskur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish,

ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlariga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'lim yo'nalishini yanada yuksaltirish shubhasiz pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarini zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muasasalariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvoffiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish shakllandi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi, u yerda bolalarning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlanib, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan; bu yoshda bolalar dunyoni anglaydi, o'z ota-onasiga, oilasiga, mahallasiga va Vataniga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib, shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-shaoroitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu yo'nalishda oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu – mutasaddi tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV bilan hamkorlikda prezidentimizning yangi qarori mazmun-mohiyatini, bolalarni erta yoshdan rivojlantirish ularni ijtimoiy moslashtirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining roli ahamiyatini aholi orasida yanada kengroq targ'ib qilish, chuqur tushuntirishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "Ozbekiston", 2017.
2. Xidoyatova D.A.Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish /monografiya. - Toshkent, 2014.
***3.*** Ziyonet.uz. sayti


## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA BOLALARNI UMUMIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI


**Xaydarova Shaxlo Narzullayevna (O'zbekiston)**
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
**Ibragimova Nodira Muso qizi (O'zbekiston)**
Navoiy shahar 6-sonli DMTT tarbiyachisi



**Annotatsiya:** Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari haqida ma'lumot berilgan.



**Kalit so'zlar:** shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, harakat strategiyasi, madaniy muhitavtoritardemokratlashtirisha'lim strategiyasi, ta'lim konsepsiyasi.



**Аннотация:** В статье представлена информация об общем развитии дошкольников на основе личностно-ориентированного обучения в дошкольных образовательных организациях.



**Ключевые слова:** личностно-ориентированное образование, стратегия действия, культурная среда, авторитаризм, демократизация, образовательная стратегия, образовательная

концепция.

**Abstract:** The article provides information on the general development of preschool children based on individual-oriented education in preschool educational organizations.

**Key words:** person-oriented education, action strategy, cultural environment, authoritarian, democratization, educational strategy, educational concept.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o‘z imkoniyalarini namoyon qila olishi uchun qulaylik yarata olishi, madaniy muhitni to‘laligicha o‘zlashtirishi va o‘zining barcha quvvatlarini ro‘yobga chiqarishi lozim.

Bugungi kunga kelib bola shaxsiga rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida bolaning ehtiyojlari insoniy munosabatlar ob’yekti sifatida faollashmoqda. Bu o‘zaro kelishuv, bir-birini tushunish, hamkorlik hamda qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ob’yektiv, sub’yektiv munosabatlar yig‘indisini har bir insonga xos bo‘lgan mustaqil qadriyatlar sifatida aniqlashga intilamiz.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari quyidagilarda aks etadi:

- ✓ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish orqali bolalarni umumiy rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning umumiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda pedagogik yordam ko‘rsatishning mavjud darajasi va shart-sharoitlariga tayanish;
- ✓ bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga tayanilgan holda maktabgacha ta’lim-tarbiyani jarayonini tashkil etish, bu jarayonda bolalarning sub’yekt sifatida namoyon bo‘lishlarini ta’minlash, ularni har tomonlama rivojlantirishga erishish, umumiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ustuvor maqsadga aylantirish;
- ✓ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar birinchi navbatda tarbiyachining pedagogik qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlarini hisobga olish;
- ✓ bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni umumiy rivojlantirish jarayonining mazmunini bolaning qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlash va amalga oshirish.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiyalanuvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Mashg‘ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalar talablari asosida o‘quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda ta’lim samaradorligi, asosan tarbiyalanuvchining o‘qitish, tarbiyalash jarayonidagi o‘rni, tarbiyachining unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda bola pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunda butun ta’lim tizimi, shu jumladan, o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

**Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:**

- ✓ pedagogik jarayonda shaxs ob’yekt emas, sub’yekt hisoblanadi;
- ✓ har bir bola qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;
- ✓ yuqori yetuk qadriyatlar (sahiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

**Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- bola va tarbiyachining huquqlarini tenglashtirish;
- bolaning erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabatining asosi: ta’qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi,

rivojlanishini susaytiradi, unda so‘zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

**Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:**

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;
- bolalarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- guruh orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minlash.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta’lim tizimida mashg‘ulotdan tarbiyalanuvchiga emas, tarbiyalanuvchidan mashg‘ulot tomonga harakatlanishni taqozo etadi. Ta’lim oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

**Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:**

- o‘rtacha tarbiyalanuvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

**Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:**

- har bir ta’lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Tarbiyachida barcha ta’lim oluvchilar iste’dodli degan ishonch bo‘lishi kerak;
- bolaga yutuqni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni bilim olishdan qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;
- bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchiga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. “Bolalarning shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta'sirini ta'minlaydigan rivojlanish muhiti mustaqillikning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Agar bola o‘z qiziqishlarini, ehtiyojlarini bemalol anglasa, o‘z xohish-irodasini namoyon qilsa, uning faoliyati kuchli motivatsiyaga ega bo‘ladi, u hissiy jihatdan to‘yingan va psixologik jihatdan qulaydir”.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Shuni unutmaslik kerakki, kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, tarbiyachi va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. “Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta’limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi”.

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi.

Maktabgacha davr – bu bolada motivatsiya, o‘z-o‘zini namoyon etish, barpo qilish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi.

Ta’lim strategiyasi maktabgacha ta’limning yuqori sifatini kafolatlashi kerak. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurish-yasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Yoshi bo‘yicha “kichik inson” shaxs sifatida rivojlanadigan bir qancha faoliyat turlari o‘yin tariqasida olib boriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uning keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta’minlash maqsadida muassasada ijobiy psixologik mikroklimat va sharoit yaratishni belgilaydi.

Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvdir. To‘g‘ri yo‘sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo‘yishga tayyor bo‘ladi.

Xulosa qilganda, bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanib ishlayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar an’anaviy dastur bo‘yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo‘ladilar. Chunki bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda bolaga yaxlit shaxs sifatida qaraladi, unda tana, aql, hissiyot va ijodkorlik mujassamdir, shu bilan birga shaxsiy tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi ham inobatga olinadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**


1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
3. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
4. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001.
5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.


## МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ГЕНДЕР ФАРҚЛАРИНИ ҲИСОБ ОЛИБ ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ


**Сурайё Мансурова (Ўзбекистон)**
Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази,
Мактабгача, бошланғич ва махсус таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси
e-mail:mansurovasurayo208@gmail.com
**Мақсуда Баракаева, Гулноза Жалолова (Ўзбекистон)**
Навоий шаҳар 34 МТТ тарбиячилари



**Аннотация.** Ушбу мақолада таълим технологияси сифатида индивидуаллаштирилган ёндашувлар масалалари муҳокама қилинади. Мақолада кўп қиррали таърифлар берилган, ушбу ёндашувларни аниқлаш бўйича турли нуқтаи назарларга тўхталиб ўтилади. Муаллиф ушбу ёндашувларнинг ўзига хос хусусиятларини очиб беради. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўзгарувчан таълим эҳтиёжлари ва уларни амалга ошириш жараёни таълим технологияларига, айниқса, индивидуаллаштирилган ёндашувлардан фойдаланишга эътиборни кучайтиришни талаб қилади.



**Калит сўзлар:** педагогик жараён, индивидуаллаштирилган таълим технологияси, пейропедагогик диагностика, психофизиологик функциялар, индивидуал латерация профили, жуфт орган, етакчи орган.



**Annotation.** This article discusses the issues of individualized approaches as an educational technology. The article provides a multifaceted definition, addressing different perspectives on defining these approaches. The author reveals the specific features of these approaches. In conclusion, it can be said that changing educational needs and the process of their implementation require increased attention to educational technologies, especially the use of individualized approaches.



**Keywords:** pedagogical process, individualized learning technology, peiropedagogical diagnosis, psychophysiological functions, individual lateration profile, double organ, leading body



**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы индивидуализированного подхода как образовательной технологии. В статье дается многогранное определение, в котором рассматриваются различные точки зрения на определение этих подходов. Автор раскрывает специфику этих подходов. В заключение можно сказать, что изменение образовательных потребностей и процесс их реализации требуют повышенного внимания к образовательным

технологиям, особенно использования индивидуализированных подходов.

**Ключевые слова:** педагогический процесс, индивидуализированная образовательная технология, пиропедагогическая диагностика, психофизиологические функции, индивидуальный профиль латерации, парный орган, ведущий орган

Кириш. Ўтган давр мобайнида мамлакатимизда ўсиб бораётган авлодни соғлом ва ҳар томонлама етук вояга етказиш, таълим-тарбия жараёнига самарали таълим ва тарбия шакллари ҳамда усулларини жорий этишга қаратилган мактабгача таълимнинг самарали тизимини ташкил этиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, болаларнинг сифатли мактабгача таълимдан тенг фойдаланишини таъминлаш, мактабгача таълим хизматларининг нодавлат секторини ривожлантириш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3955-сон Қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида мактабгача таълимда фанларни ривожлантирувчи муҳитнинг инновацион технологиялари ва модулларини ишлаб чиқиш, мактабгача ва умумий бошланғич таълим изчиллигининг мазмун ва процессуал компонентларини оптималлаштириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш зарурлиги келтириб ўтилган [1]. Мазкур вазифаларни амалга ошириш ҳамда амалиётга жорий этиш мақсадида соҳа мутахассислари олдига катта маъсулият юклайди.

Асосий қисм. Мактабгача таълим ташкилоти катта гуруҳ тарбияланувчиларида таълим ва тарбия фаолияти нафақат ўзлаштирилган билимларни маълум даражада ўқитиш ва шакллантиришга, балки индивидуал қобилиятлар доирасида қўйилган педагогик мақсад ва вазифаларга мувофиқ уларнинг мустақил ишларини ривожлантиришга қаратилган. Бундай ҳолда, педагогик жараён нафақат касбий кўникма ва билимларни шакллантиради, балки шахснинг ўзини ўзи барча қобилиятларни ривожлантириш имкониятларини рўёбга чиқаришга ҳисса қўшади ҳамда табиатан инсонга берилган имкониятларини амалга оширади. Машғулотлар жараёнида таълим бериш орқали тарбия ҳам билим ва кўникмаларни индивидуаллаштириш муҳим жиҳат бўлган ўқув жараёнида шаклланади [4;205Б].

Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ва дифференциаллаштириш муаммолари XX асрдан бошлаб хорижий манбаларда рус олимлари, П.П. Блонский, И.И. Резвитский, Б.М. Тепловой, И. С. Якиманская ва бошқалар ўз фикр ва тавсияларини берган. Тақдим этилган ёндашувларнинг таърифларини кўриб чиқиш керак. Масалан, И.П. Подласий педагогиканинг энг муҳим тамойили индивидуал ёндашув ҳамда таълимда индивидуаллаштириш масаласи муҳим эканлигини ёзади, унинг фикрича, инсоннинг шахсий хусусиятлари ва яшаш шароитларини чуқур билишга асосланади ва инсон ривожланишини бошқариш зарурлиги тўғрисида тавсниф беради. Бундан кўринадики, Тарбиячи-педагогик таъсир кўрсатиш шакллари ва усулларининг индивидуал хусусиятларига мослашишни инобатга олиш зарурлиги бу эса шахс ривожланишининг прогнозланган даражасини таъминлашга қаратилган бўлиши керак деган хулоса келади.

Рус педагоги И.С.Якиманскаянинг фикрига эътибор қаратадиган бўлсак, таълим жараёнининг асосий психологик-педагогик принцип сифатида кўриб чиқилиши керак бўлган индивидуал ёндашув асосида, тарбияланувчининг ўзига хослиги машғулотларда намоён бўлиши билан кўринади. Айнан шу индивидуаллик унинг психофизиологик кечувчи жараёнлар билан ўзаро боғлиқлигини инобатга олиш муҳимлигини айтади [7;96Б].

Мактабгача таълим ташкилотларида катта ёшдаги болалар билан таълим-тарбия жараёнлари ягона дастур асосида методик нуқтаи назардан тўғри амалга оширилади. Ушбу йўналишда ҳал этилиши керак бўлган муаммолардан бири – болалар маълумотларни турлича қабул қилсалар-да, кўп ҳолларда уларга бир хил таълим берилишидир [4;206Б]. Тарбиячилар мактабгача таълим ташкилотларида катта гурух болаларини мактабга тайёрлаш ва улар билан ўқув машғулотларини самарали ташкилаштиришлари учун болаларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олишлари зарур. Бунинг учун эса улар нейропедагогик диагностика методларини билишлари ва амалда қўллай олишлари керак бўлади.

Нейропедагогик диагностикада ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг моҳиятини тушуниш учун дастлаб уларни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаб диагноз (ташхис) қўйилади. Олинган

натижаларга асосланиб, содир бўлиши мумкин бўлган салбий оқибатларнинг олдини олиш, ижобий жиҳатларни шакллантириш ва ривожлантириш чоралари белгиланади. Бунда диагностика натижаларининг объективлиги масаласи муҳим саналади. Чунки нотўғри диагностика мутахассиснинг барча ҳаракатларини бекор кетишига сабаб бўлиш билан бирга, мавжуд муаммони бартараф этиш имкониятини йўққа чиқариб, бошқа, янада оғирроқ муаммоларни юзага келтириб чиқариши мумкин [6;84Б] .

Индивидуаллаштирилган таълимга ёндашув, биринчи навбатда, ижобий фазилатларни мустаҳкамлаш ва камчиликларни бартараф этишга қаратилган. Кўникма ва ўз вақтида аралашув билан қайта ўқитишнинг исталмаган, оғриқли жараёнидан қочиш мумкин. Индивидуаллаштирилган ёндашув тарбиячи-педагог ва болалардан катта сабр-тоқатни, хулқ-атворнинг мураккаб кўринишларини тушуниш қобилиятини талаб қилади [8;855Б].

Бундай ҳолларда таълим усуллари - бу тарбиячи ва болаларнинг таълим муаммоларини ҳал қилишга қаратилган ўзаро боғлиқликдаги фаолияти усулларига қаратилган бўлиши керак. Биз тавсия қилган “Синтезланган ҳикоя” ўқитиш технологияси болаларнинг гендер фарқларидан келиб чиқиб тафаккур стратегияларини ҳисобга олган ҳолда ўқув маълумотларини тақдим этишга асосланган. Технологиянинг асосий мақсади – маълумотларни болаларнинг гендер фарқларидан келиб чиқиб тафаккур стратегияларини ҳисобга олган ҳолда тақдим этиш йўли билан таълим жараёнини индивидуаллаштириш.

Яримшарлар функсионал асимметриясини ҳисобга олган “Синтезланган ҳикоя” технологияси амалиётда фойдаланиш болаларнинг гендер хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда улар бош мияси яримшарларидан қайси бирининг етакчи эканлигини ҳисобга олиб маълумотларни ҳавола қилинишига асосланган.

Хулоса, мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган таълим жараёнида гендер фарқлари ҳисобга олинган индивидуаллаштирилган таълим технологиясини қўллашдан олдин ҳар бир педагог-тарбиячи нейропедагогик диагностика орқали ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг моҳиятини тушуниш учун дастлаб уларни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаб ҳамда диагноз (ташхис) қўйиш зарур. Олинган натижаларга асосланиб, содир бўлиши мумкин бўлган салбий оқибатларнинг олдини олиш, ижобий жиҳатларни шакллантириш ва ривожлантириш чоралари белгиланади. Педагогик диагностика орқали МТТда ўғил ва қизларни ўзига хос бўлган таълим-тарбияни жорий этишга эришиш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. www.lex.uz
2. Еремеева В. Д. Дидактические принципы системы Л.В.Занкова глазами нейропсихолога. URL: http://www.zankov.ru/about/theory/article=106
3. С.Мансурова. Mutual relationship between the gender dofferences and functional assymetre of the head's half lubes of children.International Journal of Social Sciences & Inter disciplinary Research.Vol.1.No.02 (2022). ISSN ONLINE:2277 3630. 205-211
4. С.Мансурова. Мактабгача таълим ташкилотларида таълим жараёнини янада такомил.педагогик муаммо сифатида. Innovative educational, natural and social sceienes.Vol-2.www.oriens.uz/ISSN 2181-1784,SJIF2021:5.423.
5. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. – Москва: «ТЦ СФЕРА», 2003. — С.201с. — 288 с. (www.e-puzzle.ru
6. Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М., Педагогика, 1988. 84-бет
7. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Педагогика, 1996. – 96

# ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

**Мейлиева Нафосат Гуломовна (Узбекистан)**
Навоийского государственного педагогического института преподаватель кафедры дошкольного образования
**Насиба Кенжаевна (Узбекистан)**
Студентка 1-курса, направлени «Дошкольное обраование» НГПИ

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены основные требования, которые предъявляются на сегодняшний день к современным педагогам, работающим в дошкольном образовательном учреждении, а также навыки, умения личные качества, которыми должен обладать педагог, работающий с детьми дошкольного возраста.

**Ключевое слово:** педагог, самопознания, саморазвития, самообразования, компетентностного, общекультурная, допрофессиональная, рефлексивность, смыслотворчество, избирательность, автономность.

**Abstract:** This article discusses the basic requirements that are presented today to modern teachers working in a preschool educational institution, as well as the skills and personal qualities that a teacher working with preschool children should have.

**Keyword:** teacher, self-knowledge, self-development, self-education, competence-based, general cultural, pre-professional, reflexivity, meaning-making, selectivity, autonomy.

Во-первых, для того, чтобы понять сущность профессионально-педагогической деятельности, ответить на «вечный» вопрос: кто есть педагог? Ответ на этот вопрос позволяет прогнозировать результаты педагогической деятельности: каким становится подрастающий человек, насколько он будет успешен и здоров в реально существующей социокультурной среде?

Во-вторых, для того, чтобы заново переосмысленные особенности педагогической профессии находили адекватное отражение в процессах подготовки будущих педагогов, выступая ориентирами их личностно-профессионального становления.

В-третьих, понимание сущности педагогической профессии, знание и осмысление ее профессиональных характеристик помогает человеку, относящемуся к данной профессиональной группе, грамотно осуществлять процессы самопознания и саморазвития, самообразования и самостановления.

Поэтому объективно отражающая потребности общества и удовлетворяющая потребности человека, существующего в этом обществе, профессионально-педагогическая деятельность и исследования, с ней связанные, будут всегда современны.

Каждая педагогическая задача связана с максимальным раскрытием в ребенке его уникального потенциала, развития индивидуальности в определенных условиях, а это требует соответствующего подхода к ее решению, который во многом зависит от самого педагога, его личностного потенциала, раскрывающегося в процессе взаимодействия с учащимися и определяющего успешность их саморазвития.

Таким образом, в современных условиях профессиональная деятельность педагога претерпела изменения, связанные с ее структурированием как процесса решения профессионально-педагогических задач.

Другой предпосылкой появления компетентностного подхода можно считать концепцию образованности. Образование в данной концепции — «это процесс формирования опыта решения значимых для личности проблем на основе использования социального и осмысления собственного опыта обучаемых. Образованность — индивидуально-личностный результат образования, качество личности, которое заключается в способности самостоятельно решать проблемы в различных областях деятельности, опираясь на освоенный социальный опыт»

Уровень образованности — это уровень развития способности решать проблемы в различных сферах деятельности. Существует три уровня образованности: элементарная грамотность, функциональная грамотность и компетентность.

Выделено три вида компетентности учащихся системы общего образования: общекультурная, допрофессиональная, методологическая.

Наличие названных предпосылок позволяет определить, что под *профессиональной компетентностью* педагога понимается интегральная характеристика, определяющая способность или умение решать профессиональные проблемы и типичные профессиональные задачи, возникающие в реальных ситуациях профессионально-педагогической деятельности, с использованием знаний, профессионального и жизненного опыта, ценностей и склонностей.

Профессиональная компетентность педагога сочетает в себе ключевые, базовые и специальные компетентности.

***Ключевые*** компетентности необходимы для любой профессиональной деятельности, они связаны с успехом личности в быстро меняющемся мире. Они проявляются прежде всего в способности решать профессиональные задачи на основе использования:

· информации;

· коммуникации, в том числе на иностранном языке;

· социально-правовых основ поведения личности в гражданском обществе.

***Базовые*** компетентности отражают специфику определенной профессиональной деятельности. Для профессиональной педагогической деятельности базовыми становятся компетентности, необходимые для «построения» профессиональной деятельности в контексте требований к системе образования на определенном этапе развития общества.

***Специальные*** компетентности отражают специфику конкретной предметной или надпредметной сферы профессиональной деятельности. Специальные компетентности можно рассматривать как реализацию ключевых и базовых компетентностей в области учебного предмета, конкретной области профессиональной деятельности.

Очевидно, что все три вида компетентностей взаимосвязаны и развиваются, в определенном смысле, одновременно, «параллельно», что и формирует индивидуальный стиль педагогической деятельности, создает целостный образ специалиста и в итоге обеспечивает становление профессиональной компетентности как определенной целостности, как интегративной личностной характеристики педагога.

Какие же задачи призван решать современный педагог? Это пять основных групп задач, опыт решения которых характеризует базовую компетентность современного педагога:

1. видеть ребенка (ученика) в образовательном процессе;

2. строить образовательный процесс, ориентированный на достижение целей конкретной ступени образования;

3. устанавливать взаимодействие с другими субъектами образовательного процесса, партнерами образовательного учреждения;

4. создавать и использовать в педагогических целях образовательную среду (пространство учреждения);

5. проектировать и осуществлять профессиональное самообразование.

Опыт решения перечисленных групп профессиональных педагогических задач дает возможность воспитателю обеспечить реализацию идей обновления.

Таким образом, компетентностный подход к профессионально-педагогической деятельности позволяет рассматривать педагога как человека умеющего профессионально решать проблемы и типичные задачи, возникающие в реальных ситуациях профессиональной деятельности. Сам же профессионализм в решении проблем и задач педагогической деятельности определяется прежде всего субъектной позицией педагога и умением использовать свой образовательный, профессиональный и жизненный опыт.

Субъектная позиция педагога как особое развивающееся качество его личностной позиции:

· характеризует ценностное, инициативно-ответственное отношение к профессиональной деятельности, ее смыслу, целям и результатам;

· выражается в умении ориентироваться в имеющихся профессиональных возможностях, в желании видеть и определять свои личностно-профессиональные проблемы, находить условия и варианты их решения, оценивать свои профессиональные достижения;

· проявляется в различных сферах жизни, и прежде всего в профессиональной деятельности;

· выступает предпосылкой и показателем профессиональной компетентности.

Субъектная позиция проявляется в таких личностных качествах, как рефлексивность,

смыслотворчество, избирательность, автономность, что позволяет рассматривать их как необходимые, т. е. обязательные качества современного педагога-профессионала.

Современный воспитатель дошкольного образовательного учреждения — это человек, умеющий профессионально решать проблемы и типичные задачи, возникающие в реальных ситуациях профессиональной деятельности. Основой профессионализма педагога дошкольного образования является наличие у него субъектной позиции, которая базируется на таких личностных качествах, как рефлексивность, смыслотворчество, избирательность, автономность.

В контексте компетентностного подхода к профессиональной деятельности воспитателя детского сада задачи его деятельности выглядят следующим образом.

1. Видеть ребенка в образовательном процессе ДОУ — *диагностические задачи,* решение которых позволяет воспитателю:

· знать индивидуальные особенности и возможности ребенка;

· учитывать их в образовательном процессе ДОУ;

· отслеживать характер изменений, происходящих с ребенком в ходе образовательного процесса в условиях детского сада, характер его продвижения в развитии;

· определять эффективность влияния реализуемых педагогических условий.

2. Строить образовательный процесс, ориентированный на достижение целей дошкольного образования — задачи педагогического проектирования и организации образовательного процесса, содействующего целостному развитию здорового ребенка-дошкольника.

3. Устанавливать взаимодействие с другими субъектами образовательного процесса, партнерами ДОУ — задачи взаимодействия с профессионально-педагогическим и культурным сообществом.

4. Создавать и использовать в педагогических целях образовательную среду (пространство дошкольного образовательного учреждения) — задачи проектирования и организации развивающей образовательной среды детского сада как одного из эффективнейших условий, инициирующих процессы развития и воспитания ребенка.

5. Проектировать и осуществлять профессиональное самообразование — задачи развития субъектной позиции воспитателя, обогащения профессиональной компетентности.

**Литература.**

1.Ройтблат О. В. Неформальное образование педагогических работников: вчера, сегодня, завтра // Вестник ТОГИРРО. 2014. — № 2(29). Гладкова Ю, Соломенникова О. Индивидуальный маршрут непрерывного профессионального образования и развития педагога // Журнал «Дошкольное воспитание», 2018. № 3. Стр. 69–76.

2.Куликова, М. В. Современный педагог ДОУ/ М. В. Куликова. Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2020. № 6 (296). Стр-205-206. — URL: https://moluch.ru/archive/296/67237/ (дата обращения: 22.08.2023).

## ZAMONAVIY O‘QUV JARAYONINI TALQIN ETISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA CHET TILLARNI O‘QITSHNING AHAMIYATI

**Narmuradova Rayhon Uktamovna (O‘zbekiston)**
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta’limda va ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitishning ahamiyati, metodikaning o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari xususidagi fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, zullisoniylik, chet tili, metodika, metodlar, vzifalar, ta’lim tizimi, oliy ta’lim, maktabgacha ta’lim.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается значение обучения иностранным языкам в дошкольном образовании и образовательной системе, роль методики и ее особенности.

**Ключевые слова:** язык, культура, иностранный язык, методика, методы, обязанности, система образования, высшее образование, дошкольное образование.

**Abstract:** this article discusses the importance of teaching foreign languages in preschool education and the educational system, the role of the methodology and its specific features.

**Key words:** language, culture, foreign language, methodology, methods, duties, educational system, higher education, preschool education.

Dunyoning barcha burchagida boʻlganidek, Oʻzbekiston hududida ham, ona tilidan tashqari oʻzga xalqlar tillarini bilish kishilar orasida qadimdan taomil boʻlgan. Birdan ortiq tilni bir yoʻla bilish tarixi mukammal oʻrganilmagan ijtimoiy hodisaligi ma’lum. Biroq tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlardan aniqlanadiki, barcha zamonlarda chet tilni oʻrganish ehtiyoji sezilib turgan. Buyuk mutafakkirlikning birinchi mezoni zullisoniylik yoki koʻp tillilik (poliglossiya) hisobdanadi, oddiy xalqqa ham bu belgi xosdir. Bolalikdan oʻzbeklar tojik tilini[2], tojiklar oʻzbek tilini egallashi qadimdan an’ana boʻlgan.

Oʻzbekistonda chet til oʻqitish tarixi birmuncha tadqiq etilgan. Metodist Rimma Aleksandrovna Zaripova respublikada chet til oʻqitish tarixini olti davrga ajratgan. Xorijiy tillarni oʻrgatish boʻyicha kelajak uchun mustahkam poydevor boʻladigan yangi tizimni yoʻlga qoʻyish vaqt-soati keldi - deydi oʻzlarining ma’ruzalarida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Oʻzbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam boʻlmagan, dunyo ta’lim standartlari darajasiga toʻliq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli boʻlishi shartdir.

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo boʻladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma’nosini anglatadi. Chet til oʻqitish metodikasi ta’lim dargohlarida nima uchun oʻqitiladi, degan savolga chet tilni amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda oʻrganadilar, deb javob qaytarish mumkin. Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma — topshiriq boʻlib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi. Chet til ta’limi maqsadlari metodik adabiyotlarda keng muhokama qilinib kelinadi. Oʻtgan asr oltmishinchi yillarining ikkinchi yarmiga kelib, amaliy, ta’limiy va tarbiyaviy maqsad terminlari davr talabiga muvofiq sharhlab berildi.[1] Saksoninchi yillarda uchala nomga qoʻshimcha rivojlantiruvchi maqsad[3] termini paydo boʻldi. Ushbu tushuncha-terminning chuqur tahlili sermahsul metodistlardan proffessor Galina Vladimirovna Rogova[4] tomonidan amalga oshirilgan.

Chet til oʻqitish metodikasining fan sifatida oʻz nazariyasi, amaliyoti va tarixi bor. Chet til oʻqitish mazmunining ham ta’lim mazmuni tarkibiga kiruvchi ilmiy kategoriyasi, oʻz nazariy va amaliy tomnlari, tarixiy manbalari boʻlib, tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Ta’lim mazmunini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, chet til oʻqitish mazmunining nazariy tomonlari metodist olimlar tarafidan faol tekshirilib kelinsada, mazkur metodik tushuncha turlicha talqin etilmoqda. Oʻquv jarayonida nimani oʻrgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarning turli, koʻpincha bir-biriga qaramaqarshi fikrlari izohlab kelinmoqda. Chet til oʻqitish mazmunining tarkibiy qismlarini tadqiq etish muhim nazariy izlanishlar sirasiga kiradi. Oʻqitish mazmuni qanday qismlardan tashkil topishi oʻqitish maqsadlariga uzviy bogʻliq holda hal etiladi. Maqsad odatda mazmunni belgilaydi, ya’ni mazmun ta’lim chogʻida oʻzlashtiriladigan oʻquv-metodik hodisa boʻlsa, uning mahsuli erishiladigan maqsad sari olib boradi. Chet til oʻqitishning amaliy maqsadi (nutq faoliyati turlarini egallash)da muayyan til materialini qoʻllash hamda til birliklari nutq koʻnikma va malakalarining shakllanishida ishtirok etishida aniq chegaralar qoʻyish kabi metodik jumboqlar yechiladi.

Chet tillarini oʻrganish – davr talabi. Shuning uchun ham uni oʻrganishni maktabgacha ta’lim tashkilotlaridandanoq boshlash kerakligini mutaxassislar koʻp bora ta’kidlashayapti. Ingliz tilini bolaga 4-7 yosh oraligʻida oʻrgatish va bunda har bir darsni oldindan mavzularini belgilab olish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, bola zerikib qolmasligi uchun ingliz tilini oʻqitishda, oʻyin, jismoniy daqiqa, qoʻshiq aytish va she’r yodlash kabi usullardan foydalanish mumkin. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish tavsiya etiladi. Buning uchun esa avvalo tarbiyachining oʻzi tayyor boʻlishi lozim.

Metodika institut (universitet)da berilgan bilimlar yigʻindisi bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti tajribasi orasidagi, “koʻprik” vazifasini oʻtovchidir. Ma’ruza va amaliy mashgʻulotlarda chet til oʻqitish qonuniyatlari bayon etiladi, metodika faniga ta’limning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi. Talaba metodika kursini oʻtar ekan, uch toifa mashgʻulotda ishtirok etadi: Oliy oʻquv yurti dasturi asosida ma’ruzalar majmuyini tinglaydi, amaliy-metodik saboqlar oladi va oʻquv-tarbiya (pedagogika) amaliyotidan oʻtaydi. Birinchi ikkala mashgʻulotlarda ilm bilan mashgʻul boʻlishadi va uchinchi ish turida dars berishadi va darsdan tashqari tadbirlar oʻtkazishadi. Shuning uchun aynan metodikadan foydalaniladi. Metodikada nima uchun? (ta’lim maqsadi), nimani? (ta’lim mazmunini), qanday qilib? (ta’lim metodlari va prinsiplari asosida) hamda kimga? oʻrgatish haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar chet tilidagi nutqning g'ayrioddiy tovushlari, bolalar uchun g'alati so'zlar va iboralar va ona nutqi bilan tasodifiy uyushmalar tufayli shaxsiy psixologik to'siqlarga duch kelishlari mumkin. Ta'lim faoliyatida muvaffaqiyatga erishish o'quvchilarga shaxsiy-insonparvarlik yondashuvidan foydalanishga imkon beradi. K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi. Olimning yozishicha, chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Birinchi maqsad – til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish. Ikkinchisi esa, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tomonlama rivojlantiradi. Uchinchi maqsad – shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirisha olish. Keyingisi esa, shu xorijiy mamlakat odamlari bilan bemalol o'zlarining tillarida xat yozisha olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kishilik jamiyatida insonlar bir qator tillarni bilishga intilganlar va unga ehtiyoj sezganlar. XX asr tilshunosligining mashhur namoyondalaridan biri Yevgenit Dmitriyevich Polivanov 46 tilni mukammal bilgan, o'zbek tili va shevalarini o'rganib tahlil qilgan holda do'ppi-chopon kiyib, "Men o'zbekman, familiyam Polvonov" deb o'zbeklar orasida o'zbekday yurgan olim sanaladi. Yoki Jor Smit -BMT sobiq bosh tarjimoni 10 dan ziyod tillarda erkin muloqot qila olgan. U har yili bir mamlakatning tilini o'rganishga harakat qilgan. Ma'lum bo'lishicha, ilmiy pedagogikada chet tilini o'rgatish masalalari bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlari XX asrning birinchi yarmida shakllangan. Bu sohada ilk bor mutaxassis X.R.Xyuzaning "Chet tilini o'rganish psixologiyasi" nomli kitobi tahsinga loyiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J.Jamolov. Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2012.
2. А.Ю.Якубовский. Тимур и его время. — В кн. „История народов Узбекистана", том I, часть VII, глава I. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950.
3. Г. В. Рогова, И. Н. Верещагина. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. — М.: Просвещение, 1988.
4. Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе. / Под ред. И.В.Рахманова, А.А.Миролюбова, В.С.Цетлин. — М.: Просвещение, 1967.

## BOLA HAYOTIDA ERTAKLARNING AHAMIYATI. BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARINING ROLI

**Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna (O'zbekiston)**
NavDPI 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maskur maqolada bola hayotida ertaklarning ahamiyati haqida, bolani rivojlanishi va tarbiyasida xalq ertaklarining roli, bolaning xulq-atvorini salbiylikdan, ijobiylikka o'girishi va bolani hayotga tayyorlashdagi eng asosiy vosita sifatida belgilanishi, ertak orqali bolalarni Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini o'stirish haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** bola, ertak, tarbiya, yaxshilik, yomonlik, qahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, rivojlanish, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, qobiliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение сказок в жизни ребенка, роль народных сказок в развитии и воспитании ребенка, поворот поведения ребенка от негативного к позитивному, а также основной инструмент подготовки ребенка на всю жизнь, определяется как основной инструмент подготовки ребенка к жизни.

**Ключевые слова:** ребенок, сказка, воспитание, добро, зло, героизм, доброта, человечность, патриотизм, трудолюбие, честность, развитие, мышление, память, внимание, воображение, способности.

**Abstract:** This article examines the importance of fairy tales in a child's life, the role of folk tales in the development and upbringing of a child, the turn of a child's behavior from negative to positive, as well as the main tool for preparing a child for life, defined as the main tool for preparing a child for life.

**Key words:** Child, fairy tale, education, good, evil, heroism, kindness, humanity, patriotism, hard work, honesty, development, thinking, memory, attention, imagination, abilities.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim va tarbiya sohasida oid amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib so‘ngi yillarda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.Uzluksiz ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta`lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuning 3-moddasida asosiy tushunchalar sifatida: Maktabgacha ta’lim va tarbiya- bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turidir [1] degan fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli Qarori1-ilovasiga ko‘ra: dastur-muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydilar, deb takidlangan[2].

Bola hayoti davomida ertak bilan hayotni taniydi, unga butun maktabgacha yoshda hamroh bo‘ladi va abadiy saqlanib qoladi. Ertak tufayli bola tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadi, oddiy vazifalarni bajaradi va intellektual rivojlanadi.

Bolaga ertak o‘qib bergandan so‘ng u yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, ahmoqlik va topqirlikning mavjudligini tushunadi. Shuningdek, to‘g‘ri tanlangan ertak ota-onalarga inqirozli vaziyatlarni engishga yordam beradi. Barcha ertaklarda axloq bor, u orqali siz bolaga qiyin vaziyatdan chiqishga yordam berishingiz mumkin. O‘qib bo‘lgach, qahramonning ishi va harakatlarini muhokama qiling. Ijobiy belgilar eng yaxshi tomonlarga ega: mehnatsevarlik, zukkolik, mehribonlik,halollik,go‘zallik.

Jamiyatda to‘g‘ri xulq-atvorning poydevori, muloqot qilish qobiliyati go‘dakda juda erta yoshdanoq yaxshi afsonalarni o‘qiyotganda qo‘yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘pchiligining yosh xususiyatlari tengdoshlari bilan muloqot qila olmaslik, o‘yinchoqlarni baham ko‘rishni istamaslik, qiyin vaziyatda do‘stiga yordam berish, tajovuzkorlikka moyillikdir. Kichkintoylar hali ham bir-birlarini qanday his qilishni, qo‘llab-quvvatlashni bilishmaydi. Zero, maktabgacha yoshda shaxsning axloqiy fazilatlari shakllanadi. Kattalarning vazifasi bolani atrofidagi dunyoga befarq qolmasligi uchun tarbiyalashdir. Ertaklar insonning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda foydali asosdir. Unda inson va tabiatning yaqinligi, odamlarning qanday munosabatlari va hissiyotlari borligi, yaxshilik va yomonlikni qanday ajratish mumkinligi ko‘rsatilgan. Bolani fikrlashga, qaror qabul qilishga o‘rgatadi, tasavvurni rivojlantiradi. . Ertaklardan foydalanish bolalarning qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.Ertakdan foydalanib, bolalarga ta'lim-tarbiya berishda yuqori natijalarga erishish mumkin[3].

Qadimdan ma’lumki ota-bobolarimiz, farzand tarbiyasiga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelganlar. O‘g‘il-qizlarimiz ezgulikka intilib o‘ssin, farzandlarimiz el-u yurt koriga yaraydigan, komil inson bo‘lib ulg‘aysin, deb ularni kitob o‘qishga undaganlar, bir-biridan qiziqarli hikoya, ertak va rivoyatlar so‘zlab berishni zinhor kanda qilmaganlar. Negaki, ertaklarda yaxshilik ulug‘lanadi, yovuzlik, qoralanadi. Masalan: ”Qosim lofchi”ertagida Qosim yolg‘on gapirib, pand yeyishi, yolg‘on ortidan ketma-ket tashvishlar kelishini eshitgan bolalar yolg‘on-yomon odat ekanligini bilishadi va yolg‘on gapirmaslikka harakat qiladi. Shunday ekan, bolalarning tarbiyasida ertakning foydasi kattadir. Bolaning hayotida ertak qanchalik muhim? Bu savolga javob izlar ekanmiz. Multfilimlardan misol qiladigan bo‘lsak, “Zumrad va Qimmat” multfilimida bola tarbiyasiga ta'sir qilishini tahlil qilamiz. Bolalar ushbu multfilimni tomosha qilar ekan, unda faqat bitta Zumrad va Qimmatni bir xil ko‘rinishini biladilar. Bu esa, bolaning fikrlashi, o‘ylashi sust bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Ertak eshitayotgan bolaning ongi va fikrlash doirasi keragicha ishlaydi. Yuqorida aytilganidek, multfilimda faqat bir xillik ko‘rinsa, ertaklarda esa aksincha, ertaklarni eshitib borayotgan bolalar o‘zicha
o‘ylaydilar. O‘zini Zumradini, Qimmatni ong ostida gavdalantiradi. Bu esa bolaning fikrlash doirasini kengayishiga juda katta samara beradi[4].

Ertak -xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri: to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg‘ariyning ”Devonu lug‘otit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida

cho‘pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyibg‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi.

Bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadigan janrlardan biri xalq ertaklaridir. Ertaklarda qahramonlarning ijobiy va salbiy sifatlari ancha aniq ifodalangan. Ularda ijobiy qahramon har doim g‘olib bo‘ladi va yovuz odam o‘z aybini tan olib, yaxshi bo‘ladi yoki ko‘pincha jazolanadi. Anatoliy Vasilyevich Lunacharskiyning ertagida yozilganidek, “haqiqat eshitiladi”. Bu oddiy xalqning orzu-umidlari, umidlari ertaklarda aks etgan haqiqatdir. Ertaklardagi birorta ham inson jinoyati qasossiz qolmaydi. Va bolalar buni juda yaxshi tushunadilar va eslashadi. Agar kattalar bolaga ertak o‘qiyotganini ko‘rsangiz, bolaning butun hissiyotlar ichida o‘tirganini ko‘rishingiz mumkin. U ertakni diqqat bilan, chalg‘itmasdan tinglaydi, qayerdadir quvonadi, qayerdadir qahramon haqida qayg‘uradi, hayratda qoladi va hokazo. Bir so‘z bilan aytganda, bola bu ertakda yashaydi, har bir ijobiy qahramonning rolini o‘ynaydi, u bilan o‘zini bog‘laydi[5].

Xalq ertaklari o‘z xususiyatlariga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi:
hayotiy ertaklar;
hayvonlar haqidagi ertaklar;
sehrli-afsonaviy ertaklar;
ijtimoiy-maishiy ertaklar.

Xalq ertaklarida el-yurtni ko‘z qorachig‘iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug‘lanadi, ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi, uzoq masofalar yaqin qilinadi, kishiar xarakteridagi yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari ulug‘lanadi.

Ertak aytuvchilarni qadimda “ertakchi”, “matalchi» deb atashgan. Ertaklaming xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, mubolag‘a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E’tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g‘alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydilar.

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Biz yoshligimizdan ertaklar mamlakatida sayr qilishni orzu qilganmiz. Shoir Hamid Olimjon aytganidek:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko‘p ertak eshitgandim.
So‘ylab berardi buvim.
Esimda o‘sha damlar,
O‘zi uchar gilamlar [7].

Ertak yaxshilikning yovuzlik ustidan g‘alabasiga ishonchni ekadi. Kichkina bola, bir qator sinovlardan so‘ng qahramon quvonch va baxt bilan taqdirlanganini ko‘radi. Bu hayotda muvaffaqiyatga faqat yaqinlarning sa'y-harakatlari va yordami bilan erishish mumkinligini aniq ko‘rsatib turibdi. Ana shunday rahm-shafqat, insoniylik, samimiylik tug‘iladi.Inson hayotida ertak qanchalik erta paydo bo‘lsa, qalblarda mehr-oqibat, adolat, halollikni mustahkamlash imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Shunday qilib, ezgulik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg‘on, ishq va nafrat, xohish va burch o‘rtasidagi axloqiy tanlovlarning cheksiz oqimida biz o‘sib kelayotgan avlodni ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalashga intilamiz. Bu fazilatlar bolalarning go‘zal va munosib hayot kechirishiga yordam beradi.

**Adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qarori.
3. Matrizayeva B.S. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida ertaklarning

ahamiyati” Ta’lim fidoyilari. ISSN:2180-2130 VOL.1,ISSUE 1 IYUN(2022).
4.Tojiboyeva G.A. ‘‘Bolalar tarbiyasida ertakning o‘rni’’ 2022.
5. Zaporojets A.V. Maktabgacha yoshdagi bolaning adabiy asarni idrok etish psixologiyasi: tanlangan psixologik asarlar. - M.: Ma'rifat, 2003. - 66 b.
6.https://fayllar.org/ertak-deb-nimaga-aytiladi-ertaklar-qanday-turlarga-ajraladi.html 15.04.2022.
7.https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs- ishi/item/13793-o-zbek-xalq-ertaklari

## UCHINCHI MING YILLIKNING ZAMONAVIY O‘QUV JARAYONINI TALQIN QILISHDA ILMIY INTEGRATSIYA

**Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi (O‘zbekiston)**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti1-kurs magistranti

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada Uchinchi ming yillikning zamonaviy o‘quv jarayonini talqin qilishda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida rivojlangan markazlar integratsiyasini ta`minlash samaradorligi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta'lim, integratsiya,,ilmiy integratsiya rivojlantiruvchi markazlari.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об эффективности интеграции передовых центров в дошкольных образовательных организациях в интерпретации современного образовательного процесса третьего тысячелетия.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, интеграция, центры развития научной интеграции

**Annotation:** This article provides information on the effectiveness of providing integration of advanced centers in preschool educational organizations in the interpretation of the modern educational process of the third millennium.

**Key words:** pre-school education, integration, scientific integration development centers.

Respublikamiz Prezidenti: Biz uchun bolalarimizning ma’naviyati, bilimi, sog‘ligi eng muhim masala deb ta`kidlaydilar .Davlatimiz rahbari joylarga tashrifi chog‘ida yosh avlod tarbiyasining birlamchi va muhim bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’lim tizimini yuksaltirish, bog‘chalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni mohir pedagoglar bilan ta’minlash, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Uchinchi ming yillikning zamonaviy o‘quv jarayonini talqin qilish bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta`minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi..

«Uchinchi ming-yillikning bolasi» tayanch dasturi asosida maktabgacha ta`lim tashkilotlarida zamonaviy o‘quv jarayonini talqin qilishda, ilmiy integratsion yondashish maqsadida rivojlantirish markazlari tashkil etildi.

Ta`limni ilmiy integratsiyalashning asosiy maqsadi bolaning dastlabki o‘quv jarayonidan boshlab aqliy salohiyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirishdir. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.Bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Bu jarayonda esa maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama erkin fikrlash
ko‘nikmalari shakllandi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida 5 asosiy rivojlantiruvchi markazlar faoliyat olib bormoqda:

- Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi

- Til va nutq markazi
- Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi
- Ilm, fan va tabiat markazi
- San’at markazi

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan rivojlanish markazlari ta`limni, rivojlantiruvchi, o‘qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Integratsiya – o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuv hisoblanib , maktabgacha yoshdagi bolalarda aloqadorlik ta’minlangan sharoitda egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Integratsiya g‘oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Rivojlangan davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya, Gong Kong davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan. O‘zbekistonda ham rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta`lim tashkilotida ta`lim sifatini oshirish ishlarini olib muhim masala.

Uchinchi ming yillikning zamonaviy o‘quv jarayonini talqin qilishda Maktabgacha ta`lim tizimida ilmiy integrativ yondashuv asosida rivojlantirish markazlarini tashkil etish har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashni rivojlantiradi va aynan shu rivojlanayotgan ta’lim asosida yotadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Toshkent sh., 2019-yil 13-may, 391-son
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qaroriga ilova.
3. Hasanova,G. (2021). Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni.Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
4. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotidagi o‘yin: maktabgacha ta'lim muassasalari Tarbiyachilari uchun qo‘llanma. ta'lim / E. A. Panko [va boshqalar]; ed. Ya. L. Kolominskiy, E. A. Panko. - 2-nashr. - Mazyr: Oq shamol, 2014-2016. - 184 b
5. Koseniuk, R. R. Maktabgacha ta'lim muassasasining rivojlanayotgan muhitini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar: dasturiy ta'minot va uslubiy yordam / R. R. Koseniuk [va boshq.] / 2007/2008 o‘quv yilida maktabgacha ta'limning ko‘p funktsiyali tizimi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari. Belarus Respublikasi Ta'lim vazirligining 2007-2008 o‘quv yili boshiga maktabgacha ta'lim muassasalari uchun uslubiy tavsiyalari // Praleska. - 2007. - No 7. - B.15-16


## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJTIMOIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH


**Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi (O‘zbekiston)**
NavDPI, 1-kurs magistranti



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasi maktabgacha yoshdagi (6-7yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari, kompetentli bola, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy kompetensiya, uning o‘ziga xos xususiyatlari va uni shakllantirish usullari yoritib berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim tashkiloti, 6-7 yoshli bola, kompetensiya, kompetentli bola, kompetensiyaviy yondashuv,ijtimoiy kompetensiya, vosita, usul.



**Анноатция:** В данной статье раскрываются понятие компетентности, основные компетенции ребенка дошкольного возраста (6-7 лет), компетентного ребенка, компетентностный подход к обучению дошкольников, социальная компетентность, ее характеристики и методы ее формирования.



**Ключевые слова:** Дошкольная образовательная организация, ребенок 6-7 лет,

компетентность, компетентный ребенок, компетентностный подход, социальная компетентность, инструмент, метод.

**Abstract:** This article reveals the concept of competence, the basic competencies of a preschool child (6-7 years old), a competent child, a competency-based approach to teaching preschoolers, social competence, its characteristics and methods of its formation.

**Key words:** Preschool educational organization, child 6-7 years old, competence, competent child, competence-based approach, social competence, tool, method.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim va tarbiya sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib, so'ngi yillarda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasidagi eng yangi yondashuvlar va uning ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim va tarbiya berish hamda qulay shart sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ''Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash'' to'g'risidagi 802-sonli qarori tasdiqlandi[13].Qarorga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va eng so'ngi yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya berish kabi muhim jihatlar e'tirof etilgan. Shu jumladan takomillashgan ''Ilk qadam'' davlat o'quv dasturining III-bobi ''Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv'' deb nomlangan. Bu dasturda keltirilgan kompetensiyalarning barchasi bolaning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishida juda muhim hisoblanadi.

V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko'ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv bolaning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko'rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi[14].

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berish jarayonida kompetensiya asosida yondashilsa, kutilgan natijaga erishish tez va samarali amalga oshadi. Shular jumlasiga, ayni shu yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini ham kiritishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvi- bu uning ijtimoiy muhitda o'z shaxsiyati va boshqalarning ichki hissiyotlarini anglash, jamiyatning madaniy an'analariga muvofiq dunyoga his-tuyg'ulari va munosabatlarini ifodalash qobiliyatidir.

''Ilk qadam'' davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan.

***Kompetensiya*** – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir[15]. ***Kompetentli bola***- o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar[16] va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari:

- ✓ Kommunikativ
- ✓ Ijtimoiy
- ✓ Shaxsiy ( ''Men'' konsepsiyasini qurish )
- ✓ Bilish

***Ijtimoiy kompetensiya***- bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar.Ular tobora ko'proq o'zlarini guruhning bir

---

[13]O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash'' to'g'risidagi 802-sonli qarori

[14] Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

[15] O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun „Ilk qadam'' davlat o'quv dasturi

qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Bolalar boshqalar bilan uyg‘unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo‘llab-quvvatlay oladilar.

Bundan tashqari ijtimoiy kompetensiya bolalarda turli faoliyat jarayonida paydo bo‘lgan savollarga to‘laqonli javob topishiga yordam beradi. Ijtimoiy muhit bolaning ehtiyojlarini qondirish va tajribalar o‘tkazish uchun juda muhimdir. Buyuk yunon olimi Demokrit fikricha ‘‘Bola uchun hayotdagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynan shular bolani foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi’’.[17]

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, bolaning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:




Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi muammolari pedagogika va yosh psixologiyasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi, chunki uning muvaffaqiyati insonning jamiyatdagi faol vazifa sifatida faol qobiliyatini belgilaydi. Sotsializatsiya darajasidan sotsializatsiya jarayonining dastlabki bosqichlarida o‘z ijtimoiy muhitining to‘la va teng ishtirokchisiga aylanish uchun zarur bo‘lgan normalar va nuqtai nazarlarni assimilyatsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalar qanday qilib uyg‘unlashishiga bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvining yo‘llari va vositalari bevosita rivojlanishning yoshiga bog‘liq bo‘lib, yetakchi faoliyat turi bilan belgilanadi. Yoshga qarab, bolaning shaxsiy rivojlanishidagi asosiy vositalar quyidagilardan iborat:

- dastlab bolalar uchun eng muhimi, oiladagi muloqotdir. Bu oila munosabatlari va tashqi dunyo haqidagi asosiy ma'lumotlarni o‘zlashtiradigan va ularni assimilyatsiya qilayotgan, xatti-harakatlarning namunalarini shakllanadigan prizma orqali amalga oshiriladi;
- keyinchalik bolalar o‘z komandasida muloqot qilish kerak. Shu sababli, shaxsan muloqotning to‘liq imkoniyatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni bolani erta rivojlanish guruhlariga, bog‘larga olib borish muhimdir. U yerda bolalar o‘zlari bilan muloqot qilishni o‘rgandilar, bir-biriga jamiyatda yashashning oddiy me'yorlarini o‘rgatadilar, misol uchun do‘st bo‘lish kerak, do‘stlar doim bir-biriga mehribon va birdam bo‘lishi kerak va hokazo.

3 yoshdan 7 yoshgacha bolani dunyoga tanitishda asosiy vosita - bu o‘z nutqidir: u savollar berish, suhbat qurish va og‘zaki ma'lumotni tahlil qilishni o‘rganadi[18].

Mariya Montessori ta’biricha ‘‘Bolalarga hamma narsani ularni o‘rab turgan muhit o‘rgatadi’’. Demak ijtimoiy muhit yaxshi bo‘lsa, bolaning rivojlanishi ham yaxshi kechadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yoshidagi (6-7 yosh) bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakillantirish va ularni ijtimoiy muhitga moslashtirishda muloqat juda muhim hisoblanadi. Bola qanchalik ko‘p kattalar va tengdoshlari bilan muloqatda bo‘lsa, jamoada birga harakat qilsa muhitga shunchalik tez moslashadi. Barcha kompetensiyalar birdaniga shakillanib rivojlanib qolmaydi, ularning rivojlanishi albatta yoshga qarab asta-sekin amalga oshib boradi. Ayni 6-7 yoshli

---

[17] Ijtimoiy ish etikasi Toshkent-2015.

[18] Maktabgacha yoshdagi bolalarni sotsializatsiya qilish (tierient.com)

bolada ijtimoiylashuv jarayoni biroz tezlashadi, sababi bu yoshdagi bolalarda fikrlash doirasi ancha keng, muloqatchanlik esa ancha teranlashgan bo‘ladi.

Mavjud vaziyatlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki bolani ijtimoiylashtirishda ota-onalar va tarbiyachilarning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun bugungi kunda ota-onlar va ayniqsa tarbiyachilarga katta ma’suliyat yuklatilayapdi. Ular qanchalik chuqur bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lsa bolalarimizdagi rivojlanish ham shu darajada yuqori bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasi ’’Ilk qadam’’ davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
2. Axmedova M.T. Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sotsializatsiya qilish (tierient.com)
4. Ijtimoiylashtirish jarayonida shaxsiyatni rivojlantirish bosqichlari - Salomatlik haqida ma'lumot - 2023 (croceazzurramodugno.com)

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 5-6 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHI
### (Farzandingiz iqtidorli bo‘lsa! Ota-onalar uchun maslahat)

**S.A.Xalilov (O‘zbekiston)**
NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Аннотация.** Ushbu maqolada bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 5-6 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida oila va bog‘cha xodimlarining hamkorlikdagi ish faoliyati yoritib o‘tilgan.

**Калит сўзлар:** Dunyoqarash, qobiliyat, his - tuyg‘u, muloqot, ijtimoiy ko‘nikma, g‘urur, tarbiya yangi taassurot, intellektual harakat, musiqiy faoliyat, mantiqiy tafakkur.

**Аннотация.** В данной статье освещен один из наиболее актуальных вопросов современности - совместная работа семьи и работников детского сада по социально-эмоциональному развитию детей 5-6 лет, воспитывающихся в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** Мировоззрение, способности, эмоции, общение, социальные навыки, гордость, образование, новые впечатления, интеллектуальная деятельность, музыкальная деятельность, логическое мышление.

**Annotation.** In this article, one of the most urgent issues of today, the cooperative work of family and kindergarten workers in the socio-emotional development of 5-6-year-old children educated in pre-school educational organizations is highlighted.

**Key words:** Worldview, abilities, emotions, communication, social skills, pride, education, new impressions, intellectual activity, musical activity, logical thinking.

Agar farzandingiz barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik, o‘z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi - bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan etarli darajada e’tibor berish kerakligini talab etadi. Iqtidorli bola quyidagi xususiyatlarni ham o‘zida mujassam etadi: ijodiy, original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadi; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik; boy tasavvurga ega (ijodiy, tasviriy, musiqiy faoliyatda namoèn bo‘ladi); ko‘p hollarda o‘z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqotga intiladi. Ba’zida esa ota-onalarni farzandlarining o‘z tengdoshlariga o‘xshamasligi, boladagi o‘ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtièq xavotirga soladi. Bolaning xatti-harakatlari qat’iy va noan’anaviy bo‘lsa, masalan, ―Nimaga?‖, ―Nima uchun?‖ kabi savollarni ko‘p bersa ba’zida ota-onalar bu savollarga javob berishga qiynalsalar, bolalarga tanbeh berishlari, va hattoki, uni jazolashlari mumkin. Bunday holatlarda ota-onalar boladagi ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish o‘rniga uni so‘ndiradilar. Iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ular farzandlarining barcha sohalarda birinchi bo‘lishi kabi hohishlarini ta’kidlaydilar. Masalan, ona ―mening farzandim qobiliyatli bo‘lsa-yu, nima uchun o‘qishni hohlamaydi?- degan savolni berishi mumkin. Ba’zida shunday holatlar bo‘ladiki, ota-onalar bolani

haddan tashqari biror bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg‘otishi mumkin, chunki ayni vaqtda bola boshqa mashg‘ulotlarga qiziqayotgan bo‘lishi mumkin. Biror muddat vaqt o‘tsa, bolaning o‘zi ixtiyoriy ravishda bu mashg‘ulotga qiziqib qoladi. Psixologlar shuni ta’kidlaydilarki, agar uzoq vaqt iqtidorli bolaning intellektual yoki harakat ehtiyojlari qondirilmasa, bu bolaning his-tuyg‘ulariga putur etkazishi va nevroz holatlariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari iqtidorli bolalarning ota-onalari ba’zida qizim yoki o‘g‘lim o‘z tengdoshlarini o‘zib o‘tib, masalan 7 yoshida 3-sinfda o‘qishlariga intilish to‘g‘rimikan, degan savol bilan murojaat etadilar. Har bir holat o‘ziga yarasha noyobdir, lekin shu o‘rinda bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvi haqida unutmaslik kerak. Axir u boshqa, o‘zidan katta bolalar tomonidan qanday qabul qilinishi ma’lum emas-ku. U yakkalanib qolmasmikan? Bolangizning boshqalar bilan muloqotiga va muloqotning ijtimoiy ko‘nikmalarini korreksiya qiluvchi guruhiy o‘yinlar bilan band bo‘lishlariga ko‘proq ahamiyat bering. Bunday o‘yinlarni o‘tkazishda faqatgina bilish jaraènlarining rivojlanishiga ahamiyat bermasdan, balki boshqa bolalar bilan birgalikda harakat qilishlariga ham e’tibor berish kerak.

Iqtidor bilish, o‘quv, ijodiy, badiiy, harakatli faoliyat sohalarida namoyon bo‘ladi. Iqtidorli bolaning o‘quv faoliyatdagi yutuqlari uning erta yoshdan o‘qishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Ba’zida bolalar 3-4 yoshida, kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda o‘qiy boshlaydi. Bola kitoblarni tomosha qilishi, rasmlar asosida hikoya tuzishi, harflarni yozishi, kattalar o‘qiètganda uzoq vaqt sabr bilan tinglashi, o‘z yoshiga mos bo‘lmagan matematik amallarga qiziqishi, matematik belgi va ishoralarni tushunib eslab qolishi, ba’zida tabiatga, tabiiy fanlarga qiziqishini ham namoyon qilishi, turli predmetlarning kelib chiqishi va ularning vazifasi haqida savollar berishi mumkin. Badiiy faoliyat sohasida bola o‘zini ertaroq namoyon etadi: erta rasm chizishni boshlaydi, ko‘p vaqtini, masalan plastilindan turli narsalarni yasashga ajratadi, bunda o‘zining mohirligini namoyish etish orqali, ranglar, kompozitsiyalarni to‘g‘ri tanlay oladi. Shuningdek, musiqaga ham erta qiziqish paydo bo‘ladi, musiqiy tovushlarni ajrata oladi.

Harakatlantiruvchi sohadagi iqtidor bolada turli harakatlarni bajarish,. ya’ni yugurish, sakrash turli akrobatik mashqlarni bajarish, muvozanatni saqlay olishda namoyon bo‘ladi. Bola turli yoki bitta sohada iqtidorli bo‘lishiga qaramay, mana shu tabiat tomonidan berilgan qobiliyatni o‘z vaqtida aniqlab, uning rivojlanishiga yordam berishimiz kerak. Agar farzandingiz iqtidorli bo‘lsa, u holda:

- uning qiziqishi, ijodkorligini, fikrlar originalligini qo‘llab-quvvatlang;
- bolani hech qachon biror bir narsani noto‘g‘ri bajarding deb koyimang;
- bolaning o‘z sevimli mashg‘ulot yoki o‘yin turini tanlashiga va o‘z fikrini baèn etishiga imkon bering;
- bola sizga emas Siz unga moslashishingiz kerakligini unutmang;
- tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda yordam bering;
- o‘zi kabi har tomonlama rivojlangan do‘stlari bo‘lishiga ahamiyat bering;
- bolangizning har doim ham g‘olib bo‘lishiga ortiqcha intilmang, aks holda boshqa bolalar, tengdoshlari uni yomon ko‘rib qolishlari mumkin;
- uni haddan tashqari maqtamang, iqtidorli ekanligini o‘zining oldida gapirmang;
- boladan har doim va hamma sohada birinchi bo‘lishini, maktabda esa a’lochi bo‘lishi kerakligini talab qilmang (chunki maktabda a’lo baholarga o‘qish har doim ham iqtidorli bo‘lishga bog‘liq emasligi isbotlangan).

-bolaning yutuqlarini emas balki uni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishingizni doimo farzandingiz his etsin;

-hech qachon bolaga boshqalardan yomonroqsan deb ayta ko‘rmang, uni boshqa bolalar bilan taqqoslamang;

-bolaning har bir savoliga imkon qadar rost va sabr bilan javob berish lozim;
-har kuni farzandingiz bilan yolg‘iz qolish uchun vaqt ajratishga harakat qiling;
-bolani faqatgina tengdoshlari bilangina emas balki kattalar bilan ham erkin va bemalol muloqot qila olishga o‘rgating;

-u bilan g‘ururlanishingizni ta’kidlashdan uyalmang;

-bolaga nisbatan o‘z hissiyotlaringizni baholashda rostgo‘y bo‘ling;

-bolaga har doim rost , agar bu siz uchun foydasiz bo‘lsa ham;

-bolani aybi uchun jazolamoqchi bo‘lsangiz (masalan, biror bir narsani sindirib qo‘ysa yoki kiyimini iflos qilib kelsa) unga ayni vaqtdagi aybi uchun tanbeh bering;
-kuch bilan bolaga ta’sir o‘tkazmang, majbur qilish bolaning ma’naviy tarbiyasiga, shaxsini rivojlanishi uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

-bolangiz xato qilishga haqli ekanligini tan oling;

-bolaning yodida faqat baxtli onlar muhrlanib qolishiga harakat qiling;
-kattalar bolaga qanday munosabatda bo‘lishsa, bola ham o‘ziga xuddi shunday munosabatda bo‘ladi;

-hech bo‘lmaganda ba’zi-ba’zida bolaning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring, ana shundagina bolaga qanday munosabatda bo‘lishingizni anglab etasiz.

Farzandlarimizning tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta’sir etadigan quyidagi fikrlarga kundalik turmushimizda amal qilsak, kelajak avlodning mustaqil fikr egasi, ma’nan va aqlan barkamol bo‘lib etishishiga, davlat va jamiyatimizning ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga erishamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari.T, O‘zPFITI, 2000. Tuzuvchi mualliflar:M.Rasulova, H.Abdurahmonova va boshqalar.

2. «Bolalar bog‘chasida ta'lim-tarbiya dasturi» - Toshkent 1993 y.Tuzuvchi mualliflar:L.Mo‘minova, M.Ayupova, S.Karimova.

## SADRIDDIN AYNIY ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI

**Sh. Hikmatullayev (O‘zbekiston)**
NavDPI Magistranti
**Ilmiy rahbar R. Rajabov (O‘zbekiston)**
NavDPI dotsenti

**Annotatsiya.** Olamni ob’yektiv yo sub’yektiv talqin etishda ijodkorni voyaga yetkazgan ijtimoiy, ruhiy-psixologik jarayonlarning ta’siri o‘z izini qoldiradi. Xolislik ijodkor uchun yaxshi fazilat. Har qancha xolisonalik bo‘lsa-da, tarixiy voqelik baribir ijodkor xarakteri, tafakkuri va qalbi "tahriri"dan o‘tib, muayyan bir asar shakliga kiradi. Ijodkorning xarakteri, tafakkuri, qalbi esa uni qurshab kelgan muhit va sharoitning "havosidan nafas oladi".

**Kalit so‘zlar:** eski maktab. Mutasiblik, Navodirul vaqoye, Realizm, Mahallibolo, chorakor,

**Annotation.** In the objective or subjective interpretation of the world, the influence of the social, spiritual and psychological processes that brought the artist to adulthood leaves its mark. Objectivity is a good quality for an artist. Regardless of the objectivity, the historical reality is "edited" by the character, thinking and heart of the creator and enters into the form of a certain work. The character, thinking, and soul of the creator "breathes the air" of the environment and conditions surrounding him.

**Keywords:** are old school. Accountability, Navodirul event, Realism, Mahallibolo, quarterback

**Аннотация.**В объективной или субъективной интерпретации мира накладывает свой отпечаток влияние социальных, духовных и психологических процессов, приведших художника к взрослой жизни. Объективность – хорошее качество для художника. Независимо от объективности, историческая действительность «редактируется» характером, мышлением и сердцем творца и принимает форму определенного произведения. Характер, мышление и душа творца «дышат воздухом» окружающей его среды и условий.

**Ключевые слова:** старая школа, подотчетность, событие наводирула, реализм, махаллиболо, защитник

Sadriddin Ayniy amirlik zamonida voyaga yetdi, tanildi. Eski maktab, madrasa ta’limini oldi. Otasining "Mulla bo‘lma, qozi bo‘lma, odam bo‘l", degan o‘giti ta’sirida kamol topdi. Maktabning, madrasaning chalamullalikka yo‘naltirilgan ta’limoti, amirlikning mutaassiblikka tayangan tartiboti ma’rifatli ota o‘gitiga amal qilgan yosh Sadriddinda qoniqmaslik, norozilik, keyinchalik cheksiz nafrat hisini oshirdi. Ilk she’rlarida imo-ishoralar, ramzlar vositasida ko‘ringan bu tuyg‘u nasriy asarlarida ochiq-oydin aks eta boshladi. Atrofdagi nochorlik, zulm va zo‘ravonlik, amir jallodlari tomonidan akasining qatl etilishi, o‘zining darra bilan kaltaklanishi kabi ob’yektiv, sub’yektiv omillar bu nafrat tuyg‘usini alangalatganligi shubhasiz.

Yozuvchi madrasada o‘qib yurgan chog‘lari muqim turarjoyga ega bo‘lmagan. Ba’zan akasining, do‘stlarining, tanishlarining hujralariga ko‘chib yurgan. Umuman boshpanasiz qolgan paytlari ham bo‘lganki, uning o‘z ta’biri bilan aytganda, "ko‘ylagining ichida" yashab yurgan. O‘sha paytlarda yozgan she’rlari amir Abdulahadxonga ma’qul bo‘lib, saroyga ishga taklif qilinadi. Ammo Ayniy turli sabablarni ro‘kach qilib, bu taklifni rad qiladi. Yosh bo‘lishiga qaramay, bu dunyoning pastu balandini, oqu qorasini erta anglagan yozuvchida shaxsiy sifatlar shakllana boshlagan edi.

Ma’lumki, S.Ayniy ijodini she’r yozish bilan boshlaydi. Ahmad Donishning shafqatsiz realism namunasi bo‘lgan "Navodirul vaqoye" asari bilan tanishgach, unda yozuvchilikka havas uyg‘onadi. Asarlari tilining sodda, ravon, xalqona, jumlalarning pishiq, fikrlarining mantiqan bir-biriga bog‘lanishi ustida sabot bilan mehnat qiladi. 1920-1921 yillarda nosirlikka jiddiy kirishadi.

Psixologlarning aniqlashicha, insonda xarakter xususiyatlari 22-25 yoshlar atrofida shakllanadi. Oktyabr to‘ntarishi ro‘y berganda Sadriddin Ayniy 40 yoshda edi. Adibning ideallari, qaror topgan xarakteri, jumladan, ijtimoiy adolatsizlikka murosasizligi yangi tuzum g‘oyalariga mos keldi. Shu bois adib amirning taxtdan ag‘darilishini (1920) mamnuniyat bilan qarshilaydi. Yana bir jihati shundaki, sho‘ro hukumatiga ham bayroq qilib ko‘tarish uchun Sadriddin Ayniyga o‘xshagan taniqli, e’tirof etilgan shaxs kerak edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20 yillariga qadar bo‘lgan Buxoro tarixida soxtalashtirilgan, xolisona o‘rganilmagan nuqtalar ko‘p. Tarixiy hujjatlar, darsliklar, ma’lumotnomalar o‘z davrining siyosat va mafkurasi ta’sirida bir yoqlama yoritilgan bo‘lib, bugungi kun Sadriddin Ayniy asarlarining nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyati nechog‘lik baland va muhimligini ko‘rsatib turibdi. Bu borada "Esdaliklar" juda qimmatli manba hisoblanadi.

Sadriddin Ayniy poetik uslubini belgilovchi bosh asos bu tarixiy haqiqatga sodiqlik va rostgo‘ylikdir. Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Muqimiylar haqidagi ilmiy tadqiqotlarida ham shu xususiyat yetakchilik qiladi. Turkiy, forsiy, arabiy manbalarni taqqoslab, olim ilmiy qarashlarini tarixiy dalil, hujjatlar bilan asoslaydi.

Adibning "Eski maktab", "Esdaliklar" asarlarida o‘zi ishtirok etgan tarixiy davr hodisalari hikoya qilinadi. Boshqa badiiy asarlarining syujetiga ham tarixiy shaxslar hayoti, tarixiy voqelik, hayotiy makon va zamon asos bo‘lib xizmat qilgan. "Maktab", "madrasa", "masjid", "bozor", "idora", "karvonsaroy", "ark", "obxona" kabi mikromakonlardan tashqari, birgina Shofirkon tumanidagi "Mahallibolo", "Mamadboqi" (bugun "Mahalliboqi") "Denav", "Sug‘d" (bugun "Sug‘ut") kabi qishloqlar ham tarixiy joy nomlari bo‘lib, yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishda ko‘p ham mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaganiga ishonch hosil qilish mumkin. "Mahallibolo" tog‘alarining qishlog‘i bo‘lib, bolaligida yozuvchi bu qishloqlarda ancha payt yashagan, shu yerlik kambag‘al, chorakor, yetim-yesir, boy-amaldorlarni yaxshi tanigan. "Qullar" syujetining tarkibiy qismlari asosan, ana shu qishloqlarda kechadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Hasanov Sh, Ayniy haqida bilmaganlarimiz ayon bo‘lmoqda maqolasidan. Ziyouz.com
2. Hasanov. M. Ayniy chamani T. !978.
3. O‘zME birinchi jild T. 2000-yil.
4. Pravda vostoka 16.07.1954.


## TURKISTON KO‘RGAZMA VA YARMARKALARIDA NAMOYISH ETILGAN MAHSULOT VA TOVARLARNING NARX-NAVOSI XUSUSIDA


**J.X.Arziqulov (O‘zbekiston)**

NavDPI o‘qituvchi



**Annotatsiya:**Mazkur maqolada Turkistonda bo‘lgan ko‘rgazma-yarmarkalardagi tovar va mahsulotlarning narx-navosi, qiymati haqida va bu narx-navoning o‘zgarishi manbalar asosida tahlil qilingan.



**Kalit so‘zlar:** bog‘bonlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, tajriba maydoni,pul birliklari.



**Аннотация:**В данной статье на основе источников проанализированы цены и стоимость товаров и продуктов на выставках и ярмарках в Туркестане и изменения этих цен.



**Ключевые слова:** садоводы, сельскохозяйственная продукция, Опытное поле,валюты.



**Annotation:**In this article, the prices and value of goods and products at the exhibitions and fairs

in Turkestan and the changes in these prices are analyzed based on the sources.

**Keywords:** gardeners, agricultural products, experience space,monetary units.

Turkistonda 1871 yildan boshlab 1913 yilga qadar oʻtkazilgan koʻrgazma va yarmarkalarda namoyishga qoʻyilgan tovar, buyum, mahsulotlar koʻtara va alohida holda oʻz davri narx-navosi bilan istemolchilarga sotilgan. Bu jihat esa XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Turkistonda narx-navo qayholatda boʻlganligi, mahsulotlari narxi pasayish va koʻtarilish dinamikasini, aholi iqdisodiy holatini anglab olishda yordam beradi. Koʻrgazmalar oʻtkazilishi bilan bogʻliq savdo sharxlariga tegishli davriy matbuot sharhlarida yarmarka va koʻrgazma komiteti maʼlumotlari muntazam eʼlon qilib borilgan.

1871 yilda Toshkent yarmarka komitetining savdo sharhlari "Turkiston vedomosti" (1870-1917 yilda bosilgan) gazetasining oʻnlab sonlarida oʻrin olgan.[19]

Toshkent birinchi yarmarka komiteti oʻz faoliyatini 1871 yil yoz oylaridan boshlab gazeta maʼlumotlari orqali Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro, Xiva xonliklari shaharlari bozorlarida oʻnlab mahsulotlar narx-navosidan xabar bergan.[20]

Koʻrgazma va yarmarkalarda namoyish etilgan va sotish uchun ruxsat berilgan tovarlar narx-navosi bilan bogʻliq raqamlar tahlil etilar ekan, 1870 yillarga nisbatan 1905-1908 yillarda donli ekinlar ikki barobar arzon boʻlganligi, biroq boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshib borganligi, 1914 yilda birinchi jahon urushi boshlanishi bilan qimmatchilik kelib chiqqanligi ayon boʻladi.

Rossiya imperiyasi mustamlakasiga qadar Turkistonda Toshkentda 1 botmon (10 pud) un 5-6 rubl turgan. 1910 yil kuzida bugʻdoy uni 8 rubl 40 kopekdan 9 rublgacha, urush arafasida esa 16-17 rublga koʻtarilgan. 1908 yil oxirida 1 pud (16kg) bugʻdoyning narxi 65-70 kop, arpa 70-75 kop, krosin 42-43 kop, mosh 95 kop, kondal 1rublgacha, kunjut 2 rubl 30 kop, 100 bogʻ beda preslangan bogʻlami 5rubl sotilgan edi.[21] Biroq birinchi jahon urushi arafasida bir bodmon bugʻdoy 13 rubl 50 kopekdan 13 rubl 60 kopekgacha, arpa 8 rubl 60 kopekdan 8 rubl 80 kopekgacha, guruch 12-14 rubl, kurmak 7 rubl 20 kopekdan 7 rubl 40 kopekgacha, noʻxot 8 rubl 40 kopekdan 8 rubl 60 kopekgacha, kroso 8 rubl 40 kopekdan 9 rublgacha sotilgan.[22]

Qandning narxi keskin oshib 13 rubl 50 kopekdan 13 rubl 75 kopekgacha koʻrgazmalarda baholangan. Bozorda uning 1 funti (409 g) 40-42 kopek edi. Bitta rus samovar 1880 yillarda 8 rubl 40 kopek boʻlgan holda koʻrgazmalarda uning narxi 26 rubl 60 kopekga koʻtarilganiga guvoh boʻlinadi.

Turkiston yarmarkalarida paxta tolasi, paxtadan qilingan kiyim-kechaklar, gepak, gepakchilik mahsulotlari, qoʻy va echkilar terisi, juni gilam va shol, qoʻlda tikilgan va manfaktura buyumlari narx-navosi, ularning oʻzgarish dinamikasi haqida maʼlumotlar keltiriladi. Ushbu tovarlar Toshkent yarmarkasiga aroba, ot va tuyalarda Turkistonning oʻnlab shaharlaridan keltirilgan. 1871 yil yarmarkasi oʻtkazilgan paytda Qoʻqondan aroba 6 rubl, tuya 3 rubl, ot 2 rubl 60 kopekga buyurtma qilib mahsulotlar keltirilgan. Shuningdek Buxorodan tuya 11 rubl 40 kopek, aroba 22 rubl 80 kopek; Samarqanddan 15 rubl 20 kopek, aroba 7 rubl 60 kopek; Turkiston shahridan aroba 9 rubl, tuya, 6 rubl; Verniy (Olmaota)dan aroba 26 rubl, tuya 13 rubl; Avliyootadan aroba 8 rubl 80 kopek, tuya 4 rubl 40 kopek; Chimkentdan aroba 4 rubl, tuya 2 rubl; Xoʻjanddan aroba 6 rubl, tuya 3 rubl; Chinozdan aroba 2 rubl, tuya 1 rubl; Perovskiy aroba 16 rubl, tuya 8 rublga yarmarka uchun yuk tashib keladi.[23]

Yarmarkaga keltirilgan tovarlarning narxi rus chervoni, Qoʻqon va Buxoro tillasi, Buxora tangasi, rus kichik kumushi kabilar orqali hisob-kitob qilingan.

1870-1880 yillarda 1 rus chervoni – 5rubl 15 kopek, qoʻqon tillasi 3 rubl 80 kopekdan 4 rubl 60 kopekgacha, Buxoro tillasi 4 rubldan – 5 rubl 20 kopekgacha, rus kichik kumush tangasi – 1 rubldan 1 rubl 8-9 kopekgacha, Buxora oddiy tangasi 1rubl 17 kopek baholangan.[24]

---

[19] От Ташкентского ярмарочного кометета, Торговое обозрение с 9 сентября 1871 года//Туркестанские ведомости. 1871.-№33; С 12 сентября 1871 г -ТВ. -№34; С 12 по 19 сентября 1871 г № 35; С 1 октября 1871г. -№37; От комитети по устройству ярмарки караван сарая в Ташкент. С 1августа 1871 г – ТВ. -№28; С 7 августа 1871 г. - №29; С 15 августа 1871 г. -№30; С 21 августа 1871 г. -№31; С 24-го по 30 августа 1871 г. №32;

[20] От Ташкентского ярмарочного комитета, Торговые обозрение. Оптовая торговля и Карван Сарай// ТВ, 26 июля 1871 г. № 106.

[21]Корреспонденции // Туркестанский сборнике. Том 501.-С.582-583. Ҳайитов Ж.Ш Туркистонда янги ўсимлик навларининг таркалиши, улардаги ўзгаришлар (1867-1917 йиллар) Бухоро 2020, Б. 29

[22] ТВ, 28 августа 1914 г. №98. От Ташкентского ярмарочного комитета. Торговое обозрение

[23] От Ташкентского Ярмарочного комитета. Торговое обезрене. С 12 по 19 сентября 1871 года // ТВ. 1871.-№35

[24] ЎзМА. И-1-фонд, 2-рўйхат, 247 йиғма жилд, 43-варақ

1908 yilda yarmarkada 1pud paxta tolasi 4 rubl 10 kopekdan 4rubl 15 kopekgacha baholangan. Biroq AQSH paxta tolasining ushbu bahosi barqaror bo'lmagan. Mahalliy paxta tolasining narxi 2 rubl 20 kopek tashkil etgan.[25] Mahalliy paxta tolasining sarg'ishligi va tola uzunligi qisqaligi, rus sanoati uchun qo'l kelmasligi uning ikki barobar past bahoda sotilishiga sabab bo'lgan.

N.A Maevning qayd etishicha 1886 yil yarmarkasida ipak narxi yuqorilab ketgan, tayyor ipak Turkistonda 1 pudi 220-240 rubl, Rossiya va xorijda 320-370 rubl baholangan.[26]

Shu sababli Turkistonda 1890 yillarda bir qator ipak qurish va pilla tayyorlash tajriba stansiyalari qurilgan. Xorijiy mamlakatlardan (asosan Italiya va Fransiya) ipak qurti urug'lari (gren) keltirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ko'rkazmalarda aka-uka Pervushinlar va Ivanovlar vino namoyishi bilan birga tamakichilik Dyubek navli turk tamakisi, Ogoyo, gavana, portorika navli AQSH tamakisi, Meriland, Persechan navli tamakilarni namoyishga olib chiqilgan. Shuningdek, mahalliy tamaki navlaridan qalmoq, qalay, ko'k tamaki, qarshi oq tamakisi ko'rgazma davomida sotilgan. Tamaki navlarini xarid qilishda ularning hosildorligi va narx-navosi qulayligi inobatga olingan. Xorij tamaki navlaridan 1 desyatina yerdan 100 pud, oddiy tamaki moxarkadan 200 pudgacha hosil olingan, bir desyatina tamaki yerga ishlov berish 100-150 rubl bo'lsa, 1000-1200 rublgacha daromad olish mumkin bo'lgan. Ko'rgazma va yarmarkalarda XIX asr boshlarida 1 pud sifatli tamaki 10 rubldan 12 rublgacha, oddiy, past navli tamaki 4 rubl baholangan.[27]

Ko'rgazma va yarmarkalarga nafaqa meva, poliz, sabzavot ekinlari, balki, mavali va manzarali daraxtlarning ko'chatlari ham olib chiqilgan. Ushbu ko'chatlar asosan havaskor bog'bonlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari, tajriba maydon va uchastkalarida parvarishlangan bo'lib, asosan bir yillik va ikki yillik edi. 1900 va 1908 yil TQXJ yubuley ko'rgazmalarida namoyish etilgan bir yillik olma olcha va nok ko'chati har biri 20-25 kopekdan, ikki yilligi 35 kopekdan baholangan. 1908 yildagi yarmarkada 1175 rublga olma, nok, olcha, olxo'ri, gilos ko'chatlari sotilgan. Bundan tashqari ariq va anhor bo'ylarida o'stiriladigan manzarali daraxt ko'chatlaridan tol, terak ko'chatlar 6-7 kopekdan xaridorlar e'tiboriga havola qilingan.[28]

Xullas, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ko'rgazma va yarmarkalari ularda namoyish etilgan mahsulot va buyumlarning narx-navosi, o'sha davrda bozor holatini baholashda muhim rol o'ynagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. От Ташкентского ярмарочного кометета, Торговое обозрение с 9 сентября 1871 года//Туркестанские ведомости. 1871.-№33; С 12 сентября 1871 г -ТВ. -№34; С 12 по 19 сентября 1871 г № 35; С 1 октября 1871г. -№37; От комитети по устройству ярмарки караван сарая в Ташкент. С 1августа 1871 г – ТВ. -№28; С 7 августа 1871 г. - №29; С 15 августа 1871 г. -№30; С 21 августа 1871 г. -№31; С 24-го по 30 августа 1871 г.
2. №32;
3. Корреспонденции // Туркестанский сборнике. Том 501.-С.582-583. Ҳайитов Ж.Ш Туркистонда янги ўсимлик навларининг таркалиши, улардаги ўзгаришлар (1867-1917 йиллар) Бухоро 2020, Б. 29
4. ТВ, 28 августа 1914 г. №98. От Ташкентского ярмарочного комитета. Торговое обозрение
5. От Ташкентского Ярмарочного комитета. Торговое обезрене. С 12 по 19 сентября 1871 года // ТВ. 1871.-№35
6. ЎзМА. И-1-фонд, 2-рўйхат, 247 йиғма жилд, 43-варақ
7. Труда хлопого комитета, Том I. Спб, 1907 // Туркестанский сборник Том 500. -С. 303-307
8. От Ташкентского ярмарочного комитета, Торговые обозрение. Оптовая торговля и Карван Сарай// ТВ, 26 июля 1871 г. № 106
9. Маев. А.А Туркестанская веставка 1886 года...-С.35
10. Қаранг. Граф Головин Табокаводствов Туркестан // ТС. Том 448.-С.734-743
11. Промыщденный сад С.Я.Бердина //ТС. Том 501-С.728-730

[25] Труда хлопого комитета, Том I. Спб, 1907 // Туркестанский сборник Том 500. -С. 303-307
[26] Маев. А.А Туркестанская веставка 1886 года...-С.35
[27] Қаранг. Граф Головин Табокаводствов Туркестан // ТС. Том 448.-С.734-743
[28] Промыщденный сад С.Я.Бердина //ТС. Том 501-С.728-730

## ҚИЗИЛТЕПА ТУМАНИНИНГ ҚАДИМГИ ЁДГОРЛИКЛАРИ

**Раҳмонов Ф. (Навоий. Ўзбекистон)**
Навоий педагогика институти магистранти
**У. О. Нарзуллаев (илмий раҳбар)**
Навоий педагогика институти доценти

**Аннотация:** шуки ҳозирги вақтда “Олтин”, “Зар сочувчи” маъносини билдирувчи Зарафшон дарёси қуйи оқимидаги икки сув манбаи – Абу муслим, Шоҳ руд каналлари ҳавзасида қадимда бугунги Қизилтепа туманига қарашли қадимги аҳоли пунктлари – археологик ёдгорликларнинг асосий қисми жойлашган.

**Калит сўзлар:** Рустоқ, Политемит. Хазора, чўли Малик, Коллектор, Руди шахр, Пойканруд.

**Аннотация:** в настоящее время в бассейне каналов Абу муслим, Шах руд, двух водных источников в нижнем течении реки Зарафшан, что означает” золотой", "разбрасыватель золотых", находится основная часть археологических памятников – древних поселений, относящихся к сегодняшнему Кызылтепинскому району.

**Ключевые слова:** Руст, Политемит.Зазора, пустыня Малик, Коллектор, Руди шахр, Пойканруд.

**Abstract:** Currently, in the lower reaches of the Zarafshan River, two sources of water in the sense of" gold"," blower " – Abu Muslim, an ancient settlement in the basin of the Royal Rud canals, which in ancient times belonged to the present – day Qiziltepa district-are the main part of archaeological monuments.

**Keywords:** Rustok, Polytemite.Zazora, Charlie Malik, Collector, Rudy shahr, Poikanrud.

XX аср етмишинчи йилларигача туманнинг асосий сув манбаи Зарафшон дарёси бўлиб, унинг суви Бухоро вилояти Қоракўл туманигача етиб борган.

XVII асрда яшаган балхлик олим Маҳмуд ибн Валининг “Сирлар денгизи” китобида ёзилишича қадимда Бухоро воҳаси 10 та туман ёки рустоққа (қишлоқ хўжалиги ҳудудларига) бўлинган ва улар номлари шоҳариқлар номи билан аталган. Улар орасида Коми Абу Муслим рустоқи ҳам бўлган. “Кам”, “Ком”, “кон” қўшимчаси қадимги суғд сўзларидан олинган бўлиб “Қазимоқ”, “ариқ”, “сув билан тўлдирилган жой” маъносини билдиради. Абу Муслим конининг аввалги номи Бурғози бўлган. Юнон олимлари Зарафшон дарёси номини ўз тилларида “Политимет” – “юксак қадрли”, “юқори қадрли” деб атаганлар. Юнон географ ва тарихчиси Страбон (мл. ав. 64-24 й.) қаламига мансуб 17 китобдан иборат “География”2 асарида Политимет (Зарафшон) дарёси ҳақида муҳим маълумотлар бор. V – VI асрлардаги Хитой йилномаси “Бейши”да Зарафшоннинг номи Намич кўринишида берилган. Эҳтимол бу ном Зарафшоннинг энг қадимги номидир.

Ҳазора даёрсининг Раскуй деб аталадиган жойидан Зарафшоннинг ўнг қирғиғидан Шофиркон, Пирмат, Қалқонруд ва Мозаранган бошланади. Худди шу жойдан Абу Муслим канали ҳам бошланиб, у Чўли Малик сарҳади орқали ҳозирги вақтда туман марказидан 5 км.гача жануби-ғарбга оқади. Ташландиқ сувлар йиғиндиси ҳисобига қурилган шоҳариқ коллекторининг қуйи қисми Бухоро (Қуйимазор) коллекторига қуйилади. Мазкур замонавий ариқ Абу Муслим каналининг эски ўзани устида қурилгани исботланган.

Абу Муслим анҳорининг номи унинг бошланиш ҳавзасидаги қадимий-тарихий ёдгорлик номи билан боғлиқ. Аммо бу ёдгорлик араб халифалиги даврининг диний ва сиёсий арбоби Абу Муслим яшаган давр (718-785) дан анча қадим. Бухоро шаҳрининг сув билан таъминланган Руди шаҳар (Руди Шахр) унинг қирғоғида жойлашган Шарғ номли қадимги қишлоқ (шаҳар) номидан олинган бўлиб, унинг ўрни ҳозирги Қизилтепа тумани ҳудудига Демастепа қалъаси яқинига тўғри келади. Тарихчи Наршахий “Бухоро тарихи” китобида Байканруд ариғини (Пойканруд – дарёнинг қуйи тармоғи) ҳам тилга олади. Тарихчи ал Истаҳрий бу сув тармоғининг Датинкан ёки Навкада (янги қазилган, қайта қазилган) номи билан айтилганини эслатиб ўтади. Қизилтепа тумани ғарби-шимолида Навганда қишлоғи борлиги ҳам бу фикрни тасдиқлайди. Қадимшунослар орасида Абу Муслим каналининг қадимги номини туман ҳудудидаги Навбоғ қишлоғи номи билан боғловчилар ҳам бор.

XX аср етмишинчи йилларидан бошлаб, Зарафшон дарёсидан сув деярли оқмай қолди. Ўрта

Осиё мудофаа истеҳкомлари меъморчилигининг нодир намунаси ҳисобланган “Кампирдевол”нинг шарқ томони Кармана тумани маркази чегарасидаги Қоратоғ ўнгирларидан бошланиб, Зарафшон чап қирғоғи бўйлаб шарқ-ғарб томонга йўналган. Қанпирак девори Қизилтепа туманининг шимоли-шарқий, жануби-ғарб томонидаги мавзеларда ер сатҳи тепасидан аниқ равшан кўриниб турувчи, узоқ масофаларга чўзилиб кетган сунъий тупроқ қўрғон қолдиқлари бўлиб, Абу Муслим каналининг чап қирғоғи бўйлаб Қизилтепа ёдгорлиги томон йўналишини давом эттиради ва ундан жануби-ғарбга, сўнгра жанубга йўналиб, Когон туманининг жануби-шарқ кисмида ўз ниҳоясига етади.

Археолог ва тарихчилар “воҳа девори” деб ном берган Канпирак девори нафақат алоҳида жойлашган бир туркум шаҳар ва қишлоқлар мудофааси учун, балки улкан маданий ҳудуд, бутун бир воҳа мудофааси мақсадлари йўлида хизмат қилган. У ўзининг маъёрий қурилиш усуллари билан жаҳонга машҳур Буюк Хитой деворини эслатади. Самарқанд шаҳри ва унинг атрофини ўраб турган Қиёмат девори (Девори Қиёмат) ҳам унга ўхшашдир. “Канпир девор” сўзининг маъноси қазилган чоҳ демакдир. Бу ерда талаффузда “н” билан “м” алмашинуви кузатилади. “Аир” бўғини эса қадимги “пайрйа” – айлана – ўров маъносида. Демак кан(м)пир сўзининг ўзи хандакли девор дегани. Девор сўзи канпир сўзининг туб маъноси унитилгандан кейин қўшилган. Канпирак деворининг иккинчи қисми Бухоро суғдининг шимоли-ғарб томондан Варахша (Жондор тумани), ундан Субуктепа, Бўронтепа (Ромитан тумани), Хўжақултепа (Пешку тумани) сарҳадлари бўйлаб ўтиб, Шофиркон канали чап қирғоғи бўйлабўтиб Абу Муслим тепага туташган. Қоракўл воҳаси таркибидаги қадимги Пойкент шаҳри атрофларида мудофаа девори ўрнида мудофаа қудрати оширилган кўп сонли карвонсаройлар бунёд этилган. Совуқ кунлар бошланиши билан Сибир томонлардан кўчиб келувчи кўчманчи чорвадор қабилалар босқинидан ҳимоя қилишга Бухоро воҳасидан кўплаб ёш жангчилар қатнашган. Тили, урф-одатлари ўзгача, жасур ва уюшган кўчманчи чорвадор қабилалар маҳаллий аҳоли устига мунтазам босқинлар қилиб, одамлар мол-мулкини, ўзини талашган, ўлдиришган. Канпирак девори ўтроқ аҳолини шундай босқинлардан ҳимоя қилиш мақсадида бунёд этиб, сақланган. Наршахийнинг3 “Бухоро тарихи” асарида Канпирак девори 782-831 йилларда қурилганлиги ёзилган. Араб тарихчиси ва сайёҳи Масъудий (956 йили вафот этган) ёзишича, Канпирак девори қадимги суғд подшолари замонида (V – VI асрлар) бино қилинган.

Ўзбекистон тарихи фанида Канпир девор (девори Канпирак) атамаси Ўрта Осиё деҳқончилик воҳаларини кўчманчилар ҳужумидан ҳимоя этиш мақсадида барпо этилган мудофаа иншоотларининг тизимини англатади. Гап шундаки, Масъудий хабар қилган дастлабки кўҳна девор узунлиги 336 км. бўлган. Қадимги суғд воҳасини ўраб олган иккинчи Канпирак девори VIII аср охири IX аср бошларида барпо этилган бўлиб, узунлиги 120 км. Учинчи Канпирак девори қадимги Усрушона воҳасини ўраб олган. Бу деворлар сунъий кўтарма ҳолида сақланган. Тўртинчи Канпирак девори қадимги Фарғона водийсининг ғарбида VIII аср охири IX аср бошларида барпо этилган. Бешинчи Канпирак девори қадимги Тошкент воҳасини шимол тарафдан ўраган бўлиб, Хўжакентдан Сирдарёгача чўзилган 4. Канпирак деворининг мудофаа қудратини ошириш мақсадида девор йўналишининг ҳар бир фарсах (6-8 км.) масофада шаҳар ва қишлоқлар, шунингдек, работлар бунёд этилган. Ва бу аҳоли манзиллари бир вақтнинг ўзида чегара қўрғонлари вазифасини ҳам бажарган. Туманимиз ҳудудида Қизилтепа ёдгорлигидан ташқари Бўритепа, Абу Муслим тепа, Шаҳривайрон (Тавоис шаҳрининг ўрни), Оқсочтепа, Ажвандитепа, Лавандоқтепа каби истеҳкомлар жойлашган. Шунингдек, ҳар бир қўрғон ва девор билан ўраб олинган ҳудуд учун махсус дарвозалар, қўрғонлар орасида бир чақиримдан камроқ масофада ҳарбий буржлар қурилган. Шундан ҳам маълумки, Канпирак девор кўп тармоқли, қудратли мудофаа девори сифатида фаолият кўрсатган. Канпирак деворининг Қизилтепа тумани ҳудудида сақланиб қолган харобаларида А. Ю. Якубовский, А. В. Шишкин, Х. Мухаммедов ва бошқа археологлар томонидан ўтказилган тадқиқотларда қуйидаги натижалар аниқланган. иншоотнинг таг замини шағал аралашган тупроқдан иборат бўлиб, эни 3 метрлиги; девор асосан пахсадан, айрим жойлари қисман тўртбурчак шаклидаги йирик ҳажмли хом ғиштлардан кўтарилганлиги; девор қурилиши ҳақиқатда икки босқичда амалга оширилганлиги; иккинчи босқичда ҳам арим ўзгаришларни ҳисобга олмаганда аввалги ўрнида сақлаб қолингани аниқланган.

2012-2013 йилларда ўтказилган Ўзбекистон – АҚШ археологик қўшма экспедицияси хулосаси бўйича Ганчтепа (Бўритепа) Канпиракдевор билан бир вақтда V асрда бунёд этилган ва

у мудофаа истеҳкоми вазифасини ҳам бажарган. Канпирак девор Бухоронинг V – VI асрлардаги чегараларини аниқлаб берувчи ягона иншоот сифатида қадрланади. Бу улкан ҳудуд ўша даврда энг анъанавий, мумтоз давлатчилик куртаклари мавжуд бўлган йирик маданий ўлка сифатида фаолият кўрсатган.

Турк хоқонлиги даврида гарчанд хоқонликнинг зодагонлар қисми чўл-дашт ҳудудларида яшаган бўлса-да, суғдий аҳоли ва кўчманчилар ўртасида тинчлик, ҳамжиҳатлик алоқаларини ўрнатишган, савдо-сотиқ ривожлантирилган. Бу даврда ҳозирги Ўзбекистон ва Ўрта Осиё ҳудудидаги 15 га яқин катта-кичик давлатлар (Бухоркудодлар подшолиги, Вардонкудотлар подшолиги, Самарқанд суғди ва бошқалар) хоқонликка расман бўйсундирилиб бож-хирож тўлашган.

Турк хоқонлиги савдо-сотиқдан, айниқса, ипак савдосидан катта фойда кўргани учун суғд савдогарларига ҳатто узоқ ўлкаларда савдо қилиш учун шароит яратиб беришган. Бу ҳолат Канпирак девори аҳамиятини йўқотиб, у харобага айланган.

VII аср охирги чораги ва VIII аср бошларида Турон ҳудудига араб босқини истилочилик юриши амалга ошди ва аҳолини исломлаштириш бошланди. Ана шунинг учун исломни қабул қилган аҳоли билан чўл-дашт ҳудудидаги исломни қабул қилмаган аҳоли ўртасида қарама-қаршилик кучайганидан Канпирак деворига яна эҳтиёж пайдо бўлади ва у қайта тикланади.

819 йилда Мовароуннаҳр ва Хуросонда самонийлар сулоласи ҳокимият тепасига келади. Араб халифалигидан мустақил фаолият кўрсатган Самонийлар давлатига 874 йилда Исмоил Самоний асос солади. Ўзининг қудрати, маънавий-маърифий ҳаётдаги ўрни билан машҳур бўлган бу давлат ҳукмдори Исмоил Самоний “То мен тирик эканман, Бухоронинг девори мен бўламан” 5 дейди. У ҳақиқатдан ҳам халқлар ўртасида ўзаро ҳамкорлик,

**Хулоса қилиб айтганда** тинчлик ришталарини мустаҳкамлаганидан ўзаро уруш ва келишмовчиликлар барҳам топади. Канпирак деворига эҳтиёж ҳам қолмайди. У тамоман харобага айланади. Айни вақтда Канпирак девори қолдиқлари бизнинг Қизилтепа туманида энг яхши сақланиб қолган.

**Адабиётлар.**


**1.** Мазкур китобнинг 1-боби Ж. Мирзааҳмедов, Ш. Одилов, М. Пардаев, Р. Мақсудовнинг “Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар” (Тошкент. А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002 китобидаги материаллар асосида, қисман тўлдирилиб тайёрланди.)

2. Страбон. География. В 17 книга. Перевод, статья и комментарии Г. А. Стратановского – Л. Наука. 1972, - 600 стр.

3. Наршахий “Бухоро тарихи”. 36-37-бетлар.

4. Алимов Ў, Исҳоқов М. Канпир девор (Ўзбекистон миллий энсиклопедияси Т.Ч. – Т. ЎзМЭ нашриёти. 2002. 43 а бет.)

5. Наршахий “Бухоро тарихи” 36-бет.


## TOMDI TUMANING TASHKIL TOPISH TARIXI


**Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘li (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti, Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

**Xolmonov Ilhom O‘ktam o‘g‘li (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika tarix fakulteti 1-kurs talabasi



**Annotatsiya:** Tomdi toponikasiga e’tibor bersak , xalq og’zaki ijodiyotida , bu yerda eng birinchi tom uy solinganlikdan “Tomdi”, ya’ni tomli, uy bor deb atalgan. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Tomdi yeridan buloq chiqib “Tomdibuloq” atalgan deyiladi.



**Kalit so‘zlar** toponimika, Tomdibuloq, Keregetov, Koriz, Oqquduq, Oqtov, So‘kitti, Sheli, qurg‘oqchilik qubi, Kotlovan,



**Аннотация:** Если обратить внимание на топоним Томди , то в устном народном творчестве , где самая первая крыша называлась “Томди”, то есть с крышей, есть дом. Другая легенда гласит, что источник, выходящий из земли Томди, называется “Томди-Спринг”.



**Ключевые слова**: топонимика, Томдибулак, керегетов, Кориз, Лебедь, актов, Сокитти,

Шели, засушливый куб, котлован,

**Annotation:** focusing on Tomdi toponics , in folk oral creativity , the first roof here is called "Tomdi", that is, there is a roof, a house, from the setting of the House. Another tradition says that a spring came out of the Land of Tomdi and was called "Tomdibulok".

**Keywords**: toponymy, Tomdibuloq, Keregetov, Koriz, Oqquduq, Oqtov, Sokitti, Sheli, droughts qubi, Kotlovan.

Tomdi tumani 1928 yilda tashkil etilgan bo'lib, shimoliy-sharq tomonidan Qozog'iston Respublikasining Turkiston va Qizilorda viloyatlari, Janubiy-sharqdan Navoiy viloyatining Konimex tumani, g'arbdan Uchquduq tumani bilan chegaradosh hamda shimoliy-markazdan Qozog'iston Respublikasi bilan 237,5 km davlat chegarasi bilan tutashgan. Tumanning umumiy maydoni 4248,5 ming km2 bo'lib, shundan 30,3 ming km2 yaylovlar (71 foiz) va 12,2 ming km2 (29 foiz) qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan yerlar hisoblanadi. Tomdi toponikasiga e'tibor bersak , xalq og'zaki ijodiyotida , bu yerda eng birinchi tom uy solinganlikdan "Tomdi", ya'ni tomli, uy bor deb atalgan. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Tomdi yeridan buloq chiqib "Tomdibuloq" atalgan deyiladi. Sug'oriladigan yerlar mavjud emas. Tumanda doimiy aholi soni 14,9 ming kishi bo'lib, axolining 69,2 foizi qozoklar, 29,4 foizi qoraqalpoqlar, 1,2 foizi o'zbeklar, 0,2 foizini boshka millat vakillari tashkil etadi. Jami aholi tarkibining 51,2 foizini ayollar va 48,8 foizini erkaklar tashkil kiladi. Tumanda 7 qishloq fuqarolar yig'ini (Keregetov, Koriz, Oqquduq, Oqtov, So'kitti, Tomdibuloq, Sheli) bor. Tuman markazi - Tomdibuloq qishlog'i. Tuman viloyat umumiy yer maydonining 38 foizi, aholisining 3,0 foizni tashkil etadi. tuman hududi Qizilqum cho'lida joylashgan. Qizilqumdagi hayot, undagi o'sayotgan o'simliklar, yashaydigan hayvonlarning mavjudligi ham yogadigan yogingarchilikning hajmiga bogliq Qizilqumdagi hayvonot dunyosi rango-rang va o'zgachadir. O'zbskistoning eng issiq va eng qurg'oq joy Qizilqumda joylashgan. Bu yerda uning g'arbiy qismida Buzoqboy degan joy bor. Bu yerni haqiqatdan ham O'zbekistoning "qurg'oqchilik qubi" desa bo'ladi. Buzoqboyda bir yilda umumiy yogingarchilik miqdori 70 millimetrga ham yetmaydi.

Markaziy Qizilqumning Tomdi qishlog'i atrofida (Zarafshon shahridan uzoq bo'lmagan joy) bir yilda atigi 111mm. gacha yogingarchilik bo'lib, havoning quruqligi xuddi Jinkeldi, Oyoqog'itma va Buzoqboy kabidir. Yoz damlari Qizilqum shunchalar quyosh issiqligini oladiki, u haddan tashqari qizib ketadi. Uning Qizilqum deb nomlanishi shu tufayli bejiz bo'lmasa kerak. Yuqorida aytib o'tilgan bahaybat pastlik - kotlovanlar esa qo'shimcha kuchli «diqqixona» bo'lib xizmat qiladi, Bu yerlarda havo undan ham yuqori darajada qiziydi. Shu yerlardan, Qizilqumdan qiziganidan, quruq havo qo'shni hududlarga tarqalib, atrof muhitni qurita boradi, qurg'oqchilikka olib keladi. Qizilqum tog'lari ham noyobdir. Qadimgi paleozoy (gersin) past tog'lari - Tomditov, Oqtov, Oltintov, Yetimtog', Quyuqtov, O'g'iz, Bo'kantov, Bo'kanmerey, Uliqizil, Jamanqizil dashtlari, tog' etaklarida buloqlar bor. Ularning qa'rida mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan ko'pgina foydali qazilmalar mavjud bo'lib, mashhur oltin konlari ham shu yerlarda joylashgan. Muruntog, hamda Ko'kpatas, Davgistog bunga misoldir. Qizilqum eng yuqori nuqtasi bo'lmish Tomditog massividagi qadimiy o'chgan vulqon Oqtog O'rol qadimiy tog tizimining davomidir. Alohida tavsifga sazovar bo'lmish cho'lning janubiy-sharqiy qismida joylashgan Nurota, Qoratog' va Oqtog'dan tashqari Qizilqumda Bo'kantov, Tomditov (unga mashhur Murantog' ham kiradi), Ominzatog' va Kuljuqtog' ham ahamiyatlidir. Bo'kantovning eng muhim qoyasi (764 m). Ushbu tog'ning yon bag'ridagi nafaqat kichik ko'kalamzor, balki Ko'lquduq qishlog'i joylashagan. Buloq va tog' qadimdan muqaddas hisoblanib kelgan. Tomdi tumaning qishloq xo'jaligini ngning asosi yaylov chorvachiligi. Asosan, qorako'l qo'ylari boqiladi. Tuya, ot ham ko'paytirilmoqda. Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 1402 qoramol (shundan 710 sigir), 363,9 ming qo'y va echki, 3,5 ming ot, 2,5 ming tuya boqiladi (2021.)

1926 yili tuman markazi Tomdida 180 o'rinli maktab-internati ochilgan. 1932 yili tumandagi birinchi bolalar bog'chasi "Tomdi" sovxozida 29 o'ringa mo'ljallab qurilgan. 1933 yili "Tomdi" sovxozinda kutubxona, qishloq klubi faoliyati boshlangan. 1940 yili Xalq ta'limi bo'limi tashkil etilgan. 1983 yili tuman markazida kasbiy-texnikum ochilgan.1996 yili Yangi Tomdi markazida 2 qabatli bolalar bog'chasi ishga tushurilgan. 2000 yili Agroiqtisodiyot kasb-hunar kolleji binosi foydalanishga topshirilgan. 2012 yili tuman hokimligi va Madaniyat va sport ishlari bo'limi binolari ishga tushirilgan. 2013 yili «Kerizbuloq» shirkat xo'jaligi markazida joylashgan 5-sonli umumta'lim maktab yonidan «Sport zal» binosi ishga tushirilgan. 2014 yili 12-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi. Hozirda tumanda yashab kelayotgan xalqning 19 foizi 18 yoshgacha yoshlarni tashkil qiladi.

Tumanda 16 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1287 o'quvchi qozoq tilida ta'lim-tarbiya olmoqda.

1936 yili «Tomdi» sovxozida «Shopandar үni» (Cho'ponlar ovozi) gazetasi chiqarila boshlangan. 1938 yili tumanda «Sotsialistik sharua» (Sotsialistlik chorva) gazetasi chiqarila boshlangan. Sotsialistik sharua» (sotsialistlik chorva) gazetasi «Taмdы sharuageri» (Tomdi chorvadori) deb o'zgartirilgan. Bugun tumanda "Taмdы sharuageri" gazetasi faoliyat yuritadi. 1927 yili tumandagi birinchi tibbiy punkt ish boshlagan. 1939, 1941, 1949 yillari "Keriz", "Ayaqquduq", "Qulquduq" ovullarida tibiy punktlar tashkil etilgan. 1997 yili «Keriz» ovulida qishloq uchastka shifoxonasi tashkil etilgan. 2000 yil Yangi Tomdi markazida tuman Davlat sanitariya-epidemologiya nazorat markazi binosi foydalanishga topshirilgan. 2010 yili Yangi Tomdi markazida yangi Tibbiyot biralmshasi va ko'p tarmoqli poliklinika foydalanishga topshirilgan. Bugungi kunda tuman Tibbiyot birlashmasida aholiga 100 o'rinli kasalxona, 7 ta QVP va 19 ta FAP, DSENM, "Salomatlik" markazi xizmat ko'rsatadi. 1928 yili 15 noyabrda tuman birinchi komunistik partiya tashkil etilib, tuman partiya komiteti birinchi sekretari etib Tumenov Usen saylangan. 1928 yili Xalq tinchligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida tumanda Ichki ishlar bo'limi ochilgan hamda uning birinchi rahbari etib Bazar Jusipov tayinlangan. 1932 yili birinchi "Tomdi" sovxozi tashkil etildi (Hozirgi "Tomdi"shirkat xo'jaligi). Shu yili uning tarkibida 37 ta kolxoz, 1 ta sovxoz bo'lib, ularda 9600 echki, 20500 qo'y, 4638 tuya, 443 ot bo'lgan. 1935 yili tumanda MTS (Mashina traktor stantsiyasi) tashkillashtirildi. Unda 3 avtomashina va 4 traktor bo'lgan. 1938 yil Tomdi tumanida pochta aloqa tashkiloti hamda 1940 yili tumanda FHDYo bo'limi tashkil qilingan. 1978 yili tumanning tashkil etilganligining 50 yiligi munosabati tantanali o'tkazilgan. "Tomdi 50 yil" ko'krak belgisi chiqarilgan. 1958 yili tuman hududida konchilar shahri Uchquduq tumani tashkil etilgan va 1960 yili tuman hududidan Navoiy-Uchquduq temiryo'li qurilgan. Tumanning 5 ta sovxozi yangidan tashkil topgan Uchquduq tumaniga berilgan. 1981 yili Konimex tumanining "Kalinin" (hozirgi "Birlik" shirkat xo'jaligi) sovxozi Tomdi tumani tarkibiga qo'shilgan. 1982 yili Tomdi tumani yangidan tashkil etilgan Navoiy viloyati tarkibiga kiritilgan.

Tuman rahbari bo'lib turli yillarda S.Pirmanov 1961-1976 yillarda, A.Isaev 1976-1982 yillarda, A.Elemesov 1982-1986 yillarda, M.Suleymenov 1986-1995 yillarda, A.Nazarov 1995-2009 yillarda ishlagan. 2009 yildan buyon tuman hokimi lavozimida Q.T.Aldabergenov ishlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda. Bugungi kunda tumandagi 7 ta ovul fuqarolar yig'ini tarkibida 7 ta shirkat xo'jaliklari bo'lib, 32 ta aholi punktlarida 16 ta maktab, 2 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, Yangi Tomdi markazida 1 ta Agroiqtisodiyot kasb-hunar kolleji, Tibbiyot birlashmasi, 80 o'ringa mo'ljallangan ko'p tarmoqli poliklinika, 7 ta qishloq vrachlik punktlari, 26 felьsherlik akusherlik punktlari tuman aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

**Adabiyotlar.**


1. Қурбонов Х. Қуйи Зарафшон воҳасида ўтказилган коллективлаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари. тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т.: 2012.-Б.25
2. Наймов Қ. Өзбекстан сорамындағы қарақалпақлар жасайтуғин районлардағи миллий автономмяльқ дузимлер һаққындағы мағлыуматлар // Қарақалпақстан муғаллими журнали,- Ңөкіс.:1993 ж, 2-3 сон,-Б.45
3. Нарбай Тағайұлы Қожахмет немереси. Кенимех және менің кейіпкерлерім. Жетінши кітап, Шымкент.: 2019 ж,-Б.38-39
4. Наймов Қ. Өзбекстан сорамындағы қарақалпақлар жасайтуғин районлардағи миллий автономмяльқ дузимлер һаққындағы мағлыуматлар // Қарақалпақстан муғаллими журнали,- Ңөкіс.:1993 ж, 2-3 сон,-Б.45
5. Серик Шұқын, Құлмахан Қали, Кенимех – нұр өлкем, -Т.: Turon-Iqbol. 2005 ж.-Б.11

## ОЛИЙ ТАЪЛИМДА СПОРТЧИ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ БЎЛИМЛАРИ ВА МАСАЛАЛАРИ

**Д.Н.Бердиев (Ўзбекистон)**
НавДПИ Жисмоний маданият назарияси кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация**: Ушбу мақолада жисмоний тайёргарлик эвазига спортчи кейинги техник тайёргарлик учун зарур ҳаракатли билим ва ўқувлар заҳирасига эга бўлиши, хамда махсус жисмоний, техник ва тактик тайёргарликни самарали олиб бориши учун ёрдам берадиган махсус босқични ўзида таъминлаши ҳақида фикр-мулоҳазалар ёритилган.

**Калит сўзлар:** ҳаракат, жисмоний, техник, тактик ва руҳий тайёргарлик, чидамлилик, имконият.

**Аннотация:** в обмен на физическую подготовку в этой статье выдвигается идея о том, что спортсмен будет обладать необходимым запасом двигательных знаний и подготовки для дальнейшей технической подготовки, чтобы обеспечить специальный этап в беге, который поможет ему эффективно проводить специальную физическую, техническую и тактическую подготовку.

**Ключевые слова:** движение, физическая, техническая, тактическая и психическая подготовка, выносливость, возможность

**Annotation:** in exchange for physical training, this article highlights the idea that the athlete will have the necessary reserve of moving knowledge and training for further technical training, to provide a special stage in the ham that will help him to effectively conduct special physical, technical and tactical training.

**Keywords:** movement, physical, technical, tactical and mental training, endurance, opportunity

Жисмоний тайёргарлик ҳаракатли сифатларни тарбиялашга боғлиқ, бўлиб, у спортчига зарур тезлик, куч, давомийлик билан ҳаракатланиш имконини, шунингдек, хар томонлама жисмоний ривожланишга ва соғликни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Спортчи тайёргарлигининг ушбу бўлими тайёргарликнинг меҳнат ва муҳофаза (ҳимоя) амалиётидаги вазифаларни ечишда катта аҳамиятга эга. Спортчи тайёргарлигининг тўртта бўлимини кўриб чиқиш керак: жисмоний, техник, тактик ва руҳий тайёргарлик. Ҳар бир бўлимда икки томон ажралиб туради (умумий ва махсус), уларда тайёргарлик воситаларининг қўлланиши (ишлатилиши) назарий ва амалий йўналишларга эга бўлиши мумкин.

Умумий (хар томонлама) жисмоний тайёргарлик тўғридан тўғри мусобақа потенциалига кирмайдиган ҳаракатли сифатлар мажмуини тарбиялашга хизмат кетади (масалан, ядро улоқтирувчининг аэроб чидамлилиги). Бироқ умумий жисмоний тайёргарлик эвазига спортчи кейинги техник тайёргарлик учун зарур ҳаракатли билим ва ўқувлар заҳирасига эга бўлади хамда махсус жисмоний, техник ва тактик тайёргарликни самарали олиб бориши учун ёрдам берадиган махсус босқични ўзида таъминлайди Масалан, ядро улоқ тирувчининг аэроб чидамлилик босқичи етарли бўлмаса, у тезкор-куч машқларини бажарганида тез чарчайди ва ҳолдан тояди. Умумий жисмоний тайёргарлик воситалари умумтайёрловчи машқлар бўлиб ҳисобланади.

Махсус жисмоний тайёргарлик — спортчига мусобақа шароитида самарали қатнашиш имкониятини таъминловчи ҳаракатли сифатларни, қобилиятларни тарбиялашдан иборат. Шунинг учун, махсус жисмоний тайёргарлик тўғридан-тўғри спорт имкониятига тегишли ва табиийки, спорт натижасига таъсир этади. Тайёргарликнинг бу тури махсус тайёргарлик (ривожлантирувчи) ва мусобақали машклар ёрдамида олиб борилади. Техник тайёргарлик спорт техникаси ва унинг мукаммаллашишини ўрганишни ўз ичига олган. Спорт техникаси юқори самарадорлиги билан ажралиб турувчи ҳаракатли вазифаларни ечиш усулларидир. Самарасиз ҳаракатлар спортчига максимал натижаларга эришишга йўл қўймайди. Харакатли вазифалар спортда турли хилдаги хусусиятга эга бўлгани каби, техникага талаб хам шунчалик турли тумандир. Кўпинча спортчининг ҳаракатлари тежамкор бўлиши, яъни берилган тезлик билан ҳаракатланишда минимум қувват кетказилишни (энерготрат) таъминлаши лозим (сузиш, узок, масофаларга югуриш ва бошқаларда). Бошқа ҳолатларда ҳаракатлар аниқлиги ва жозибадорлиги техникага бўлган асосий бош талаб ҳисобланади. Кўпинча биринчи ўринда мақсад сари техникани

мусобақали холат билан узвий боғлиқ, ҳолда, самарадорликни камайтирмасдан тўғри йўлга қўйиш зарурлиги туради ва рақиб ҳолатини, ҳаракатини максимал даражада мураккаблаштиради (спорт ўйинлари ва беллашувларда).

Умумий ва махсус техник тайёргарликнинг турли спорт турларидаги ўрни бирдай эмас ва асосан мусобақали машқларнинг сони, турли-туманлиги, яқинлик даражаларига боглиқ. Масалан, акробат ёки гандболчининг техник тайёргарлигига енгил атлетикачи (узок; масофага югурувчи)дан кўра кўпроқ вақт ажратилади. Айниқса, спортчининг ўзлаштиришига осонроқ бўлиши учун катта ҳажмдаги турли ҳаракатлардан фақат қанчадир қисмини танлашга тўғри келадиган, мураккаб вазифаларни ечадиган шундай спорт туридаги мураббийларга қийин (курашнинг турли турларида). Бундай ҳолларда, ўзлаштирилган усуллар сони, ҳар бирини бажаришда усталик даражаси мусобақа имкониятининг тузилишига ва катталигига таъсир кўрсатади, бу эса спорт натижасига турлича таъсир кўрсатиши мумкин.

Техник тайёргарлик жараёнининг тузилиши ҳаракатли ҳолатларни ўрганиш жараёнидан унчалик катта фарқ килмайди. Бироқ максимал натижага эришиш учун интилиш тайёргарликнинг бу тўғрида специфик талаблар қўяди. Бунда мухим жиҳат — ҳаракатларга ўргатишга тўлиқ тайёр бўлишликни таъминлашдан иборат. Агар спортчининг жисмоний тайёргарлиги етарли бўлмаса, унда техникасида муаммолар кўпаяди. Масалан, ёш волейболчининг тезкор-куч тайёргарлиги жуда кам (сакровчанлик), ҳужумкор зарба бериш техникасини ўрганишда қийналади, бунинг натижасида спортчига қайтадан ўргатиш керак бўлади.

Техник тайёргарлик хусусиятларидан яна бири — хатоларни зудлик билан топиш ва уларни бартараф этишдир. Учраб турадиган хатоларни тўғрилаш фақатгина вақтни оладиган мураккаб жараён эмас. Спортчи мураккаб мусобақа жараёнида чарчаб, эмоционал толиққанда доимо ҳаракатларида ўша-ўша хатоларга йўл қўйиш хавфи туғилади, натижада спорт кўрсаткичлари пасаяди. Шунинг учун, ҳаракатли ўқувни (бошланғич ўқитиш босқичида) ва билимни (чуқурлаштирилган босқичда) шакллантириш албатта тўғри ҳаракатланишнинг назорати билан бирга олиб борилиши керак.

Спорт машғулоти учун специфик босқич — спорт пойдеворини мустаҳамлаш ва ривожлантириш босқичи ҳисобланади, яъни ҳаракатли ўқувни шакллантириш пайтидан бошлаб то бутун спорт фаолияти давригача давом этади. Мусобақа машқлари ва уларнинг машғулот шакллари техник тайёргарлик воситалари бўлиб хизмат қилади.

Тактик тайёргарлик бу — тактикани ўзлаштириш, яъни мусобақа ёки беллашув жараёнида тўғри қарор қабул қилиш учун зарур (муҳим) билим, ўқув ва тажриба орттиришдир. Умумий тактик тайёргарлик спортчининг мусобақа фаолияти шаклланишининг асосий негизини йўлга очади. Махсус тактик тайёргарлик эса танланган спорт тури буйича беллашувлар жараёнида тўғри қарор қабул қилиш санъатини эгаллашга ёрдам беради.

Спорт тактикаси беллашув олиб бориш усулларининг самарадорлигини ўзида акс эттирса, тактик тайёрлик маълум бир пайтда, келаси ҳаракатлар учун қарор қабул килишда намоён бўлади (югуришда оддиндаги рақибни изма из таъқиб қилиш ёки ундан ўзиб кетиш, футболда тўпни якка ҳолда олиб бориш ёки шеригига узатиш, ҳужум килиш ёки аддамчи ҳаракатлар, ўзгартириш қилиш ёки қилмаслик). Демак, агар 1500 м га югуришда нотўғри қўйилган тактикани яхши жисмоний тайёргарлик билан ўрнини қоплай олсак, тактик хатоларга йўл қўядиган қиличбознинг деярли ғалабага имконияти қолмайди.

Шундай қилиб, тактик қарор қабул қилиш (тайёргарликнинг бошқа усулларини амалга оширгандек) ютуқка эришиш имкониятини максимал даражада ошириши лозим. Шунинг учун тўғри тактика мусобақа имконияти рақиб имкониятидан ва бошқа тўсқинлик қилувчи омиллардан устун бўлган мусобақали ҳолатлар кетма-кетлигини танлашдан иборатдир. Бундан келиб чиқадики, доим ҳам фақат яхши ўзлаштирилган, қулай вариантларни қўллаш керак эмас, агар у рақибга қийинчиликлар туғдирмаса, одатда, ютуқ рақиб ҳаракатларининг мураккаблашишига олиб келади, керак бўлса бунда ўзингизга ҳам қийинчиликларни енгишга тўғри келади (масофага югуришда нотекис (бир хил бўлмаган) тезликда. Ҳаракатланиш, баскетболда ва футболда прессинг (таъқиб қилиш) ва х-к.). Айрим ҳолларда самарали қарши ҳолатга ўтишда рақибга енгиллик туғдириб қўйилиши мумкин (устунликни бериб қуйиш). Ундан ташқари, кўпинча тактик ҳаракатнинг бир туридан иккинчисига ўтиш, шунингдек, ҳаракатлар маскировкаси (зарба беришдан олдин қискартма силкитма, дарвозабон кўриш майдонининг чегаралanganлиги) ёки

ёлгон, алдамчи ҳаракатлар (чалғитувчи харакатлар) қўлланилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Т.С.Усманхўжаев,М.Б.Алиев,Ҳ.Ҳ.Сагдиев,Ф.К.Турдиев,Ж.А.Акрамов, С.Т.Усмонҳўжаев мураббийлар учун қўланма ТОШКЕНТ-"ИЛМ ЗИЁ_2006й
2. Нормуродов А.Н. Енгил атлетика. Тошкент: Ўқув-услубий қўлланма. ТошДШИ 2002 йил.
3. Шакиржанова К.Т. Енгил атлетика бўйича мусобақаларда котибият ишини ташкил этиш. Услубий қўлланма. ЎзДЖТИ нашриёти Тошкент-2010й.
4. Ходжаев П., Ачилов Т.С. Кураш ва якка кураш. Ўқув қўлланма. Давр нашриёти. Тошкент-2013 й.
5. Интернет манбалари.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA TARBIYACHISINING KASBIY MAHORATI

**Sh.H.Hazratova (O'zbekiston)**
Nurota tumani 19-sonli DMTT musiqa rahbari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachisining kasbiy mahorati va ularni shakllantirish omillari, tarbiyachi mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirish tizimi o'ziga xosligini tadqiq etishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** tarbiyachi, tajriba, ta'lim, tarbiya, matbuot, faoliyat, kasbiy mahorat.

**Аннотация.** Данная статья посвящена исследованию профессионализма воспитателя и факторов их формирования при воспитании в дошкольной образовательной организации, научных основ организации труда воспитателя, специфики системы приобретения педагогического опыта.

**Ключевые слова:** воспитатель, опыт, образование, воспитание, пресса, деятельность, профессионализм.

**Annotation.** This article is devoted to the study of the professional skills of the educator and the factors of their formation in the provision of education in a preschool educational organization, the scientific foundations of the organization of the educator's Labor, the peculiarity of the system of gaining pedagogical experience.

**Keywords:** educator, experience, education, upbringing, press, activity, professional skills.

XXI asr bolasini o'qitish maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalash, ularni sog'lom, yetuk barkamollik darajasiga etkazish vazifasini faqat yuksak tajribaga ega XXI asr tarbiyachisigina uddalay oladi. Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyaviy o'zgarishlar tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratdi. Bugungi zamonaviy ta'lim sohasidagi asosiy natija u bola tomonidan qay darajada o'zlashtirib olingani, bu uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi. Pedagog tomonidan tanlab olingan ta'lim uslublari intellektual jarayonlarning shakllanishiga, masalaning yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka, mustaqillikka va mas'uliyatga o'rgatishi, bolalarni mashq orqali o'z faoliyatini boshqarishga o'rgatmog'i lozim. Maktabgacha ta'lim sog'lom va har tomonlama rivojlangan bola shaxsini shaklantirish, o'qishga qiziqish uyg'otish orqali uni uzluksiz ta'lim olishga tayyorlashi zarur. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bu uchun albatta, avvalo tarbiyachining vazifasi, mahorati nihoyatda zarurdir.

Tarbiyachining kasbiy mahorat – bu ma'lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, usuliy tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Murabbiy faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi? Mohir avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu deganimiz Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni bo'lishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib tarbiyalanuvchilarni ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni

tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo murabbiyning oʻzi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqodi boʻla olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-axloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, pedagogik texnika - oʻqitish, ta'sir koʻrsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga oʻz his-tuygʻulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala - kasbiy faolligining bir koʻrinishi boʻlib, ta'lim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining oʻzaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi. Pedagogik ijod - pedagogning mahorat pillapoyalaridan koʻtarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yoʻlni, bu yoʻldagi qiyinchiliklardan qoʻrqmaslikni anglatadi. Oʻz navbatida bu sohada pedagogning pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda pedagogning aqliy, emotsional-irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bogʻliqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi. Pedagogik madaniyat-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgoʻyligi, toʻgʻriligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) - pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining oʻlchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagog-tarbiyachining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, oʻz kasbining mohir ustasi boʻlish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik oʻylash, pedagogik ish tutish lozim boʻladi. Bu deganimiz, oʻz faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bogʻlanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir gʻoyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim boʻladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yoʻllarini topish ustida oʻylash ham kerak. Tarbiyachi pedagogik mahoratining asosiysi oʻz ustida mustaqil ishlashi, izlanishidadir, kelajagimiz egalar boʻlgan yoshlarni bilimli va pokiza odob-axloqli qilib tarbiyalash har bir tarbiyachining asosiy vazifasiga aylanmogʻi lozim.

**Adabiyotlar roʻyxati**


1. Sh.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” –T.: Oʻzbekiston, 2017.
2. P.Yusupova. Maktabgacha pedagogika. –T.: Oʻqituvchi, 1993.
3. Internet saytlari.


## XVI-XVIII АСРЛАРДА МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ МУҲИТ ВА УНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ


**А.С.Сайитов (Ўзбекистон)**

Навоий давлат педагогика институти катта ўқитувчиси



**Аннотация:** мақолада XVI-XVIII асрларда Марказий Осиё ижтимоий- манавий муҳити ва Бухорода таълим - тарбия мазмунидаги ва касб-ҳунар ҳақида фикрлар келтирилган.



**Калит сўзлар:** Мовароуннаҳр, таълим –тарбия, маданият, ҳаёт, касб-кор, ҳунарманд, наққош-хаттотлари, таъриф.



**Abstract:** The article contains opinions about the socio-spiritual environment of Central Asia in the 16th-18th centuries, the content of education and profession in Bukhara.



**Key words:** Movarunnahr, education, culture, life, profession, artisan, painting and calligraphy, description.


Маълумки, “Таълим тўғрисида”ги қонунда белгиланган таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принципларида таълим ва тарбиянинг инсонпарвар демократик характерда эканлиги муҳим тамойил сифатида кўрсатиб ўтилган. Шуни назарда тутган ҳолда тадқиқот ишимизнинг мавзуси ҳам ўта долзарб мавзулардан бири ҳисобланади.

Биринчидан педагогика тарихи соҳасида шахсни ҳар томонлама шакллантириш, унинг қобилияти ва имкониятларини тўлиқ намоён этиш ва ривожлантириш учун қулай шарт–шароит яратиш учун таълим жараёнини самарали ташкил этиш, ўқувчиларнинг онгига тўғри йўл топа

билиш муҳим аҳамиятга эга. Ватан тарихининг илмий таҳлил ва изчил ёндашувни талаб қиладиган йўналишларидан бири XVI–XVIII асрларда ҳукм сурган шайбонийлар давлати тарихидир.

Иккинчидан XVI–XVIII асрнинг бошларида Мовароуннаҳрдаги иқтисодий тушкунлик ва сиёсий порокандаликни вужудга келтирган сабаблар, шу давр тарихий жараёнларининг салбий оқибатлари тегишли сабоқ бўлиб, мазкур воқеаларни чуқур англаб, ҳаққоний талқин қилиш муҳимдир. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон тарихини янги концептуал – методологик асосларда тадқиқ этиш, турли илмий муаммоларни асл манбаларга таянган ҳолда таҳлил этиш муҳим масалага айланди. Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан билан тарихий – маданий меросни ўрганиш ва тарғиб этиш, таълим-тарбия тизимида аждодларимизнинг бой интеллектуал меросидан фойдаланиш, ёшларни баркамол инсон даражасида тарбиялашга катта эътибор берилиб, бу соҳада улкан ишлар амалга оширилмоқда.

Учинчидан Ўзбекистон тарихининг муҳим бурилиш нуқтаси ҳисобланмиш шайбонийлар даврини илмий манбалар асосида таҳлил этиш фанимиз олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Ёшларга педагогика  тарихи фанини ўқитишда шайбонийлар даври тарихининг педагогик асосларини аниқлаш ҳозирга қадар яхлит илмий тадқиқот сифатида ўрганилган эмас. Бу эса мавзунинг долзарблигини янада оширади.

Тарихимизда Сомонийлар, Ғазнавийлар, Қорахонийлар, Хоразмшохлар, Темурийлар, Шайбонийлар, Аштархонийлар ва Манғитлар каби сулолалар ҳукмронлик қилганини биламиз. Шу нуқтаи назардан олганда Шайбонийлар даврининг долзарблиги шундан иборатки, биз бу даврни янада муҳимроқ ўрганмоғимиз, ўша даврда ҳукмронлик қилган ҳукмдорлар томонидан амалга ошрилган ишларни чуқурроқ таҳлил қилмоғимиз, очилмаган, сиру-синоатларни очиб бермоғимиз даркор.

XVI асрда бадиий маданият соҳалари темурийлар давридаги бой маданий меросга таянган ҳолда, ярим кўчманчи шайбонийлар турмуш тарзи анъаналари мужассамлигида ривож топди. Мовароуннаҳрнинг маданий маркази бу асрда аста-секин Самарқанд шаҳридан шайбонийларнинг янги маркази Бухорога кўчди. Бу ерга даврнинг алломалари, етук олимлари, шоирлари, мусиқачилари, наққош-хаттотлари, меъморлари, рассомлари ва бошқа соҳа билимдонлари тўпланиб, замонасининг илғор ижодий ва илмий салоҳиятини кўрсатиб турди ва баIIй маданият ривожига муҳим хисса кўшди.

Мовароуннахр ҳудудида қадимдан ривож топиб келаётган қурилиш-меъморчилик ишлари янги хукмрон сулола кучи ва мавқеини абадийлаштиришга қаратилган маданий ва маиший иншоотларнинг кўплаб  барпо этилишида ўз аксини топди. XVI аср меъморчилиги ривожини икки даврга бўлиш мумкин.

Биринчи давр XVI аср бошидан то 60-йилларгача даврни ўз ичига қамраб олган бўлиб, бунда темурийлар меъморчилиги аньаналарини давом эттириш ва шаҳар қурилишининг янги шарт-шароитларини ўрганиш ва топишга эътибор қаратилди.

Самарқанд шайбонийлар давлатининг пойтахти мавқеини сақлаб турган кезларида бир қанча қурилиш-меъморчилик ишлари амалга оширилди. Шаҳар ички қисмида кўркам ва хашаматли бинолар қад кўтарди. Регистон майдони кенгайтирилди, ободончилик ишлари бажарилди, маиший бинолар, ҳаммомлар, янги бозорлар бунёд этилди. Шаҳарнинг атрофида ва шарқий қисмидаги Нов маҳалласида зодагонлар учун боғ-роғлар барпо килиниб, Дили Афрўз боғининг гўзаллиги ажиб тароват касб этарди. Регистондан шимолрокда Олияи Хония мадрасаси Шайбонийхон даврида қурила бошлаган бўлиб, хоннинг ўлимидан кейин унинг ўғли Темур Муҳаммад султон (вафоти 1514 й.) томонидан давом эттирилиб, сўнгра рафиқаси Меҳр Султонбегим томонидан қурилиши тугатилган. Шунингдек Бухоро шаҳри ва унинг атрофида бир қатор бинолар қурилиб, боғ-роғлар барпо қилинди. Убайдуллохон 1516 йили катта ва гўзал боғ бунёд эттирди. Убайдуллохонинг кўмаги билан 1535-1536 йилларда улуғ шайх Мир Араб томонидан Мадраса, 1544 йили Абдулазизхон томонидан хонақа ва шаҳардаги Мағоки аттор, ҳамда Хожа Зайниддин хонақоси, Масжиди баланд каби ноёб меъморчилик иншоотлари барпо этилди. Мамлакатнинг бошқа ҳудудларида ҳам қурилиш ишлари тўхтаб колмади.

XVI асрнинг 60-йилларидан асрнинг сўнгги йилларигача вақтни ўз ичига олган иккинчи даврда Абдуллахон II нинг қаттиққўллик сиёсати туфайли мамлакатдаги ички бирикув, қурилиш ва меъморчилик соҳасининг ҳам ривожланишини таъминлади. Бухоронинг пойтахт сифатида қарор топиши шаҳарнинг архитектурасида ўзига хос ўзгаришларни вужудга келтирди. У ерда бир

қатор меъморчилик ансамбллари қад кўтарди. Жумладан: Модорихон (1566) ва Абдуллахон (1588-1590) мадрасалари, Говкушон Мадраса майдонида (1570) Хожа Масжид (1598) қурилиши меъморчилик санъатининг ижро уйғунлигини намойиш этарди.

Бундан ташқари, 1586-1587 йилларда барпо этилган Чорсу имoрати, шаҳарнинг шарқий қисми работида қурилган ҳашаматли Кукалдош мадрасаси (1568-1569), 1558-1559 йилларда қурилган Мир Муфтий кутубхонаси, Мумо Мирак девон мадрасаси ва шунга ўхшаш кўплаб бинолар XVI аср меъморчилик ёдгорлиги саналади.

Буларнинг барчаси пойтахт Бухоронинг нафақат иқтисодий қудрати ошганлиги, балки юксак маданият марказ сифатида таркиб топиб, уста-меъмор ва санъаткорлар масканига айланганлигидан ҳам далолат беради.

Шунингдек, бу даврда ижтимоий, диний, илмий-маърифий аҳамиятга эга бўлган кўплаб бино ва иншоотлар Мовароуннаҳрнинг бошқа ўлка ва шаҳарларида ҳам бунёд этилган. Самарқанд шаҳрида Султон Сайид амри билан гўзал боғ ва Чорсу имoрати (1567-1568), Жувамарданхон буйруғига кўра жамоат ҳаммоми, (1571-1578), Тошкентда Бароқхон ва Кўкалдош мадрасалари, Балхда Хўжа Камолиддин қурдирган масжид ва бошқа унлаб бинолар бунга мисол бўла олади.

Россиянинг савдо бўйича Бухородаги вакили инглиз Женкинсон бу давр меъморчилиги хақида шундай ёзади: «Бухоро жуда катта шаҳар, унда гиштдан иморатлар, ибодатхоналар, серхашам бинолар кўп… Ҳаммомлар жуда моҳирона солинган бўлиб, дунёда мисли йўқ..».

XVI аср меъморчилигида маҳобатли иморатлар, мадрасалар, масжидлар, саройлар, мақбаралар, хонақолар, кўприклар қуриш учун энг яхши уста ва меъморлар жалб қилинган бўлса-да, оддий иншоотлар: савдо-сотиқ бинолари, бозорларни ободонлаштириш, туғонлар, карвон йўллари бўйлаб сардобалар қуриш ва бунёд этиш ишларига ҳам катга эътибор берилганлиги ҳам бу даврдаги ўнлаб бино ва иншоотларнинт бизгача етиб келганлигида ўз аксини топади.

Бу даврда меъморчилик билан бир қаторда халқ санъатининг рассомлик наққошлик каби турлари ҳам ривожланди. Шайбонийхон 1507 йили Ҳиротни қўлга киритганда ўз хизматига бир қанча шоир, олим ва санъаткорларни жалб этган эди. Улар орасида машхур рассом Камолиддин Беҳзод ҳам бўлган. У Шайбонийхоннинг портретини реалистик услубда, катта маҳорат билан чизган. Кейинчалик Хиротни забт этган Шоҳ Исмоил Беҳзодни ўз хизматига олади. Беҳзод ва шоҳ Музаффарлар санъатини уларнинг шогирдлари давом эттиради. Бу икки санъат соҳиби ҳақида Мирзо Ҳайдар «Тарихи Рашидий» китобида қуйидагича ёзади: «Шоҳ Музаффар… унинг қалами (тасвирий) ғоятда нозиқ тиник гўзал ва пишиқдирки, қаровчининг кўзини қамаштиради.

Бу ҳунар усталари уни жуда эъзозлайдилар. Беҳзод бу уста мусаввирдир, гарчи шоҳ Музаффардек нозик қўл бўлмаса ҳам аммо бунинг қалами ундан маҳкамрокдир… — Тасвирда Абулхайрдан кейин… Шоҳ Музаффар ва Беҳзоддир… ва улардан кейин, бу кунга қадар, уларга ўхшаш бирор бошқа (рассом) пайдо бўлмади. Бу иккиси амир Алишердан тарбия топганлар».

XVI асрда яшаб ижод этган рассом ва наққошлар ўз замонасида яратилган «Шайбонийнома», «Фатхномаи хоний», «Футухати Шайбонийхон», «Тарихи Абулхайрхоний», «Таворихи гўзида Нусратнома» ва Акбаршоҳ замонида форс-тожик тилига таржима қилинган «Бобурнома» каби тарихий ва адабий асарларни чиройли расмлар, нафис нақш ва гўзал зарҳаллар билангина безаб колмасдан, балки бу асарларни чиройли фалсафий, рухий, тасвирловчи лавҳалар билан бойитиб, уларни янада жонлантирдилар.

Хаттотлик санъати айниқса, мураккаб, масъулиятли ва меҳнатталаб ҳунар эканлиги ўша даврнинг машҳур назариётчи хаттотлари томонидан битилган асарлардан ҳам сезилиб туради. Мир Али томонидан 1515-1519 йиллар орасида хаттотлик ҳақида назм билан ёзилган рисола, 1587 йилда Дарвиш Муҳаммад ибн Дўст Муҳаммад Бухорий томонидан ёзилган «Фавоид-ул-ҳутут» каби асарлар машҳурдир.

Бу даврда санъатнинг бошқа соҳалари каби мусиқа ва мусиқашунослар ҳам Мовароуннахрнинг турли шаҳарлари, айниқса Самарқанд ва Бухорода анча жонланди. Мусиқа асбобларидан рубоб, най, гижжак уд, қўбиз, сурнай, карнай, ноғопа, дутор, сетор, чанг, камонча, чилтор, танбур кабилар кенг тарқалган. Мазкур даврда хушовоз ҳофиз, бастакор, мусиқашунос ва истеъдодли машшокдардан мавлоно Муҳаммад Амин Муғанний, мавлоно Нажмиддин Кавкабий, мавлоно Ноий, мавлоно Ҳасан Кавкабий, мавлоно хожи Муҳаммад, мавлоно Ризо Самарқандий, мавлоно Бокий, мавлоно Нисорий, мавлоно Камолиддин Мир Махмуд, Мирзо Сабрий каби ажойиб санъаткорлар етишиб чиқди.

Бу санъаткорлар орасида нужум илмининг билимдони, шоир ва истеъдодли мусиқашунос мавлоно Нажмиддин Кавкабий (1473-1533) мусиқа илмининг амалиётчиси сифатидагина эмас, унинг назариётчиси сифатида ҳам танилган. У мусиқа бобида янги-янги куйлар басталаш билан чекланиб колмай, «Рост», «Бузург», «Хижоз», «Ироқ» каби макомларга бағишланган куллиётлар ва кўплаб бошқа асарлар муаллифидир.

XVI асрда шаҳар ва қишлоқ аҳолисининг фарзандлари ҳам мактабларда таълим ва таҳсил олган.Мадраса толиблари Мадраса хужраларида истиқомат қилган, дарсларга қатнашиш мажбурий бўлиб, тартибни бўзган толиби илмлар ўз вақтида огоҳлантирилиб, жазоланган.

Шайбонийлар даврида китобат ишларига қўлёзмаларни ҳуснихат билан кўчириш йўли билан нусхани кўпайтириш, уларни воқеабанд миниатюралар билан безатиш, чиройли ва чидамли муқоваларга жамлашга катта эътибор берилган. Шу тариқа, Алишер Навоий ҳомийлигида Камолиддин Беҳзод ва унинг сафдошлари томонидан яратилган Ҳирот рассомчилик мактаби вужудга келади. Зотан бу даврга келиб, бу ҳам, ўзбекларнинг бу борадаги маркази ҳам Ҳиротдан Бухорога кўчган эди.

**Адабиётлар рўйхати**


1. Муқимов З. Шайбонийлар ва тасаввуф шайхлари / XVXVI аср тасаввуф намояндалари илмий меросининг маънавий-маърифий қадриятларни юксалтиришдаги ўрни ва аҳамияти. Самарқанд, 2011, 16-18-бетлар.
2. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асрлар) Т.: Ўқитувчи. 1991., -212-б.
3. Ҳомидий, Ҳамиджон. Кўҳна Шарқ дарғалари: Бадиий-илмий лавҳалар.— Т.: «Шарқ», 2 004.-352 б.


## POWER POINT DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI


**M.A.Sayitova (O‘zbekiston)**
Samarqand-Filandiya instituti 1-kurs magistri



**Annotasiya:** Ta’lim jarayonida POWER POINT DASTURI asosida o‘quv mashg‘ulotlarni olib boorish va POWER POINT DASTURI imkoniyatlarida foydalanish haqida fikrlar keltirilgan



**Калит сўзлар:** POWER POINT, WORD, Excel dasturilari, multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob’yekt)lardan foydalanigan.


Taqdimot muharrirlarining maqsadi turli jarayonlar uchun taqdimotlar yaratishdan iborat. Bu maqsadda MicroSoft firmasi foydalanuvchilarga Power Point dasturini yaratgan. Slaydlar yaratishning usullarini Power Point 2016 varianti orqali tanishamiz. Power so‘zining ma’nosi “biror bir narsaga jon bag‘ishlash” yoki “qurilmalarni yoqish” kabi ma’nolarni anglatadi.

Point so‘zining ma’nosi esa “nuqta” degani. Demak, Power Point so‘zining ma’nosi “nuqtani ishlatish”, “nuqtaga jon kiritish” ma’nolari bilan mos keladi. Power Point taqdimot yaratish dasturlari ichida eng yaxshisi va qulay dastur hisoblanadi. Sababi WORD, Excel dasturlari bilan ishlashni o‘rgangan foydalanuvchilar uni tez o‘zlashtiradilar. Ma’ruzachi biror axborotni tinglovchiga yetkazishda namoyish materiallaridan foydalanadi.

Namoyish materiallari qog‘oz, elektron, plyonka, va prospektlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Power Point ushbu ko‘rinishdagi namoyish materiallarini tayyorlashda qo‘llaniladigan asosiy dastur hisoblanadi. Power Point dasturida inson faoliyatidagi (biror sohada) namoyish uchun to‘plangan materiallarni sla ydlarga joylashtirish, ularni multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob’yekt)lardan foydalanib shakllantirish, masalan: matn mazmunini rasm ko‘rinishida tasvirlash, maxsus effektlar yordamida bezash orqali tezkor taqdimotlar yaratishni ta’minlaydi. Power Point dasturi va uning ish oynasi Power Point dasturida ikkita asosiy tushuncha mavjud, slayd - multimedia tizimlarini ko‘rsatuvchi sahifa va taqdimot - slaydlar va maxsus effektlar to‘plami bo‘lib, u bitta faylda saqlanadi. Power Point boshqa dasturlar bilan chambarchas bog‘langan. Power Point taqdimotlarini yaratishda Word matnlarini, Excel elektron jadvallarini va grafikani bog‘lash mumkin.

MS Power Point dasturi yordamida turli mazmundagi ma’ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjatlarni slaydlar tarzida tayyorlash mumkin. POWER POINT dasturining imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

• Taqdimot (prezentatsiya) va slaydlar tashkil qilish;

• Rasm va grafiklarni slaydlarga joylashtirish;
• WEB uchun taqdimot (prezentatsiya) tashkil qilish;
• Internetda hamkoplikda ishlash;
• MS OFFICE dasturlari bilan hamkoplikda ishlash.

Power Point 2016 dasturini ishga tushirish Power Point 2016 dasturini yuklashdan oldin Windows 10 amaliyot tizimi dasturini yuklash lozim. Bu esa sodda, ya’ni hozirgi paytda kompyuter yuklanishi bilan amalga oshadi. Power Point dasturini yuklash jarayoni quyidagicha: “Sichqoncha” ko‘rsatkichi ekranning quyi qismida joylashgan Пуск (Start) tugmachasiga keltirilib chap tugmasi bosiladi. So‘ngra ekranda hosil bo‘luvchi dasturlar ro‘yxatidan PowerPoint 2016 tanlanadi va “sichqoncha” chap tugmasi bosiladi: Natijada kompyuter ekranidagi quyidagi boshlang‘ich oynadan dastur taklif qilayotgan slaydlarning ko‘rinishlardan biri, masalan, [Пустая презентация] tanlanadi. Natigada ekranga Power Point 2016 dasturining ish oynasi hosil bo‘ladi: Tez foydalanish paneli– foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun tez-tez foydalanib turiladigan buyruqlarning belgisini joylashtirish va zarur bo‘lganda foydalanish imkonini beradi. Unga yangi buyruqlarni qo‘shish uchun panelning oxiridagi tugmaga kelib “sichqoncha” chap tugmasini bosish kerak. So‘ng ro‘yxatdan kerakli buyruqlarni tanlash lozim. Sarlavha satrida ayni vaqtda tayyorlanayotgan hujjatning (faylning) nomi va muharrirning nomi aks etadi. Excelda tayyorlanayotgan taqdimot (презентация) deb nomlanadi.

Agar yangi hujjatga nom berilmagan bo‘lsa, u holda doimiy qabul qilingan birinchi hujjat uchun Презентация ikkinchisi uchun Презентация va hokazo nomlar beriladi. POWER POINT dasturi lentalari Power Point 2016 dasturida quyidagi lentalardan foqdalaniladi: ¬ Файл; ¬ Главная; ¬ Вставка; ¬ Дизайн; ¬ Переходы; ¬ Анимация; ¬ Слайд-шоу; ¬ Рецензирование; ¬ Вид.

1. Dasturning Файл lentasi fayllar ustida turli amallarni bajarishga imkon beruvchi buyruqlardan tashkil topgan: Сведения - fayl haqida turli ma’lumotlarni olish; Создать – yangi fayl hosil qilish; Открыть – mavjud faylni ochish; Сохранить – faylni saqlash; Сохранить как – faylni boshqa nomda saqlash; Печать – faylni chop etish; Закрыть – dasturni yopish.

2. Dasturning Главная - bosh lentasi Windows buferi bilan ishlash (Буфер обмена), slaydalar yaratish (Слайды), slaydlardagi shrift turlari, o‘lchami, ko‘rinishlarini o‘zgartirish (Шрифт), abzatslar bilan ustida turli amallar bajarish (Абзац), slaydlarga turli shakl va rasmlar qo‘yish (Рисование) hamda slaydlarni tahrirlashga (Редактирование) imkon beradi:

3. Dasturning Вставка – qo‘yish, o‘rnatish lentasi slaydlar hosil qilish, jadvallar, shakllar, diagrammalar, havolalar, turli obyektli matnlar, izohlar va belgilarni hamda multimedia amallarini (videoyozuv, ovozlarni) slaydlarga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan buyruqlardan tashkil topgan:

4. Dasturning Дизайн – dizayn lentasi yordamida taqdimot mavzusiga mos ko‘rgazmali ko‘rinishlarni tanlash, turli variantlardan foydalanish, slayd o‘lchamini va fonini o‘zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin:

5. Dasturning Переходы - slaydlarga o‘tish lentasi slaydlarni ekranga turli effektlarda chiqishini ta’minlab, slaydlarni ovoz bilan chiqishi va slaydlarni almashish vaqtini belgilashga imkon beradi:

6. Dasturning Анимация - obyektlarga animatsiya (harakat) berish lentasi buyruqlari animatsiya elementlarini qo‘yish, animatsiya effektlarini o‘rnatish, animatsiya sohasini belgilash, animatsiya tartibini o‘zgartirishga mo‘lgallangan:

7. Power Pointning Слайд-шоу lentasi yordamida slaydlarni ko‘rishni boshlash, ko‘rish vaqtini belgilash va slayd-shoyni sozlash kabi amallarni bajarish mumkin:

8. Dasturning navbatdagi Рецензирование – taqrizlash lentasi buyruqlari slaydlarda imloni tekshirish, yozuv tilini o‘zgartirish, slaydlarga izohlar qo‘yish, yozuvlarni qo‘lyozma ko‘rinishda yozish kabi amallarni bajarishga imkon beradi:

9. Power Point dasturining Вид – ko‘rinish lentasi slaydlarni ko‘rish rejimi xususiyatlarini o‘zgartirish, masshtablar, oynalar va makroslar bilan ishlashga xizmat qiladi:

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1.A.Sattorov. Informatika va axborot texnologiyalari “O‘qituvchi nashriyoti”;.T-2013
2. www. Ziyo.uz
3. www.tdtu.uz

**KECHIRIM EKSPRESSIV NUTQIY AKT SIFATIDA**

**D.Haydarova (O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada кечиримнинг экспрессив нутқий акт сифатидаги моҳияти, унга ёндош ҳодисалардан фарқи, юзага келиш шартлари ҳақида маълумот берилди. Илмий манбалар таҳлил этилди ва муносабат билдирилди.

**Kalit so‘zlar.** Nutqiy akt, ekspressivlar, so‘zlovchi emotsional holati, illokutiv maqsad.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о природе извениния как экспрессивного речевого акта, его отличии от родственных событий и условиях его возникновения. Были проанализированы научные источники и выражена реакция.

**Ключевые слова.** Речевой акт, экспрессивность, эмоциональное состояние говорящего, иллокутивная цель.

**Annotatsion.** This article provides information about the nature of apology as an expressive speech act, its difference from related events and the conditions for its occurrence. Scientific sources were analyzed and reactions expressed.

**Keywords.** Speech act, expressiveness, emotional state of the speaker, illocutionary purpose.

Kechirim «ijtimoiy ritual» va «samimiylik yoki nosamimiylik» belgilarini o’zida namoyon etuvchi ekspressiv nutqiy akt turlaridan biridir. S. Braun, P. Levinson kontseptsiyasida [Brown, Levinson 1987: 68, 187] Kechirim so‘rash nutqiy harakati so‘zlovchining (kechirim so‘ragan) yuzini «quyiga yo’naltiruvchi» va kechirim qabul qiluvchining yuzini “yuqoriga ko’taruvchi” harakat sifatida qaraladi. Kechirim so‘rash so‘zlovchining obro‘siga putur yetkazadi, ya’ni ayni shu nutqiy akt orqali u nutqiy muloqotda yutqazganligini his qiladi.

R.Rathmayr esa bu nuqtai nazarga e'tiroz bildiradi va “arzimas ish uchun uzr so‘rash nafaqat qabul qiluvchining, balki so‘zlovchining imidjiga ijobiy hissa qo‘shadi”, deb ta'kidlaydi. Chunki bu o’rinda mazkur nutqiy akt xushmuomalalik tamoyiliga amal qilgan bo’ladi.

Agar kechirim so‘rash uchun jiddiy sabab bo‘lsa: kechirim so‘ragan kishi o‘z aybini tan olgan holatida uning obro‘si pasayishi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Shuningdek, bu o’rinda kechirimni qabul qiluvchining yuqoriga ko’tarilishining sababi shundaki, endi u kelajakdagi munosabatlar taqdirini hal qilish huquqini qo’lga kiritdi.(Ratmayr 2001). : 22-23].

J.Searlning fikricha, ekspresivlar, tashqi dunyo bilan hech qanday munosabatda bo‘lmaydi, chunki so‘zlovchi “na dunyoni so‘z bilan uyg‘unlashtirishga, na so‘zlarni dunyoga moslashtirishga” harakat qilmaydi. [Searle 1982: 34].

R. Rathmayr J.Searlning mazkur fikriga e’tiroz bildirib, uning tavsifi ingliz tilidagi kechirim so‘rashning standart formulasiga asoslanganligi aytadi va bu haqiqatan ham so‘zlovchining his-tuyg‘ulari va munosabatlariga asoslanishi bilan to’g’ridir.

Bizningcha, kechirim o’z mustaqil illokutiv maqsadiga ega. Chunki bunda kechirimni qabul qiluvchining munosabati ham muhim.

V.Xolli kechirim so‘rashning oqlash, aybni tan olish kabi nutqiy aktlar o’rtasida aniq farq mavjudligini quyidagi belgilarda ko’rsatadi.

1) so‘zlovchining javobgarlikdan voz kechishi yoki uni cheklashi, hatto harakatga salbiy baho berishiga qarab;

2) qilingan harakat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, lekin uning salbiy bahosini bo’lishmaydi.

3) o‘z harakatlari uchun javobgarlikni zimmasiga oladi va shu bilan birga ularning salbiy bahosini baham ko‘radi. [Holly 1984: 97].

Yuqoridagi fikrlarni qo’llab-quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, bir-biriga yondosh bo’lgan mazkur nutqiy aktlar juda tez-tez, bir vaqtning o‘zida va ketma-ket amalga oshiriladi, kechirim so‘rash nutqiy aktini poliintentsional harakatga aylantiradi. Kechirim nutqiy aktida tan olishdan tashqari pushaymonlik yoki tavba qilish hissi ham muhimdir. V. Xolli tomonidan e'tiborga olinmagan bu jihat N.R. Norrik ta’rifida izohlanadi. Kechirim so‘rashning ijtimoiy funktsiyasi - bu ma'ruzachining noqulay vaziyat yuzaga kelishining oldini olish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi bilan namoyon bo’ladi, shuning uchun u har doim hissiy tavba holati bilan birga keladi. [Norrick 1978, 284].

Kechirim nutqiy akti muvaffaqiyatli kechishi shartlari quyidagilardan iborat:

1. So‘zlovchi qabul qiluvchiga qandaydir zarar yetkazgan harakatni sodir etgan bo‘lsa, u etkazilgan zararni tan oladi va qabul qiluvchidan xafa bo‘lmaslikni va ular o‘rtasidagi keyingi munosabatlarda ushbu hodisani hisobga olmaslikni so‘raydi.

2. So‘zlovchining harakati adresat uchun zararli (unga zarar yetkazadi), so‘zlovchi va qabul qiluvchi bu haqda biladi; so’zlovchi agar kechirim so‘ramasa, qabul qiluvchining xafa bo‘lishi yoki arazlashi mumkinligidan qo‘rqadi.

3. Ma'ruzachi adresat oldida o‘zini aybdor his qiladi, u adresatga zarar etkazganidan chin dildan pushaymon bo‘ladi va u bilan avvalgi munosabatni saqlab qolishni xohlaydi.

Xullas, kechirim nutqiy akti - bu kommunikativ muvozanatni tiklash va zararli harakat sodir bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan holatga qaytishga urinishning ifodasi. Bu o’rinda kechirim mazmuni (prozitiv strukturasi) va samimiylik sharti ham muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Bach K. Linguistic Communication and Speech Acts / K. Bach and R.M. Harnish. – Cambridge: Mass, 1980. – 327 p.

2.Wunderlich D. Studien zur Sprechakttheorie. – Frankfurt a. M., 1976. – 417 p.

3.Апресян Ю. Д. Перформативы в грамматике и словаре // Изв. АН СССР Сер.: Лит. и яз. - 1986. - Т. 45. - № 3. – С. 208 - 223.

4.Вахтель Н.М. Высказывание в позиции газетного заголовка: семантика и прагматика. – Воронеж: РИЦ ЕФ ВГУ, 2004. – 204 с.

5.Вежбицка А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 358//Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 251-275;

6.Гак В.Г. К проблеме сопоставительно-типологического анализа речевого акта и текста // Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. – М.: Наука, 1987. – С. 37-48.

7.Карасик В.И. Язык социального статуса. – М., 1992. – 330 с.

8.Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1986. – Вып. 17. – С. 22 - 129.

## RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBALAR

**Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi (O‘zbekiston)**
Namangan davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
*E-mail:fayzullayevaxovoxon23@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlantiruvchi ta’lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish borasidagi xorijiy tajribalar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqotlar, maktabgacha ta’lim, o‘quv mashg‘ulot, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, malaka, qobiliyat, rivojlanish, muhit.

**Абстрактный.** В данной статье освещен зарубежный опыт формирования социальной компетентности дошкольников в развивающей образовательной среде.

**Ключевые слова:** исследование, дошкольное образование, обучение, ученик, педагог, компетентность, способности, развитие, среда.

**Abstract:** In this article, foreign experiences on the formation of social competence of preschool children in a developmental educational environment are highlighted.

**Key words:** research, pre-school education, training, student, teacher, competence, ability, development, environment.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 9-sentabrdagi PQ3261-son va “O‘zbekiston Respublikasi

Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorlariga asosan, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Shu bois bolaning rivojlantiruvchi ta’lim muhiti orqali bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, ijtimoiy va jismoniy kompetensiyalarini rivojlantirish lozim.

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi - bolalarni ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ongida g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lmasligini ta’minlash hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan yetuk bo‘lgan fuqarolarini tarbiyalashdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirish rivojlanayotgan ta’limning asosiy dolzarbligi hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentsiya deganda biz bolaning shaxsiyatining ajralmas sifatini tushunamiz. Ijtimoiy kompetensiya muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, hissiy, kognitiv va xulq-atvor qobiliyatlaridan iborat.

Ijtimoiy kompetentsiya bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan mazmunli, o‘zaro aloqada bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Bu o‘zaro muloqot uchun kerak bo‘lgan individual mahoratdir. Ijtimoiy kompetentsiyaning uchta kichik yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular: moslashuvchan xulq-atvor, ijtimoiy ko‘nikmalar va tengdoshlar va kattalarning qabul qilinishi (tengdoshlarning qabul qilinishi ko‘pincha ijtimoiy kompetentsiyani baholash uchun ishlatiladi).

Jahon miqyosida bola shaxsining xavfsiz muhitda rivojlanishini ta’minlash mamlakatda innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaralmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “ijtimoiy institutlarning ta’limiy, madaniy va ma’rifiy salohiyatini rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish”[1]dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Jumdalan, xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy MTTlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilganligi hamda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish[2] zarurligiga alohida ahamiiyat berilmoqda.

Ma’lumki, 2019 yilda butun dunyoda Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 30 yilligi nishonlandi. Konvensiya inson huquqlari bo‘yicha eng keng ko‘lamda ratifikatsiya qilingan xalqaro bitim bo‘lib, u jahon miqyosida bolalarga nisbatan qarashlarni va munosabatlarni sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Konvensiyaga muvofiq, bolalar nafaqat passiv g‘amxo‘rlik ob’yekti sifatida, balki maxsus huquqlar to‘plamiga ega shaxslar sifatida qaraladi. 1994 yildan beri, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlat sifatida, O‘zbekiston barcha bolalar huquqlarini, shu jumladan omon qolish, ta’lim olish, qadr-qimmatga ega bo‘lish, shuningdek, zo‘ravonlik va kamsitilishning har qanday shakllaridan himoya qilinish bo‘yicha huquqlarini ta’minlashni o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekiston hukumati keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni boshlab yubordi va bolalar huquqlarini ilgari surish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bunday sa’y-harakatlarning barchasi mamlakatdagi bolalar va ayollarning vaziyatini xar tomonlama ko‘rib chiqishga va tahlilga asoslangan bo‘lishi zarurligini e’tirof etish tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni, shuningdek, O‘zbekistonda bolalar huquqlarini yanada ilgari surish yo‘lida yangi paydo bo‘layotgan muammolarni aniqlash uchun, O‘zbekistondagi bolalarning vaziyatini kompleks tahlil qilish ishlari amalga oshirildi. Tahlil natijalari UNISEFning «O‘zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili»[3] nomli ma’lumotnomada chop etildi.

Ushbu hujjat 2030 yilgacha bo‘lgan Milliy strategiyani ishlab chiqishga ham hissa qo‘shadi va ko‘mak beradi. Bu esa, 2030 yilgacha mo‘ljallangan kun tartibining «Hech kimni ortda qoldirmaslik» tamoyiliga asoslanishi hamda inson kapitalini rivojlantirish va bolalar farovonligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan va sarmoyalar kiritgan holda, O‘zbekistonni Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sari yetaklashga xizmat qiladi.

Xorij olimlaridan I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.S.Muxina, A.V.Petrovskiy va boshqa olimlar bolalarning ijtimoiylashui bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar. Ularning fikricha, bola ijtimoiylauvi oiladan boshlanadi.

J.Piaje bola ijtimoiylashuvining muhim davrlarini koʻrsatib oʻtadi, uning fikricha, «shaxsning bilish faoliyati kognitiv jarayonlar orqali yuz bergani uchun bolaning ijtimoiylashuvi jamiyat talablariga moslashadi, yangi tajribalar orqali muvozanatlashadi[4]».

«Bolalarda xulq-atvorni shakllanishi jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlari va qoidalarini ongli ravishda bajarish ularni ijtimoiylashuv darajalaridagi zarur mezonlardan biri» - deb hisoblaydi yunon faylasufi Platon [4].

Amerikalik sotsiolog Margaret Midning ta’kidlashicha, bolalarni ijtimoiylashuvi turlicha madaniy koʻnikmalar hamda an’analarga tayangan jamiyatda amalga oshadi[5].

Oʻzbekistonda ham bola shaxsining ijtimoiylashuvi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning jamiyatga moslashuvining ijtimoiy pedagogik va psixologik asoslariga oid ilmiy-uslubiy qoʻllanmalar yaratilgan.

N.Egamberdiyevaning «Ijtimoiy pedagogika» darsligida maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi jarayoni, ijtimoiylashuv omillari, mexanizmlari va vositalari yoritib berilgan.

V.Karimova, F.Akramova va N.Lutfullayevalar tomonidan yaratilgan “Ijtimoiy pmixologiya” nomli oʻquv qoʻllanmada shaxs rivojlanishida ijtimoiy psixologik muhitning oʻrni va ahamiyatni tahlil etilgan boʻlib, unda ijtimoiy psixologik muhit deganda, oʻsha guruhning a’zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalar va oʻzaro munosabatlaridan iborat boʻlgan emotsionalintellektual holati ekanligi qayd etilgan[5].

“Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish”[8] nomli metodik qoʻllanmada maktabgacha yoshdagi guruhda sub’ektiv rivojlanish muhitini tashkil qilishga qoʻyilgan talablar, odatdagi oilaviy muhit bilan taqqoslaganda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyoriy fazilatlari, hissiyotlari paydo boʻlishi va rivojlanishiga turtki boʻlishi kerakligi qayd etilgan.

Muallif G.Toxirovaning ta’kidlashicha, ijtimoiylashuvi va shakllanishi maqsadga yoʻnaltirilgan sharoitlarda oʻzaro ta’sir koʻrsatish, muhitning bevosita ta’siri, stixiyali va uyushmaganlik elementlarida koʻrinadi.

Ijtimoiylashuvning muvaffaqiyati kechishi xulq-atvorning oʻzgarishi va jamiyat talablariga rioya etish bilan bogʻliq boʻlib, individ ijtimoiy sifatlar orqali shaxsiy tajribani kashf qiladi[8] .

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning dastlabki ijtimoiy me’yorlarni qabul qilish va oʻzlashtirish imkoniyatlari mavjud boʻlib, bu quyidagi maqsad va vazifalarda ham oʻz ifodasini topgan:

-bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda MTT Davlat oʻquv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻquv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

-bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan oʻzaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

Bolaning jamiyatga moslashuvida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning oʻrni katta boʻlib, shaxs ijtimoiylashuvida yetakchi oʻrinni egallaydi. Ijtimoiy kompetensiyaning ta’lim tashkilotlarida rivojlantirib borilishi bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi.

**Adabiyotlar roʻyxati:**


1. Incheon declaration/Education 2030: Towards incluzive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26 P.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-5198-sonli Farmoni.
3. Oʻzbekistondagi bolalar vaziyatiinng tahlili. BMTning Bolalar fondi tomonidan nashr etilgan ma’lumotnoma. UNISEF 2020 y. Toshkent. Oʻzbekiston. E-mail: tashkent@unicef.org website:www.unicef.uz
4. Piaje J .Psixologiya intellekta Piter. 2003 -192 s.
5. Vigotskiy L.C. Voprosi detskoy psixologii –SPB.:
6. Mid.M.Kultura i mir detstvo. –M.: Nauka, 1988, 57 s.
7. Karimova V., Akramova F. va boshqalar. Ijtimoiy psixologiya. Oʻquv qoʻllanma. – T.: TDPU. -2011 y. – 154 b.

8. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo‘llanma. A.V.Shin, Sh.SH.Mirziyoyeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha a’lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.
9. Toxirova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuviga oid nazariyalar. SCIENCE AND INNOVATION. https://doi.org/10.5281/zenodo.7158482
10. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent-2022 y.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTERFAOL USULLAR ORQALI ERTAKLAR BILAN TANISHTIRISH

**Islomova Shahlo Madat qizi(O‘zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol usullar orqali ertaklar bilan tanishtirish yo‘lllari yoritib berilgan.

**Kalit so‘z:** Ertak, interfaol usullar, hikoya qilib berish, qayta o‘qib berish, ertak asosida lug‘at tuzish, qahramon ismini topish.

**Аннотация:** В данной статье описаны способы познакомить детей дошкольного возраста со сказками интерактивными методами.

**Ключевое слово:** Сказка, интерактивные методы, рассказывание истории, перечитывание, создание словаря по мотивам сказки, нахождение имени героя.

**Annotation:** This article describes ways to introduce fairy tales to preschool children through interactive methods.

**Key word:** Fairy tale, interactive methods, telling a story, re-reading, creating a dictionary based on a fairy tale, finding the name of the hero.

Ertak - bu imkonsiz narsa haqidagi hikoya. Bu yerda har doim hayoliy, ehtimol bo‘lmagan narsa bor: hayvonlar gaplashadi, bir qarashda oddiy narsalar sehrli bo‘lib chiqadi.

Ertak - bu hamma narsa yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos dunyo. Yoshingiz ulg‘aygach, bu unchalik oddiy emasligini tushuna boshlaysiz. Bolalar keyinchalik ertak shunchaki fantastika ekanligini tushunishadi, lekin ular hali ham uni yaxshi ko‘rishadi.

Ertak hikmati oddiy, ayni paytda boy va xilma-xildir. U bolaning hayotiga kirib boradi va unga ta'sir qiladi. Qahramonlarning xatti-harakatlari ssenariylari, obrazlari, qobiliyatlari bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Bolaga hayot haqiqatini ertaklar orqali taqdim etgan ma’qul, chunki ular oson idrok qilinadi, tili sodda va rang-barang.

Avvalombor interfaollik nima ekanligi haqida biz o‘quvchilarga tushuncha berib o‘tishimiz lozim. Interfaollik bu - o‘zaro faollik, harakat, tasirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi, bu usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay sharoitni yaratish orqali bilim oluvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdan iborat.

Interfaol usullardan foydalanishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quydagi vositalardan foydalanish mumkin:
- kasbiy didaktik o‘yinlar;
- rolli o‘yinlar;
- kasbiy kompyuterli o‘yinlar;
- interfaol o‘quv adabiyotlari;
- axborotkommunikatsiya;
- metodik ko‘rgazmalardir.

Ertaklar bilan ishlash usullari va uslublari

| Usullari | Uslublar |
|---|---|
| Og‘zaki | Ertak o‘qish<br>qayta hikoya qilish<br>Suhbat<br>Ifodali o‘qish<br>Audio yozuvlarni tinglash<br>Multfilmlar tomosha qilish |
| Amaliy | Nutq o‘yinlari va mashqlar<br>Dramatizatsiya o‘yinlari<br>Teatr o‘yinlari<br>dramatizatsiya<br>O‘qishdan keyin chizish (hunarmandchilik). |
| Vizual | Illyustratsiyalar, rasmlar reproduktsiyalari, o‘yinchoqlar, tematik albomlarni tekshirish Mnemonika bilan ishlash Ko‘rgazma dizayni |

Ushbu usul va uslublardan foydalanish kognitiv faollikni rivojlantirishga, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shaxsiy xususiyat sifatida shakllantirishga yordam beradi va ijodkorlik amalga oshiriladigan harakatlarni o‘rgatadi.

Har bir pedagog ertak aytib berish mahoratini egallashi kerak, chunki, ertak janrining o‘ziga xosligini yetkazish juda muhimdir.

Zamonaviy bola uchun ertakni o‘qish, uning qahramonlarining obrazlarini bo‘yash, syujet haqida gapirish yetarli emas. 21-asrning bolasi bilan ertaklarni tushunish, yashirin ma'nolarni va hayot saboqlarini birgalikda izlash va topish kerak.

Barcha ishlar o‘yin shaklida amalga oshiriladi, biroq ayni paytda kognitiv va tarbiyaviy aloqa elementlari saqlanib qoladi.O‘qituvchining vazifasi ertak bilan ishlashning an'anaviy usullari va uslublaridan (o‘qish, hikoya qilish, qayta hikoya qilish, ertaklar asosidagi spektakllar, multfilmlar va filmlarni tomosha qilish) voz kechish va ertak materialidan noan'anaviy tarzda foydalanishga yondashishdir. biz «oddiydan murakkabga» tamoyiliga rioya qilamiz; biz guruhda qulay ob'ekt-fazoviy rivojlanish muhitini yaratamiz.

Bolaga tayyor javob berish emas, balki bu javobni birgalikda topishga yordam berish muhimdir; bola tinglashni xohlaydi; tabassum va yumshoq intonatsiyalardan foydalanish lozim.

*1. Harakatlanadigan suratlar bilan ishlash metodikasi kitobning o‘z shakli bilan belgilanadi.* Bolalarga yaxshi tanish bo‘lgan ertaklar va hikoyalarga ishlangan diafilmlar va diapozitivlar bolalarga monologik nutqni o‘rgatish uchun ayniqsa, juda qulaydir.

2. *Surat asosida ijodiy to‘qishni maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi.* Hikoya suratda tasvirlangan har qanday narsa haqida bo‘lishi mumkin. Bolalarning tasavvur asosidagi og‘zaki to‘qima hikoyalari monologik nutq turlaridan biri hisoblanadi. Surat asosida ijodiy to‘qishni maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi. Hikoya suratda tasvirlangan har qanday narsa haqida bo‘lishi mumkin.

3. *Ertakni "qayta aytib berish".* Bolalarni har qanday ertakni eslab qolishga taklif qiling va unda bir xil qahramonlar bilan boshqa hikoya chizig‘ini o‘ylab toping yoki kamida bitta yangi qahramon qo‘shing.

4. *Savol-javob*. Bu ertak qaysi ertakdagi qahramon xislatlari beriladi qaysi qahramon voqealar bayoni qaysi ertak?

5. *Ertaklarga ishlangan multfilimlar.*

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida ertaklar bilan ishlashning noan'anaviy usuli**

*1. Ertak asosida lug‘at tuzish.*
*2. Ertak asosida kitob yasash.*
*3. Qahramonning ismini ayting.*
*4. Qahramonning harakatlari.*
*5. Keling, qahramonga yordam beraylik.*
*6. Bosqichma-bosqich.*
*7. Qahramonga ertakni topishga yordam bering.*

*8. Qahramon bilan uchrashuv.*
*9. Qahramonlar qo'shig'idan ertak o'rganing.*
*10. Mimika va imo-ishoralar bilan ko'rsatish.*

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm,ziyo,2006
2. Jahongirov G'. "O'zbek bolalar folklori". "O'qituvchi" 1975
3. Madayev Omonulla "O'zbek xalq og'zaki ijofi" Toshkent 2010
4. Oisha Kuchkarova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni" "Oriental Art and Culture" jurnali 2022
5. Yo'ldoshev Q. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi. Dasturiy qo'llanma. –T.: rtm, 1994
6. Zunnunov A "Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi" –T.:2010


## "VIDEOTOPISHMOQ" METODI ORQALI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH


**Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi (O'zbekiston)**
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida videotopishmoq metodining foydalanilishi usuli, ahamiyati, ta'lim sifati samaradorligini oshirishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan.



**Kalit so'zlar:** innovatsiya, metodlar, estetik tarbiya, pedagogik texnologiyalar, tasviriy faoliyat.



**Аннотация:** в данной статье рассматривается метод,важность использования метода видеозаписи в обучении изобразительной деятельности,его роль в повышении эффективности качества образования.



**Ключевые слова:** инновация, методы, эстетическое воспитание, педагогические технологии, изобразительная деятельность.



**Annotation:** this article reflects on the method,importance of using the videotape method in the training of visual activities,its role in improving the effectiveness of the quality of Education.



**Keywords**: innovation, methods, aesthetic education, pedagogical technologies, pictorial activity.


Hozirgi kunda barcha ta'lim sohalarida innovatsion faoliyat asosida o'quv jarayonini tashkil etish muhim talablardan biridir.Innovatsion pedagogik texnologiyalar har qanday o'quv jarayoni uchun yordamchi kuch sifatida xizmat qiladi.Maktabgacha ta'lim sohasidan tortib oliy ta'lim sohasigacha ta'lim sifatining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion pedagogic texnologiyalardan unumli foydalanib kelinmoqda.Zero,bu orqali zamon talablariga javob berish maqsad qilib qo'yilgan. Xususan,maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarning har tomonlama qobiliyatlarini rivojlantish uchun ham innovatsion metodlar juda keng foydalanilmoqda. Va bundan tashqari, mental arifmetika,tasviriy faoliyat,chet tillarining fanlarga doir zamonaviy usullar(metodlar) bilan o'qitilishi ham innovatsion rivojlanish uchun poydevor bo'lib kelmoqda. Fikrimni L.V.Kantarovichning innovatsiyalarning samaradorligiga urg'u bergan fikrlari bilan to'ldirmoqchiman: "Innovatsiya – amaliyotda qo'llanadigan hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablarni qoniqtiradigan, mos keluvchi sohalarda samara beradigan ilmiy ixtiro yoki kashfiyotdir"[29] . L.V.Kantarovich fikriga pedagogik jihatdan yondashilsa, innovatsiyadan pedagogik faoliyatda foydalanish innovatsion pedagogik jarayon talablarini qoniqtirish bilan birga,ta'lim sohasida samara beruvchi yondashuvdir.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limning pedagogik faoliyatida turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida mashg'ulot jarayonlarini tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviyinnovatsion tasviriy faoliyat o'quv mashg'ulotlar orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga

[29] Кантарович Л.В. Системный анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. – Москва.: Наука., 1986. -151 с.

tayanishi kerak. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish,yasash qurish mashg‘ulotlarini bajaradilar. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar, ularning o‘ziga xos sifatlari, shakli, rangi, kata-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o‘z hayotida, jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo‘ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo‘yib, o‘shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o‘rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo‘lish, to‘g‘ri baholash, o‘z ishidan va o‘rtoqlarining ishidan xursand bo‘lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, proportsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo‘ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg‘uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o‘sishida muhim o‘rin egallaydi. Tarbiyachilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Bu faoliyatning mashg‘ulot jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish tarbiyachining mahoratini hamda bolalarning estetik tasavvur,ijodiy idrok qobiliyatlarini rivojlantiradi.Tasviriy faoliyatning 4 mashg‘ulot turlarida ham “videtopishmoq” metodidan foydalanish o‘quv mashg‘ulotiga innovatsion yondashuv bo‘la oladi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: Tarbiyalanuvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

Tarbiyalanuvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini chizishadi; Jarayonlarning mohiyatini applikatsiya mashg‘ulotlarini bajarish orqali eslab qolishadi;

Tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga qurish yasash orqali javob qaytarishadi. Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida loy ishi(plastilin,loy,ganch) orqali tushungan tushunchalariga ijodiy yondashishadi. Masalan, «mevalar» , «poliz ekinlari»,«ertak qahramonlari» (kichik,o‘rta guruh ) kabilar asosida tarbiyalanuvchilarga tabiat haqida ekologik tarbiya, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. «Yil fasllari»,«Navro‘z bayrami», «Hosil bayrami» (O‘rta guruh) mavzulari orqali bolalarga milliy urf-odatlar,an’analar haqida ma’lumotlar berib boriladi.Navro‘z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi.Navro‘z arafasida keksalar maxsus idishlarga yetti xil don ekib, ularning unib chiqishiga qarab, kuzda olinadigan hosil cho‘g‘ini chamalashgan.Ba'zi joylarda esa Navro‘z kunlarida paydo bo‘lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go‘yo yil seryog‘in va barakali bo‘lar ekan.Bu metodni kata guruhdagi tarbiyalanuvchilarning tasviriy tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham qo‘llash mumkin. Masalan, ekran orqali sonlar ,ranglar yoki harflar ko‘rsatiladi. Galma-galdan shu rangga mos rasmlar chizishadi, rasmlarni ifodalaydigan ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Tarbiyalanuvchilar ekrandagi topishmoqlarga applikatsiya yoki loy ishi orqali javob qaytarishadi. Bunda o‘quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so‘z boyligi oshadi va har tomonlama qobiliyatlari rivojlanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalarda badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o‘sadi va bu orqali maktabda o‘qishga tayyorlanib boriladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki,”Videotopishmoq metodi” orqali tasviriy faoliyatning applikatsiya ,chizish,qurish-yasash,loy ishi turlarida bemalol qo‘llash mumkin.Bu orqali bolalarda ijodiy qobiliyatlar,aqliy,jismoniy hamda estetik tarbiya ham birgalikda rivojlanadi. Zero,hozirgi kunda ta’lim sifati samaradorligiga e’tibor maktabgacha ta’lim bosiqichidandir.Chunki,uyning ham poydevori mustahkam bo‘lsa, uy chiroyli va sifatli bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. T.: O‘qituvchi, 1993.

2.Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga oʻrgatish metodikasi”. “Choʻlpon”, T:.2010y.
3. Балабанов И.Л. Инновационный менеджмент: Учебное пособие для вузов. – СПб.: Питер, 2001. – 303 с.
4. Брайн Т. Управление научно-техническими нововедениями./ Managing technogical innovation – Москва: Экономика, 1989. -271 с. М.: Ekonomika, 1989

## YANGI OʻZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

**Meyliyeva Nafosat Gulomovna(Oʻzbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi oʻqituvchisi
**Xayriyeva Gulshan (Oʻzbekiston)**
Maktabgacha ta’lim yoʻnalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta’limning mazkur boʻgʻinini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual shaxsini shakllantirish, ta’lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasi boʻlmoqda. Ushbu maqolada yangi Oʻzbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv haqida soʻz borgan.

**Kalit soʻlar**: maktabgacha ta’lim tizimida ,ta’lim sifati, ta’lim tizimini isloh qilish, moslashuvchan modellar, davlat talablari, zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalar

**Аннотация**: В нашей стране дошкольное образование стало неотъемлемой частью системы непрерывного образования. В развитии этой части образования особый акцент делается на повышение качества интеллектуальной личности ребенка, а создание образовательных услуг является результатом последовательных реформ в сфере. В данной статье рассказывалось о современном подходе к развитию дошкольного образования в новой стране.

**Ключевые слова:** в системе дошкольного образования, качество образования, реформа системы образования, гибкие модели, государственные требования, современные информационно-коммуникационные технологии.

**Abstract:** In our country, preschool education has become an integral part of the continuous education system. The development of this link of education, the formation of the child's intellectual personality, and the creation of educational services, are paying special attention to improving the quality level, which is the result of consistent reforms in the field. This article talks about the modern approach to the development of preschool education in the new Uzbekistan.

**Keywords**: quality of education in the preschool education system, reform of the education system, flexible models, state requirements, modern information and communication technologies.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tayorlov guruh bolalarini savodga oʻrgatishda multimedia texnologyasidan foydalanish. Maktabgacha ta’lim oʻquv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, oʻquv tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muamolar va uni yechishni toʻgʻri hal qilish bilish, texnalogiya usullaridan foydalanish qiyinchiliklarini toʻgʻri yechimini topishga yoʻnaltiriladi. Ta’lim - tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumbashariy qadiryatlariga bogʻlangan holda maktabgacha yoshdan boshlab oʻzligini anglash, erkin fikirlash, gʻurur tuygʻularini shakillantirishga qaratiladi. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni intelliktual salohiyatini roʻyobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Asosan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egallashida multimedia ta’limi ham muhim oʻrinda turadi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya olayotgan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida aynan 5-7 yoshli bolalar tayorlanadi. Ulardagi intellektual salohyatni shakillantirishning boshlangʻich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi aynan shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta’limda multimedia ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda .Hozirgi texnologyalar davrida maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini multimedia vositalari orqali foydalanib bolalarga ta’lim berish va yangi texnologiyalar bilan tanishtirish. Multimedia vositalari

orqali har hil o‘yinlar metodlar taxlab bolalarga bilimlarni qiziqarliroq o‘rgatish. Maktabga tayyorlov guruhlarini savodga o‘rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosiy va yetakchi shakli mashg‘ulotdir. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishga alohida ahamyat berilyapti. Multimedia vositalariga, birinchi navbatda, eliktron darsliklar, video-audio rasmalar, kompakt desklar, turli taqdimotlar kiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediani turli xil mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Masalan, tabiat bilan tanishtirishda, elementar matematek ta’ssavurlarni shakillantirishda hamda xorijiy tilda mashg‘ulotlarni tashkil etishda multimedia vositalari yuqori natijalar beradi. Mashg‘ulot jarayonida bolalarni zeriktirib qo‘ymaydi va ularni mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini yana ham ko‘proq oshirishda keng imkonyatlarni yaratib beradi. Shuningdek, multimedia ta’limidan zamonaviy, innovatsion ta’limning bir shakli sifatida mashg‘ulotlar jarayonida to‘g‘ri foydalanish maktabgacha ta’limda faolyat olib borayotgan tarbiyachilarning ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakillantirishga xizmat qiladi. Multimedia texnologiyasi orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Kompyuter mashg‘ulotlarining aksaryati birlashgan mashg‘ulotlar shaklida o‘tkaziladi. Yuqorida takidlanganidek, mashg‘ulot davomida bolalarning kompyuter oldida 15 daqiqadan ortiq otirishi mumkin emasligini e’tiborga olinishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, “ Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim –tarbiyasiga qo‘yilgan Davlat talablari” da ham bolaning kompyuterda shug‘ullanishi 5-20 daqiqa etib belgilangan. 15 daqiqaga rejalashtirilgan material o‘tib bo‘lib 20 daqiqali oraliq bosqichi o‘tkaziladi. Ushbu oraliq bosqichda tarbiyalanuvchilarni hisobga olib, kompyutersiz amalga oshiriladigan mashg‘ulot o‘tkaziladi. Kompyutersiz o‘tkaziladigan ushbu oraliq mashg‘ulotlarda, mavzuga tegishli og‘zaki savol – javoblar, topishmoqlar, turli mazmundagi o‘yinlar, amaliy tadbirlar. Shuningdek, she’r, ashula aytiladi va jismoniy mashqlar bajariladi. Jumladan, ko‘z toliqishini bartaraf etuvchi ko‘z gimnastikasi bir necha daqiqa davomida ko‘zni ochib yumish, xonaning burchaklariga navbatma - navbat nazar tashlash kiradi. Oraliq bosqichdan so‘ng yana 15 daqiqali asosiy mashg‘ulot davom ettiriladi. Maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o‘rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan uch tomonlama amalga oshiriladi.

1. Kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar tayyorlanadi hamda Internet va masofali ta’lim ashyolaridan foydalaniladi.

2. Kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga yangi material o‘rgatiladi. Shuni takidlash kerakki, 6-7 yoshli bola kattalar kabi kompyuterda ishlashga qodir emas shuning uchun. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangi materialni o‘rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o‘ynaydi.

3. Bilvosita dialog – virtual axborot muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakillantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo‘shimcha vositalar – kompakt desklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va boshqalar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta’lim – tarbiya materiallari denamik xarakterga ega bo‘lib, ular animatsiya bilan berilgan bo‘ladi. Ta’lim tizimida foydalanib kelinayotgan an’anaviy ko‘rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan tarbiyachi A harfi an’anaviy usulda o‘rgatish mobaynida, bolaga uning qog‘ozda yoki kartonda yasalgan shaklini ko‘rsatadi (static vosita). Multimidia vositasida ko‘rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o‘ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta’lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta’lim tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanyapti. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi to‘liq ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologyasi sifatida qabul qilmoqdalar.

Xulosa qilib, maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni

keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. Uslubiy qo‘llanma. T: 2015

2. N.N.Djamilova. “Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T: 2018.

3. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Xakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.

## INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH OMILI SIFATIDA

**X.B.Alikulova (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Umumiy pedagogika va psixologiya”kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya** Maqolada ta’lim tizimida innovatsiyalar negizida o‘qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarning mohiyati hamda hozirgi zamon pedagoglarining innovatsion faoliyati masalalari ifodalanganligi haqida fikr yuritilgan.

**Abstract** In this article discussed about current pedagogic’s perfect issues. National behavior and wisedom are analyzed from Abdulla Avlony’s plays.

**Абстрактный** В статье рассматривается важные вопросы нынешних дидактических произведений. Национальная этика и эстетика анализируется на основе произведений Абдулла Авлании.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orasida innovatsion ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham innovatsiyalar negizida o‘qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarning mohiyati yoritiladi. Xo‘sh, innovatsiyalarning o‘zi qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

Innovatsiyalar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondashuvlar;
- g‘ayri oddiy tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari.

Shunga ko‘ra, ta’lim innovatsiyalari – bu ma’lum ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashdan sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko‘zlanadi.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimidagi har qanday yangilik ham innovatsiya bo‘la olmaydi. Bu o‘rinda “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari farqlanadi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya deb yuritiladi.

Ular o‘rtasidagi farq quyidagilarda ko‘rinadi:

| **Asosiy farqlar** | |
|---|---|
| **Novatsiya** | **Innovatsiya** |
| 1) amaldagi nazariya doirasida qo‘llaniladi;<br>2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi;<br>3) metodlar yangilanadi;<br>4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi | 1) tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi;<br>2) ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;<br>3) sub’ektlarning faoliyati to‘la yangilanadi;<br>4) yangi texnologiyalar yaratiladi;<br>5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;<br>6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi |

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayonidir.

Ta’lim tizimida innovatsionlar quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi (I.P.Podlasiy)**:**

- pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;
- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- o‘quvchi faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;.
- ta’lim mazmunining yangilanishi;
- o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi;
- ta’lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi.
- ta’lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi.

Pedagogning innovatsion faoliyati. Ta’lim jarayonidagi har qanday innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga yangiliklarning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi. Pedagogning bu boradagi faoliyati “innovatsion faoliyat” deb yuritiladi.

Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablarning bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni echishga qaratilgan faoliyat. Bu kabi faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning asosiy belgilari quyidagilardir:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyat – pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

V.Slasteninning fikriga ko‘ra innovatsion (ijodiy) yondashuv:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (oʻzgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyatiga ega boʻlishni ifodalaydi.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish toʻrt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Moʻljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. Oʻzgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. Oʻzgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyat – ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Innovatsion faoliyat yangi gʻoyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta’lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala echimiga yoʻnalitirilganligi sababli oʻqituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Oʻqituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik toʻsiqlar mavjud. Bularning birinchisi oʻqituvchining oʻzi koʻnikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya’ni oʻqituvchilarda ijodkorlikning etarli emasligi boʻlsa, yana bir sabab yangi va noma’lum narsalar har doim odamlarda choʻchish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Innovatsion faoliyat oʻqituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat boʻlib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Pedagogda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari. Oʻqitish jarayoni yoki ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvni qaror toptirish oʻz-oʻzidan roʻy bermaydi. Bu jarayon bir necha bosqichda kechadi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi;

2-bosqich: mavjud tizimga ayrim yangi gʻoyalar, metodlar kiritiladi.

3-bosqi: yangi gʻoyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqiladi.

4-bosqich: pedagog oʻqitish va tarbiyalashga oid oʻz kontseptsiyasi yoki metodikasini ishlab chiqadi.

Pedagoglarning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:
- yangilikni qoʻllashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Shu bilan birga pedagogning innovatsion faoliyatini uning motivatsiyasi, malakaviy tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga oid bilim va malakalari, pedagogik faoliyatdagi muammo (toʻsiq)larni bartaraf eta olish mahorati bilan ham belgilanadi.

Oʻqituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. Oʻqituvchidan yangiliklarni oʻzlashtirib borish bilan birga ularni oʻz faoliyatida qoʻllashi va pedagogik jamoa oʻrtasida targʻib qilishi talab etiladi.

Pedagoglarda innovatsion faoliyat koʻnikmalarini shakllantirishda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a’zolarining jahon ta’lim yangiliklardan xabardorliklari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvining natijalari quyidagilarda koʻrinadi:
- faoliyat maqsadini aniq belgilab olishida;
- nostandart vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishida;
- oʻquv yoki ilmiy-tadqiqot jarayoni bilan bogʻliq masalalarni samarali echish usullarini egallay olganligida;
- muammolarni hal etishda eng samarali vosita va metodlarni tanlay bilishida;
- oʻz ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida;
- faoliyati natijasini nazorat va tahlil qila olishida;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;
- yangi gʻoyalarni izlab topa olishida.

Shunday qilib, uzluksiz ta'limda tizimida o'qituvchining innovatsion faoliyati; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni amalda qo'llash imkoniyatlari bilan tanishib, pedagogik faoliyatini zamonaviylashtirib va uni rivojlantirishining asosiy printsiplari va jadal, nojadal yo'nalishlari joriy etish zurur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
2. Golish L. V. "Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish". –Toshkent: Tasis, 2001.
3. Golish L.V. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish" -Toshkent: Tasis, 2001.
4. M.Kamoldinov, B.Vahobjonov Innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma -Toshkent: O'MKHTM "Turon-iqbol", 2006.
5. M.Kamoldinov, B.Vahobjonov 101 savolga javob. -Toshkent: "Turon-iqbol", 2007.
6. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. -Toshkent: Lider Press, 2009.
7. www. tdpu. uz
8. www. pedagog. uz
9. www. Ziyonet. Uz


## 7 YOSHLI BOLANING MAKTABGA TAYYORGARLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISH


**Rashidova Madina Karimova (O'zbekiston)**
Navoiy viloyati Konimex tumani 12-sonli DMTT tarbiyachisi



**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshidagi bolalarda elementar matemetik tasavvurlarni rivojlantirishni amalga oshirish muvaffaqqiyati tarbiyachi ixtisosiga, uning kasbga oid mahoratiga bog'liq. Bolalarda elemantar matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari ishni to'g'ri rejalashtirish va tashkil qilishsiz hal bo'lmaydi. Har xil buyumlar to'plamini sanash, ularning qatorda kelish tartiblarini aniqlash jarayonida sonlar mohiyatini o'zlashtirish amalga oshiriladi. Bolalar bilan bajariladigan hamma ishlar ular oldingi bosqichlarda olgan bilimlar va ularni hisobga olish asosida tashkil qilinadi. O'qitishni o'tilganlarni takrorlashdan boshlash kerak. Har qaysi yangi bilim oldin o'zlashtirilgan bilimlar tizimiga kiritilishi zarur. Mashqlar miqdori yetarli bo'lgandagina o'quvchilarda puxta malaka va ko'nikmalar shakllanishi mumkin.



**Kalit so'zlar:** matematik tasavvur, shakllar, bilim, o'zlashtirish, mashq, ko'nikma.


Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning shakl haqidagi bilimlari mustahkamlanadi va sistemaga solinadi. Bolalar maktabga borgunlariga qadar quyidagi geometrik shakllarni farq qilish, nomlarini aytish, asosiy xossalari va belgilarini bilishlari kerak: doira, oval, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, shar, kub va tsilindr. Bu shakllarni bolalar rangi, kattaligi, proportsiyasi, u yoki bu figuralarning fazoviy holatlaridan qat`i nazar, bilishlari, hayotiy buyumlardan o'zlariga tanish shakllarni topa olishlari kerak. Bu ishga, odatda, mashg'ulotlarning bir qismi ajratiladi. Mashg'ulotlarda shu maqsadlarda o'yinlar o'tkaziladi, bu o'yinlarning shartiga ko'ra, bolalar atrofdagi buyumlardan o'zlariga tanish geometrik shakllarni topishadi. Masalan, tarbiyachi kvadrat shaklidaги buyumlarni aytishni taklif qiladi. Buyumni to'g'ri topib, uning shakli haqida gapirib bergan har qaysi bola bittadan fishka oladi. Ko'p buyum aytgan (ko'p fishka to'plagan) bola yutib chiqadi. Tarbiyachи buyumni ko'rsatmasdan, uning tasviri tushirilgan kartochkani ko'rsatishi mumkin. Bolalarga bu figuralarni farq qilishnigina emas, balki ularni tiklay olishni ham o'rgatish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga katakli qog'ozga tomonlari 4 tadan katakka teng kvadrat chizishni tavsiya qiladi. So'ngra tomonlari oldingisidan 2 ta katak ortiq bo'lgan kvadrat chizishni, ustki va pastki asoslari 4 tadan katakka, chap va o'ng tomonlari 2 tadan katakka teng to'g'ri to'rtburchak chizishni taklif qiladi. Topshiriqni bajarishganidan keyin bolalardan qanday figurani tasvirlaganlarini so'rash kerak. Tarbiyachi bolalarga bunday topshiriq berishi mumkin: tomonlari teng (har biri 4 katakdan) to'rtburchak chizing, uni ikkita figuraga ajrating (ajratishni chapdan o'ngga

yoki yuqoridan pastga qaratib bajarish mumkin) va qanday figuralar hosil boʻlganini ayting. Keyingi mashgʻulotlarda bolalarga rasmi chizilgan kvadratni "burchagidan burchagiga" boʻyicha boʻlish va hosil boʻlgan figuralarni aytishni taklif qilish maqsadga muvofiq. U holda ham, bu holda ham bolalar figuralardan biri (toʻrtburchak, uchburchak)ni rangli qalam bilan boʻyashlari mumkin. Tayyorlov guruhida har xil alomatlariga koʻra, ya`ni rangi, shakli, kattaligi va miqdoriga koʻra buyumlarni guruhlarga ajratishga doir mashqlarga keng oʻrin beriladi. Bolalarga figuralarning toʻrtta-beshtadan har xil koʻrinishlari, uch-toʻrt xil rangda ikkitadan beshtagacha xil oʻlchamlarda beriladi. Ular bu figuralarning rangi va oʻlchamiga e`tibor bermay, oʻlcham alomati boʻyicha guruhlaydilar. "Tangram" (geometrik konstruktor) oʻyinida murakkab figuralar, ya`ni "quyoncha", "turnalar", "xoʻrozcha" va boshqa narsalarni bolalar ettita sodda figuralardan yasaydilar. Tarbiyachi bolalarni masalaning yechilish yoʻllarini ongli izlashga oʻrgatadi, ularga oʻylab koʻrish, fahmlash, soʻzlab berish, soʻngra oʻz yechimini tekshirishni taklif kiladi. Masalan, tarbiyachi bundaй deydi: "Bu figuraga qarang, u bizga nimani eslatadi? Ha, bu xuddi xoʻrozchadek, bu xoʻrozni "Tangram" oʻyinining yettita figurasidan tuzish kerak. Qarang, u qanday qismlardan iborat, har qaysi qism qanday figuralardan tuzilgan, ular qanday kattalikda va qanday joylashgan. Siz "xoʻrozcha" figurasini qanday tuzishingizni gapirib bering". Agar dastlab tarbiyachi figuralarni bolalar bilan birgalikda qarasa, keyinchalik ularga tahlil rejasini beradi, shundan keyin esa ularni mustaqil tahlil qilishga oʻrgatadi. Shuni esda saqlash muhimki, bolalarning amaliy harakatlaridan oldin masala echimining borishini aqalli oddiygina oʻylab koʻrilsagina, oʻyinlar qiziqarli boʻladi.

Bolalar olgan bilimlari kundalik hayotda, oʻyinda, mehnatda, turmushda, shuningdek boshqa mashgʻulotlarda doim mustahkamlanishi juda muhim. Bilimlarni mustahkamlashda didaktik oʻyinlar, jumladan, xalq didaktik oʻyinlari matryoshkalar, piramidachilar va boshqa oʻyinchoqlar bilan oʻynaladigan oʻyinlar muhim rol oʻynaydi. Fazoda moʻljal (oriyentatsiya) olish mashqlarini ta`minlovchi oʻyinlarga katta ahamiyat beriladi. Jismoniy tarbiya va musiqa mashgʻulotlarida bolalarning tartib sanoq son bilan shugʻullanishlariga, harakat yoʻnalishlarini aniqlashlari va hokazolarga toʻgʻri keladi. Geometrik shakllarni bilish,kattalik belgilarini ajrata olish va ular orasida oʻlchov munosabatlarini oʻrnata olish malakasi, buyumlar orasida fazoviy munosabatlar oʻrnata olishdan tashqari bolalar har doim rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, konstruksiyalash va boshqa mashgʻulotlarida foydalanishlari lozim. Bolalarning bilimlari borgan sari mustahkamroq va ta`sirchanroq boʻlib boradi, yangi sharoitlarga oʻtkaziladi, bolalar ularni mustaqil qoʻllashga oʻrganadilar, ularning foydasiga tushunadigan boʻladilar. Bolalarning sanashning , oʻlchay olishning muhim ekanligiga ishonch hosil qilishlarida ularga yordam berish zarur. Kattalar oʻzlarining matematik bilimnlaridan qanday foydalanishlari ( masofani oʻlchashlarini, oʻlchovni qanday olishlari, buyumlarni sanashlarini va h.k.) ni kuzatish tashkil qilinadi. Tarbiyachi bolalarga nima uchun odamlarga oʻlchay olish, sanash nima uchun kerakligini tushuntiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik bilimlarga va ularni egallashga qiziqish uygʻotish zarur. Bu maktabda matematikani muvaffaqqiyatli oʻqitishningt garovi boʻladi.

**Bolalar uchun amaliy ish.**

Bolalarning oldiga etarli tarzda har xil shaklli tayoqcha va taxtachalar qoʻyilgan. Tarbiyachi, boʻyi bir xil uzunlikdagi tayoqchalarni koʻrsatadi va bolalarga qoʻlidagi tayoqchalardan bittadan berib chiqadi, xuddi shu uzunlikdagi tayoqchani oldilaridagi tayoqchalar orasidan topishlari lozimligini aytadi. Bolalar tarbiyachi bergan tayoqchani oldilaridagi tayoqchalar bilan oʻlchab bir xil uzunlikdagi tayoqchani topadilar.



Bolalar qoʻllaridagi tayoqchani stoldagi tayoqchalar bilan qiyoslab bir xilini topganlaridan soʻng, tarbiyachiga koʻrsatadilar. Tarbiyachi yana shunga oʻxshash topshiriqlarni taxtachalar bilan bajarish topshirigʻini berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda soda matematika orqali bolalar son va sanoq, geometrik shakllar, baqt va fazo kattaliklar haqida bilimlarga ega bo‘ldilar. Bu bilimlar yordamida bolalar idrok qilishdagi obektlarning xususiyatlarining analiz va sintiz qilish, taqqoslash va umumlashtirish eng sodda bog‘lanishlar va ular orasidagi munosabatlarni tushinib oladilar.

Ilk sodda matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

-Geometrik shakl va predmetlarning shakli haqida tasavvur shakllanadi.

- Fazoviy munosabatlarni tushuntirish va fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmalarini xosil qilishda.
- Miqdor kattalik haqida tasavvur hosil qilish.
- Son va sanoq bilimlar berish, birinchi va ikkinchi o‘nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilish.

Mashg‘ulotlar davomida bolalar mustaqil ravishda amaliy topshiriqlarni bajarib , turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni bajarib, o‘yinlar o‘ynashadi.

Men bugun mashg‘ulotga xulosa qilib aytishim mumkinki bolalarga geometrik shakllardan namunadagi narsalarni yasashga qiziqish paydo bo‘ladi.

O‘ylaymanki barcha tarbiyachilar zamonaviy pedtexnalogiyalar asosida bolalarga ta`lim –tarbiya berishga harakat qiladilar mening qisqacha xulosam shu.

Bolaga hamroh bo‘ladigan hissiy fon, avvalambor, uning atrofidagi dunyo bilan munosabatlariga bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarni boshqalarning emotsional kayfiyatini tan olishga va o‘zlarining emotsional holatini boshqarishga o‘rgatish muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Leushina A.I. Formirovaniya elementarnix matematicheskix predstavleniy u detey doshkolnogo vozrasta. M. 1974.

2.B.B.Danilova . Matematicheckaya podgotovka detey v doshkolnix uchrejdeniyax. M. 1987

3.Xasanboyeva.O.U.va boshqalar. «maktabgacha ta'lim pedagogikasi».T.., «llm ziyo». 2006y.

4. Bikbayeva N.U. Ibragimova Z.I. Kosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shaklantirish» T.
« o‘qituvchi» ,1995y.

5. O.Xasanboyeva va boshqalar. “Oilada barkamol aqlod tarbiyasi`T., 2010 y

6.Mirziyoev SH.M. 2018 yil 14 fevral kuni maktabgacha ta`lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi– T.: “O‘zbekiston ovozi”, 2018yil 15 fevral 1-7 betlar.


## TA’LIM MUASSASASINI BOSHQARISHDA TASHKILIY PEDAGOGIK TAMOYILLARNING UZLUKSIZLIGI


**Ro‘ziyev Akmal Nosirdjonovich (O‘zbekiston)**
aroziyev09@gmail.com +998997646265
**Hamraboyev Ilhomjon Sotvoldiyevich (O‘zbekiston)**
ilhomjonhamraboyev2@gmail.com +998979940443
**Rahmonov Shohruh Solijonovich (O‘zbekiston)**
Andijon FVB HFX O‘quv markazi o‘qituvchilari



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi rahbarlarning zamonaviy boshqaruv kompentensiyaviy yondoshuvi, faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, ta’lim sifatini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotganligi qayd etilgan.



**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy rahbar boshqaruvi, boshqaruv strategiyasi, innovatsiya, marketing, o‘qituvchi, o‘quvchi, unumdorlik, boshqaruv samaradorligi, boshqaruv ob’yekti, boshqaruv sub’yekti.



**Аннотация:** В данной статье отмечается, что образовательная система Нового Узбекистана основана на компетентностном подходе руководителей современного менеджмента, правильно реализуется деятельность, особое внимание уделяется дальнейшему развитию качества. образования.



**Ключевые слова:** Современный исполнительный менеджмент, стратегия управления, инновация, маркетинг, преподаватель, студент, продуктивность, эффективность управления, объект управления, субъект управления.

**Annotation:** In this article, it is noted that the educational system of New Uzbekistan is based on the competence-based approach of the leaders of the modern management, the activities are properly implemented, and special attention is paid to the further development of the quality of education.
**Key words:** Modern executive management, management strategy, innovation, marketing, teacher, student, productivity, management efficiency, management object, management subject.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonun, farmonlar qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori, 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538son farmoni, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi", 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni, 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4963-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Bugungi kunda zamonaviy rahbar boshqaruv fanining umumiy asoslarini puxta bilishi, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, innovatsiyalar, marketing, xodimlarni boshqarish sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, muassasadagi boshqaruvni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat etish hamda shu maqsadini amalga oshirishi talab etiladi. "Boshqaruv" so'zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi ob'ekt (yoki tizim)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida gapirilganda qo'llaniladi, bu o'z navbatida, ma'lum bir rejalashtirilgan faoliyatni ifodalaydi.

Zero, o'z davrida buyuk mutafakkirimiz Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib jamiyatni boshqarishda jamiyat davlatga xizmat qilmay, davlat jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan. "U jamiyatni idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish birovlarning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishidan iborat"deb bilgan.

Umumiy boshqaruvda bo'lganidek, ta'lim muassasalari rahbarlari ham o'z faoliyatlari davomida quyidagi yettita boshqaruv siklidan foydalanadilar: maqsadni belgilash, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish. Ta'lim muassasasining rahbari o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida quyidagi uch turdagi ob'ektlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi: ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'rinbosarlar, o'qituvchilar, o'quvchilar, texnik xodimlar, ota-onalar, xomiylar va h.k.), jarayonlar (ta'limiy, tarbiyaviy), moddiy-texnik vositalar.

Boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruratini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga yoki muassasa oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra bajaruvchilar (mutaxassislar)ni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi.

Mazkur faoliyat boshqaruv faoliyatini, uni amalga oshirish boshqaruv funksiyalarini, amalga oshirish izchilligi (ketma-ketligi) boshqaruv algoritmini, amalga oshirish yo'l-yo'riqlari boshqaruv metodlarini, xodimlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqaruv uslublarini, mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar boshqaruv qarorlarini ifodalaydi. Bu borada o'zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlar quyidagi fikrlarni bildirib o'tishgan: "Unumdorlik – bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir".

Shuningdek, ushbu tadqiqotchilarning fikricha, bir ta'lim muassasasining boshqa ta'lim muassasasiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim muassasasida har doim ham boshqaruv sifati yuqoriroq bo'lishidan dalolat bermaydi. Masalan, ta'lim muassasasi boy moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim muassasasidagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, bu ta'lim muassasasi bu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim muassasasiga nisbatan ta'lim sifatining yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin

masala har bir ta'lim muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'liq foydalanayotganligidan iborat.

Turli tadqiqotchilar ta'lim muassasasining boshqaruv jarayonini turlicha izohlashadi. Masalan, C.Xedekar ta'lim muassasasida boshqaruv jarayoni – bu ta'lim maqsadlariga erishish maqsadida inson va moddiy resurslardan foydalangan holda ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat etish jarayonidir, deb ta'kidlagan. Boshqacha aytganda, C.Xedekar ta'lim muassasasining boshqaruv jarayonini inson va mehnat resurslari hamda boshqaruv sikliga bog'liqligini nazarda tutgan. Ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha turli xil qarashlar va turli xil metodikalar mavjud.

Ya'ni, ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini turli ko'rsatkichlar orqali baholashi mumkin. Bir tomondan, ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash faqat boshqaruvga doir ko'rsatkichlar bilan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat, tartibga solish, boshqaruv apparati ta'minoti uchun nisbatan kam xarajat qilish va hokazo. Ikkinchi tomondan, boshqaruv samaradorligi ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonlarning o'zgarish dinamikasi, resurslarning natijaviyligi, o'tkazilayotgan islohotlarning har bir shaxs uchun ta'sir darajasiga bog'liq.

Bu borada olimlar turli xil tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, Vengriya Fanlar Akademiyasi doktori Gabor Kertesi o'zining "Ta'lim muassasalarini tahlil qilish va baholash: maktablar misolida" maqolasida ta'lim muassasasining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash uchun ta'lim muassasasidagi faqat iqtisodiy kirim va chiqimlarining o'zaro nisbatini o'lchov sifatida olish uning faoliyatini to'liq baholashda yetarli emas, buning uchun ta'lim muassasasining ijtimoiy kirimi va chiqimini ham inobatga olish lozim, deydi.

Bu yerda u ijtimoiy kirim sifatida 3 ta komponentni nazarda tutadi: mehnat (masalan, pedagog xodimlarning), tovar va xizmatlar (o'quv materiallari va elektr energiya sarfi), kapital xizmatlar (masalan, binolar va moddiy-texnik bazaga ko'rsatiladigan xizmatlar). Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'ekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, ta'lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarish quyidagi tamoyillar uzviyligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

1) ong va faoliyat birligi;

2) ta'lim muassasasini boshqarishning ilmiy va g'oyaviyligi;

3) ta'lim muassasalarida boshqaruvning izchil va uzluksizligi;

4) ta'lim muassasasida rahbar boshqaruvining gumanitar xususiyatlarga ega ekanligi;

5) ta'lim muassasasini boshqarishga har tomonlama(kompleks) tizimli yondashuv;

6) ta'lim muassasasi rahbari boshqaruvining muayyan, aniq maqsadga yo'naltirilganligi;

7) ta'lim muassasasini boshqarishda ta'lim jarayoni sub'ektlari fikri va mustaqilliklarini, shuningdek, shaxsiy xususiyatlarini ta'minlash;

8) ta'lim muassasasini boshqarishda demokratik tamoyillarning ustuvorligi. Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarning faoliyati samaradorligi darajasi esa quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

a) boshqaruvga oid bilimlarga ega bo'lish;

b) turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ishtirok etish;

v) boshqaruv sohasidagi ma'lumotlar mazmunini yuqori darajada o'zlashtirgan va ulardan amaliy faoliyatda qo'llash borasida yetarli ko'nikma, malakaga ega bo'lish;

g) muammoli vaziyatlardan chiqib keta olish va uni baholay olish;

d) ta'lim muassasasi rahbarining samarali boshqaruvchilik darajasini aks ettiruvchi shaxsiy sifatlarini namoyon etish (onglilik, g'oyaviylik, qat'iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, insonparvarlik, ishchanlik, tezkorlik, erkin fikr yuritish, ijodkorlik, mas'uliyatni his etish kabi xislatlar); ye) ma'lum nuqtai nazarda tura olish va boshqalar.

Rahbarning bosh vazifasi qarorning bajarilishini tashkil etish, mazkur jarayonni muvofiqlashtirish va uning ustidan nazoratni ta'minlashdir. Ya'ni nazorat boshqaruvning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. U ikki tomonlama aloqa shaklini kasb etadi va qarorni bajarish, qo'yilgan maqsadlarga erishish haqida

axborot olish uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruratini belgilovchi bosh mezon – inson oldiga yoki muassasa oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l- yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, bajaruvchilarni tanlash hamda bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Umuman olganda, ta'lim muassasalarini boshqaruv faoliyatidagi muvaffaqiyat rahbarning ijrochilar mehnatiga bo'lgan munosabatdan qanchalik manfaatdorliklarini anglata bilishlik qobiliyatiga sezilarli darajada bog'liqdir. Mazkur holda mehnatni rag'batlantirish usullari mujassam ijtimoiy-iqtisodiy, etnik va ruhiy pedagogik sharoitlar, insonlar ongida ularning mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishlarini shakllantirish maqsadida yuqori natijalarga erishishga intilishdan iborat. Zamonaviy rahbarning muhim boshqaruv maqsadi o'z xodimlarini axloqiy jihatdan yuksak darajaga ko'tarish, ularni ma'naviy jihatdan sog'lom jamoaga aylantirishdan iborat.

Bu esa pedagogik yo'nalishda uzluksiz ta'lim tizimini boshqarishda samaradorlikka erishish, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, umumiy ta'lim tizimlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarining faoliyatini yaxlit, maqsadli va uzluksiz boshqarish, o'qitish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishlarida muayyan yutuqlarning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda // URL: https://lex.uz/docs/3107036
5. Matkarimov J.Sh., Sharofaddinov Sh.A. Ta'lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar. Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie, T.: 2015, №3. // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-bosh-aruv-faoliyatisamaradorligini-baholashga-oid-nazariy-arashlar
6. Gabor Kertesi. The assessment and evaluation of educational institutions, school accountability. Green Book: for the renewal of public education in Hungary. Budapest, 2009. R. 179-180. 8. Xasanov R., Suyunov Sh. Inson resurslarini boshqarishda ta'limning ahamiyati.
7. // Ta'lim va iqtisodiyot jurnali. 6-son, 2010 y., 146-b. // URL: https://tsue.scienceweb.uz /index.php/archive/article/download/4057/3084/
8. Xasanov R., Suyunov Sh. Inson resurslarini boshqarishda ta'limning ahamiyati. // Ta'lim va iqtisodiyot jurnali. 6-son, 2010 y., 146-b. // URL: https://tsue.scienceweb.uz /index.php/archive/article/download/4057/3084/


## БОҒЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ


**С.А.Халилов (Ўзбекистон)**
НавДПИ, Умумий педагогика ва психология кафедраси катта ўқитувчиси
**Омонтошова Мунира (Ўзбекистон)**
Мактабгача таълим йўналиши талабаси



**Аннотация:** Ушбу мақолада бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлган богча ёшидаги болаларни тарбиялашда дидактик уйинлардан фойдаланишнинг назарий асосларининг энг муҳим жиҳатлари ёритилган.



**Калит сўзлар:** мактабгача таълим, инновацион фаолият, касбий инновация, дидактик тайёргарлик,тарбиячи шахси,диккат,диккатни кучириш, самимийлик.



**Аннотация**: В данной статье освещены важнейшие аспекты теоретических основ использования дидактических игр в воспитании детей дошкольного возраста, что является одним из наиболее актуальных вопросов современности.



**Ключевые слова:** дошкольное образование, инновационная деятельность, профессиональная инновация, дидактическая подготовка, личность педагога, внимание, усиление внимания, искренность.

**Annotation:** This article covers the most important aspects of the theoretical foundations of the use of didactic games in the education of children of kindergarten age, which is one of the most pressing issues of today.

**Key words:** preschool education, innovative activity, professional innovation, didactic training, educator's personality, attention, strengthening of attention, sincerity.

Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни мактабга тайёрлаш нафақат психологик, балки педагогик-психологик, тиббий – физиологик ва ижтимоий жиҳатдан тайёрлансагина иш самарали томонга силжийди .

Юқоридаги айтилган фикрларни тўғри, самарали ташкил этиш эса боғчада, оилада маҳаллада ташкил этилган ишларнинг илмий асосланган турларига боғлиқ бўлиб бунинг асосини эса дидактик, ноанъанавий ўйинлар ташкил этади. Бундай ўйинлар болаларнинг ёшига, ўтказувчиларнинг педагогик маҳоратига, мақсадни тўғри қўя билиш ва уни қандай, қаерда, қачон ташкил этилишига боғлиқ бўлиб қуйидагилар талаб этилади:

1. Болаларда ўйинга нисбатан қизиқишни ошириш.
2. Ўз қобилиятларини намойиш этишга имкон яратиш.
3. Бошқа болалар ва одамлар билан мусобақага киришиш.
4. Билим, кўникма ва малака ҳосил қилишда мустақилликни ўргатиш.
5. Ўйинда бола билмаган Билим, Кўникма ва Малаканинг бўлиши.
6. Тақдирлаш, баҳолаш, ижодкорлигини алоҳида таъкидлаш ва ҳ.к.

Ўйинлардан ташқари амалий ишлар (ўйинчоқлар билан ўйнаш, ясаш, йиғиш ва ҳ.к.) ҳам ўқув билим жараёнини мустаҳкамлаб болаларни мактабга тайёрлашда асосий омиллардан ҳисобланади.

Юқорида айтилганлардан келиб чиқиб, биз болалар билан олиб бориладиган ноанъанавий ўйинлардан мисоллар келтирмоқчимиз. Бу ўйинлардан уйда, боғчада фойдаланиш мумкин, фақат қоидаларига эътибор қаратиш лозим.

Аввалам бор, ўйинларнинг болани мактабга тайёрлашдаги психологик жихатларини кўриб чиқайлик. Ўйин бола учун эрмак, қувонч манбаи бўлибгина қолмай, бола диққати, хотираси, ижодий тафаккури ва тасаввурини ўстиришга ҳам хизмат қиладиган воситадир. Бу жиҳатлар боланинг бундан буёнги ҳаётида муҳим ўрин тутади. Ўйин жараёнида болалар янги билим, малакаларни эгаллайдилар, қобилиятларини ўстирадилар. Ота - оналар ўзлари ҳам болаларга ўйин мазмуни ва йўналишини таклиф этишлари мумкин.

Бу ўйинларни қиёсан бир неча мустақил гуруҳларга ажратиш мумкин. Ўйинларнинг шундай алоҳида туркуми борки, улар болаларни мактаб таълимига тайёрлашда ёрдам беради. Ҳар бир ёш гуруҳи учун (3 ёшдан 6 ёшгача) бу ўйинларнинг барча турлари тавсия этилади.

Идрокни ўстиришга қаратилган ўйинлар болада нарсаларнинг ранги, шакли, катталигига кўра таҳлил қилиш малакасини шакллантиради. Мактабгача ёш охирига келиб, болалар ранг қаторидаги 7 хил рангни бемалол фарқлай оладилар. Улар асосий геометрик шакллар (доира, овал, тўртбурчак, тўғри тўртбурчак, учбурчак)ни билишлари лозим. Намунага кўра ёки номи айтилган маълум бир шаклдаги нарсаларни ажрата олишлари керак. Болалар нарсаларнинг катталигини фарқлашда уларнинг ўлчами бўйича териб чиқишни биладилар, 8 - 10 та таёқча, доирача ёки бошқа бир хил турдаги катталиги ҳар хил предметларни катталашиб ва кичиклашиб борувчи тартибда қўйиб чиқадилар. Нарсалар катталигини 3 хил ўлчамда номини айта оладилар (узунлик, кенглик, баландик).

Навбатдаги ўйинлар гуруҳи диққатни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, улар воқеликнинг маълум жиҳатларига қарата диққатни тўплашга ўргатади. (Диққатни тўпламасдан ҳеч бир ишни бажариш мумкин эмас). Бу ўиинлар туркуми орқали мактабгача ёшда бола диққатининг турғунлиги, кўчувчанлиги, бўлинувчанлиги каби хусусиятлари шакллантирилади. Диққатнинг турғунлиги бирор нарса устида узоқ вақт диққатни тўплаб тура олиш, демакдир. Мактабгача ёшнинг охирига келиб болалар 1 - 1,5 соатгача узлуксиз шуғуллана оладилар.

Диққатни кўчириш - уни бир фаолиятдан иккинчисига ўтказа олишдир. Диққатнинг бўлинувчанлиги бир вақтнинг ўзида кишининг икки ёки ундан кўпроқ нарса билан шуғуллана олишида намоён бўлади. Катта мактабгача ёшдаги болалар 6 - 7 та нарса ўртасида диққатни тақсимлай оладилар. Мактабгача ёшда ихтиёрсиз диққатдан аста - секин ихтиёрий диққатга ўтилади. Ихтиёрсиз диққат жараёни айни пайтда бола учун қизиқарли нарсага диққатини

қаратишда юзага келади. Ихтиёрий диққат боланинг ўзи учун қизиқ бўлмаган фаолият билан шуғуллана олишини назарда тутади. Ўйинларнинг яна бир тури хотирани ўстиришга қаратилган ўйинлардир. Катта мактабгача ёшдаги бола ўз олдига мақсад қўя олади - бирор нарсани эслаб қолиш, ана шу мақсадни амалга ошириш воситаларини излаб топиш шулар жумласидандир.

Тафаккурни ўстириш - образли - ҳаракатли, кўргазмали - образли, мантиқий тафаккур турларини эгаллашдан иборат. Бола турли режалар, схемалардан эркин фойдалана олиши лозим. Мактабгача ёшнинг охирига келиб, болаларда мантиқий тафаккур элементлари шаклланa бошлайди, яъни улар хулосалар қила оладилар, мантиқ қонунларига кўра фикрлайдилар.

Бола ижодий қобилиятининг ўсиши деганда тасаввур - хаёлнинг тараққиёти ва ноанъанавий тафаккур қила олиш тушунилади. Ижодкорлик кўп жиҳатдан ўз ҳис - туйғулари, олам ҳақидаги тасаввурларини турли усуллар билан баён эта олишга боғлиқ. Бунинг учун эса бола ҳар бир нарсада унинг турли томонларини кўра олиши, нарсага хос алоҳида белгиларнинг барчасини ҳис қилиши, образни кўз олдига келтира олиши керак.

Ва ниҳоят, болаларни мактабга таиёрлашга ёрдам берадиган ўйинлар орқали кичкинтойларда элементар математик тасаввурларни ривожлантириш, нутқнинг таҳлили билан таништириш, бола қўлини ёзув малакасини эгаллашга тайёрлаш ишлари олиб борилади.

Деярли ҳар бир ўйин учун уни ўтказишнинг соддароқ ёки мураккаброқ кўринишлари келтирилади. Шу сабабли бола билан ўйин ташкил этишда уиинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Агар бола топшириқларни бажаришга қийналмаса, унга бирмунча мураккаброқ топшириқ берилади, агар қийналса, соддароқ топшириқ бериш лозим. Топшириқни бажара олмагани учун уни койиш керак эмас.

Болаларга у ёки бу нарсаларни ўргатибгина қолмай, уларда ўзига ишонч, дадиллик, фикрни ҳимоя қила олиш, қарорида қатъий туриш каби хислатларни ҳам тарбиялаш зарур. Бу айниқса, ижодий топшириқларни бажаришга тегишли. Бола танқидни тўғри тушуниши, ўзининг янги ғояларини дадиллик билан илгари сура олиши керак. Бу ҳолда ҳам боланинг индивидуал хусусиятлари, албатта, ҳисобга олиниши муҳимдир. Агар у дадил, ўзига ишонган бўлса, ўз жавобларини танқидий баҳолашга ўргата бошлаш мумкин. Агар тортинчоқ, уятчан бўлса, уни қўллаб - қувватлаш, ҳар қандай ташаббусини маъқуллаш лозим. Агар кичкинтой топшириқни тез алмаштирмоқчи бўлса, пала - партиш бажарса, уни топшириқ билан қизиқтириб, топшириқнинг янги жиҳат, томонларини топишга рағбатлантирилади. Аксинча, бола топшириқни бажаришда ўралашиб қолса, уни бир ғоядан бошқасига ўтишга ундаш лозим. Ҳар бир ўйин - боланинг катталар ва тенгдошлари билан мулоқоти, ҳамкорлик мактабидир. Самимийлик, ўзаро қўллаб - қувватлаш, қувноқлик кайфиятларини яратиш билан ўйин орқали бола тараққиётига эришилади. Тавсия этилаётган ўйинларнинг ҳар бирини битга бола билан ҳам, бир неча бола билан ҳам ташкил этиш мумкин.

Агар бутун оила биргаликда ўйнаса, нур - устига аъло нур. Сиз болага ҳадя этган қувонч Сизнинг ҳам қувончингизга айланади, у билан ўтказилган ҳар бир шодлик дақиқаси биргаликдаги ҳаётингизни янада қувончлироқ, бахтлироқ қилади.

**Адабиётлар рўйхати:**

Каримов.И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.- Т.: “Шарқ”

1. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”
2. М.Очилов. Янги педагогик технологиялар. -Тошкент.
3. Мунавваров А.Қ. Оила педагогикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”

## BOLA TARBIYASIDA MULOQOTNING O‘RNI

**S.A.Xalilov (O‘zbekiston)**
NavDPI, Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Mamasodiqova Diyora Zayniddin qizi (O‘zbekiston)**
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

**Аннотация.** Ushbu maqolada bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bog‘cha yoshidagi bolalarni tarbiyalashda muomala va muloqotdan foydalanishning eng muhim jihatlari yoritib berilgan..

**Kalit so‘zlar:** Mehr – muhabbat, muloqot, muloqotga tashnalik, dunyoqarash yangi taassurot,

paralinvistik ta'sir, mimika, pantomimika, samimiylik o' ychan jimlik. Bosiqlik va muomala.

**Аннотация** В данной статье освещен один из наиболее актуальных вопросов современности, важнейшие аспекты использования поведения и общения в воспитании детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Привязанность - любовь, общение, жажда общения, мировоззрение, новое впечатление, паралингвистический эффект, мимика, пантомима, искренность, задумчивое молчание. Давление и лечение.

**Annotation.** In this article, one of the most relevant issues of today, the most important aspects of the use of behavior and communication in the education of children of kindergarten age, is highlighted.

**Key words:** Affection - love, communication, thirst for communication, worldview, new impression, paralinguistic effect, mimicry, pantomime, sincerity, thoughtful silence. Pressure and treatment.

Bola kamolotida maktabgacha ta'lim muassasasining ahamiyati juda muhim.Bunda,eng avvalo , u atrofdagilar bilan o'zaro muloqotga kirishadi, tengqurlari safida zaruriy sifatlarini rivojlantiradi. Birga ovqatlanib, dars-saboq olish, ko'pchilik bo'lib uxlash, birgalikda o'ynash kabilar bolani yaxshi tomonlama tarbiyalaydi. Sheriklik, do'stlik tuyg'ulari aynan bog'chada ulg'ayib kata bo'layotgan bolada shakllanadi.

Bog'chaga borgan bolaning dunyoqarashi keng hamda atrof- muhit bilan munosabatga kirishishi osonroq bo'ladi, milliy va zamonaviy o'yinlarni o'zlashtiradi. Ko'pchilik ichida o'z ovqat qoshig'I ( idishlari ), shkafi, daftar-ruchkasi, divani, o'yinchoqlari borligi kelajakda hayotda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi. Bola fikrlashni o'rganadi, tengdoshlari bilan muloqot asosida o'z saviyasini oshiradi, maqsadlarga erishishda ildam harakat qilishni boshlaydi.

XX asr boshida AQSHda, keyinchalik esa Evropa mamlakatlarida yetim , tashlandiq bolalar uchun maxsus bolalar uylari paydo bo'ldi. Ushbu maskanlarda bolakaylar uchun barcha sharoitlar yaratilgandi: kiyim – kechak, shirin taom, issiq xona. Biroq ko'p o'tmay qayg'uli statistika olimlarni tashvishga sola boshladi: bolalar uyidagi bolakaylarning aksariyati bir yilga bormay vafot etishdi. Sog'lom , quvnoq bolakay to'satdan tarbiyachiga kulmay qo'yar, ishtahasi yo'qolib , ko'p xarxasha qilardi. Shunda yaxshiroq oziqlantirib ko'rishdi, lekin bu yordam bermadi. Bolakaylardan hech qanday kasallik alomatlari ham topilmadi. Muammoni Germaniyadagi bolalar uyidagi enaga sharofati bilan hal etishdi. Gap shundaki, bu enaga bolani yelkasiga bog'lab olib, kun davomida bir daqiqaga ham undan ayrilmasdi: ish jarayonida ham, tanavvul chog'ida ham, uxlaganda ham. Ko'p o'tmay bemor bolakaylarga quvnoqlik ham, ishtaha ham qaytdi. Shu tariqa ma'lum bo'ldiki, bolakay nafaqat ovqatlanishi, ichishi, uxlashi lozim, shu bilan birga unga katta odamlar bilan muloqot ham suv bilan havodek zarur ekan. Shu tarzda psixologiyada yangi tushuncha muloqotga tashnalik vujudga keldi. Katta yoshli odamga qarash, uning tabassumidan baxramand bo'lish, uning ovozini eshitish - bemor bolakayga zarur bo'lgan dori shundan iborat edi. Muloqot defitsiti oqibatida kelib chiquvchi xastalikka gospitalizm deya nom berishdi.

1956 yili fransiyalik ruxshunos Marsel Jeber Ugandada bolalar harakatlarini o'rganish chog'ida afrikalik bolakaylar yevropalik tengqurlaridan jismoniy hamda ruxiy tomondan ilgarilab ketganini aniqladi. Ma'ium bo'lishicha, afrikalik ona bolasini yevrpalik onadan farqli tarzda tarbiyalaydi. Bolakay tug'ilganidan boshlab ona uni yelkasiga matoga o'rab olib yuradi. Ona qayerda bo'lmasin, kim bilan suhbatlashmasin, bolakay doim yonida bo'ladi. Albatta , u suhbatga aralashmaydi, ammo qiziqish bilan kuzatadi. Eng asosiysi, hayot manbai bo'lmish ona ko'kragi doim yonida. U uxlayotib ham onasining yonida uning nafasini his etib yotadi.Yevropalik bolakay esa karavotda, shiftga termulgancha yotadi. Oziqlanish esa qat'iy rejim asosida. Yaqin kishi bilan muloqot, yangi taassurotlar, xavfsizlik tuyg'usi-bularning barchasini afrikalik bolakay keragidan ortiq tarzda oladi. Yevropalik bolakay esa bulardan mahrum. Shu bois rivojlanishda u afrikalik tengquridan ortda qolib ketadi. Ota-onaning farzandga mehr-e'tibor ko'satishi, soda olamiga oshno bo'lishi unga to'g'ri tarbiya berish, egnini butlash, yeb-ichirish singari muhim va zaruriy vazifalardan biri. Biroq tirikchilik tashvishlari, tezkor zamona shiddatidan gohida hatto o'zidan, sog'ligidan ham e'tibor, vaqtni qizg'anadigan bo'lib qolgan yigirma birinchi asr odami har doim ham zarur vaqtda farzandiga e'tiborli bo'lmasligi-inkor qilib bo'lmaydigan achchiq haqiqat.

Ming afsuski, bugungi tezkor zamonda ota-onalarning o'z farzandlariga tarbiya tugul, e'tibor berishi ham ba'zan noyob hodisaga aylanib qolayotgandek tuyuladi. Atrofdagi odamlarni kuzatar

ekanmiz, bunga qayta-qayta amin bo‘lamiz. Ayrim ota-onalar uchun bolaning qorni to‘q, usti but bo‘lsa bas, qolgani bilan u qadar qiziqishmaydi. Bolani hamma narsa bilan ta’minlab qo‘yishadi-yu, yana o‘z ishlari, tashvishlari bilan band bo‘lib ketishadi. Vaholanki, odamzod uchun faqat moddiy ehtiyoj birinchi o‘rinda turmaydi. Inson ruhiy, ma’naviy ehtiyojlarini ham qondirishni istaydi, yaqinlari va ayniqsa ota-onasidan mehr-e’tibor kutadi. Bu ehtiyoj go‘daklik chog‘idan to umrining oxiriga qadar unit ark etmaydi. O‘z yaqinlaridan mehr-e’tibor ko‘rmagan bola ko‘nglida bir kemtik bilan yashaydi, o‘ziga ishonchi bo‘lmaydi. Bunday bolalarning tengqurlari bilan chiqishib ketishi, do‘st orttirishi jamiyatda o‘z o‘rnini topishi qiyin kechadi. Eng yomoni, u o‘z qobig‘iga o‘ralib oladi. “Meni hech kim yaxshi ko‘rmaydi. Hech kim mening ishlarimga qiziqmaydi” degan buzg‘unchi va tushkun o‘y ta’qibida kun kechiradi. Rostda, o‘z ota-onasidan e’tibor topolmagan bola atrofdagilarga qanday qilib ko‘nglini ocha olardi. Avvaliga bunga e’tibor bermagan ota-onalar bola ulg‘ayib, xatti-xarakatlar ko‘zga tashlana boshlagach, bundan tashvishga tushib qolishadi va “Bolamning ko‘ngliga yo‘l topib bo‘lmaydi. Unga hech nima yoqmaydi” deb jig‘ibiyron bo‘lishadi. Vaholanki, ularning aksariyati farzandining nimani yoqtirishi, ko‘nglidagi kechinmalari bilan qiziqib ham ko‘rishmagan. Ular bolalari qaysi ovqatni xush ko‘rishini bilishadi, ammo qanday kitoblarni ko‘proq yoqtirishi, qaysi qo‘shiqni ko‘proq tinglashini ayta olishmaydi.

Hozirgi tezkor zamonda ayrim bolalarning o‘z ota-onasiga bemehr, be’tibor bo‘lib borayotganining asl sababi ham aslida mana shunday e’tiborsizlik zamirida yashirin emasmikin? Ota-ona bolasiga yetarlicha e’tibor qilolmagach, farzand ulardan uzoqlashib boraveradi, qalbida avval mavjud bo‘lgan iliqlik asta-sekin so‘nadi. Shuning uchun ota-ona mehrini hech nima, dunyoning hech bir ne’mati bosa olmaydi, deyishadi. Bola moddiy ne’matlar, eng zamonaviy ayfonlar bilan ko‘mib tashlangan, hashamatli qasrda yashab, qimmatbaho mashinalarda yurgan taqdirda ham ota-ona tomonidan mehr va e’tibor bo‘lmasa,o‘zini baxtli, ruhan butun his qilmaydi.

Pedagoglar va ruhshunoslarning aytishicha, ota-onasidan o‘zi istagandek e’tibor ko‘rmagan bolaning hatti-harakatlarida eng avvalo, atrofdagi hamma narsaga befarqlik, sust munosabat kuzatiladi. Bolalikda bu bolalar buyumlarga unchalik qiziqish bildirmaydi. Yangi o‘yinchoqlarni ko‘rganda, ko‘pincha qo‘rquv va tushunarsiz taassurotlardan berkinib olish istagini his qilishadi. Ular munosabatlardagi farqlarga befarq, o‘ziga xos hissiy taranglikni namoyon qilishadi. Bu ularning rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ruhshunoslar shuni ham afsus bilan ta’kidlashadiki, ota-onasi e’tiborsizligi tufayli bolaning fe’lida tajovuzkorlik beigilari paydo bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bolaga onasining e’tibori mehr-muhabbati yetishmaganda, u turli usullar bilan buning o‘rnini to‘ldirishga urinadi. Bunday ota-onalar bolaning o‘zini yaxshi tushinishini shunchaki qabul qilishsa, tajovuzkorona harakatlariga tez va hissiyotlar ila munosabat bildirishadi. Garchi, bu g‘azab, ranj hislari bo‘lsa-da, baribir, bolaga yetishmayotgan hissiyotlar-da. Bola jazolansa ham, xafa bo‘lsa ham ich-ichidan ota-onasining e’tiborini tortganidan mamnunlik sezadi. Shu tariqa ota-onalar o‘zlari anglamagan holda bolalarning fe’lida salbiy jihatlarni shakllantirib qo‘yishadi.

**Adabiyotlar ro‘xati:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari.T, O‘zPFITI, 2000. Tuzuvchi mualliflar: M.Rasulova, H.Abdurahmonova va boshqalar.
2. «Bolalar bog‘chasida ta'lim-tarbiya dasturi» - Toshkent 1993 y. Tuzuvchi mualliflar:L.Mo‘minova, M.Ayupova, S.Karimova.

## MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI TA’LIM NATIJADORLIGINI OSHIRISHDA STEM TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI

**G‘iyasova Nargiza Yunus qizi (O‘zbekiston)**
Navoiy shahar 19-son DMTT defektolog-logopedi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tizimida STEM ta’lim texnologiyasini qo‘llashning o‘ziga xos avzalliklari va ahamiyati haqida ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim mazmuni, STEAM ta’lim texnologiyasi, qobiliyat, kompetensiya, kompetentlik.

**Аннотация:** В статье основное внимание уделяется информации о конкретных преимуществах и важности использования образовательных технологий STEM в системе дошкольного образования.

**Ключевые слова:** образовательный контент, образовательная технология STEAM, способности, компетентность, компетентность.

**Abstract:** The article focuses on information about the specific benefits and importance of using STEM educational technologies in the preschool education system.

**Key words:** educational content, STEAM educational technology, abilities, competence, competency.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, bu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta’lim pedagoglariga qo‘yiladigan talablarning qayta ko‘rib chiqilishi tom ma’noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o‘tkazish;
- maktabgacha ta’limning muqobil shakllari uchun yangi o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini keng joriy etish;
- tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o‘rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;
- rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar ta’limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inkluziv ta’lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta’lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko‘maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish; mashg‘ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini optimallashtirish;
- bolalarni sog‘lom turmush tarzini yuritishga o‘rgatish, gimnastika va faol o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va sportga qiziqish uyg‘otishni shakllantirish, jismonan sog‘lom o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish;
- bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta’lim xizmatlari turlari: pullik ta’lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish[1].

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Maktabgacha ta’limda steam texnologiyasi fanining vazifasi - talabalarga STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish usullarini o‘rgatish, STEAM ta’lim texnologiyasini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashda turli xil faoliyatlarni integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi. STEAM bolalarda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Globallashuv davridagi texnologik o‘zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun’iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta’lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyal arning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda . STEM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, STEM ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi. O‘zbekiston Respupblikasida STEM ta’lim tizimini davlat ta’lim tizimiga kiritish bo‘yicha o‘tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin xususiy maktablarda buning imkoni osonroq bo‘lsa, umumiy ta’lim tizimiga STEM ta’lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta’kidlanmoqda. 2019-yilning dekabr oyida Xalq ta’limi vazirligi Xitoyda bo‘lib o‘tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko‘rgazmasida ishtirok etdi. O‘zbekistonda STEM ta’lim tizimini umumiy xalq ta’limiga tadbiq etish borasida AQSH mutaxassisi jalb qilindi [3].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtizmida tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta’lim tizimi orqali ta’lim beriladi. Zamonaviy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta’lim tizimiga oid bo‘lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiq etish muhim ekanligini ta’kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta’lim tizimida STEM tizimi bo‘yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi mumkin. STEM ta’lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiq etish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.Ashurova. Maktabgacha ta’limda steam texnologiyasidan foydalanish. Metodik qo‘llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2022

2. З.М.Ашурова. Таълим олиш жараёнини самарали бошқаришда педагогик технологияларни қўллаш. Scientific Progress. 2:7 (2021), pp. 801-807.

3. З.М.Ашурова. Муаммоли таълим технологиялари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари. Scientific Progress. 2:7 (2021), pp. 794-800.

## INSON SALOMATLIGINI ZARUR DARAJADA TA’MINLAYDIGAN OMILLAR. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARGA –HIJOMANING FOYDA VA ZARARLARI

**Turdiyev Shuhrat Berdiyevich (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tibbiyot fakulteti katta o’qituvchisi

**Teshayeva Zarnigor Yoriqulzoda (O‘zbekiston)**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti,Tibbiyot fakulteti talaba

**Аннатоция.** Ushbu maqolada insonni sog’lom turmush tarzini kechirishini bosh ko’rsatkichi –bu hijoma avvalo uning fizik rivojlanish holati va unga bog'liq o’zini umumiy his

etishi,tanasidagi,qolaversa qonidagi nikroelimentlarning organ va a’zolar bo’ylab harakatlanishi tufayli inson salomatligini yanada xush kayfiyatda bo’lishini ta’ninlashdir.Shunday ekan ushbu maqola orqali qonni qay darajada va qanday tarzda tizalash imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan..

**Калит сўзлар:** соғлик, qon.hijoma,jarroxlik,tana,teri,qon tomirlar,to’qimalar,kislorod

**Аннотоция.** В данной статье основным показателем здорового образа жизни человека является хиджама, прежде всего состояние его физического развития и общее самочувствие, а также движение микроэлементов в его организме и крови по органам и органов.. является улучшение настроения. Поэтому в этой статье представлена информация о том, как и в какой степени можно регулировать кровь..

**Ключевые слова:** здоровье, гиподинамика, добро, радость, личная гигиена.

**Annattosia.** In this article, the main indicator of a person's healthy lifestyle is hijama, first of all, the state of his physical development and his overall feeling of well-being, and the movement of microelements in his body and blood through the organs and organs. is to promote a better mood. Therefore, this article provides information on how and to what extent the blood can be regulated**.**

**Key words:** health, blood circulation, surgery, body, skin, blood vessels, tissues, oxygen

Bugungi kunda respublikamizda ko’plab hijoma markazlarini ko’rishimiz mumkin. Xo’sh hijoma o’zi nima? U inson sog’ligi va kasalliklarni davolash uchun qay darajada foydali? Aholining asosiy qismida bugungi kunda ushbu savol  mavjud. Shu sababli bugun aynan hijoma haqida to’liq ma’lumot berishga qaror qildik.

## Hijoma nima?

Hijoma arabcha “al-hajm” so’zidan olingan bo’lib,  “ so’rib olish” , “tashqariga chizish” degan ma’nolarni bildiradi. Qon inson organizmining eng muhim elementlaridan biri. U to‘qimalarga kislorod yetkazishda va moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi. Kishi harakatsiz holatida qon «qariy boshlaydi», o‘zining sifati ko’rsatkichlarini yo‘qotadi. Qolaversa, noto‘g‘ri ovqatlanish, havoning ifloslanishi, stresslar natijasida qonning tarkibida zararli moddalar to’planib qoladi. Bu moddalardan xalos bo’lishda esa hijoma katta yordam beradi.

Jarrohlik bo’lmagan bu jarayonda tanadagi toksik qon chiqarib tashlanadi. Albatta bu tanadagi aniq hijoma nuqtalari orqali amalga oshiriladi. Bunday nuqtalarda avval qon yig’ilishiga rag’batlantiriladi va keyin kichik vakuum sistemasi orqali so’rib olinadi. Bunda teri yuzasida  maxsus kesmalar kesilib, ular orqali qon tashqariga chiqaridi va bu qon stakanlarga yig’ib olinadi. Qon olingach organizm himoya funksiyasi ishga tushadi, ya’ni yo’qotilgan qon  o’rni yangi qon ishlab chiqarish orqali to’ldiriladi. O’z navbatida bu jarayon barcha to’qima va hujayralar faoliyatini rag’batlantiradi va funksiyasini yaxshilaydi. Demak hijoma organizm himoya funksiyasini ishga tushirishda,  organizm holatini yaxshilashda muhim rol o’ynaydi.

## Qanday kasalliklarda foydalaniladi?

Qon bosimi oshishi,  bo‘yin va yelkadagi og‘riqlar, jinsiy zaiflik, immunitet susayishi, bavosil, miyada qon aylanishi buzilishi bilan bog’liq bosh og’rig’i, yurak-qon tomir xastaliklari, qandli diabet, revmatizm, ko‘z nuri xiralashishi, glaukoma, gaymorit va boshqalar.

## Hijoma tarixi

Hijoma ming yillar ilgari ham bo’lgan va dunyodagi deyarli har bir rivojlangan davlatlarda foydalanilgan.  Faktga ko’ra bu terapiya bir qancha tillar orqali ma’lum bo’lgan ( fransuz, ingliz, ispan, rus, xitoy, koreys, arab, urdu, grek) .  Bu hijomaning  global darajada terapevtik aralashganining yorqindalilidir. Yana bir manbalarga ko’ra hijomaning asosiy qoidalari yahudiy bitiklarida ham tasvirlangan. Shunga o’xshash uning asosiy bosqichlari qadimiy xristian bitiklarida ham yozilgan. Bugungi kunda hijoma tibbiyot amaliyotining butun bir qismi hisoblanadi va hozirda ham saqlanib qolgan. Qadimgi Xitoy tibbiyot manbalariga ko’ra hijoma qadimgi tibbiyot usuli sifatida hurmat qilingan. Nei Jing yoki Inner classikasi shunday deydi: ” agar turg’unlik bo’lsa u birinchi igna terapiyadan oldin hijoma orqali hal qilinishi kerak.

Hijoma Muhammad (s,a,v) dan ilgarigi vaqtda ham mavjud bo’lgan. U Islom an’analarining bir qismi va davolashda qo’llaniladigan ta’limdir.  Muhammad  (s.a.v)   turli vaziyatlarida hijomadan foydalanganlar va uning ahamiyatini ta’kidlab o’tganlar. Jumladan  Sahih Buxoriy va Muslimda quyidagi hadis rivoyat qilinadi: "Anas ibn Molik raziyallohu anhudan, hajjom (qon oluvchi)ning kasbi haqida so‘ralganda, u zot: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam hijoma qildirganlar. U zot sallallohu alayhi va

sallamga hajjomlik qilgan Abu Toyyibaga ikki so‘ (o‘rtacha 5 kg atrofida) taom berishga buyurib va ahillariga uning xirojidan bir oz kamaytirishni tayinladilar. Keyin (rasululloh sallallohu alayhi va sallam) dedilar: "Davolanishlaring uchun eng afzal narsa hijomadir".

Yana bir rivoyatda esa shunday keltirilgan: Sayid ibn Zubayr raziyallohu anhu Ibn Abbos raziyallohu anhumodan, u kishi esa, Rosululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivojat qilgan hadisni Imom Buhoriy o’z sahihlarida rivoyat qildilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: Shifo uch narsadadir – asal ichishda, mehjam (hijomada ishlatiladigan asbob)ning tilishida (ya’ni, Hijoma qildirishda) va o't bilan kuydirishda. Va (men) ummatimni o't bilan kuydirib (davolanish)dan qaytaraman?». (Buhoriy: 5269) Islom ta’limotiga ko’ra hijoma muhim davolash usuli va sunnatdir.

Qadimgi Misrliklar birinchi bo’lib hijoma tanadagi patogenetik moddalarni chiqarib tashlashda eng foydali usul ekanligini yozib qoldirishgan.Qadimgi yunonlar ham buni yoqlagan. Ba’zi fikrlarga ko’ra hijoma qadimgi gretsiyaga Misr orqali kirib kelgan. Boshqa manbalarga ko’ra esa hijoma qadimgi Xitoyda paydo bo’lgan. Qadimgi Xitoy diniy kitoblarida ko’rsatilishicha tanadagi turg’unlik qonni chiqarib tashlash orqali hal qilinadi.

**Hijoma qaysi kunlarda qilish afzal?**

Imom Termiziy Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v) dedilar: «Sizlar hijoma qiladigan kunlaringizning eng yaxshisi 17, 19 va 21-kunlardir» (bu kunlar hijriy-qamariy hisobdagi oylar kunlaridir).

Anas ibn Molik raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi Rasululloh (s.a.v) dedilar: «Kimki hijoma qilmoqchi bo’lsa 17, 19 va 21- kunlarni tanlasin, sizlardan birortangizning qoni oshib ketib uni o'ldirib qo'ymasin» (ya'ni, agar birortangizning qoni suyulib, oshib ketsa qaysi kunda bo'lsa ham hijoma qilaversin. Bu izoh Ibnul Qoyyimning «Zodul-Ma'od» kitobidan olindi) Ibn Moja rivoyati.

Imom Ibn Moja Ibn Umar raziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v) shunday dedilar: "Och qoringa (ertalabda) qilingan hijoma yaxshiroqdir. Unda shifo va baraka bor, aql va zehnni oshiradi. Allohning barakasi bilan payshanba kuni hijoma qilinglar. Chorshanba, juma, shanba va yakshanba kunlari hijomadan saqlaninglar. Dushanba va seshanba kunlari hijoma qilinglar, u Alloh Ayyubni musibatdan xalos qilgan kun, unga musibatni chorshanba kuni yuborgandi. Mohov va pes chorshanba kuni yoki chorshanbaga o’tar kechasi paydo bo’ladi". Imom Ibnul Qoyyim "Zodul-Ma'od" kitobida aytadilar: “Hadislardagi mazkur 17,19 va 21- kunlar oyning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelmoqda. Bu tabiblar ittifoq qilgan muddatga muvofiqdir. Bu hijoma uchun eng munosib vaqtga dalolat qiladi, xolos. Agar kishi qaysidir sababga ko’ra badanidan qon oldirishga ehtiyoj sezsa qaysi kunda bo'lsa ham hijoma qilsa bo'laveradi". (Zodul Ma'od» 674 bet)

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1.Шоумаров Ғ. Б., Мамедов К.К.. Руҳий ривожланиши сустлашган болалар.- Т.: ―Ўқитувчи‖, 1995.

2.Петрова В.Г., Белякова И.В. Психология умственно отсталых школьников.-М.: ―АСАМЕДИА‖,2004.

3. Левченко И.Е., Забрамная С.Д. Психолого-педагогическая диагностика.-М.: ―АСАМЕДИА‖, 2005.

**Ахборот манбаалари**

1. www. Tdpu. Uz
2. www. Pedagog. Uz


## BUXORO O‘G‘UZ SHEVALARIDA SON TURKUMINING QO‘LLANISHI


**Allaberdiyev Alijon (O‘zbekiston)**

Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi dotsenti, PhD



**Annotatsiya**: Maqolada Buxoro o‘g‘uz shevalarida сонларning qo‘llanishi va ularда соннинг морфологик хусусиятлари, турлари ва бошқа ўғуз шевalarining ta’siri va so‘zda kelish o‘rinlari o‘rganildi.

**Аннотация**: В статье изучено употребление числительных в бухарских огузских диалектах, их морфологические особенности, типы, влияние других огузских диалектоа на

числительные.

**Abstract**: In the article, the use of numerals in the Bukhara Oghuz dialects and the morphological characteristics, types and influence of other Oghuz dialects and places of occurrence of numerals in them were studied.

**Kalit so‘zlar:** miqdor sonlar, tartib sonlar, sanoq sonlar, chama sonlar, jamlovchi sonlar, dona sonlar, taqsim sonlar va kasr sonlar.

**Ключевые слова:** количественные числа, порядковые числа, счетные числа, нечетные числа, собирательные числа, целые числа, дробные числа.

**Key words:** quantitative numbers, ordinal numbers, countable numbers, odd numbers, additive numbers, whole numbers, divisible numbers, and fractional numbers

Narsa-buyumning sanog‘i bildiruvchi son o‘zbek shevalari va adabiy tilida bir-biroviga nisbatan keskin farq qilmaydi. Odatda, son otga bog‘lanib, ularning miqdorini aniqlab keladi. Buxoro o‘g‘uz shevalarida sonning ba’zi tarixiy jarayonda qo‘llangan fonetik, morfologik shakl qo‘rinishlari saqlangan: *ellı, doquz, ətız, sekız* каби.

Sonlar ma’no jihatidan 2 turga bo‘linadi: miqdor sonlar va tartib sonlar.

***Miqdor sonlar:*** Miqdor sonlar adabiy tilda bo‘lganidek, shevada ham sanoq, chama, jamlovchi, dona, taqsim va kasr sonlar ko‘rinishlariga ega.

*Sanoq sonlar*. Bu son turi otga bog‘lanib, uning sonini aniqlab keladi: *bır* (bir), *эkı ~ ıkı* (ikki), *üç ~ ᵉüç* (uch), *dərd* (to‘rt), *beş* (besh), *əltı* (olti), *yetı* (yetti), *sekız* (sakkiz), *toqïz* (to‘qqiz) kabi sonlar birlik hisoblansa, *ən ~ ᵉən* (o‘n), *ıgırmə ~ yıgırmə* (yigirma), *ətız* (o‘ttiz), *ğïrq* (qirq), *ellı* (ellik), *əlmış* (oltmish), *yetmış* (yetmish), *seksən* (sakson), *doqsan* (to‘qson) kabi o‘nliklar ishlatiladi.

*Numerativlar*. Odatda, sanoq sonlar hisob (numerativ) so‘zlar bilan qo‘llanadi. Shevada hisob so‘zlar quyidagi guruhga ajratiladi;

1. Narsaning miqdorini donalab hisoblash o‘lchovini bildiruvchi hisob so‘zlar: *küdə* (g‘aram), *kərdə* (oxir), *xada* (xoda), *qoltïq* (qo‘ltiq), *baş* (bosh), *bəğ* (bog‘), *quçaq* (quchoq), *xəlta* (xalta), *əvuş* (yantoq pressi), kabi.

2. Narsaning uzunligini, masofani bildiruvchi hisob so‘zlar: *çïlap* (metr), *en* (quloch), *qarïç* (qarich) *metır* (metr), *kıləmetır* (kilometr), *qadam* (qadam) kabi.

3. Narsaning og‘irligini bildiruvchi hisob so‘zlar: *gıram* (gramm), *kıləgıram* (kilogramm) *tənnə* (tonna) kabi.

4. Narsaning yuzasini bildiruvchi hisob so‘zlar: *gıktər* (gektar), *kıvədırət metır* (kvadrat metr), *desətkə* (desyatina), *sotïx* (sotix) kabi.

5. Suyuqlik o‘lchovini bildiruvchi hisob so‘zlar: *letır* (litr), *həvıç* (hovuch), *sətıl* (chelak), *tavəq* (tovoq), *bəçka* (bochka), *hovurt* (hovuch), *susəq* (cho‘mich) kabi.

6. Qiymatni bildiruvchi hisob so‘zlar: *səm* (so‘m), *tıyın* (tiyin), *teŋə* (tanga), *müzdı* (muzdi), *gək* (dollar) kabi.

7. Vaqtni bildiruvchi hisob so‘zlar: *мунут* (minut), s*əğat* (soat), *gın* (kun), *əy* (oy), *yıl* (yil), *pəsıl* (fasl), *sətka* (sutka) kabi.

*Jamlovchi sonlar*. Jamlovchi son sanoq son o‘zagiga *-əv, -av, -əvı, -avï, -ələ, -ala, -ısı, -ïsï, -lə, -la, -ləp, -lap, -ələşıp, -alaşïp* qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi. Keltirilgan *-ələşıp, -alaşïp* qo‘shimchalaridan tashqari, qolgan qo‘shimchalar o‘ngacha bo‘lgan sonlarga qo‘shiladi: *dərdəv* (to‘rtov), *beşəv* (beshov), *doqïzav* (to‘qqizov), *əltavï* (oltovi), *yetəvı* (yettovi), *sekızəvı* (sakkizovi), *ıkələ* (ikkala), *üçələ* (uchala), *əltala* (oltala), *ıkısı* (ikkisi), *yetısı* (yettisi), *əltïsï* (oltisi), *dərdlə* (to‘rtla), *əltïla* (oltila), *beşlə* (beshla), *sekızləp* (sakkizlab), *yetıləp* (yettilab), *toqïzlap* (to‘qqizlab), *ıkələşıp* (ikkalashib), *beşləşıp* (beshalashib) kabi. Son bu turida qo‘shimcha qo‘shilishi bilan fonetik hodisa yuz berishi kuzatiladi: *əltavï* (oltovi), *yetəvı* (yettovi), *əltïla* (oltila), *əltïsï* (oltisi), *yetıləp* (yettilab), *ıkələşıp* (ikkalashib) kabi.

Shevada bir soni o‘zbek adabiy tilidagidek, jamlovchi son qo‘shimchalarini qabul qilmaydi.

*Chama sonlar*. Canoq son asosiga *-ləp, -lap, -лəр, -лар, -lərçə, -larça, -əvləp, -avlap* каби affikslarni qo‘shish orqali chama sonlar yasaladi: *ənləp* (o‘nlab), yüzləp (yuzlab), ğïrqlap (qirqlab), doqs*ənlap* (to‘qsonlab), ekı yüzlər (ikki yuzlar), ellılər (elliklar), *əltmïşlar* (oltmishlar), mıŋlərçə (minglarcha), beş yüzlərçə (besh yuzlarcha), doqïzlarça (to‘qqizlarcha), *əltmïşlarça* (oltmishlarcha), üçəvləp (uchovlab), *beşəvləp* (beshovlab), *əltavlap* (oltovlab), *toqïzavlap* (to‘qqizovlab) kabi.

Shevada sonlarni juftlash orqali ham chama son hosil qilinadi: *beş-əltï* qoyïn (besh-olti qo‘y), *ğïrq-ellı* yağaç (qirq-ellik yog‘och), *ən-ən* beş darax (o‘n-o‘n besh daraxt) kabi. Shuningdek, juftlash

orqali yasalgan sonlarga *-lər//-lar* qo'shimchasi bilan ham shakllanadi va hisob so'zlarga qo'shilib keladi: *yetı-sekız ɔdɔmlar* (yetti sakkiz odamlar), *yıgırmə-ɵtız* üstəllər (yigirma-o'ttiz stullar) kabi.

Bundan tashqari, *çəməsındə* (chamasida), *artïğ* (ortiq) so'zlarini keltirish bilan ham sonning chama ma'nosi yuzaga keladi: Menımça yıgırmə *çəməsındə* ɔdɔm geldı (Menimcha yigirma chamasida odam keldi). Beçəler ɵtızdən *artïğ* mal baqïp yürəpdır (Bolalar o'ttizdan ortiq mol boqib yuribdi) kabi.

*Dona sonlar*. Sanoq son asosiga *-ta, -tə* qo'shimchalarini qo'shish orqali dona sonlar yasaladi. E'tiborlisi, Buxoro o'g'uz shevalarida adabiy tildagi tup, nafar, bosh va shunga o'xshagan so'zlar qo'llanmay, o'rnida ko'proq *-ta* qo'shimchasi ishlatiladi: *ɔltïta* (oltita), *toqïzta* (to'qqizta), *yıgırmətə* (yigirmata), *ɵtıztə* (o'ttiz) kabi.

*Taqsim sonlar*. Adabiy tildagidek, sanoq son asosiga *-tədən, -tadan* yoki hisob so'zlarga *-dən, -dan* qo'shimchalarini qo'shish va sanoq sonlarni takrorlash orqali yasaladi: *ıkıtədən* (ikkitadan), *üştədən* (uchtadan), *doqïztadan* (to'qqiztadan), *ğïrqtadan* (qirqtadan) kabi.

Numerativ so'zlarga *-dən, -dan* qo'shimchalarini qo'shish orqali *beş kılɔdan* (besh kilogrammdan), *ɵtız heptədən* (o'ttiz haftadan), *ɔltmïş ɔdɔmdan* (oltmish odamdan), *toxsɔn gıktərdən* (to'qson gektardan) kabilardan yasaladi.

Sanoq sonlarni takrorlash bilan *beş-beş kışı* (besh-besh kishi), *ıkı-ıkı darax* (ikki-ikki daraxt) *ellı-ellı pül* (ellik-ellik pul), *ɵn-ɵn yağaç* (o'n-o'n yog'och) kabi.

*Kasr sonlar*. Shevada asosan butunning qismini ifodalovchi *yɔrïm, yɔrtï, çarak, nımçarak* so'zlar bilan hosil qilinadi: *ıkı yɔrïm* kılɔ pɔmɔdur (ikki yarim kilogramm pamidor), *ıkı yɔrtï – bır bütın* (ikki yorti – bir butun), *çarak* kılɔ tuxïm bɵley (chorak kilogramm urug' bo'ladi), *nımçarak* ıstəkən darı (nimchorak stakan dori) kabi.

**Tartib sonlar:** Buxoro o'g'uz shevalarida "tartib son predmetning aniq, konkret miqdorini, ketma-ketligini ifodalashi bilan sonning boshqa turlaridan farqlanadi. Tartib sonlar sifatlarga yaqin bo'lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi"[30]. Shevada sonning bu turi sanoq sonlarga *-nçı, -nçï, -nǯı, -nǯï, -ınçı, -ïnçï, -ınǯı, -ïnǯï, -ünǯı, -unǯï* affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi: *ıkınçı* (ikkinchi), *ɔltïnçï* (oltinchi), *yetınǯı* (yettinchi), *ɔltïnǯï* (oltinchi), *üçınǯı* (uchinchi), *toqïzïnǯï* (to'qqizinchi), *ɵn ɔltïnçï* (o'n oltinchi), *sekızınçı* (sakkizinchi), *ğïrqïnçï* (qirqinchi), *üçünǯı* (uchinchi), *toqïzunǯï* (to'qqizinchi) kabi.

Xulosa qilganda, son so'z turkumi Buxoro o'g'uz lahjasida tarixan barqarorligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Shu tomondan ham tekshirish obyektimizdagi Buxoro o'g'uz shevalari turkman tili hamda boshqa o'zbek o'g'uz shevalari bilan mushtarak umumiylikni yuzaga keltirgan

**Unli va undoshlar transkripsiyasi:**

**ı** – til oldi unlisi, **ï** – til orqa unlisi, **ü** – til oldi unlisi, **u** – til orqa unlisi, **ə** – til oldi unlisi, **a** – til orqa unlisi, **ɵ** – til oldi unlisi, **o** – til oldi unlisi, **e** – til oldi unlisi, **ɔ** – til orqa unlisi, **ğ** – g' undoshi, **ŋ**– ng undoshi, **ç** – ch undoshi, **ş** – sh undoshi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. II луғат. Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1961. – 348 б.

2. Абдуллаев Ф. Қарноқ шевасининг фонетикасидан//Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. – №6. – Б.16–22.

3. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент: Фан, 1978. –144-б.

4. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008. 62-bet.

5. Аразкулыев С. Говоры туркмен Турткулского района Каракалпакской АССР. Автореф.дисс… канд.филол.наук. – Ашгабат, 1962. – 30 сах.

6. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. 44-бет;

7. Түркмен дилиниң сөзлүги. – Ашгабат: Ылым, 1962. – 866 сах.

8. Шихиев А. Говоры туркмен Бухарской области Узбекской ССР. Автореф. дисс...канд. филол. наук. –Ашхабад, 1983. – 23 с.


[30] Шоабдураҳмонов А., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 284-бет.

# BOLALARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**DSc. Davlatova Ra'no Haydarovna (O'zbekiston)**
**Xazratqulova Mashhura (O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Hayotdagi keskin ziddiyatlarni chetlab o'tish, voqelikni, hayotni bo'yab ko'rsatish, insonni shunchaki bir qo'g'irchoq, robot tarzida ko'rsatish bu davr adabiyotining bosh belgisi bo'lgan. Milliy mustaqillik tufayli o'zbek adabiyoti va san'atining ijodiy usuli realistik metod bo'lib qoldi, hayot va insonni haqqoniy tasvirlash, voqelikdagi ziddiyatlar kulami va mohiyatini teran ochish, inson va jamiyatning kamol topishidagi qiyinchiliklarni, murakkab jarayonlarni oqilona tasvirlash yagona mezonga aylandi.

**Kalit so'zlar:** konflikt, bolalar, kompetentlik, nizolar, O.Ye.Lebedev.

**Аннотация:** обход острых противоречий в жизни, рисование действительности, жизни, показ человека просто в манере куклы, робота были главным символом литературы того времени. Благодаря национальной независимости творческий метод узбекской литературы и искусства стал реалистическим методом, единственным критерием стало правдивое изображение жизни и человека, глубокое раскрытие смеха и сущности противоречий действительности, рациональное изображение трудностей, сложных процессов созревания человека и общества.

**Ключевые слова:** конфликт, дети, компетентность, конфликты, О. Е. Лебедев.

**Annotation:** bypassing sharp contradictions in life, painting reality, life, showing a person in the form of just a doll, a robot, was the main sign of the literature of this period. Due to national independence, the creative method of Uzbek literature and art has become a realistic method, a truthful description of life and man, a thoughtful disclosure of the laughter and essence of conflicts in reality, difficulties in the maturation of Man and society, a rational description of complex processes have become the only criteria.

**Keywords:** conflict, children, competence, conflict, O. Ye.Lebedev.

Konflikt (lot. contlictue — ixtilof, to'qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi; 2) adabiyot va san'atda — badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o'zaro to'qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo'llanadi, dedektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo'ladi. Konfliktning 3 xil ko'rinishi mavjud: asar qahramonlarining birbirlari bilan to'qnashuvi, kurashi; shartsharoit, muhit bilan to'qnashuv; o'z-o'zi bilan ichki kurash. Drama konfliktni harakatni rivojlantiruvchi, keskinlashtiruvchi xususiyatga ega. Konfliktda yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo'ladi. Dramaturgiyada "tashqi" konfliktga keng o'rin beriladi, bunda qahramonlar o'zaro bir-biri bilan ixtilofda, kurashda bo'ladi, "ichki" konfliktda esa qahramonning o'z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o'rtasidagi ziddiyat tarzida ko'rinadi. Mazmuni, yo'nalishi nuqtai nazaridan konfliktning maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa turlari mavjud. Voqealar rivoji davomida ijtimoiy Konflikt siyosiy konfliktga, siyosiy konflikt falsafiy konfliktga aylanishi mumkin. Katta, o'tkir g'oyalar uchun keskin kurashga asoslangan to'qnashuvda fojiaviy ruh ustun bo'lib, fojiaviy konfliktni tug'diradi yoki kulgili, o'tkir hajviy yo'nalishdagi vaziyat, holat, voqealar kulgili ruhni hosil qiladi. Konfliktning mohiyati zamon, makon bilan jips bog'liq. Shunday konfliktlarlar bo'ladiki, davr o'tishi bilan ular barham topadi. Dunyoda yaratilgan asarlar konflikti zaminida taqdir taqozosi turgan bo'lsa, o'rta asrlardagi asarlarda ilohiy kuch bilan insondagi shaytoniy xirs konfliktning asosini tashqil etadi. Romantizm davrida voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideal o'rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o'rtasidagi ziddiyat hukmronlik qilgan, realizm tantana qilgan davrda inson mohiyati, uning istagi, imkoniyati bilan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit zaminida konflikt yuzaga kelgan. Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafolik, tiriklik va o'lim), bularda konflikt har bir davrning ma'naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi. Sho'rolar davrida — sotsialistik realizm metodi hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfiy antagonizm qo'yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo'l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o'rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamoat, xalq manfaati o'rtasidagi kurash tarzida qo'yilgan. Sho'ro tuzumini tanqid qilish man etilgan va shu tufayli adabiyotda, ayniqsa dramaturgiyada Konfliktsizlik "nazariya"si kelib chiqqan. Hayotdagi keskin ziddiyatlarni chetlab

o‘tish, voqelikni, hayotni bo‘yab ko‘rsatish, insonni shunchaki bir qo‘g‘irchoq, robot tarzida ko‘rsatish bu davr adabiyotining bosh belgisi bo‘lgan. Milliy mustaqillik tufayli o‘zbek adabiyoti va san’atining ijodiy usuli realistik metod bo‘lib qoldi, hayot va insonni haqqoniy tasvirlash, voqelikdagi ziddiyatlar kulami va mohiyatini teran ochish, inson va jamiyatning kamol topishidagi qiyinchiliklarni, murakkab jarayonlarni oqilona tasvirlash yagona mezonga aylandi. Ammo yozuvchi, san’atkor voqelikdagi ziddiyatlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha badiiy asarga ko‘chirmaydi, aksincha, ularni tanlab oladi, umumlashtiradi, yanada keskinlashtiradi, ular ma’nosi, mohiyatini ochadi, tushuntiradi[1].
Kompetentlik” bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir (https://azkurs.org/gorizontal-kon-lahmlarining-mustahkamlagichlari-va-ularga-tasi.html), – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev. Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi yI.A.Zimnyaya. A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig‘indisiga ega
bo‘lishi demakdir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki (https://azkurs.org/rahbarlik-qilish.html), kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o‘rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda. Ta’limtarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an’anaviy o‘zbek pedagogikasi me’yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo‘lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. A.Avloniy nomidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvalieva: “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflaydi. Pedagog olima T.L.Xurvalieva kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga ajratadi.

**Adabiyotlar.**

1. MirziyoyevSh.M. Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta mumkin tashabbus 2014 - yil 20-mart.
2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. Toshkent 2022-yil.
3. Mirjalilova S., To‘bganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnalogiyalar.
4. Babayeva D.B. “Nutq o‘stirish metodikasi” Toshkent 2009-yil.
5.Mirjalolova L. Bolalarni gapirtirib o‘ynaladigan o‘yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005 .
6.Dissercat.com
7. http://doi.org/10.37057/A_

## ТАЛАБАЛАРНИНГ КИТОБ ЎКИШ МАДАНИЯТИНИ ТИЗИМЛИ ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ

**С.С.Майдонова –**
**Навоий давлат педагогика институти**
**“Умумий педагогика ва психология” кафедраси ўкитувчиси**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги қарори эълон қилинди.
Дархакийкат китоб - инсоннинт энг яқин дўсти ва маслаҳатчиси, ақл қайроғи ва билим манбаидир. Китоб фикрлаш қуроли, хазиналар калити, тафаккур манбаи бўлгани учун ҳам халқимиз уни нондай азиз, мўътабар ва мукаддас деб ҳисоблаган. Шунинг учун китобта муҳаббат, уни қадрлаш, ўқишга иштиёқ халқимизнинт қон- қонига сингиб кетган ва бу жараён ёш танламасдан авлоддан авлодга ўтиб келмокда. Кишининг маданияти унинг китобида акс этади. Шу маънода бугунги

кунда китоб ўқиш ва унга муносабат бир қадар сусайгандек. Чунки ёшлар кўпроқ кино, видео, телевидение, компьютерга берилиб кетди айникса талаба ёшлар мисолида. Компьютер ҳозирги кунда кўпгина хонадонларга ҳам кириб келган. Исталган янгилик ахборотларни бу воситалардан хоҳлаганча олиш мумкин айникса талаба ёшлар ўртасига кескин мунозараларга сабаб бўлиб келмокда. Бугунги талабалар интернетдан фойдаланиш бизга кулай, маьлумотлар чекланмаган, исталган китобларнинг электрон шакиллари мавжудлигини ва фойдали маьлумотлар етарлича деб хисоблайди. Аммо китоб укиш оркали:

1. Англаш
2. Тушуниш
3. Мулохаза килиш
4. Нуткий саводхонликни ошириш каби

Психолог мутахассисларнинг таьбирича ички билимларни тизимлаштириш, ички синтезлаш каби онгли англашни хеч кайси технология, инсон миясига сингдиролмайди. Ачинарлиси, бугун китоб ўқиш учун вақт сарфлашга ҳожат йўқдек. Аслида, ҳеч бир ахборот воситаси, кино ёки видеофильм бадиий асар ўрнини босолмайди. Масалан, “Ўтган кунлар” романи асосида ишланган фильм қанчалик маҳорат билан суратта олинган бўлмасин, китобнинг таъсирини, жозибасини беролмайди. Китобхонлик оиладаги муҳитга ҳам боғлиқ. Маърифатли оилаларда китобга эътибор фарзандлар тарбиясида қўл келади. Инсон ўзининг фикрлаш қобилияти, маънавият дунёси билан тирик. Одамни бошқа мавжудотлардан ажратиб турувчи омиллардан бири ҳам унинг маънавияти ҳисобланади. Китоб - бебаҳо бойлик экани барчамизга маълум. Бироpта санъат турини телевидение ва радио, замонавий компьютерлар имконияти ва афзалликларини инкор қилмаган ҳолда айтиш мумкинки, буларнинг ҳеч бири китоб ўрнини боса олмайди. Айниқса, бадиий китоблар ҳар бир кишида инсоний фазилатларини кучайтиради, дунёқарашини кенгайтиради. “Ўзимдаги барча яхши хислатларим учун китобдан миннатдорман”, деган эди ўз давридаги алломалардан бири. Кўп китоб ўқиган кишининг билим савияси юқори, муомала маданияти юксак, етук инсон сифатида ҳаётда ўз ўрнини топа олади. Бироқ, бугунги кунда китобга, китоб ўкишга бўлган эҳтиёж ва интилиш, айниқса, ёшлар орасида тобора камайиб бормоқда. Бу эса жуда ачинарлидир. Қанчадан қанча китоблар, китоб жавонлари ва дўконларида шунчаки кўргазма сифатида турибди. Табиий савол туғилади. Нега шундай? Нима учун китоб ўқимай қўйяпмиз?
Атоқли адибимиз Ойбек таърифича, китоб - тафаккурнинг толмас қанотларидир. Шу маънода айтиш мумкинки, китоб - инсоннинг қалб гавҳари, тафаккур хазинасидир. Биз шунга эришишимиз керакки фарзандларимиз учун китоб энг бебаҳо совға бўлсин. Шундагина фардандларимиз биз орзу қилгандай, маънавий етук, теран фикрлай оладиган, катта ва кичикка меҳрибон, Ватанига содиқ, инсофли, диёнатли ва олийжаноб инсонлар бўлиб камол топадилар.

Демак, биз учун берилаётган имкониятдан унумли фойдаланиш хар биримизнинг ўзимизга боғлиқ. Тўқликка шўхлик эса ўзбек миллатининг ёшларига хос фазилат эмас. Аслини олганда, айрим ёшларимиз бундай лоқайдликдан йирок. Улар ўзларининг ҳур фикрлиги ва юксак маънавияти билан ажралиб туради. Бирок, гуруч курмаксиз бўлмагани каби инсонлар орасида хам маънавий кашшоқ кишилар йўқ эмас. Бундайларнинг лоқайдликлари натижасида “енгил ҳаёт” ихлосмандлари сафи ортиб бормокда. Окибатда китоб ўкиш унутилмокда. Маънавияти саёз, китоб ўқимайдиган инсонлар оиласида тарбия топаётган фарзандлар келажакда баркамол шахс бўлиб улғаймайди. Бу борада мамлакатимизда килинаётган ислохатлар

Маънавий ҳаётимизни юксалтиришда улкан аҳамиятга эга бўлган ана шундай муҳим вазифаларни комплекс ҳал қилиш, китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, ўзбек ва дунё адабиётининг энг яхши намуналарини интернет тармоқларига жойлаштириш ва уларни тарғ иб қилиш ҳамда кенг китобхонлар оммасига етказиш ишларини самарали ташкил этиш мақсадида:

1. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш буйича комплекс чора-тадбирлар дастури иловага мувофиқ тасдиқлансин:

Дастурда кўзда тутилган қуйидаги асосий вазифаларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилсин:

китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш, ноширлик ва матбаа соҳаларини янада ривожлантиришга оид норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, ижтимоий аҳамиятга эга

бўлган китобларни, айниқса, болаларга мўлжалланган адабиётларни чоп этишни давлат томонидан
қўллаб-қувватлаш;
китоб маҳсулотлари бўйича давлат буюртмасининг асосий йуналишларини шакллантириш, адабий-бадиий, ўқув-услубий, илмий-назарий, илмий-оммабоп ва кўргазмали адабиётларни чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, ихтисослаштирилган китоб дўконлари фаолиятини ривожлантириш;
жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини узбек тилига таржима қилиш буйича давлат буюртмалари бериш, уларни ко‘п нусхада юксак сифат билан нашр этиш ва молиялаштириш тизимини ё‘лга қо‘йиш, китоб тарқатиш тизимини янада ривожлантириш ва китоб маҳсулотларининг нархини шакллантириш ва сотиш бо‘йича аниқ механизмларни ишлаб чиқиш чораларини белгилаш;
ахборот-кутубхона фаолиятини кучайтириш, таълим муассасалари ахборот-ресурс марказларининг кутубхона фондлари, кутубхоналар, ташкилот ва муассасаларнинг “Маънавият хоналари”ни ўқув-услубий адабиётлар, адабий-бадиий, маърифий ва илмий-оммабоп китоблар билан бойитиш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш;
нашриётлар ва матбаа соҳаси мутахассисларини, бадиий ва техник муҳаррирлар, графикачи рассомлар, ахборот-кутубхона ходимларини тайёрлаш, малакасини ошириш ва рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш;
лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосидаги илмий-техник, адабий-бадиий ва энсиклопедик адабиётларни янада кўпайтириш бўйича аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш;

Узбекистон Миллий кутубхонаси ва ахборот-кутубхона марказларидаги барча турдаги ахборот-кутубхона ресурсларининг ягона базасини шакллантириш ва ундан бошқа ахборот-кутубхона муассасаларида туриб фойдаланишни таъминлаш;
қишлоқ аҳолисига кутубхона хизмати кўрсатиш тизимини ташкил этиш чоралари тўғрисида тадбирлар режаси лойиҳасини тайёрлаш;
мамлакатимизда интернет орқали зарур адабиётларни топиш ва харид қилиш имконини берадиган электрон ўқув қурилмаларини ишлаб чиқаришни ташкил этиш, уларнинг ахборот базасига умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари, олий ўқув юртлари учун дарсликлар, ўқув қўлланмалари, ўқув-услубий, илмий-назарий манбаларни жойлаштириш, бундай маҳсулотларни арзон нархларда сотиб олиш механизмларини йулга қўйиш бўйича таклифлар тайёрлаш;
мазмунан саёз, миллий маънавият ва қадриятларимизга, ахлоқ меъёрларига мос келмайдиган, ёшлар тарбиясига салбий таъсир ко‘рсатиши мумкин бўлган адабиётларни тайёрлаш, босиб чиқариш ва тарқатишнинг олдини олиш чораларини кўриш;
китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишга доир тарғибот ишларини тизимли ва самарали ташкил этиш, бу борада китобхонлар, кутубхоначи ва тарғиботчилар ўртасида “Энг китобхон мактаб”, “Энг китобхон маҳалла”, “Энг китобхон оила”, “Энг фаол кутубхоначи” каби
кўрик-танловларнинг саралаш ва республика босқичларини юқори савияда ўтказишни йўлга қўйиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.2.1\1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.МИРЗИЁЕВ
Тошкент шаҳри, 2017 йил 13 сентабр
2. Одилжон Нарзуллаев “Жоме” жоме масжиди имом хатиби
3. М.Ж. Мирзаев · 2020 - Китоб калб кузгуси .

## LINGVOPOETIKADA IJODKORNING KO‘CHMA MA`NODAGI SO‘ZLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

**Rahmatov Shavkat Shuhratovich**
**NDPI. Boshlang‘ich ta`lim kafedrasi o‘qituvchisi**

**Asoslov:** Yozuvchi badiiy til vositalaridan, so‘zlarning bir yoki ko‘p ma`noliligidan, so‘zlarning ko‘chma ma`noda ishlatilishidan hamda tasviriy vositalardan o‘z o‘rnida foydalansa, asarning mazmun va

mohiyati keng kitobxonlar uchun shunchalik tushunarli va ta`sirchan bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** so‘zning o‘z ma`nosi, ko‘chma ma`nosi, manosemantik so‘z, polisemantik so‘z, til vositalari, fonetik vositalar, leksik vositalar, sintaktik vositalar, maxsus ifoda vositalari, grammatik shakllar, matnning til xususiyatlari.

Barcha mashhur ijodkorlarning asarlari tildagi so‘zlarning o‘z asl ma`nolari bilan birgalikda, ularning ma`no tovlanishlaridan- ko‘p ma`noliligidan voqelikni badiiy aks ettirish maqsadida foydalanganligini ko‘rsatuvchi yorqin namunalardir. Yozuvchi badiiy til vositalaridan, so‘zlarning bir yoki ko‘p ma`noliligidan, so‘zlarning ko‘chma ma`noda ishlatilishidan hamda tasviriy vositalardan o‘z o‘rnida foydalansa, asarning mazmun va mohiyati keng kitobxonlar uchun shunchalik tushunarli va ta`sirchan bo‘ladi. So‘zning o‘z ma`nosidan tashqari boshqa ma`nolarini ifodalash uchun foydalanishiga so‘zning ko‘chma ma`nosi deyiladi. So‘zning ko‘chma ma`nosi esa adabiyotda ko‘chim (trop) termini bilan ifodalanadi. Ko‘chim biror narsa yoki hodisani ifodalash uchun so‘z yoki so‘z birikmalarining o‘z ma`nosidan boshqa ma`noda qo‘llanishini anglatadi. Ko‘chim tufayli badiiy nutqning ta`sirchanligi oshadi va turli stilistik vazifalari kuchayadi. Ko‘chma ma`noda qo‘llanilgan so‘zning o‘z va ko‘chma ma`nolari hamda ularning narsa va voqelikka bo‘lgan munosabatiga qarab, ko‘chimlar bir qancha turlarga bo‘linadi. Chunonchi, metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, allegoriya(majoz), simvol(ramz) ko‘chimning eng asosiy turlaridir.

Metafora qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, métafos - "ko'chirish", "majoziy ma'no" bir ob'ekt nomini boshqa ob'ektni tasvirlash uchun ishlatadigan, ma'noni biridan ikkinchisiga o'tkazadigan tropsdir. Metaforaning markazida - bir ob'ektning xususiyatlarini boshqasiga o'tkazish yoki taqqoslash yotadi. Metaforani ishonch bilan ko'pchilik mualliflarning eng sevimli yo'li deb atash mumkin.

Metonimiya- qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, myono - "nomini o'zgartirish", miya - "yuqorida" va ŏnomo / ŏnjuma - "ism" - bir so'z boshqa so'z bilan almashtirilib, u yoki bu tarzda bo'lgan narsa yoki hodisani bildiruvchi tushuncha. Agar metafora o'xshashlik bilan ko'chirilsa, metonimiya "qo'shnilik" orqali ko'chiriladi. Metonimiya ob'ekt, ob'ekt yoki hodisada o'z tabiatiga ko'ra boshqa barcha narsalarni almashtirishga qodir bo'lgan xususiyatni ajratib turadi.

Antiteza - qarama-qarshilikka asoslangan ekspressivlikning sintaktik vositasi. "Jinoyat va Jazo". Bir so'zning ma'nosini boshqa so'z yordamida, qarama-qarshi ma'noda ta'kidlash imkonini beradi.

Oksimoron - to'g'ri qarama-qarshi so'zlar yaqinida joylashgan. Masalan, “olovli muz” iborasi obrazli va jonli ravishda qahramonning ziddiyatli xarakterini yaratadi.

Alliteratsiya - bu tasvirlangan hodisaning tasvirini kuchaytiruvchi tovush effektlarini yaratadigan bir qator undosh tovushlarning takrorlanishi. Masalan: "Qor shovqinining ipak shitirlashida". S, Sh va sh tovushlarining kiritilishi shamol hushtaklariga taqlid qilish effektini yaratadi.

Assonans - ifodali badiiy tasvirni yaratish uchun unli tovushlarni takrorlash: "Mart, marsh - bayroqni silkit // Paradga yurish." Tuyg'ularning hissiy to'liqligini, umuminsoniy quvonch va ochiqlikning o'ziga xos tuyg'usini yaratish uchun "a" unlisi takrorlanadi.

Oksimoron - ma'no jihatdan qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning birikmasi, yangi tushuncha yoki tasavvur hosil qiladi. Bu aloqa keskin qarama-qarshi bo'lgan mantiqiy jihatdan mos kelmaydigan tushunchalardir.

Epithet - predmet yoki hodisaga urg'u beruvchi so'zning har qanday xususiyatlari, sifati yoki xususiyatlari epitet deyiladi.

Allegoriya - mavhum tushunchalarning konkret badiiy obrazlarda ifodalanishi: tulki - ayyor, quyon - qo‘rqoq, eshak - ahmoq va hokazo. Adabiyotda allegorik familiyalar ham qo‘llaniladi: Molchalin, Lyapkin, Tyapkin.

Ironiya - xuddi metafora kabi bir vaqtning o'zida so'z yoki ifodaning ikkita ma'nosini (to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma) uyg'otadi va ongda saqlaydi.

Paradoks - bir qarashda sog'lom fikrga zid bo'lgan, ammo paradoksda kinoya mavzusi bo'lib xizmat qiladigan o'sha oddiy gapdan ko'ra chuqurroq ma'noni yashiradigan bayonot, so'z.

Antiteza - stilistik qurilma va tushunchalar, belgilar, tasvirlarning qarama-qarshiligidir. Bu qarama-qarshiliklarni tasvirlash, hodisalarga qarshi chiqishga xizmat qiladi. Tasvirlangan hodisalarga muallifning nuqtayi nazarini ifodalash, tasvirlar va boshqalar.

Undov zarralari - his-tuyg'ularni ifodalash usulidir. Muallifning kayfiyati, emotsional pafos yaratish usuli hisoblanadi: Oh, sen qanday go'zalsan, mening yurtim! Va sizning dalalaringiz qanchalik yaxshi!

Undov belgilari hissiyotni ifodalaydi, ya`ni muallifning tasvirlangan narsaga munosabati (g'azab, istehzo,

afsus, quvonch, hayrat) aks etadi. Undov gaplarni ham ifodalaydi, harakat uchun motivatsiya beradi: Keling, ruhimizni ziyoratgoh sifatida saqlaylik!

Gradatsiya - stilistik figura ketma-ketligi in'eksiya yoki aksincha, zaiflashishi bilan solishtirganda, tasvirlar, epitet, metafora va boshqa ifodali badiiy nutq vositalari: Farzandingiz uchun, oilangiz uchun, xalq uchun, insoniyat uchun dunyoga g'amxo'rlik qiling!

Inversiya- bu atama lotincha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘zgartirish, ag‘darish” deb tarjima qilingan. So'zlarning yoki gap qismlarining odatdagidan teskari tartibda o'zgarishi hisoblanadi. Bu bayonotni yanada muhimroq, tishlash yoki rang-barang qilish uchun qilingan: "Bizning sabrli xalqimiz!"

Ijodkorlar nutqning ta`sirchanligini oshirish maqsadida turli xil til vositalaridan foydalanadi. Bu til vositalari quyidagilar:

Fonetik vositalar- tilidagi tovush hosil qiluvchi adabiy nutq vakillarining eng kichik guruhidir. Bu badiiy tasvirlarni tasvirlash uchun ma'lum tovushlar yoki fonetik guruhlarning takrorlanishi bilan so'zlarning maxsus ishlatilishidir. Odatda, shoirlar she’riyatda, asosan, lirik chekinishlarda turli xil manzaralarni tasvirlashda foydalaniladi.

Leksik vositalar - ekspressiv vositalar leksik-lingvistik darajada yozilgan she'riy yoki nasriy asarning ajralmas qismidir. Bular muallif tomonidan majoziy yoki allegorik ma'noda ishlatiladigan so'zlar yoki iboralardir. Barcha tillarda tasvir yaratish uchun eng katta leksik vositalar guruhi adabiy troplardir.

Sintaktik vositalar – bunda so‘z birikmasi gap va uning turlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish hamda gap bo‘laklarining joylashishi, gap tarkibida bir xil bo‘laklarning takrorlanib kelishi (masalan, *Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so‘raydi qadrin* (G‘.G‘ulom) she’rida aziz so‘zining takror kelishi, *Rozimasman bir yosh tomsa ko‘zimdan, rozimasman sal rang ketsa yuzimdan, Yo‘l oshsam-u, sal yashashdan adashsam, rozimasman unda tamom o‘zimdan* (H.Olimjon) she’rida rozimasman, sal so‘zlarining, *Har bahorda shu bo‘lar takror, har bahor ham shunday o‘tadi* misrasida har bahor birikmasining takror qo‘llanishi kabi hodisalar badiiy nutqda ta’sirchanlikni orttiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

**Maxsus ifoda vositalari –** neologizmlar, dialektizmlar (Grammatik shakllar), kasbiylik, jargon, argo, vulgarizm, varvarizm, kinoya va boshqalar kiradi.

Neologizmlar bizning hayotimizga nisbatan yaqinda kirib kelgan tilning majoziy vositalaridir (gadjet). Ular ko'pincha adabiy matnda yoshlik muhitini va ilg'or foydalanuvchilar qiyofasini yaratish uchun ishlatiladi.

Dialektizmlar - so'zlar yoki grammatik shakllar, bir hudud aholisining so'zlashuv nutqida qo'llaniladi (kochet - xo'roz).

Kasbiylik - bu ma'lum bir kasb vakillari uchun xos bo'lgan so'zlar va iboralar. Misol uchun, printer uchun qalam, birinchi navbatda, raqamga kiritilmagan zaxira material va shundan keyingina hayvonlarning yashash joyi. Tabiiyki, matbaachi-qahramon hayoti haqida hikoya qiluvchi yozuvchi bu atamani chetlab o'tmaydi.

Jargon - ma'lum bir ijtimoiy doiraga mansub kishilarning so'zlashuv nutqida qo'llaniladigan norasmiy muloqot lug'ati. Masalan, matnning til xususiyatlari talabalarning hayoti haqida hayvonlar tanasining bir qismi emas, balki "imtihon qarzlari" ma'nosida "dumlar" so'zidan foydalanishga ruxsat beriladi. Bu so'z ko'pincha talabalar haqidagi asarlarda uchraydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bu yuqoridagi maxsus ifoda vositalari:

dialektizmlar, oddiy so‘zlashuv nutqi hamda ishlatilish doirasi chegaralangan qatlamga oid tushunchalarning barchasi ijodkorning til xususiyatlaridan nechog‘lik o‘rinli foydalanganligidan dalolatdir va bu yuqoridagi maxsus ifoda vositalarining qo‘llanishi har qanday asarning badiiy qimmatini oshiradi degan umiddamiz.

Keyingi ilmiy tadqiqot ishlarimizda bu yuqorida ta`kidlangan til vositalarining har birini misollar bilan tahlil qilish niyatidamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yo’ldashev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2009.3
2. TurniyozovN. Matn lingvistikasi (ma’ruzalar matni). -Samarqand, 2004
3. Turniyazova Sh.Hozirgi o’zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari.Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - T.: 1989.

# MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIYNING PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIDAGI TA'LIMIY-TARBIYAVIY FIKRLARI

**Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi**
**"Profi University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi**
**Navoiy filiali Pedagogika fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk alloma Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning o'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish, komil insonni tarbiyalash masalalarini aks ettiruvchi asarlari bilan pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, shuningdek bugungi kun amaliyotidagi ahamiyati yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** shaxs tarbiyasi, pedagogik qarashlar, xulq-odob qoidalari, komil inson, "Odob as-solihin" asari.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan… muhim masala bu - yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his qiladigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin, ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodlarimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo ask-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan." [1] degan fikrlari O'zbekistonda yashayotgan har bir ziyolini o'ylantirishi tabiiy.

Mohiyatga shu jihatdan yondashsak, bugun tarbiya masalasining har qachongidan ham muhimlik kasb etib, milliy jamiyatimiz uchun ijtimoiy ehtiyojiga aylanganligini sezamiz. Bu ehtoyojni qondirish esa ajdodlar merosiga qayta va qayta murojaat etish orqali amalga oshishini tajriba ko'rsatib turibdi. Demak, Sharq allomalari va pedagog olimlarining tarbiya va odob-axloqga oid asarlarini o'rganish barkamol avlodni tarbiyalashda hayotiy zaruratga aylangan.

Shunday asarladan biri Muhammad Sodiq Qoshg'ariy (1740-1843)ning "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi") kitobidir. Mazkur asar kundalik turmushimizda har kuni va har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq-odob qoidalarining majmuidir. Bu asar XIX asr boshlarida xalqimizning odob-axloq me'yorlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Sharq odob-axloqning ildizi va ilm tajribalar bilan to'yintirilgan vujudlardan iborat. Odamlar yashashlari, turmush tarzlarida kimliklarlarini, qandayliklarini namoyon qilib turganlar va hayoti davomida zarur ahmiyat kasb etib turuvchi xulq-odob qoidalariga tayanganlar. "Odob as-solihin" asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan odob va axloq qoidalari, ularning jamiyatdagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o'rni va roli to'g'risida atroflicha so'z yuritiladi.

Asar muqaddima, 7 bob va har bir bob 4 fasldan iborat bo'lib har bir bob ma'lum bir odob normasiga bag'ishlangan va fasllarida ushbu odobga oid qoidalar yoritilgan.

Asar muqaddimasida ushbu asarning yozilishilishining asl maqsadini ochib bergan bo'lib, insonning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishining ijtimoiy mohiyati yoritilgan. Asarda olg'a surilgan asosiy g'oya – insonlarning yaxshi xulq-atvorga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy va ma'naviy farvonlikni qaror toptirivchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iborat. Alloma mazkur g'oya muhiyatini sharhlar ekan ushbu masnaviyni keltirib o'tadi:

Beadab tanho na xudro dosht bad,
Balki otash dar hama ofoq zad.

Ma'nosi:

Adabsiz nafaqat o'zi uchun yomonlik qiladi
Balki butun dunyoga o't qo'yadi.[2]

Maqsad yo'lida yuruvchi ichki va tashqi odob qoidalari va yoqimli xulqlar bilan zeblangan va toza bo'lmasa u hayotda zaruriy natija erish olmaydi va hattoki jamiyatni ham buzishi mumkin.

"Odob as-solihin" asarining birinchi bobi "Izn so'rash va salomlashish, qo'l olib ko'rishish baynonida" deb nomlanadi va bu bob to'rt fasldan iborat. Birinchi fasl izn so'rash ya'ni bir kishining oldiga kirish uchun izn talab qilishda besh odob keltirilgan bo'lib avvali odob bu kimki bir kishining eshigigs borib kirishni istasa avvalo kelgangigini bildirish uchun eshkini ohista taqillatmoqligi lozimligi aytiladi. Agar uy egasidan ovoz chiqsa ichkariga kirish uchun izn so'raladi, javob kelmasa izn so'rash uch

marotabagacha bo'lishi mumkin, hattoki, har bir izn so'rash oralig'idagi vaqt to'rt rakaat nomoz o'qilish vaqti hisobida berilgan. Shu vaqt oralig'ida uy egasi tomonidan javob kelmasa kutib turilmasdan tezda qaytilishi aytilgan. Agar uy egasi sizning kimligingizni bilish uchun savol berganda uni gumonlantirmasdan o'zingizni  to'liq tanitishingiz keltirilgan. Ikkinchi faslda esa salomning odoblariga bag'ishlangan bo'lib, unda salomlashishning o'n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o'rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan munozaraga javob topish mumkin.  Muallifning fikriga ko'ra, salom bermak sunnat, javobi fazru ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning e'tirof etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq: kichik kattaga, otliq piyodaga, yuruvchi o'tirguvchiga, ozchilik ko'pchilikka, xohaga kirib kelgan kishi xona ichkarisida o'tirgan odamga salom berishi va ko'pchilik baravariga salomga alik olishi joizligi alohida e'tirof etilgan. Shu bilan bir qatorda salomning to'liq holatda berilishi va alikning ham to'liq olinishi muallif tomonidan ta'kidlangan. Bundan tashqari ushbu faslda qanday paytda salom berilmaslikning bir qancha holatlari keltirib o'tilgan.

Jamiyatni ham, tabiatni ham pok, muqaddas, mukammal, kamolot darajasida tutishda asosiy vazifa insonga yuklatilgan. Zero, Allohning yerdagi eng sharif xilqati inson bo'lib, Haq olamni u orqali boshqaradi. Chunki u boshqa mavjudodda yo'q aql, ong, til va pok qalbga egadir. Muhammad Soqid Qoshg'ariy ham jamiyatga har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashning barcha jabhalariga e'tibor bergan va "Odob as-solihin" asarning ikkinchi bobini uxlash, yo'l yurish va otga minish odoblariga bag'ishlagan va ushbu bobda islomiy odob-axloqdagi uxlashning yetti odobi keltirib o'tilgan bo'lib toza o'rinda, qiblaga o'ng tomon bilan yonboshlagan holda uxlash tana uchun ham foydali ekanligi bayon etilgan. Ushbu bobda libos kiyishning ham yetti odobi keltirilgan bo'lib, avvalo libos toza, sunnatga mos, takallufsiz kiyilishi kerakligi ta'kidlangan.

Asarning uchinchi bobi suhbat ahlining odobi va sharoiti haqida bo'lib, bunda shogirtning ustoz bilan suhbatida tavoze bilan yaxshilab quloq solib o'tirishi, har bir ishda ustoz bilan maslahatlashmoqlik kerakiligi uqtirilgan. Suhbat chog'ida beadab so'zlar so'zlash, yomon harakatdan o'zni tiyish, esnamaslik va so'zlovchining nutqini bo'lmaslik asosiy qoida sifatida keltiriladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy ushbu asarda oilaviy odob-axloq qoidalariga ham alohida o'rin ajratgan va "Odob as-solihin" asarining to'rtinchi bobi er-xotin va hammom odoblariga bag'ishlangan. Xotin kishi to'rt narsada ya'ni umrda, qomatda, molda va nasl-nasabda erdan past bo'lishi va to'rt narsada jamolda, chiroyli xulqda, odobda va iffatda erdan baland bo'lishini asosiy oilaning odob normasi qilib belgilagan. Erning xotiniga va oilasiga sahovat va muruvvat ko'rsatishi ta'kidlangan. Xotin kishi uyida xotinlarga taalluqli xizmlatlarni intizom bilan bajarishi, erning topganiga qanoat qilishi, erning molini iznsiz ishlatmasligi oilada xotin kishining asosiy odoblaridan ekanligi ko'rastilgan.

"Odob as-solihin" asari kishilarning yaxshilik va yomon kunlarigadi odoblar bayoni bilan ham tarbiyaviy asar hisoblanadi. Asraning beshinchi bobi kasal ko'rish, ta'ziya va musibat odoblariga bag'ishlangan. Hoh musulmon bo'lsin, hoh kofir kasal so'rash joiz ekanligi va har qanaqa kasallik bo'lmasin hol so'rash odobdan ekanligi aytilgan. Kasal yoniga borganda ochiq ko'ngil bilan suhbat qilish joizligi ta'kidlangan. Ahli musulmon uchun ta'ziya bildirish uch kun undan keyin joiz emasligi ta'kidlangan. Ushbu bobda keltirilishicha agar kishi ota-onasining qabrini hamisha ziyorat qilib tursa, ul kishi vafot etgandan so'ng uning qabrini farishtalar ziyorat qiladi.

Asarning oltinchi bobi ziyofat va yeb-ichish odobiga bag'ishlangan. Unda bayon etilishicha mehmonning izzat-ikromi uch kun va mehmonga toza va mazali taomlar qo'yiladi va mezbonning o'zi ham sherik bo'linadi. Ushbu bobda yeyish bilan ichish bayonidaki o'ttiz odobdan iborat, bunda ovqatlanishdan oldin va keyin qo'lni yovmoqlik lozimligi, taomni kattalardan oldin boshlamaslik, nonni o'ng qo'l bilan bo'laklarga bo'lib iste'mol qilmoqlik kabi odoblar keltirilgan.

Asarning so'nggi yettinchi bobi safar odobiga bag'ishlangan bo'lib unda musulmon kishi uchun tort safar farz ekangili ya'ni: avvalo haj safari, ikkinchisi ota-ona chaqirsa borish uchun, uchinchisi zolimning zulmini qaytarish uchun va so'ngisi ilm talabi uchun. Safarning foydalari bayonidaki unda besh ulug' foyda zikr qilinadi: avvalo g'am va anduh ketadi, ikkinchisi - kasb-sarmoya hosil bo'ladi, uchinchi - ilm olinadi, to'rtinchi - odob va axloq to'lishadi, beshinch – ulug'lar suhbati topiladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy muhit yuksalib, milliy qadriyatlar, urf-odarlat, milliy tarbiyamizga tayangan holda jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyish eta oladigan, ma'rifatli, aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok shaxsni tarbiyalash bugungi ta'lim tarbiya muassasalarining asosiy va muhim vazifasi bo'lib qolishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlodni o'tmishimizga hurmat, ma'naviy merosimizga muhabbat ruhida tarbiyalashni vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, ta'kidlash joizki, bu hurmat, bu muhabbat aslo ko'r-ko'rona bo'lmasligi, aksincha, teran bilimga, aqliy yetuklikga, erkin fikrlash va ma'naviy poklikga asoslangan bo'lmog'i lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev.Sh.M Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi //Videoselektor yig'ilishidagi nutq. – 15-iyun, 2017-yil ./https:/www.google.com
2. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy "Yaxshi kishilar odobi" (Odob as-solihin) <<Yangi asr avlodi>> 2002-yil
3. S.Xoshimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" darslik Toshkent. 2005
4. Buyuk yurt allomalari.Tuzuvchi U.Uvatov. – T.:"O'zbekiston" NMIU, 2018.-424 bet

## ZAMONAVIY O'QUV JARAYONINI TALQIN ETISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

**Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi (O'zbekiston)**
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida STEAM texnologiyasining o'rni va o'ziga xos xususiyatlari xususidagi fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, STEM, STEAM, texnologiya, san'at, "aql va qo'l".

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются роль и характеристики STEAM-технологии в современной системе образования.

**Ключевые слова:** образование, STEM, STEAM, технологии, искусство, «ум и рука».

**Abstract:** this article discusses the role and characteristics of STEAM technology in the educational system today.

**Keywords:** education, STEM, STEAM, technology, art, "mind and hand".

Bugun STEM qisqartmasi haqida ko'p bora eshitmoqdamiz. Bu atama XXI asrning boshlarida ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika atrofidagi martaba va o'quv dasturlariga murojaat qilish usuli sifatida kiritildi. AQSh va boshqa kompaniyalar butun dunyo bo'ylab raqobatbardosh bo'lib qolish uchun texnologik innovatsiyalarni kuchaytirishda davom etar ekan, STEMni ta'lim tizimiga integratsiya qilish harakati katta qiziqish uyg'ota boshladi. Bir so'z bilan aytganda, odamlar barcha yoshdagi talabalarga XXI asrda muvaffaqiyatli bo'lishlari va samarali rol o'ynashlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish orqali yoshlarimizni va iqtisodiyotimizni kelajakka tayyorlashni boshlash vaqti kelganini anglay boshladilar. Bir necha yil oldin, STEM ta'lim olamida mashhur so'zga aylanganidan so'ng yangi, juda o'xshash atama paydo bo'ldi - STEAM. Steamdagi "A" san'atga tegishli va bu qo'shimcha biz yoshlarimizni kelajakka qanday tayyorlashimiz kerakligida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda Art qo'shildi va endi STEAMni shakllantirdi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu ta'lim oluvchilarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori «Mens et Manus» (Aql va qo'l). Massachusets Texnologiya Instituti

bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o‘rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o‘quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko‘ra, 2011-yildan buyon STEAM-kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo‘lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi.

Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog’liq? Ko‘pgina mamlakatlarda STEAM-ta’lim ba’zi sabablarga ko‘ra ustuvor ahamiyatga ega: Yaqin kelajakda dunyoda va shuningdek O‘zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo‘ladi.

2014-yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan «STEAM forward» xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog’chalariga kiritish kerak.
- Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o‘rganish va olim bo‘lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.
- Qizlar uchun Steam-ta’lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibliligi tufayli, o‘g’il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.
- Science is fun! Ilm-fan quvnoq bo‘lishi kerak, u o‘quvchilar uchun qiziqarli va o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lishi kerak.[1]

1990-yillarda AQShda nisbatan yaqinda pedagogika fanida paydo bo‘lgan. STEAM ta'limi talabalarni beshta fan sohalari (S – Fan, T – Texnologiya, E – Muhandislik, A – San’at, M – Matematika) integratsiyasi orqali o‘qitish g‘oyasiga asoslanadi va ularni atrofdagi dunyoning real muammolariga asoslangan yaxlit ta'lim paradigmasiga birlashtiradi. Ommaviy raqamlashtirish va robotlashtirish muntazam ishlarga asoslangan ayrim kasblar bo‘yicha ishchilarga bo‘lgan talabni kamaytirishi, ijodiy kasblar bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan talabni oshirishi mumkin. Mehnat bozorlarini yangi sharoitlarga moslashtirish yo‘nalishlaridan biri inson kapitalini raqamli iqtisodiyot xatarlariga eng kam ta’sir ko‘rsatadigan va yangi iqtisodiyotda talabga ega bo‘lgan istiqbolli faoliyat sohalariga jalb etishdan iborat.[2] Ijodiy fikrlaydigan, tez moslasha oladigan, tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ta’lim tizimini jiddiy o‘zgartirish talab etiladi.[4]

Dunyo ta’lim tizimi misolida oladigan bo‘lsak, 2018-yilda Rossiyada talabalarning 45% STEAM mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ta’lim dasturlariga qabul qilindi.[3]

Zamonaviy iqtisodiy voqeliklar ilm-fan, texnologiya va san’at birgalikda o‘rganilganda va amaliyotda qo‘llaniladigan STEAM konvergentsiyasini rag‘batlantirishga asoslangan yangi ilmiy va ta’lim siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarurligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g’oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi. Bugungi kunda STEAM ta’limi asosiy global tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalanishga, shuningdek, barcha besh yo‘nalishni yagona ta’lim sxemasiga birlashtirishga asoslangan. Bunday ta’limning majburiy shartlari uning uzluksizligi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qilish imkoniyatidir mehnat guruhlari, ular g‘oyalarni to‘plashlari va fikr almashishlari mumkin.

Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarni egallab ulg‘ayadi. Kelajakdagi mutaxassislar keng qamrovli texnologiya, fan va muhandislik sohalari bo‘yicha keng qamrovli tayyorgarlik va bilimlarni talab qiladi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi uchun “Nimani o‘qitish” – Nima uchun o‘qitish” – Qanday o‘qitish" bugungi kunda dolzarbdir.[5] STEAM bizning farzandlarimizni – ixtirochi, innovator va yetakchilarning kelajak avlodini olimlar kabi izlanishga, texnologlar kabi modellashtirishga, muhandislar kabi dizayn qilishga, rassomlar kabi yaratishga, matematiklar kabi analitik fikrlashga va bolalar kabi o‘ynashga ilhomlantiradi. Shuning uchun ham aynan STEAMni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab qo‘llash dunyo va mamlakatimiz ta’lim tizimida ham dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko‘plab loyihalarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan STEAM ta’lim modelini joriy etish ko‘p jihatdan ta’lim tizimining yangi predmetli-makonli muhitini yaratishga xususan, ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini rivojlantirish, uning mazmuni, dasturiy va uslubiy ta’minoti, moddiy-texnik bazasini yangilashga bog‘liq.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://dzen.ru/a/X-UUPbWQzx1kK_ED?utm_referer=yandex.ru
2. Кузьминов Я. И., Сорокин П. С., Фрумин И. Д. Общие и специальные навыки как компоненты человеческого капитала: новые вызовы для теории и практики образования // Форсайт. — 2019. — Т. 13, вып. S2. — С. 19–41. — ISSN 1995-459X. Архивировано 11 января 2022 года.
3. Семенова Р. И., Земцов С. П., Полякова П. Н. STEAM-образование и занятость в информационных технологиях как факторы адаптации к цифровой трансформации экономики в регионах России // Инновации. — 2019. — Вып. 10 (252). — С. 58–70. — ISSN 2071-3010. Архивировано 24 мая 2021 года.
4. Степан Земцов, Вера Баринова, Роза Семёнова. Риски цифровизации и адаптация региональных рынков труда в России // Форсайт. — 2019. — Т. 13, вып. 2. — С. 84–96. — ISSN 1995-459X. Архивировано 24 мая 2021 года.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1. | MUSIQA TIL TANLAMAYDI<br>Abduqayumova Malika Mirzohid qizi (O‘zbekiston)<br>NavDPI, Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabasi<br>O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna (O‘zbekiston)<br>NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi | 5 |
| 2. | MUSIQA MASHG`ULOTLARINING NUTQIDA NUQSONI MAVJUD BOLALAR BILAN KORREKSION ISHLARDAGI ROLI<br>Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna (Chirchiq, O‘zbekiston)<br>Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o`qituvchisi<br>Flora Mannapova (Chirchiq, O‘zbekiston)<br>Chirchiq shahar 30-son Davlati ihtisoslashtirilgan ko`ptarmoqli maktabgacha ta`lim tashkiloti musiqa rahbari | 6 |
| 3. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTYAL TARAQQIYOTI VA UNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>Ermatova Gulnoz Pirimovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,PhD<br>Islmoilova Dilbar Amrullo qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi | 8 |
| 4. | TEATRLASHTIRILGAN O‘YINLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH<br>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna (O‘zbekiston)<br>Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | 10 |
| 5. | STEAM YONDASHUVI ASOSIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH<br>Xasanova Sh.B. (O‘zbekiston)<br>Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti, p. f. f doktori (PhD) | 12 |
| 6. | MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNING O‘RNI<br>Davlatova Zebo Haydarovna (O‘zbekiston)<br>NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi | 13 |
| 7. | EMOTSIONAL IRODAVIY SOHA VA UNI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANISHI<br>Ermatova Gulnoz Pirimovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi<br>Ergasheva Mohiniso Dilshod qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi | 15 |
| 8. | PRESCHOOL EDUCATION IS THE FOUNDATION UPON WHICH ALL FUTURE LEARNING IS BUILT<br>Garrido Gaspar Belben (Filippin)<br>Cambridge Assessment International Education | 17 |
| 9. | BOLALAR KVAZIDIALOGIDA NUTQIY AKT IFODASI<br>N.Musayeva NavDPI (O‘zbekiston)<br>Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi | 18 |
| 10. | INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY - KREATIV KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH.<br>Meyliyeva Nafosat Gulomovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi | 22 |

| | | |
|---|---|---|
| 11. | TALABALARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI<br>Murodova Dilfuza Djurakulovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,<br>To‘qboyeva Dilshoda Zayniyevna(O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi | 24 |
| 12. | “EVRIKA” TAJRIBA LABORATORIYASIDA 6-7 YOSH BOLALARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI<br>Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna (O‘zbekiston)<br>Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13.00.08 -Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtissosligi 2-bosqich tayanch doktoranti | 27 |
| 13. | MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARDA BOLALARDA IJODIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI<br>Nurmatova Iroda Toxtasinovna (O‘zbekiston)<br>Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta’lim metodikasi" kafedrasi o‘qituvchisi | 29 |
| 14. | СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ГДОО НА ЗАНЯТИЯХ В ЦЕНТРАХ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА<br>Масимова Кунел Илясовна (Ўзбекистон) воспитатель ГДОО №15 г. Зарафшан | 31 |
| 15. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH USULLARI VA METODLARI<br>O‘tamurodova Shohida Muhammudqulovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchi<br>Ikromova Durdona Muxiddin qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instiuti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi | 33 |
| 16. | МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА РЕФЛЕКСИВ ФАОЛИЯТ<br>Каршиева Шахноза Туракуловна (Ўзбекистон)<br>Навоий давлат педагогика институти ўқитувчиси | 34 |
| 17. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.<br>N.D.Nabiyeva (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti o`qituvchisi | 37 |
| 18. | MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHLARIDA KONSTRUKSIYAGA OID KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI<br>Джумаева Мохигул Маманазаровна (Ўзбекистон)<br>Термиз ДПИ ўқитувчиси | 38 |
| 19. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI<br>Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi (O‘zbekiston)<br>NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi | 42 |
| 20. | ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАРДА АЛТРУИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ<br>Egamberdiyeva Азиза Mustafayevna (O‘zbekiston)<br>f.f.d.(PhD) NavDPI, “Тарих” kafedrasi katta o‘qituvchisi | 44 |
| 21. | ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИДА ТОПИШМОҚЛАР ОРҚАЛИ БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ АНЪАНАЛАРИ<br>Ибрагимова Лизахан Авезовна (Ўзбекистон)<br>Нукус давлат педагогика институти Мактабгача таълим кафедраси катта- | 45 |

| | | |
|---|---|---|
| | ўқитувчиси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)<br>Елиубаева Хурлиман (Ўзбекистон) 1-курс магистрант | |
| 22. | ВЫРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА РУССКОЙ АВТОРСКОЙ СКАЗКИ<br>Чулиева Фотима (Узбекистан)<br>агистрантка направления «Русский язык и литература» НавГПИ.<br>Науч. рук: доц. Мардонова Ф.Б. (Узбекистан) | 48 |
| 23. | ILMIY TADQIQOT VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI<br>Usmonov Abdulla Abdumannopovich (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi | 50 |
| 24. | СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА<br>Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна (Узбекистан)<br>Преподаватель кафедры ДО НГПИ | 54 |
| 25. | SAHNALASHTIRISH FAOLIYATIDA PAPE-MASHE USULINING O‘RNI<br>O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna (O‘zbekiston)<br>NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi | 57 |
| 26. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA TARBIYACHIARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH<br>Maxbuba Sulaymanova Alimjonovna (Узбекистан)<br>NamDU tayanch doktoranti | 60 |
| 27. | BOLALAR O‘QISHGA VA YOZISHGA O‘RGATISH HAMDA NUTQINI O‘STIRISHDA GENDER XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH YO‘LLARI<br>S.Mansurova (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi<br>Sh.Ramazonova (O‘zbekiston) Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi | 63 |
| 28. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTIDOR RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI<br>Ermatova Gulnoz Pirimovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi<br>Sherbekova Nigina Sherzod qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi | 65 |
| 29. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY TARBIYANING AHAMIYATI VA UNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI<br>Yakubova Zilola Zikirovna (O‘zbekiston)<br>Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi | 67 |
| 30. | MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH<br>N. Musayeva (O‘zbekiston)<br>Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,<br>M. Xomidova (O‘zbekiston) Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 – kurs talabasi | 69 |
| 31. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLARNING ROLI<br>Xayrullayeva Marjona Sobirjon qizi (O‘zbekiston)<br>NavDPI. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi<br>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna (O‘zbekiston)<br>Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti | 70 |
| 32. | MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI<br>Ulug’berdiyeva Dilbar Qarshibekovna (O`zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta`lim kafedrasi katta o`qituvchisi<br>Jabbarova Zarnigor Oybekovna (O`zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi | 72 |

| | | |
|---|---|---|
| 33. | ART-TERAPIYA VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA QIZIQTIRISH<br>Ziyotova Umida (Ozbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi oqituvchisi | 73 |
| 34. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJALANTIRUVCHI MUHIT VA TA'LIM TARBIYANI STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH.<br>Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi<br>Sharipova Shaxina Avaz qizi, Amrilloyeva Mashhura Anvar qizi (O'zbekiston)<br>Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari | 75 |
| 35. | PEDAGOGIK KREATIVLIK DAVR TALABI.<br>Bozorova O'.K (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika institute Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi | 77 |
| 36. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI<br>Suvanova Nodirabegim Sadir qizi (O`zbekiston)<br>NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o`qituvchisi | 78 |
| 37. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA SOG'LOMLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI<br>Hikmatova Jamila Fatoh qizi (O'zbekiston)<br>Navoi davlat pedagogika instituti o'qituvchisi | 81 |
| 38. | KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – TARAQQIYOT KAFOLATI<br>A.T.Ochilov (O'zbekiston)<br>Navoiy viloyati IIB boshqarmasi, podpolkovnik | 82 |
| 39. | IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI VA ROLI<br>Ochilova Gavhar Farxodovna (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi | 85 |
| 40. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RIVOJLANISHINING TARIXIY ASOSLARI<br>D.Allayarova (O'zbekiston)<br>Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda o`qitishning muqobil shakllarini tashkil etish sho'basi metodisti<br>D.Abdiyeva (O'zbekiston)<br>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlantirishni tashkil etish bo`yicha metodist | 87 |
| 41. | НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ. ФОРМЫ И СПОСОБЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ПРАКТИКЕ РАБОТЫ ДОО<br>Гадаева Г.Я. Зарафшанский отдел дошкольного и школьного образования Навоийской области, методист | 90 |
| 42. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ONA VATAN HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI<br>Qo'chqorova Fazolat Baxtiyorovna (O'zbekiston)<br>Navoiy viloyati Nurota tumani 10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti | 96 |
| 43. | MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLA TARBIYASIDA MILLIY O'YINCHOQ VA QO'G'IRCHOQLARNING ROLI<br>O'tamurodova Shohida Muhammadqulovna (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi<br>Ikromova Durdona Muxiddin qizi (O'zbekiston)<br>Navoiy viloyati Karmana tumani 25-DMTT tarbiyachisi | 97 |

| | | |
|---|---|---|
| 44. | ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА БОЛАЛАРНИНГ ГЕНДЕР ФАРҚЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИНИ ИНОБАТГА ОЛИШ<br>Мансурова Сурайё Равшановна (Ўзбекистон)<br>Навоий давлат педагогика институти Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси,<br>Ахматова Шахноза (Ўзбекистон)<br>Навбаҳор туманидаги МТБга қарашли 4-сонли “Қалдирғоч” МТТ тарбиячиси | 99 |
| 45. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT MAZMUNI<br>Mamatova Charos Alisher qizi (O‘zbekiston)<br>Karmana tuman maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limi metodisti<br>Alimova Mohira (O‘zbekiston)<br>Karmana tuman 7-son MTT tarbiyachisi | 101 |
| 46. | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРИЗ - ТЕХНОЛОГИЮ<br>В СОВРЕМЕННОЙ ДОШКОЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ<br>З.Т.Жалолова Воспитатель Зарафшанский отдел дошкольного и школьного образования ГДОО №3 «Буратино» | 104 |
| 47. | UCHINCHI RENESANS MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOSHLANADI<br>Ibragimova Gulnora Musa qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy shahar 6 – DMTT | 105 |
| 48. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ASOSIDA BOLALARNI UMUMIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI<br>Ibragimova Nodira Muso qizi (O‘zbekiston)Navoiy shahar 6-sonli DMTT tarbiyachisi<br>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna (O‘zbekiston)<br>Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti | 107 |
| 49. | МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ГЕНДЕР ФАРҚЛАРИНИ ҲИСОБ ОЛИБ ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ<br>Сурайё Мансурова (Ўзбекистон)<br>Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази, Мактабгача, бошланғич ва махсус таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси<br>Гулноза Жалолова, Мақсуда Баракаева (Ўзбекистон)<br>Навоий шаҳар 34 МТТ тарбиячилари | 110 |
| 50. | ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ<br>Мейлиева Нафосат Гуломовна (Узбекистан)<br>Навоийского государственного педагогического института преподаватель кафедры дошкольного образования<br>Насиба Кенжаева (Узбекистан)<br>Студентка 1-курса, направление «Дошкольное образование» НГПИ | 113 |
| 51. | ZAMONAVIY O‘QUV JARAYONINI TALQIN ETISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA CHET TILLARNI O‘QITSHNING AHAMIYATI<br>Narmuradova Rayhon Uktamovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi | 115 |
| 52. | BOLA HAYOTIDA ERTAKLARNING AHAMIYATI. BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARINING ROLI<br>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna (O‘zbekiston)<br>NavDPI 1-kurs magistranti | 117 |
| 53. | UCHINCHI MING YILLIKNING ZAMONAVIY O‘QUV JARAYONINI TALQIN QILISHDA ILMIY INTEGRATSIYA<br>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi (O‘zbekiston)<br>Shahrisabz davlat pedagogika instituti1-kurs magistranti | 119 |

| | | |
|---|---|---|
| 54. | UCHINCHI MING YILLIKNING ZAMONAVIY O`QUV JARAYONINI TALQIN QILISHDA ILMIY INTEGRATSIYA<br>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi (O‘zbekiston)<br>Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi 1-kurs magistranti | 119 |
| 55. | MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJTIMOIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH<br>Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi (O‘zbekiston)<br>NavDPI, 1-kurs magistranti | 121 |
| 56. | BOLA HAYOTIDA ERTAKLARNING AHAMIYATI. BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARINING ROLI<br>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna (O‘zbekiston)<br>NavDPI 1-kurs magistranti | 124 |
| 57. | SADRIDDIN AYNIY ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI<br>Sh. Hikmatullayev (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti<br>Ilmiy rahbar R. Rajabov (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti | 126 |
| 58. | TURKISTON KO‘RGAZMA VA YARMARKALARIDA NAMOYISH ETILGAN MAHSULOT VA TOVARLARNING NARX-NAVOSI XUSUSIDA<br>J.X.Arziqulov (O‘zbekiston) NavDPI o‘qituvchi | 127 |
| 59. | ҚИЗИЛТЕПА ТУМАНИНИНГ ҚАДИМГИ ЁДГОРЛИКЛАРИ<br>Раҳмонов Ф. (Навоий. Ўзбекистон) Навоий педагогика институти магистранти<br>У. О. Нарзуллаев (илмий раҳбар)<br>Навоий педагогика институти доценти | 130 |
| 60. | TOMDI TUMANING TASHKIL TOPISH TARIXI<br>Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘li (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti, Tarix kafedrasi o‘qituvchisi<br>Xolmonov Ilhom O‘ktam o‘g‘li (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika tarix fakulteti 1-kurs talabasi | 132 |
| 61. | ОЛИЙ ТАЪЛИМДА СПОРТЧИ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ БЎЛИМЛАРИ ВА МАСАЛАЛАРИ<br>Д.Н.Бердиев (Ўзбекистон)<br>НавДПИ Жисмоний маданият назарияси кафедраси ўқитувчиси | 135 |
| 62. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISHDA TARBIYACHISINING KASBIY MAHORATI<br>Hazratova Shahnoza Hoshimovna (O‘zbekiston)<br>Nurota tumani 19-sonli DMTT musiqa rahbari | 137 |
| 63. | XVI-XVIII АСРЛАРДА МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ МУҲИТ ВА УНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ<br>А.С.Сайитов (Ўзбекистон)<br>НавДПИ, Умумий педагогика ва психология кафедраси катта ўқитувчиси | 138 |
| 64. | POWER POINT DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI<br>M.A. Sayitova (O‘zbekiston)<br>Samarqand-Filandiya instituti 1-kurs magistri | 141 |
| 65. | KECHIRIM EKSPRESSIV NUTQIY AKT SIFATIDA<br>Haydarova Dilafro‘z (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti | 143 |
| 66. | RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBALAR<br>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi (O‘zbekiston)<br>Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti | 144 |

| | | |
|---|---|---|
| 67. | MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN INTERFAOL USULLAR ORQALI ERTAKLAR BILAN TANISHISH<br>Islomova Shahlo Madat qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi | 147 |
| 68. | “VIDEOTOPISHMOQ” METODI ORQALI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH<br>Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi (O‘zbekiston)<br>O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi | 149 |
| 69. | YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV<br>Meyliyeva Nafosat Gulomovna (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika institut Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi<br>Xayriyeva Gulshan (O‘zbekiston)<br>Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi | 151 |
| 70. | INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH OMILI SIFATIDA<br>X.B.Alikulova NavDPI “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi | 153 |
| 71. | 7 YOSHLI BOLANING MAKTABGA TAYYORGARLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISH<br>Rashidova Madina Karimovna (O`zbekiston)<br>Navoiy viloyati Konimex tumani 12-sonli DMTT tarbiyachisi | 156 |
| 72. | TA’LIM MUASSASASINI BOSHQARISHDA TASHKILIY PEDAGOGIK TAMOYILLARNING UZLUKSIZLIGI<br>Ro‘ziyev Akmal Nosirdjonovich, Hamraboyev Ilhomjon Sotvoldiyevich, Rahmonov Shohruh Solijonovich (O`zbekiston)<br>Andijon FVB HFX O‘quv markazi o‘qituvchilari | 158 |
| 73. | МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ<br>С.А.Халилов (Ўзбекистон)<br>НавДПИ, Умумий педагогика ва психология кафедраси катта ўқитувчиси<br>Омонтурдиева Мунира (Ўзбекистон) талаба | 161 |
| 74. | BOLA TARBIYASIDA MULOQOTNING O‘RNI<br>S.A.Xalilov (O‘zbekiston)<br>NavDPI, Umumiy pedagogika va psixologiya<br>kafedrasi katta o‘qituvchisi<br>Mamasodiqova Diyora Zayniddin qizi (O‘zbekiston)<br>Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi | 163 |
| 75. | MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI TA’LIM NATIJADORLIGINI OSHIRISHDA STEM TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI<br>G'iyasova Nargiza Yunus qizi (O‘zbekiston)<br>Navoiy shahar 19-son DMTT defektolog-logopedi | 165 |
| 76. | INSON SALOMATLIGINI ZARUR DARAJADA TA’MINLAYDIGAN OMILLAR. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARGA–HIJOMANING FOYDA VA ZARARLARI<br>Turdiyev Shuhrat Berdiyevich (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti Tibbiyot fakulteti katta o‘qituvchisi<br>Teshayeva Zarnigor Yoriqulzoda (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti,Tibbiyot fakulteti talaba | 167 |
| 77. | BUXORO O‘G‘UZ SHEVALARIDA SON TURKUMINING QO‘LLANISHI<br>Allaberdiyev Alijon (O‘zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi dotsenti, PhD | 169 |

| | | |
|---|---|---|
| 78. | BOLALARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI<br>DSc. Davlatova Ra'no Haydarovna (O'zbekiston)<br>Xazratqulova Mashhura (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi | 172 |
| 79. | ТАЛАБАЛАРНИНГ КИТОБ ЎКИШ МАДАНИЯТИНИ ТИЗИМЛИ ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ<br>С.С.Майдонова –<br>Навоий давлат педагогика институти<br>"Умумий педагогика ва психология" кафедраси ўкитувчиси | 173 |
| 80. | LINGVOPOETIKADA IJODKORNING KO'CHMA MA`NODAGI SO'ZLARDAN FOYDALANISH MAHORATI<br>Rahmatov Shavkat Shuhratovich<br>NDPI. Boshlang'ich ta`lim kafedrasi o'qituvchisi | 175 |
| 81. | MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIYNING PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIDAGI TA'LIMIY-TARBIYAVIY FIKRLARI<br>Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi<br>"Profi University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi<br>Navoiy filiali Pedagogika fani o'qituvchisi | 178 |
| 82. | ZAMONAVIY O'QUV JARAYONINI TALQIN ETISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI<br>Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi (O'zbekiston)<br>Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi | 180 |



"MAKTABGACHA TA'LIM RIVOJLANISHINING YANGI IMPLUSLARI:
ILMIY TADQIQOTLAR, TIJORATLASHTIRISH,
RAQAMLASHTIRISH MASALALARI"
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2-kitob



© Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy-28.09.2023



Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Kengashining 20.09.2023-yil kunidagi 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

Bosishga ruxsat berildi: 20.09.2023-y. Qog'oz bichimi 80x64 1/8

Hajmi 24 bosma taboq. Adadi 100 nusxa.
Bosmaxona manzili: Navoiy shahri, Ibn Sino ko'chasi 45–uy,
NavDPI kichik bosmaxonasi